AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

AL-BUKHARI

Scientific journal

Amir Temur tavalludining 690-yilligiga bag‘ishlangan maxsus son

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

ISSN: 3030-3273

AL-BUKHARI

Scientific journal



ORIENTAL UNIVERSITETI

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

(Amir Temur tavalludining 690 yilligiga bag‘ishlangan maxsus son)

Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qaroriga muvofiq tarix va filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga “Al-Buxoriy” ilmiy jurnali kiritilgan.

Toshkent – 2026

Bosh muharrir:

Farhod Maksudov, tarix fanlari doktori (DSc)

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Malika Nasirova, filologiya fanlari nomzodi, professor

Mas’ul muharrir:

Govhar Rahmatova, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

“Al-Buxoriy”

ilmiy jurnalining tahrir hay’ati:

1. Azamat Ziyo	**t.f.d., akademik, professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
2. Zohidjon Islomov	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
3. Shorustam Shomusarov	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
4. Durdona Lutfullayeva	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
5. Komiljon Rahimov	**t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
6. Shamsiddin Kamoliddinov	**t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
7. Xolida Alimova	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
8. Aftondil Erkinov	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
9. Albert Burxanov	**t.f.d., akademik (Tatariston) – tahrir hay’ati a’zosi;**
10. Samal Tuleubaeva	**f.f.d., professor (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi;**
11. Sayfullo Mullodjanov	**t.f.d., professor (Tojikiston) – tahrir hay’ati a’zosi;**
12. Zilola Xudoyberganova	**f.f.d., professor (Turkiya) – tahrir hay’ati a’zosi;**
13. Akram Habibullayev	**t.f.d., professor (AQSh) – tahrir hay’ati a’zosi;**
14. Ashirbek Mo‘minov	**t.f.d., dotsent (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi;**
15. Murtazo Saidumarov	**f.f.n., professor (Saudiya Arabistoni) – tahrir hay’ati a’zosi.**

MUNDARIJA

Ahmadali Asqarov
Amir Temur buyuk sarkarda va daho davlat arbobi 4
Hojiakbar Hamidov
Amir Temur va Temuriylar davri san’ati namoyandalari tarixidan 13
Hamroyeva Orzigul Jalolovna
Temuriylar davridagi ilmiy-adabiy jarayon manbalari 24
Qo‘ldashev Sherali Temuralievich
Qo‘qon xonligi yozma manbalarida Amir Temur va Temuriylar tarixi yoritilishi 33
Ismatullayev Farxodjon Odiljonovich
Amir Temur tashqi siyosati va xalqaro munosabatlarda strategik yondashuv 43
Mamataxunov Nozim Azizovich
Amir Temur va Temuriylar davrida Xitoy bilan olib borilgan aloqalar 53
Bobojonov Islombek Usmonaliyevich
Amir Temur davrida Mamluklar sultonligi bilan olib borilgan aloqalar 61
Djurayev Ikrom Nematovich, Xurramova Sevinch Jamshid qizi
Amir Temur davlati uning ijtimoiy - iqtisodiy, madaniy hayoti 70
Xasanova Mashxura Jumanovna
Qasidalarda Temuriylar madhi 77
Qo‘chqarov Temurbek Baxromjon o‘g‘li
Temuriylar davrida Eronning geosiyosiy o‘rni 86
Sherzod Jo‘rayev Norovich
Temuriylar davri Hirot tarixchilik maktabi 95
Isakov Abdulahad Abdulvahobovich
Amir Temurning Yevropa hukmdorlari o‘rtasidagi elchilik munosabatlari, ayniqsa til va tarjimonlik masalalaridagi diplomatik munosabatlari 107
Ismatullayeva Zebo Shukurjonovna
Temuriylar davlatida xalqaro diplomatiya va pochta tizimining o‘rni 120
Bo‘riyev Islom Sobir o‘g‘li
Mirzo Ulug‘bek va Muhammad Xorazmiyning “yetti iqlim” nazariyasiga doir qarashlari qiyosiy tahlili 129
Yunusov Komiljon Alimdjanovich
Temuriylar tarixi davlat muzeyi ekspozitsiyasida qo‘lyozmalarni namoyish etish imkoniyati va ahamiyati 137
Sattorov Ulug‘bek Abdurazzoq o‘g‘li
Mustaqillik yillarida Amir Temur va Temuriylar merosi tiklanishida YUNESKOning o‘rni 148
Abdullayeva Gulandom Anvarovna
Robiya Sulton-Begim va Temuriylar saroyida ayollarning tarixiy o‘rni 157
Po‘latov Otabek Orifjon o‘g‘li
Temuriylar davrida hunarmandchilik tarmoqlari rivoji 163

AMIR TEMUR BUYUK SARKARDA VA DAHO DAVLAT ARBOBI
АМИР ТЕМУР ВЕЛИКИЙ ПОЛКОВОДЕЦ И ГЕНИАЛЬНЫЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ДЕЯТЕЛЬ
AMIR TEMUR WAS A GREAT COMMANDER AND A BRILLIANT STATESMAN

Ahmadali Asqarov
Nizomiy nomidagi O‘zMPU Tarix fakulteti professori, tarix fanlari doktori, akademik
Tel.: +998 90-937-55-87

Annotatsiya. Mazkur maqolada Amir Temur shaxsiyati, uning davlatchilik faoliyati va harbiy-siyosiy strategiyasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Uning Movarounnahrni birlashtirish yo‘lidagi harakatlari, markazlashgan davlat barpo etishdagi o‘rni va “Tuzuklar” orqali qonun ustuvorligini ta’minlash masalalari yoritilgan. Shuningdek, Amir Temurning shaxsiy fazilatlari, jumladan, ziyraklik, strategik tafakkur va diplomatik mahorat kabi xususiyatlari ochib berilgan. Ibn Xaldun va boshqa xorijiy olimlarning fikrlari asosida uning tarixiy shaxs sifatidagi bahosi ko‘rib chiqilgan. G‘arb va Sharq tarixshunosligidagi turli yondashuvlar solishtirilib, obyektiv xulosalar keltirilgan. Amir Temurning davlat boshqaruvi, harbiy san’ati va madaniyatlar uyg‘unligiga qo‘shgan hissasi uning jahon tarixidagi alohida o‘rnini belgilaydi. Uning merosi bugungi kunda ham siyosiy va ma’naviy ahamiyatga ega ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *Amir Temur, davlatchilik, Tuzuklar, strategiya, Movarounnahr, tarixshunoslik, Ibn Xaldun, siyosat.*

Annotation. This article provides a scientific and theoretical analysis of Amir Temur’s personality, his state activities, and military-political strategy. His efforts to unify Mawarannahr, his role in creating a centralized state, and the issues of ensuring the rule of law through the "Tuzuk" are highlighted. It also reveals the personal qualities of Amir Temur, including his intelligence, strategic thinking, and diplomatic skills. Based on the opinions of Ibn Khaldun and other foreign scholars, his assessment as a historical figure has been examined. Various approaches in Western and Eastern historiography are compared, and objective conclusions are drawn. Amir Temur’s contribution to state governance, military art, and the harmony of cultures defines his special place in world history. It is substantiated that his legacy still holds political and spiritual significance today.

Keywords: Amir Temur, statehood, constitutions, strategy, Mawarannahr, historiography, Ibn Khaldun, politics.

Аннотация. В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируется личность Амира Темура, его государственная деятельность и военно-политическая стратегия. Освещены его действия по объединению Мавераннахра, его роль в создании централизованного государства и вопросы обеспечения верховенства закона через "Уложения." Также раскрываются личные качества Амира Темура, такие как проницательность, стратегическое мышление и дипломатическое мастерство. На основе мнений Ибн Халдуна и других зарубежных ученых рассматривается его оценка как исторической личности. Сопоставлены различные подходы в западной и восточной историографии и сделаны объективные выводы. Вклад Амира Темура в государственное управление, военное искусство и гармонию культур определяет его особое место в мировой истории. Обосновано, что его наследие и сегодня имеет политическое и духовное значение.

Ключевые слова: *Амир Темур, государственность, Уложения, стратегия, Мавераннахр, историография, Ибн Халдун, политика.*

KIRISH

Amir Temur jahon tarixida nafaqat yirik sarkarda, balki kuchli davlat arbobi sifatida alohida o‘rin egallaydi. U XIV asrning murakkab siyosiy sharoitida parchalanib ketgan Movarounnahr hududini birlashtirib, markazlashgan va mustahkam davlat barpo etishga erishgan. Temur faoliyati nafaqat harbiy yurishlar bilan, balki davlat boshqaruvi, qonunchilikni shakllantirish, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash kabi muhim jihatlar bilan ham ajralib turadi. Ayniqsa, “Temur tuzuklari” orqali davlatni boshqarishning aniq qoidalari ishlab chiqilgani uning siyosiy tafakkuri yuksak darajada bo‘lganini ko‘rsatadi. Shu bois, Amir Temur merosini o‘rganish nafaqat tarixiy, balki zamonaviy siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni anglashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Amir Temur shaxsiyati va uning faoliyati turli davr va maktablarga mansub olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Sharq tarixchilari orasida Ibn Xaldun (2004) uning shaxsiga xolis va yuksak baho bergan bo‘lsa, Ibn Arabshoh (1992) asarlarida tanqidiy yondashuv ustunlik qiladi. Bu esa tarixiy manbalarda turli qarashlar mavjudligini ko‘rsatadi. G‘arb olimlari, jumladan, zamonaviy tadqiqotchilar Amir Temurni kuchli strateg va davlat islohotchisi sifatida baholaydilar. Sovet davri tarixshunosligida esa uning faoliyatiga biryoqlama, asosan salbiy munosabat bildirilgan. Mustaqillikdan keyingi tadqiqotlarda esa xolislikka intilish kuchayib, Amir Temurning davlatchilik, harbiy san’at va qonunchilik sohalaridagi xizmatlari

keng yoritilmoqda. Shu tariqa, mavjud adabiyotlar tahlili ushbu mavzuning ko‘p qirrali va bahslarga boy ekanligini ko‘rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda kompleks yondashuv asosida bir nechta ilmiy usullar qo‘llanildi. Jumladan, tarixiy usul orqali Amir Temur faoliyati muayyan davr kontekstida o‘rganildi. Taqqosiy tahlil usuli yordamida turli manbalardagi ma’lumotlar solishtirilib, ularning o‘xshash va farqli jihatlari aniqlandi. Manbashunoslik usuli orqali ilmiy va tarixiy asarlarning ishonchliligi va ahamiyati baholandi. Shuningdek, tizimli tahlil usuli orqali Amir Temurning davlat boshqaruvi, harbiy strategiyasi va qonunchilik tizimi o‘zaro bog‘liq holda o‘rganildi. Bunday yondashuv mavzuni har tomonlama chuqur va xolis tadqiq etish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Amir Temur 1336-yil 9-aprelda Keshda, Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida, amir Tarag‘ay Bahodirbek barlos oilasida tug‘ilgan, onasi Buxorolik Takina begim edi.

Temurbek yoshligidan ovchilik, kamondan nishonga o‘q uzish, qilichbozlik kabi harbiy o‘yinlar bilan mashg‘ul bo‘lgan. U tulporlarni saralab, ajrata oladigan mohir chavandoz va dovyurak bahodir bo‘lib yetishgan. Yoshligidan teran fikrli va idrokli, nihoyatda ziyrak va qobiliyatli inson bo‘lib voyaga yetgan. Yoshligidan atrofiga do‘st va maslakdoshlarini to‘play oladigan tashabbuskor, tinmay harbiy mashqlar o‘tkazib, o‘z harbiy bo‘linmasini shakllantirib borgan. Uning yoshlikdagi harbiy do‘stlari – Abbos Bahodir, Jahonshohbek, Qimori inoq, Sulaymonshohbek, Idiku Temur, Qarqara, Sayfuddinbek, Hindushoh va boshqalar bo‘lib, ularning barchasi umrbod bir-birlariga sodiq bo‘lishgan va Amir Temurning yaqin maslahatchilarining asosini tashkil etganlar. Otasi 1360-yilda vafot etgan. Ota-onasi yaqinlariga umrbod yaxshiliklar qilib, ularning ruhini shod etishni unutmagan.

Amir Temurning Movarounnahrni birlashtirish yo‘lidagi amaliy harakatlari 1360-yildan, qachonkim Tug‘luq Temur xizmatiga o‘tgan kundan boshlangan. Ma’lumki, XIV asrning 50-yillar oxirida Movarounnahr hukmdori amir Qozog‘on o‘limidan keyin mamlakat 10 ga yaqin mayda bekliklarga bo‘linib ketgan edi. Ularning har biri o‘zlarini mutloq hokim deb e’lon qilgan edilar.

Chig‘atoy ulusining Yettisuv va Sharqiy Turkiston hududlarida hukmronlik qilayotgan mo‘g‘ul xoni Tug‘luq Temurxon Movarounnahrda yuz bergan bu og‘ir siyosiy vaziyatdan foydalanib, 1360-yilda bu zaminga bostirib keladi va Movarounnahrni egallaydi.

Ulus beklari umumiy dushmanga qarshi birlashib kurashish o‘rniga, har tomonga qochib ketadilar. Tug‘luq Temurxon Xo‘jand yaqinida Sirdaryodan o‘tib,

Temurbekka, Hoji barlos va Amir Boyazid Jaloyirga yorliq yuborib, ularni o‘z huzuriga yetib kelishni talab etadi. Shunda Temurbek darhol ustozi Shayx Zaynuddin Tayobadiyga chopar orqali xat yuborib, maslahat so‘raydi. Piri ustoz chopar orqali yuborgan o‘z javobida: “Hozir Tug‘luq Temurxonning oldiga borib, uning ishonchini qozonginda, qo‘lidagi yoq-yoyni tortib olgin”, deb maslahat beradi. Oradan hech qancha vaqt o‘tmay, uch amir - Hoji barlos, Boyazid Jaloyir va Temurbek uchrashib, kengashadilar va ular Temurbekdan: “O‘z el-ulusimiz bilan Xurosonga ketaylikmi yoki Tug‘luq Temurxon qoshiga boraylikmi?” deb so‘raganlarida, Temurbek: “Tug‘luq Temurxonning huzuriga borsangiz ikki foyda, bir ziyon, Xuroson tomonga o‘tib ketishning esa, ikki ziyoni, bir foydasi bordir. Shunga qarab ish qilinglar” deb javob qiladi. Ammo, ular o‘z qavmi bilan Xuroson tomonga qochib ketadilar. Temurbek esa, Tug‘luq Temur huzuriga borib, uning xizmatiga o‘tadi va tezda Tug‘luq Temurxon ishonchiga kiradi. Biroq, uning o‘g‘li-taxt vorisi Ilyos xo‘ja bilan aloqasi murakkablashib, qayn og‘asi, ya’ni ko‘z ochib ko‘rgan umr yo‘ldoshining akasi amir Husayn bilan do‘stlashib, mo‘g‘ullarga qarshi kurashishga ahd qiladi. Afsuski, amir Husayn Temurbekning qayn og‘asi bo‘lishiga qaramay, o‘zining ochko‘zligi, ziqnaligi bilan do‘sti – Temurbekka Chinoz qal’asi yaqinidagi “Loy jangi”da xiyonat qilib, jangni tashlab ketadi. Natijada oraga sovuqlik tushadi. Nihoyat, ikki o‘rtada Movarounnahr uchun 1370-yilda Balx jangida amir Husayn yengilib, halok bo‘ladi.

Amir Temur 1370-yilda, Balx jangida, Movarounnahr hokimiyatini qo‘lga kiritib, o‘zi tuzgan davlatga 35 yil bosh bo‘ldi, 27 mamlakatni birlashtirib, buyuk imperiyani tuzdi. U o‘z imperiyasini Turon, ya’ni turkiy xalqlar davlati deb atadi. Shuning uchun uning nomidan chiqqan farmonlar “Men kim Turon hukmdori Temurbek so‘zim....” deb boshlangan. U tarixda Movarounnahr va Xuroson bekliklarining markazlashgan harbiy-feodal davlatga birlashtirgan buyuk davlat arbobi, Iskandar Zulqarnayn, Jaloliddin Manguberdi, Aleksandr Suvorovlar qatorida turgan harbiy sarkarda, turk davlatchilik tarixiga ilk bor mukammal qonunchilikni, mamlakatni qonun asosida boshqarishni kiritgan **daho** rahbar bo‘lib yetishadi.

XIV-XV asr arab dunyosida, Misr tarixchilar orasida jahon tarixidan o‘ta bilimdon Ibn Xaldun ismli tarixchi bo‘lib, u Amir Temur bilan bir necha marta uchrashib suhbatlashgan. Amir Temurning ilmiy va ma’naviy salohiyatiga tan berib, u haqda o‘z xotiralarini yozib qoldirgan Ibn Xaldun, o‘zining “Muqaddima” asarida: “**forslar va arablar dunyoda peshvo millatlik asrini o‘tab bo‘ldi, endi bu rol Amir Temur dahosi tufayli turklarning qo‘liga o‘tdi”** degan yuksak bahoni bergan. Ibn Xaldundek o‘tmishda Amir Temur shaxsiga to‘g‘ri baho bergan xorijiy olimlar bo‘lmasa kerak. Hatto yoshligidan Temur saroyida yashab, uning

soyasida tarbiya topgan ibn Arabshoh ham Amir Temur ruhiyatini tushunib yetmagan. Amir Temur Suriyaga harbiy yurishi davrida (1401-yil yanvar-fevral) Damashq qal’asida Amir Temur qo‘shini tomonidan asirga olingan Ibn Xaldun haqida eshitadi va uni zudlik bilan o‘z huzuriga olib kelishni buyuradi. Bundan xabar topgan buyuk olim qo‘rquvdan: Damashqdan qochish yoki Amir Temur huzuriga borishga ikkilanadi. Nihoyat, taqdirga tan berib, uning huzuriga boradi. Amir Temur esa buyuk olimga hurmat bajo keltirib, Ibn Xaldun bilan Sohibqiron o‘rtasida 35 kun bir necha bor davomli suhbatlar bo‘ladi. Ular bir-birlarini obdon o‘rganadilar. Ibn Xaldun Sohibqironga Alloh nasib etgan tarixiy vazifasini yuksak darajada bajarganligini ta’kidlaydi. Suhbat davomida Ibn Xaldunning buyuk alloma ekanligiga ishongan Amir Temur esa, unga hurmat bajo keltirib, Ibn Xaldun iltimosiga ko‘ra Damashq uchun arablarga yengil sulhga rozilik bildiradi. Amir Temur Ibn Xaldunni o‘zi bilan Samarqandga olib ketmay, “o‘z xalqingga xizmat etgil” deb Qohirada qoldiradi. Shundan keyin Ibn Xaldun Amir Temur serqirrali faoliyati va har jabhada iqtidorini yanada chuqurroq o‘rganish bilan shug‘ullanib, 7 jildlik “Ibratli kitobi”da Amir Temurning daholik iqtidori haqida o‘z xotiralarini yozgan.

Ibn Xaldunning yozgan xotiralarida Amir Temurga nisbatan biror marta ham salbiy o‘xshatishlar ishlatmay, uni hurmat bilan tilga oladi. Ibn Xaldun arab tarixchilari orasida Amir Temur shaxsiyatiga juda to‘g‘ri baho bergan daho bo‘lib, Amir Temur uning tasavvurida nafaqat “**yirik sarkarda va davlat arbobi, balki o‘ta bilimdon, o‘qimishli, o‘z davrining ma’rifatli kishilaridan biri”** bo‘lgan. Shukronalar bo‘lsinkim, 2025-yilda arabshunos o‘zbek olimi Said Komil Muhammad Karim Ibn Xaldunning “Asabiya” (ijtimoiy birdamlik) konsepsiyasi asosida yaratilgan 7 jildli “Ibratli kitobi”ning “Muqaddima”sining ikki jildini arab tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilib chop ettirdi. Ularni men obdon mukammal o‘qib chiqib, Amir Temurni tarixda kam uchraydigan daho siymo ekanligiga yana bir bor ishondim.

Darhaqiqat, Amir Temur ulkan saltanatning asoschisi va rahbari sifatida butun faoliyatini o‘z davlatining mustahkam asosi bo‘lgan yaxlit ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tizimni yaratish va saqlab qolishlikning nazariy prinsiplari, qonun va qoidalarini to‘g‘ri belgilashga qaratgan. Amir Temur fuqarolarning, davlatning hayotida tartib o‘rnatish mexanizmlari bo‘lib ishlaydigan qonunlarning belgilashni o‘zining eng yuksak burchi deb bilgan. Shu bois, u mamlakat qonunchiligining asosi bo‘lgan “Tuzuklar”ni farzandlari va nabiralari uchun, ularni Sohibqironga kamarbasta bo‘lib tarbiyalanishlarini istab, ona tili turkiyda yaratdi. Unga amal qilishni qat’iy yo‘lga qo‘ydi. Temur tuzuklarining turkiy tilda yozilgan asliyatining bir nusxasi Yaman qiroli Ja’far poshshaning kutubxonasida saqlanar ekan. Boburiy

allomalaridan Abu Tolib Muhammad Turbatiy haj safaridan qaytishda Ja’far poshsha ruxsati bilan uning kutubxonasida yaqin bir yil ishlab, tuzuklarni asl turkiy nusxasi bilan tanishadi va uni forsiyga tarjima qilib, Hindistonga qaytadi. Boburiylar farmoniga ko‘ra “Temur tuzuklari” forsiyda chop etiladi. Bu haqda ko‘p jildlik Hindiston tarixining muqaddimasida yozilganligi haqida akademik Bo‘riboy Axmedov o‘zining asarida eslaydi (Axmedov B., 2023:425-441). Endi, ma’ruzamning bevosita bayon etishga qaytsam, tuzuklarni qisqacha tahlil qilganda, bu Amir Temur davlatining boshqaruv qomusida:

Birinchidan, Islom axloq va odob normalari bilan uyg‘unlashgan davlat qonunchiligining yaratishga qat’iy e’tibor berildi, qonun chiqarish va farmoyishlar berish, odamlarni qonunlar bilan taqiqlangan ishlardan tiyish, har bir mansabdor shaxs o‘z vazifalarini adolat bilan bajarish va undan chetga chiqmaslik, qabul qilingan qoida va qonunlar, farmoyishlar bosh kuchga ega bo‘lishi hamda hukm faqat qonun bo‘yicha chiqarilishi lozim bo‘lgan.

Ikkinchidan, rahbarlarni tanlashda nomzodning ishchanligi, tashabbuskorligi, uddaburonligi, adolatparvarligi, uning tili bilan dilining birligi, axloq-odobi, vijdon va e’tiqod yakdilligi, o‘z qarorida qat’iy turabilishi kabi fazilatlari hisobga olinishi mezon qilib belgilangan.

Uchinchidan, tashqi va ichki siyosat yuritishda do‘st va dushman bilan qanday yo‘l tutishni bilish, ziyrak, hushyor, sergak bo‘lish, muomalada mulozamatli, farosatli bo‘lish, ezgu ishlarni ko‘proq qilish, bo‘htonga quloq solmaslik, xiyonatga yo‘l qo‘ymaslik, har bir rahbar uchun o‘z jamoasida, jamiyatda yaxshi fazilatlar bilan ibrat bo‘lishlikka intilish, arzgo‘yni eshita bilish va uni mushkuli yechimiga yordam berish ta’kidlangan.

To‘rtinchidan, davlat miqyosidagi muhim vazifalarni hal etishda soha bilimdonlari bilan maslahatlashish, janjalli masalalarda har ikkala tomonni xotirjam eshitish, ayniqsa dono kishilarning, birinchi navbatda, piru-ustozlar, shayxlar va olimlar fikriga quloq solish, qaror chiqarishda shoshma-shosharlikka yo‘l qo‘ymaslik talab etilgan. Amir Temurning o‘zi har bir muhim qaror qabul qilishda u yoki bu pirlari bilan maslahat qilishga odatlangan. Uning pirlari 4 ta bo‘lib, ular Shayx Shamsuddin Kulol, Shayx Said Baraka, Shayx Zayniddin Tayobodiy, Shayx Said Jurjoniylar bo‘lgan.

Bugungi kunda Amir Temur faoliyatiga baho berishda jahon ilmiy va badiiy ijod ahlida ikki xil yondashuv mavjud.

Sovet davri tarixshunosligida Amir Temur faoliyatiga baho berishda, bir yoqlama salbiy qarashlar hukm surdi. Uni bosqinchi, qonxo‘r, vahshiy qilib ko‘rsatishga moyillik kuchli bo‘ldi. Lekin, G‘arbiy Yevropa tarixshunosligida obyektivlik ancha yuqori bo‘lgan. Masalan, Germaniyalik professor Bert Fragner

“Amir Temurning ma’muriy islohotlari va ularning O‘rta Osiyo, Eron va Hindiston davlat idoralariga ta’siri” nomli maqolasida shunday deydi: Amir Temur hech qachon o‘zini Chingizxon izdoshi deb hisoblamagan. Shuning uchun ham u davlat boshqaruv ishida o‘ziga xos alohida diplomatik prinsiplar ishlab chiqqan. Amir Temurning davlatni boshqarish prinsiplari uning “Tuzuklar”ida o‘z aksini topgan. Bu bosh yo‘riqnoma Amir Temur faoliyatining ko‘p qirrali jihatlari va uning o‘zi qanday hukmdor bo‘lganligini namoyon etadi. Tuzuklar Amir Temurning davlat boshqaruv asnosida chiqarilayotgan qonunlar va farmonlari Temur va Temuriylar davlat asoslarini qurish va rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, ular har tomonlama puxta ishlangan, daho hukmdor qalbida Alloh irodasi sifatida pishib yetilgan Oliy Tangri amri darajasida talqin etiladi.

G‘arbiy Eron va Sharqiy Anadoliyadagi Qora Quyunli va Oq Quyunli turkman hukmdorlari Amir Temur va uning avlodlarini yoqtirmasalar-da, ammo farmon chiqarishda Amir Temur uslubini to‘liq qo‘llaganlar. Eron Safaviy shohlari, Shayboniy va Ashtarxoniylar, Xiva xonlari va Mang‘it amirlari, Qo‘qon xonlari ham farmon chiqarishda Amir Temur boshqaruvi tomonidan o‘rnatilgan namunalarga rioya qilganlar.

AQSH olimi Richard Nelson esa “Temur harbiy strateg va ulkan siyosatdon sifatida hozirgi davr talqini” nomli maqolasida ajnabiy g‘arb olimlarining Amir Temur shaxsi haqidagi xulosalarini 13-bandda bayon etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Amir Temur harbiy sarkarda sifatida o‘z jangchilarini doimo kurashchan vaziyatda tutgan. Dushmanni qattiq ta’qib qilish Temurga xos fazilat edi. U jangga uzoq tayyorlanish orqali tez va shiddatli hujum uyushtirishni afzal bilgan. Amir Temur “Tuzuklar”ida: “Noto‘g‘ri tanlangan holatda 1000 askar bilan turgandan ko‘ra, to‘g‘ri holatda turib, 10 ta askar bilan jangga kirish g‘alabaga olib keladi” deydi. Amir Temur harbiy yurishlar chog‘ida ko‘plab shaharlarni jangsiz taslim etish qobiliyatiga ega bo‘lgan. Chunki, unda oldiga qo‘ygan maqsadiga jangsiz erishish uslubi va diplomatik mahorati kuchli bo‘lgan. Amir Temur katta strategik sezgiga ega bo‘lgan **daho** edi. Amir Temurda jang paytida kerakli joyda bo‘la olishlikdek ajoyib fazilat mavjud edi. Bu unga dushmanlari uning maqsadini uqib olishga ulgurmasdan, o‘z vaqtida oqilona qarorlar qabul qilish va ularning bajarilishini nazorat qilish imkonini bergan. Jang maydonida Temurni paydo bo‘lishi armiyani og‘ir vaziyatdan olib chiqib ketishga doimo turtki bo‘lgan.

Amir Temur madaniyatlar aro yaxshigina ko‘prik o‘rnata olgan buyuk shaxsdir. Yutqiziqsiz maqsadga erishish Temur dahosining asosini tashkil etadi.

Amir Temur o‘z davrining shaxmat bo‘yicha jahon chempioni darajasidagi shaxmatchi bo‘lgan. U hatto donalari ikki barobar ko‘paytirilgan maxsus shaxmat taxtasini o‘ylab chiqqan.

Amir Temur dahosining yana bir muhim jihati shu ediki, u saltanat taraqqiyotini faqat bir milliy madaniyat doirasida ko‘rmasdan, aksincha turli madaniyatlarni qo‘shib, bugungi kungacha yashab kelayotgan Yevrosiyo g‘oyasini o‘z vaqtida shaxsan ishlab chiqqan birinchi shaxs edi. AQSH olimi Richard Nelson Amir Temur daholigiga qoyil qolib, “Hamma madaniyatlar ma’lum ma’noda o‘ziga xosdir, lekin ularning ilg‘or ibratli jihatlari vaqt o‘tishi bilan umumbashariy strategik qadriyatlar bilan uyg‘unlashib boradi. Temur bu nazariy imkoniyatni tushunib yetgan Markaziy Osiyodagi birinchi shaxs edi va uning taktik dahosi buni amalga oshirdi”, deydi.

G‘arb olimlari ta’kidlaganlaridek, “Uning imperiyasi turkiy-forsiy, qonunchilik sistemasi turkiy-mo‘g‘uliy, siyosiy-diniy tartibi-arabiy bo‘lgan”. Darhaqiqat, Amir Temur dahosiga nazar tashlar ekanmiz, - deydi Richard Nelson,- “uning yetuk davlat arbobi va buyuk sarkardalik dahosi turklarga xos jasorat, mo‘g‘ullarga xos shiddat va qattiq qo‘llik, o‘troq tub joyli aholi tabiatiga xos musulmonchilik iymon-e’tiqodini o‘zida mukammal mujassamlashtira olishida yorqin namoyon bo‘lgan”.

Amir Temur o‘z kamchilliklarini sergaklik bilan tushunar edi, lekin buni boshqalar kamchilligidan to‘g‘ri xulosa chiqarish bilan to‘g‘rilab borgan. Masalan, u To‘xtamishni bir ishni paysalga solishi, Boyazidni manmanligi, fors amirlarining o‘zlariga bino qo‘yishlaridan to‘g‘ri xulosalar chiqara bilgan.

Ajnabiy olimlarning yakdillik bilan kelgan xulosasiga ko‘ra: “**Amir Temur hozirgacha yashagan ajdodlar orasida ham, bundan so‘ng yashaydigan avlodlar orasida ham eng buyuk shaxs bo‘lib qolaveradi”.**

Bu adolatli yakdillik bilan qabul qilingan xulosaviy qaror 1996-yil oktyabr oyining oxirgi dekadasida Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan “Amir Temur va uning jahon tarixidagi o‘rni” mavzusida o‘tkazilgan xalqaro anjumanning yakuniy protokolida (18 ta xorijiy davlatlardan 38 ta olimlar qatnashgan) o‘z aksini topgan. Ana shu xalqaro anjumanning jonli va faol ishtirokchisi sifatida Amir Temur shaxsiga berilgan ushbu yuksak bahoni tasdiqlayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ахмедов Б. (1996) Амир Темур: тарих ва замон. – Тошкент: Ўзбекистон.

2. Амир Темур ва унинг жаҳон тарихидаги ўрни. 1996. Халқаро конференция материаллари. – Тошкент.

3. Ибн Арабшоҳ. (1992) Амир Темур тарихи. – Тошкент: Фан.
4. Ибн Халдун. (2004) Муқаддима. – Қоҳира: Дар ал-Фикр.
5. Ибн Халдун. (2025) Ибратли китоб (7 жилдлик). – Араб тилидан таржима. – Тошкент.
6. Карим С.К.М. (2025) Ибн Халдун таълимоти ва “Асабия” концепцияси. – Тошкент.
7. Нельсон Р. (2010) Темур ҳарбий стратег ва сиёсатдон сифатида // Илмий мақола. – АҚШ.
8. Темур тузуклари. (1991) – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт.
9. Ўзбекистон тарихи (кўп жилдлик). (2010) – Тошкент: Шарқ.
10. Fragner B. (2000) Amir Temur’s administrative reforms and their influence // Scientific article. – Germany.

REFERENCES:

1. Ahmedov B. (1996). Amir Temur: tarix va zamon. – Toshkent: O‘zbekiston. (In Uzbek)
2. Amir Temur va uning jahon tarixidagi o‘rni. (1996). Xalqaro konferensiya materiallari. – Toshkent. (In Uzbek)
3. Ibn Arabshoh. (1992). Amir Temur tarixi. – Toshkent: Fan. (In Uzbek)
4. Ibn Xaldun. (2004). Muqaddima. – Qohira: Dar al-Fikr. (In Arabic)
5. Ibn Xaldun. (2025). Ibratli kitob (7 jildlik). – Arab tilidan tarjima. – Toshkent. (In Uzbek)
6. Karim S.K.M. (2025). Ibn Xaldun ta’limoti va “Asabiya” kontseptsiyasi. – Toshkent. (In Uzbek)
7. Nelson R. (2010). Temur harbiy strateg va siyosatdon sifatida // Ilmiy maqola. – AQSh. (In Uzbek)
8. Temur tuzuklari. (1991). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot. (In Uzbek)
9. O‘zbekiston tarixi (ko‘p jildlik). (2010). – Toshkent: Sharq. (In Uzbek)
10. Fragner B. (2000). Amir Temur’s administrative reforms and their influence // Scientific article. – Germany. (In English)

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI SAN’ATI NAMOYANDALARI TARIXIDAN

ON THE HISTORY OF REPRESENTATIVES OF ART OF THE AMIR TEMUR AND TIMURID PERIOD

О ИСТОРИИ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ ИСКУССТВА ЭПОХИ АМИРА ТЕМУРА И ТЕМУРИДОВ

Hojiakbar Hamidov
Oriental universiteti professori, tarix fanlari doktori,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi,
Turon FA vitse-prezidenti, Turon xalq hofizi
Tel: +998 90-315-62-65

Annotatsiya. Mazkur maqolada Amir Temur va Temuriylar davrida shakllangan san’at va madaniyat muhitining rivojlanish jarayonlari hamda ushbu davr san’at namoyandalarining faoliyati yoritiladi. Ayniqsa, musiqa san’ati, bastakorlik, ijrochilik an’analari hamda ularning jahon madaniy merosiga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Shuningdek, Samarqand va Hirot kabi madaniy markazlarda san’at rivojining o‘ziga xos jihatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *Amir Temur, Temuriylar davri, san’at, musiqa, bastakorlik, madaniyat, Samarqand, Hirot.*

Annotation. This article examines the development of artistic and cultural life during the period of Amir Temur and the Timurids, as well as the activities of prominent representatives of art in that era. Particular attention is paid to musical art, composition, performance traditions, and their contribution to world cultural heritage. The study also highlights the unique features of artistic development in major cultural centers such as Samarkand and Herat.

Keywords: *Amir Temur, Timurid period, art, music, composition, culture, Samarkand, Herat.*

Аннотация. В данной статье рассматриваются процессы развития художественной и культурной жизни в эпоху Амира Темура и Темуридов, а также деятельность выдающихся представителей искусства данного периода. Особое внимание уделяется музыкальному искусству, композиторской и исполнительской традиции, а также их вкладу в мировое культурное наследие. Также анализируются особенности развития искусства в таких культурных центрах, как Самарканд и Герат.

Ключевые слова: *Амир Темур, эпоха Темуридов, искусство, музыка, культура, Самарканд, Герат.*

KIRISH

Amir Temur va Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida yuksak madaniy, ilmiy va badiiy taraqqiyot davri sifatida alohida o‘rin egallaydi. Ushbu davrda shakllangan sivilizatsiya nafaqat siyosiy va iqtisodiy jihatdan, balki san’at, adabiyot, musiqa va me’morchilik sohalarida ham ulkan yutuqlarga erishgan. Temuriylar davri madaniy muhiti o‘zining serqirraligi, estetik mukammalligi hamda ilmiy asoslanganligi bilan jahon sivilizatsiyasi tarixida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi.

Mazkur davrda faoliyat yuritgan san’at namoyandalari, hususan bastakorlar, sozandalar, xonandalar, shoirlar va musiqashunoslar o‘z ijodlari orqali nafaqat o‘z zamonining, balki keyingi davrlar madaniy taraqqiyotiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatganlar. Ayniqsa, Samarqand va Hirot kabi madaniy markazlarda musiqa va sahna san’atining rivojlanishi, ijodiy muhitning shakllanishi hamda ustoz-shogird an’analarining takomillashuvi muhim ahamiyat kasb etgan.

Shu bois, Amir Temur va Temuriylar davri san’ati namoyandalari faoliyatini o‘rganish, ularning ijodiy merosini ilmiy tahlil qilish hamda ushbu merosning zamonaviy san’at taraqqiyotidagi o‘rnini aniqlash dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati hamda san’ati masalalari tarixshunoslik va san’atshunoslikda muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu davrga oid ilmiy izlanishlar Sharq va G‘arb olimlari tomonidan turli davrlarda amalga oshirilgan bo‘lib, ular orasida tarixiy, adabiy hamda musiqashunoslik manbalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, Temuriylar davri tarixini yoritishda klassik tarixiy manbalar – Mirxondning “Ravzatus-safo” (1998) asari muhim o‘rin tutadi. Ushbu asarda Temuriylar davridagi ijtimoiy-madaniy hayot, jumladan, xalq sayllari, tomoshalar va san’at rivojiga oid qimmatli ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, Zahiriddin Muhammad Boburning (2002) “Boburnoma” asari ham o‘z davrining madaniy hayoti, xususan, musiqa va san’at namoyandalari haqida muhim tarixiy dalillarni taqdim etadi.

Temuriylar davri san’ati va musiqasini o‘rganishda Alisher Navoiyning asarlari alohida ahamiyatga ega. Uning “Majolis un-nafois”, “Mahbub ul-qulub”, “Mezon ul-avzon” (2000, 2001) kabi asarlarida nafaqat adabiyot, balki musiqa, bastakorlik va ijrochilik san’ati rivojiga oid muhim fikrlar va ma’lumotlar uchraydi. Navoiy o‘z asarlarida zamonasining mashhur san’atkorlari, sozandalar va bastakorlar faoliyatini tilga olib, ularning ijodiy merosini yoritib beradi.

Musiqashunoslik nuqtayi nazaridan esa Abdurahmon Jomiyning “Risolai musiqiy” (1987) asari Temuriylar davri musiqa nazariyasi va amaliyotini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Ushbu asarda musiqa ilmining nazariy asoslari, uning estetik va badiiy xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, Darvesh Ali Changiy, Najmiddin Kavkabiy va Abdulqodir Marog‘iy kabi musiqashunos olimlarning asarlari ham o‘sha davr musiqa madaniyati rivojini chuqurroq anglash imkonini beradi.

XX asr olimlaridan V.V. Bartold (1918) Temuriylar davrini tarixiy jihatdan o‘rganib, ayniqsa Ulug‘bek davrining ilmiy va madaniy yuksalishiga alohida e’tibor qaratgan. Uning tadqiqotlari Temuriylar davri ilm-fani va san’atining jahon sivilizatsiyasidagi o‘rnini aniqlashda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, Abdurauf Fitratning (1993) ilmiy ishlari o‘zbek musiqa madaniyati tarixini o‘rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot Amir Temur va Temuriylar davri san’ati namoyandalarining faoliyatini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda tarixiylik, tizimlilik va qiyosiylik tamoyillariga asoslangan ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Shuningdek, Temuriylar davriga oid yozma manbalar, jumladan, tarixiy asarlar, tazkiralar, musiqiy risolalar hamda badiiy adabiyotlar tahlil qilindi. Ayniqsa, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy, Mirxond kabi mualliflarning asarlariga murojaat qilinib, ularda keltirilgan ma’lumotlar ilmiy asosda umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Temuriylar davrida O‘rta Osiyoda maydonga kelgan buyuk tsivilizatsiya buyuk tarixiy shaxslarni - faylasuf va donishmandlarni, shoir va san’atkorlarni, me’mor va turli sohibi hunarlarni yetishtirdilarkim, ular o‘z navbatida jahon madaniy taraqqiyotini boyitishga hissa qo‘shganlar.

Shuning uchun ham Temur shaxsi, uning siyosiy, ijtimoiy faoliyati, falsafiy qarashlari besh yuz yildan ziyod jahon olimlarining diqqat markazida bo‘lib kelgan. O‘rta Osiyo tarixining bu yorqin va hayratomuz sahifalarini o‘rganish, uni barchaning ma’naviy mulkiga aylantirish hozirgi kunning ham muhim vazifasi bo‘lib qolmoqda.

Bu davr madaniyati, ilm-fani, san’ati, uning badiiy-estetik qadr-qiymati chuqur va to‘la o‘rganilgan deb ayta olmaymiz. Temur va temuriylar davri madaniyati va san’atiga aloqador manbalarning ko‘pchiligi o‘tgan asrlar mobaynida o‘zaro urushlar, to‘polonlar, tabiiy ofatlarda yo‘qolib, uning izlari kam qolgan. Sharqshunoslik institutidagi shu davrga aloqador minglab qo‘lyozmalar

haligacha to‘la ravishda o‘rganilmagan. Dunyo muzey va qiroatxonalarida saqlanayotgan manbalar, xujjatlarning barchasi to‘planib tarjima qilinmagan. Bunga sovet davridagi siyosiy va mafkuraviy ta’qiblar ham katta sabab bo‘ldi. Ming shukurki, bugungi kunda tarix g‘ildiragi bizning foydamizga aylanmoqda. Binobarin, Temur va temuriylar davri san’atini ham o‘rganish, hozirgi zamon san’ati taraqqiyotida uning boy an’analaridan foydalanish yo‘llarini izlash san’atkorlar va san’atshunoslik fanining qadrli va sharafli vazifalaridan bo‘lib kelmoqda, hamda bu sharafli ishlarni amalga oshirish jarayonlari keng qanot yozmoqda.

XIV asrning ikkinchi yarmida va XV asr boshlaridagi gavjum hayot Samarqandda musiqa, raqs va tomosha san’atining jonlanishiga olib kelgani turli yozma manbalarda va miniatyuralarda o‘z aksini topgan. Klavixo (1990:43) tantanalarni shunday ta’riflaydi: “Imperator o‘tirgan xiyobon yonida juda ko‘p sozanda, hofizlar va raqqosalar o‘tirmoqda. Musiqa sadolari ko‘kka yoyilmoqda. Shu kuni turli tomoshalar ko‘rsatildi, har bir san’atkor qiziq o‘yinlar ko‘rsatib, xalqni xursand qildi. Ularning o‘yini tomoshabinlar qiyqiriqlariga sabab bo‘lar, o‘zining serzavqligi bilan barcha tomoshabinlarni hayajonga solar edilar”. Shuningdek, Klavixoning yozishicha, Sohibqiron davlat ishlari va harbiy yurishlardan xorigan kezlarida shoirlarning she’rlarini, shuningdek, sozanda va hofizlarning hazin kuylarini tinglashni sevgan. Movarounnahr madaniyati, san’ati, ilm-fani ayniqsa Ulug‘bek zamonida yanada yuksak cho‘qqilarga ko‘tarilgan. Uning davrida ilm-fan bilan bir qatorda musiqa va raqs san’ati taraqqiy topib, Samarqand nafis san’at markaziga aylandi. Ulug‘bek faqat fan bilan mashhur bo‘lib qolmay, she’riyat va san’at bilan ham qiziqar, mushoiralarda qatnashar, san’at va adabiyot taraqqiyotiga hamda uning namoyondalariga ko‘maklashar edi.

XX asrning buyuk olimi professor Abdurauf Fitrat (1993:33) Ulug‘bek davrida Samarqandda ijod qilgan darvesh Ahmadiy, Qonuniy, Sulton Ahmad Naiy, musiqiy risola yozgan Hisoriy, Xorazmlik Hofiz, Ali Vafo, musiqa ilmi sohibi Mavlono Sohib Balxiy, Shahrisabzlik bastakor Abul Baraka, mashhur sozanda, Navoiyning muallimi Xoja Yusuf Burhon, Navoiyning tog‘asi Muhammad G‘aribiylar kabi o‘sha zamonning mashhur sozanda va bastakorlari nomini eslab o‘tadi. Mashhur musiqa olimi Xofiz Darvesh Ali Changiyning qalamiga mansub “Tuhfat us-surur” (1992) asarida aytilishicha, Ulug‘bek Mirzoning o‘zi ham musiqa olimlaridan sanalgan. “Muhit at-tavorix” (2020:284) tarixiy kitobida esa Ulug‘bekning o‘zi ijod etgan “Billujiy”, “Shodiyona”, “Axloqiy”, “Tabriziy”, “Usuli ravon”, “Usuli bahr” kabi musiqa asarlari xususida so‘z boradi. Ulug‘bek zamonida bog‘i maydonda “Chihil ustun”, “Chinnixona” kabi go‘zal qasrlar qurilib, unda ilmiy munozaralardan so‘ng mushoiralar bo‘lib, mamlakatning turli

tomonlaridan kelgan sozanda, hofizlar o‘z san’atlarini namoyish qilar ekanlar. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, o‘sha davr san’atkorlari safida yallachi ayollar va raqqosalar ham kam bo‘lmagan. Bu ma’lumotni Ulug‘bek davrini o‘rgangan mashhur olim V.V.Bartold ham tasdiqlagan (1918:45). Zaxiriddin Muhammad Bobur Alisher Navoiyning musiqa olami, hatto bastakorlikdan ham xabari bo‘lganini yozib, uning bir qator musiqalar ijod qilganini, jumladan, peshravlari, naqshlari borligini hikoya qiladi. Mashhur adabiyotshunos olim Natan Mallaev (1961:3) zanjirlangan she’r surati she’rladidan biriga asoslanib, uning kuyini Navoiy ijodiga tegishli ekanini ta’kidlab o‘tgan. “Majolis un-nafois” (2020) asarida Navoiy musiqa bilan shug‘ullangan shoirlarning nomlarini keltirar ekan, xorazmlik olim va shoir Xo‘ja Abdullo Vafoiy Xorazmiy XV asrda musiqa haqida risola yozganini ta’kidlaydi. Bulardan tashqari Binoiy, Muhammad G‘aribiy, Mavlono Shayxiy, Pahlavon Muhammad, Xo‘ja Abdullo kabi san’atkorlarning musiqiy taraqqiyotga qo‘shgan hissasi ta’kidlab o‘tiladi. Ushbu asarda Navoiy o‘z zamonasidagi mashhur sozanda va bastakor, o‘zining sevimli ustozi Xoja Yusuf Burhon nomini ham eslab o‘tadi. “Mahbub ul-qulub” (Navoiy, 2020) asarida esa mutrib va mug‘anniylarning musiqalarini inson ruhiga kuchli ta’siri to‘g‘risida ham qimmatli fikrlar bayon etadi.

“Mezon ul-avzon”da (Navoiy, 2001) Alisher Navoiy tuyuq, turkiy, orzuvoriy, muhabbatnoma, mustazod kabi xalq qo‘shiqlarining sakkiz turi va ularning vazn xususiyatlari haqida juda qiziqarli ma’lumotlar yoritadi. “Hamsat ul-mutahayyirin” (2011) asarida esa Navoiy Mavlono Ali Shohning tengi yo‘q sozanda, nazariyotchi ekanligini alohida ta’kidlab o‘tadi. Undan tashqari ustod Qulmuhammad, Xo‘ja Shahobiddin, Abdulla Marvardiy, Mavlono Binoiy kabi musiqashunoslarning musiqaga oid asarlar yozganini ko‘rsatib o‘tadi. Navoiy “Holati Pahlavon Muhammad” (1996) asarini o‘z davrining buyuk bastakori, 12 maqomning takomillanishida katta hissa qo‘shgan Pahlavon Muhammadning musiqiy ijodiga bag‘ishlab yaratgan.

Hirot musiqa madaniyati haqida Bobur ma’lumotlari ham katta ahamiyatga ega. Uning yozishicha, dong‘i chiqqan ustozlar Qulmuhammad Abdulla Marvardiy, Husayn Udiy, Darveshbek, Yusuf Ug‘loqiy (qubus chaluvchi), G‘ulom Shodiy, Shayx Noyi, Shayx Quliy (g‘ijjak)lar Navoiyning homiyligi tufayli o‘z san’atlari bilan shuhrat qozonganlar. Ular juda ko‘p naqsh va peshrav yo‘nalishlarini yaratganlar. Bobur 1506-1507-yillarda Hirotda bo‘lganida Bog‘i Safidda qurilgan maxsus tomoshaxonada o‘tkazilgan bazmda sozandalardan Xo‘ja Hofiz, Jaloliddin Mahmud Noyi, Shohi Bachcha, Hofiz Mirjon Samarqandiylar qatnashganini yozadi.

Professor Abdurauf Fitrat XIV-XV asrda Movarounnahr va Hirotda ijod qilgan mashhur sozandalardan Ishrat nomli cholg‘uni chaladigan ustod Abduqosim, Husayn Bayqaroning musiqiy muallimi, andijonlik Mavlono Yusuf Badiiy, tanburda bir tor orttirgan Mahmud Shayboniy, Abdulqodir Marg‘iloniy, Habibulla Changiy, Ali Shunqor, Mehtar Shamsiddin nogorachi, Mehtar Imom nog‘orachi, Alijon doira kabi o‘sha zamon musiqa ustalarining nomini sanab o‘tgan. Ushbu davrlarda Sulton Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy tashabbusi bilan qasr, saroy va ko‘rkam bog‘larda san’atkorlar to‘planib, o‘z hunarlarini namoyish etishi rasm bo‘lgan. Shoir Vosifiy shunday yig‘ilishlardan biri haqida quyidagilarni hikoya qiladi: bu bazmaro yig‘ilish Dilkushod bog‘ida bo‘lib, ularga badihago‘y, ustozlardan Hofiz Basir, Hofiz Mir, Hofiz Husayn Ali, Hofiz Sulton Mahmud, Shoh Muhammad xonanda, Siyohchi xonanda, Hofiz Abaxiy, Hofiz Turbatiy, sozandalardan Hasan Noyi, Qulmuhammad Udiy, Hasan Boloboniy, Muhammadiy, Hoji Qaxitoy Nayi, Ahmad G‘ijjakchi, Ali Kuchak Tanburiy kabi qator mashhur san’atkorlar taklif qilingan. Vosifiy o‘sha davr xonanda, sozanda va raqqosalarning ijrochilik san’ati nihoyat yuksak cho‘qqilarga ko‘tarilganini ta’kidlab, shunday yozadi: Qosim Ali Qonuniy degan bir sozanda bor ediki, u qonun sozini betakror mahorat bilan chalganda, barcha tinglovchilar barobar o‘rinlaridan turib, uzoq olqishlar edilar.

Vosifiy yana shunday tasvirlaydi: Mashhaddagi shahar maydonida bo‘lgan tomoshada bir ayol ashulachi Abdulloh Marvaridiy bastalagan va xalq ichida keng tarqalgan “Bayot” qo‘shig‘ini shu darajada ta’sirli ijro etganki, ijrodan so‘ng barcha yig‘ilgan yoshu-qari, ayolu-erkak uning san’atini uzoq muddat o‘rnidan turib olqishlaganligini yozadi. Ustoz Hasan Udiy, sozandalarining nodirlaridan bo‘lib, uning oldida boshqalar o‘zlarini uning shogirdlari qatorida tutib, undan faxrlanardilar. Ustod Husayn Noyi, kamolotga yetgan mashhur “Iroqi arab” va “Iroqi ajam” quylarini betakror ustalik bilan ijro etib, ulkan shuhrat qozongan edi.

Bobur ma’lumotlariga ko‘ra, Hirotning mashhur raqqoslaridan Sayd Badrning o‘zi kashf etgan Hurotiy nomli o‘yini yuqori darajada shuhrat toptirgan. Tehron muzeyida saqlanayotgan bir miniaturada Husayn Boyqaro saroyidagi bazmlardan bir lavha berilgan. Unda saroyning bir zalida o‘n ikki raqqosa davra aylanib, zavq va jilva bilan raqs ijro etmoqdalar, qo‘llari juda nozik uchmoqda, mayda qadam tashlab, barmoq uchida o‘ynamoqdalar. Raqqosalarning kiyimlari maxsus tikilgan. Bir xilda go‘zal saroyning ikkinchi qavatidan joy olgan sozandalar o‘yinga jo‘r bo‘lmoqda. Hirot raqs san’atini tasvirlovchi bunday miniatyura raqslari juda maroqli edi.

Umuman, Hirot xalq sayllari turli xildagi tomoshalar haqida Mirxondning “Ravzatus-safo” (1998) asarida ham juda qiziqarli ma’lumotlar keltirilgan.

Vosifiyning yozishicha, Hirotning Malik darvozasiga yaqin joyda, “tarabxona”, ya’ni maxsus tomosha ko‘rsatadigan maydon bo‘lgan. Unda sozanda, xonaning hofiz, raqqos va so‘z ustalarining chiqishlari muntazam o‘tib turgan, masxarabozlarning qiziq o‘yinlari ham ushbu san’at maskanida namoyish etilgan.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Sohibqiron Temur fikriga binoan, oddiy xalq orasida tarqalgan milliy cholg‘u asboblarimiz qonuniy ravishda hokim va lashkarboshilarning ijtimoiy va harbiy mavqeini belgilab beruvchi timsolga aylangan. Temur va Temuriylar davriga xos ma’naviy ko‘tarinkilik musiqa san’atini deyarli barcha jabhalari uchun keng imkoniyat yaratib berdi. Sozandalik va xonandalik, musiqa ta’limi, bastakorlik ijodi, musiqa ilmi - bularning barchasi kamol topib, rivojlandi, yuksaldi.

Asrlar qa’rida shakllangan an’anaviy ustoz-shogirdlik ta’lim tizimi keng quloch yoydi. Bu jarayonlarda nafaqat Temur saltanatining poytaxti Samarqandda, balki uning avlodlari – Shohrux, Ulug‘bek, Xusayn Bayqaro, Bobur va boshqalar davridagi Buxoro, Xiva, Kitob, Balx, Kobul shaharlarida ham qizg‘in kechdi.

O‘rni kelganda ushbu ma’lumotlarni ham yanada nazarda tutishni lozimki, Temuriylar davrining eng yirik vakillaridan biri bo‘lmish Alisher Navoiy san’atga alohida, nihoyatda yaqin bo‘lgan munosabati xaqida ham to‘xtalib o‘tishni joiz deb xisoblash mumkin. Musiqa ustozini hammadan ustun qo‘yib, “Ustozlar ustozi” deb ulug‘langan Alisher Navoiy o‘zi ham musiqa ilmga ega bo‘lib, bu borada muayyan asarlar yaratgani ma’lum.

Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyatida (1441-1501) musiqaning o‘ziga xos o‘rin egallaganligi tasodif emas albatta. Qolaversa, Navoiy taxallusining o‘zi ham nufuzli musiqiy ajam - “navo” so‘zidan o‘zak olingan. Alloma musiqiy asoslarni bolaligidan, alifbe saboqlari bilan o‘rgana bordi. Uning ustozi Xoja Yusuf Burhon o‘z davrining yirik musiqashunosi va bastakori edi. Navoiy ustozining she’rlaridan namuna keltirar ekan, mashhur Isfahon kuyining yaratilish tarixiga alohida to‘xtalib o‘tadi.

Bu ma’lumotlar Xoja Yusuf Burhon ijodining maqomlar shakllanishiga bevosita aloqasi bo‘lganligidan dalolat beradi. Zero, zikr etilgan kuy, aniqrog‘i, maqom (parda tizimi) temuriylar davridagi “Duvozdah” (o‘n ikki maqom) turkumi tarkibida o‘ninchi edi. Navoiy musiqa madaniyatini izchil e’tirof etishiga uning Xoja Yusuf Burhon qo‘lida ta’lim olgani, umri davomida musiqa san’atining namoyondalari bilan doimiy muloqotda bo‘lganligi ijobiy ta’sir qilgan. Shoirning tog‘asi Muhammad Ali G‘aribiy shular jumlasidandir. Navoiy ta’birida ushbu inson qator sozlarda yaxshi chalar edi. Alisher Navoiy (2000) “Majolis un-nafois” asarida, bastakorlardan Abdulla Marvarid, Hofiz Sharbatiy, Pahlavon Muhammad; xonandalardan Mavlono Ayni, Hofiz Qozoq; sozandalardan Xo‘ja Kamoliddin

Udiy, Ali Karmal, Xo‘ja Abdulloh Sadr; musiqiy risolalar mualliflari Jomiy, Binoiy, Mavlono Salimiy, Mavlono Riyoziylar Navoiyning eng yaqin do‘stlari bo‘lganlar.

Alisher Navoiyning qomusiy hamsasini besh qo‘shiq deb aytish mumkin. Ya’ni: “Hayratul abror” – falsafiy, axloqiy mazmunga ega qo‘shiq, “Farhod va Shirin” – jasorat va vatanparvarlik qo‘shig‘i, “Layli va Majnun” – betakror sevgi qo‘shig‘i, “Sabai sayyor” – vafodorlik qo‘shig‘i, “Saddi Iskandariy” – axloqiy qo‘shiq deb atalishi mumkin.

Alisher Navoiyning musiqiy ijodiyotiga bevosita aloqadorligini Zahiriddin Bobur ham e’tirof etgan. Alisher Navoiy naqshlar (ashula-cholg‘u asarlari) hamda peshravlar (cholg‘u asarlari) muallifi bo‘lganligi Boburnomada keltirilgan. Qolaversa, yarim asrdan keyin, ya’ni XVI-XVII asrlar bo‘sag‘asida yashab ijod qilgan olim Darvesh Ali Changiy shu davrdagi ommabop 24 usuldan - bir nechtasi Ulug‘bek, o‘n ikkitasi Husayn Bayqaro, yettitasi esa Alisher Navoiy qalamlariga mansub ekanligiga guvohlik beradi.

Temuriylar davrida yashab ijod etgan yana bir yirik musiqashunos Abdurahmon Jomiy (1414-1492) bo‘lgan. U Alisher Navoiyning ustozi bo‘lgani bilan ham mashhur. Ma’lumki, Jomiy (1987) musiqiy asarlar hamda “Risolai musiqiy”ning muallifidir. Asarning birinchi bo‘limida an’anaviy ravishda musiqaning kelib chiqishi, “musiqa” so‘zining mazmuni, san’atlarning burchi kabi masalalar yoritiladi. Jomiyning fikriga ko‘ra, musiqaning tarkibiy qismlarini o‘rganish “yanada go‘zal va nafis san’at” yaratish uchun kerakdir. Muallif o‘z fikrlarini o‘rtaga tashlar ekan, oldingi davrlar musiqa ilmi – (Abu Nasr Farobiy) hamda o‘z zamondoshlari tajribasiga tayanadi.

Risolaning ikkinchi qismida o‘sha davr mutaxassislari orasida keng tarqalgan usullar batafsil yoritilgan. Risolada yigirmadan ortiq usullar haqida ma’lumotlar bor. Shuni alohida qayd etish zarurki, Amir Temurning o‘zi xis tuyg‘ularga ta’sir imkoniyatlaridan bohabar bo‘lib, amaliyotda undan moxirona foydalangan.

Zamondoshlarning ko‘rsatmalariga binoan Temur saroyida o‘tkazilgan tantanalarda doimiy ravishda musiqachilarning ijrosini maroq bilan tinglab, yangi yaratilgan asarlarga baho berishni yaxshi ko‘rgan. Uning bu fazilatlarini merosxorlardan tortib, sarkardarlargacha butun saroy ahli yaxshi bilgan.

Amir Temurning musiqiy asboblarga bo‘lgan mehri uning harbiy yurishlari tasvirlangan ko‘pgina miniaturalar ham tasdiqlaydi. Temur va Temuriylar davrida musiqiy ijod va ijroning shiddat bilan rivojlanishi musiqiy risolanavislikka ham yuqori darajada ta’sir qilgan. Masalan, Zaynulobiddin Al-Husaynining qonuni ilmi va amali musiqiy, Najmiddin Kavkabiyning (Ашуров Б.Ш. 2008, 2009) “Risolai musiqiy”, “Risolai darbayoniy duvozdaxmaqom”, Darveshali Changiy asari,

“Tuhfat us-surur” (ya’ni, yana bir nomi “Risolai musiqiy”) bo‘lib, XII asr voqealari tasvirlangan, unda 350 ga yaqin bastakor, xonanda, sozanda va ularning homiylari haqida ma’lumotlar bor.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Amir Temur va Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida nafaqat siyosiy va iqtisodiy yuksalish davri, balki san’at va madaniyatning har tomonlama rivojlangan bosqichi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu davrda shakllangan madaniy muhit, ayniqsa, musiqa, adabiyot, me’morchilik va sahna san’ati sohalarida yuksak natijalarga erishilganini tasdiqlaydi.

Temuriylar davrida san’at namoyandalarining faoliyati davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlanganligi, saroy madaniyati va homiylik tizimining rivojlanganligi ijodkorlar uchun qulay sharoit yaratgan. Natijada bastakorlik, ijrochilik, musiqashunoslik va boshqa san’at yo‘nalishlari tizimli ravishda shakllanib, yuksak badiiy-estetik darajaga ko‘tarilgan.

Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk siymolar faoliyati Temuriylar davri san’atining yuksak darajada rivojlanganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, musiqa san’ati va uning nazariy asoslari chuqur ishlab chiqilganligi ushbu davr madaniyatining mukammalligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, Amir Temur va Temuriylar davri san’ati namoyandalarining faoliyati keyingi davrlar madaniy taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratgan bo‘lib, ularning merosi bugungi kunda ham o‘z ilmiy va amaliy ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi ilmiy-amaliy *takliflar*ni ilgari surish mumkin:

Temuriylar davri san’atiga oid manbalarni tizimli o‘rganish zarur. Ayniqsa, hali to‘liq tadqiq etilmagan qo‘lyozmalar va arxiv materiallarini ilmiy muomalaga kiritish muhimdir.

Musiqa va san’at tarixiga oid merosni raqamlashtirish hamda zamonaviy texnologiyalar asosida saqlash va targ‘ib qilish maqsadga muvofiqdir.

Temuriylar davri san’ati namoyandalarining ijodini o‘quv dasturlariga kiritish, ayniqsa oliy ta’lim muassasalarida san’atshunoslik va tarix fanlari doirasida kengroq yoritish lozim.

Temur va Temuriylar davrining yana bir eng mashhur san’at bilimdonlaridan biri Abdulqodir Marog‘iy ham umrining ko‘p qismini Temur va Temuriylar saroyida o‘tkazgan va bastakor sifatida 200 dan ortiq asar yaratgan. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Temur va Temuriylar davri san’ati namoyondalari tarixi

keyingi davrlar turkiy xalqlarining san’ati rivojiga ulkan poydevor vazifasini o‘tagani bilan nihoyatda bebaho va qadrlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ашуров Б.Ш. (2009). Наджмиддин Кавкабий ва унинг мусиқий рисоласи. Тошкент давлат педагогика университети Республика илмий-педагогик конференцияси материаллари. Тошкент.
2. Бартольд В.В. (1918). Улугбек и его время. Петроград: Академия наук.
3. Бобур З.М. (2002). Бобурнома. Тошкент: Шарқ нашриёти.
4. Фитрат А. (1993). Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи. Тошкент: Ғафур Ғулом.
5. Жомий А. (1987). Рисолаи мусиқий. Теҳрон: Cultural Heritage Press.
6. Клавихо Р.Г. де (1990). Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403–1406). Москва.
7. Маллаев Н. (1961). Ўзбек адабиётида ғазал ва унинг ривожида Навоийнинг роли ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1961. – № 1. – Б. 3.
8. Мирхонд (1998). Равзатус-сафо. Теҳрон: Islamic Culture Publishing.
9. Муҳаммад Амин Бухорий (2020). Муҳит ат-таворих. Тошкент: Фан. – 284-б.
10. Навоий А. (2000). Мажолис ун-нафоис. Тошкент: Фан нашриёти.
11. Навоий А. (2000). Маҳбуб ул-қулуб. Тошкент: Шарқ нашриёти.
12. Навоий А. (2001). Мезон ул-авзон. Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти.
13. Восифий (1994). Бадоеъ ул-вақоеъ. Тошкент: Шарқ нашриёти.

REFERENCES:

1. Ashurov B.Sh. (2009). Najmiddin Kavkabiy va uning musiqiy risolasi. Toshkent davlat pedagogika universiteti Respublika ilmiy-pedagogik konferensiyasi materiallari. Toshkent. (In Uzbek)
2. Bartol’d V.V. (1918). Ulugbek i ego vremya. Petrograd: Akademiya nauk. (In Russian)
3. Bobur Z.M. (2002). Boburnoma. Toshkent: Sharq nashriyoti. (In Uzbek)
4. Fitrat A. (1993). O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent: G‘afur G‘ulom. (In Uzbek)
5. Jomiy A. (1987). Risolai musiqiy. Tehron: Cultural Heritage Press. (In Persian)
6. Klavixo R.G. de (1990). Dnevnik puteshestviya v Samarkand ko dvoru Timura (1403–1406). Moskva. (In Russian)

7. Mallayev N. (1961). O‘zbek adabiyotida g‘azal va uning rivojida Navoiyning roli haqida // O‘zbek tili va adabiyoti. – 1961. – № 1. – B. 3. (In Uzbek)

8. Mirxond (1998). Ravzatus-safo. Tehron: Islamic Culture Publishing. (In Persian)

9. Muhammad Amin Buxoriy (2020). Muhit at-tavorix. Toshkent: Fan. – 284-b. (In Uzbek)

10. Navoiy A. (2000). Majolis un-nafois. Toshkent: Fan nashriyoti. (In Uzbek)

11. Navoiy A. (2000). Mahbub ul-qulub. Toshkent: Sharq nashriyoti. (In Uzbek)

12. Navoiy A. (2001). Mezon ul-avzon. Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti. (In Uzbek)

13. Vosifiy (1994). Badoe’ ul-vaqoe’. Toshkent: Sharq nashriyoti. (In Uzbek)

TEMURIYLAR DAVRIDAGI ILMIY-ADABIY JARAYON MANBALARI
SOURCES OF THE SCIENTIFIC AND LITERARY PROCESS DURING THE TIMURID ERA
ИСТОЧНИКИ НАУЧНО-ЛИТЕРАТУРНОГО ПРОЦЕССА ЭПОХИ ТИМУРИДОВ

Hamroyeva Orzigul Jalolovna
ToshDO‘TAU, O‘zbek adabiyoti tarixi va matnshunoslik kafedrasi, filologiya fanlari doktori, professor
Tel.:+998 97-777-67-36
E-mail: arguvon87@mail.ru

Annotatsiya. Temuriylar davrida adabiyot bilan bir qatorda ilm-fan ham yuqori pog‘onaga ko‘tarildi. Shoirlar nafaqat mahoratga ega bo‘lishlari, shu bilan birgalikda she’r ilmi nazariyasini ham mukammal bilishlari kerakligi zarurat bo‘lib qoldi. Temuriy hukmdor va shaxzodalarning e’tibor va adabiy ta’sir natijasida mavjud manbalardagi poetikaga oid nazariy masalalar davr she’riyatiga hamohang tarzda mukammallikka erishdi. Mavjud an’ana va nazariy qoliplar fors va turkiy she’riyatga moslashtirilgan holda qayta ishlandi, kamchiliklar tuzatildi. Poetika ilmi, ilmi bayon va ilmi maon haqidagi risolalarga sharhlar yozildi. Maqolada temuriylar davridagi qofiya ilmiga doir risolalar tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: *qofiya ilmi, poetika, risola, manba, sharh, matn, qofiya harflari, qofiya harakatlari.*

Annotation. During the Timurid period, alongside literature, science also rose to a high level. It became necessary for poets not only to possess skill, but also to have a thorough knowledge of the theory of poetry. As a result of the attention and literary influence of Timurid rulers and princes, theoretical issues related to poetics in existing sources reached a high degree of perfection in harmony with the poetry of the time. Existing traditions and theoretical frameworks were reworked and adapted to Persian and Turkic poetry, and their shortcomings were corrected. Commentaries were written on treatises concerning poetics, the science of expression, and the science of meaning. This article examines treatises on the science of rhyme from the Timurid period.

Keywords: *science of rhyme, poetics, treatise, source, commentary, text, rhyme letters, rhyme vowels.*

Аннотация. В эпоху Тимуридов наряду с литературой на высокий уровень поднялась и наука. Для поэтов стало необходимым не только обладать мастерством, но и в совершенстве знать теорию поэзии. В результате внимания и литературного влияния тимуридских правителей и

принцев теоретические вопросы поэтики, отражённые в существующих источниках, достигли высокой степени совершенства в гармонии с поэзией своего времени. Существующие традиции и теоретические модели были переработаны и адаптированы к персидской и тюркской поэзии, а их недостатки устранены. Были написаны комментарии к трактатам по поэтике, науке изложения и науке значения. В статье исследуются трактаты, посвящённые науке рифмы в эпоху Тимуридов.

Ключевые слова: *наука рифмы, поэтика, трактат, источник, комментарий, текст, буквы рифмы, огласовки рифмы*.

KIRISH

Temuriylar davrida yaratilgan poetikaga oid risolalarning aksariyatida uch ilm: aruz, qofiya va badiiy san’atlar alohida qismlar asosida taqdim qilindi. Fors va turkiy tilda parallel holda poetika ilmiga oid risolalar yaratildi. Arab, fors qofiyashunosligi ta’sirida turkiy qofiyashunoslik shakllandi, turkiy til qonuniyatlari asosida qayta ishlandi, takomillashtirildi. Temuriylar davridagi adabiy jarayon, xususan, poetika va mumtoz qofiya nazariyasiga oid risolalarning yaratilishi bilan bog‘liq jarayonni tarixiy genetik yondashuv asosida qiyosiy tahlil qilish yaxshi samara beradi. Davr adabiy jarayoni adabiy ta’sir va genetik aloqa natijasi o‘laroq takomillashgan. Temuriylar davridagi poetikaga oid risolalar mualliflari risola yozish sabablarini keltirish, ilmiy-nazariy qarashlarni taqdim qilish va misra va baytlar misolida tushuntirish asnosida mavjud manbalarga murojaat qilishgan, ba’zi o‘rinlarda ulardagi ilmiy qarashlarga tayanishgan. Adabiy aloqalar va ta’sirlar masalasi milliy adabiyotlar taraqqiyotini kafolatlaydigan omillardan biri ekani isbot talab qilmaydigan haqiqatga aylangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Maqola temuriylar davridagi poetikaga oid risolalar: Ahmad Xudoydod Taroziyning “Funun ul-balog‘a”, Abdurahmon Jomiyning “Risolayi qofiya”, Atoulloh Husayniyning “Risolayi qofiya”, “Badoye’ us-sanoye’”, Husayn Voiz Koshifiyning “Badoye’ ul-afkor” tadqiqiga bag‘ishlangan. Maqola davomida yuqoridagi manbalar tarkibiy tuzilishi va ilmiy-nazariy qonununiyatlarning berilishi, muallif uslubining o‘ziga xos jihatlariga tayanib tadqiq etiladi. Shu bilan birgalikda temuriylar davridagi ilmiy-adabiy jarayon borasida olib borilgan, xususan, aynan qofiya ilmiga oid risolalar qiyosiga bag‘ishlangan tadqiqotlarga mavzuni ilmiy asoslash maqsadida murojaat qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishi temuriylar davridagi poetikaga oid risolalar tadqiqiga bag‘ishlangani bois manbalarning tarkibiy tuzilishi, davr adabiy, ilmiy jarayonidagi ahamiyatini ko‘rsatish maqsadida qiyosiy-struktur, qiyosiy-tipologik metodlardan foydalanildi. Risolalarning yaratilishi sababi, muallif ilmiy uslubi borasidagi xulosalar biografik metodga tayanib keltirildi. Manbalardagi nazariy masalalar statistik metod asosida umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Temuriylar davridagi turkiy qofiya tadqiqiga bag‘ishlangan muhim manbalardan biri Ahmad Taroziyning “Funun ulbalog‘a” asari asaridir. Poetikaga bag‘ishlangan arab, fors tilidagi asarlar ta’siri natijasida yaratilgan “Funun ulbalog‘a” asari turkiygo‘y ijodkorlar talabi bilan yuzaga kelgan edi. Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asari poetika ilmiga oid arab, fors manbalardagi qonuniyat, munosabatlarning jamlanmasi bo‘lishi bilan birga unda bu ilmlarning ancha mukammal, takomillashgan ko‘rinishi aks etgan. Asarda adabiy tur, janr, badiiy san’atlar, vazn va qofiya ilmiga oid nazariy fikrlarning taraqqiy etganligini kuzatish mumkin (Тарозий А., 1996:2016). Ahmad Taroziy ilmlar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, tarkibiy qismlari, tushunchalariga izoh berar ekan, misollar, baytlar orqali tushuntiradi. “Ilmlar uchligi” tarkibining muhim qismlaridan biri qofiya va uning nazariyoti xususida “Funun ul-balog‘a”da keng ma’lumot berilgan. Ma’lumki, asarda muqaddimadan tashqari 5 qism keltirilgan, bu qismlarda olim adabiy tur va janrlar, ilmi qofiya, ilmi bade’, ilmi aruz va muammoning nazariy masalalarini yoritib berilgan. Ahmad Taroziy “Funun ul-balog‘a”da qofiyani bir umumiy “Al-fannus-soniy-fi-l-qofiya va-radif” sarlavha ostida tushuntiradi.

“Bilgilkim, majmui ulamo va fuzalo mazhabinda ahli tab’g‘a qofiya ilmin bilmak muhimdir” jumlalari bilan boshlangan bu qismda olim qofiyaga yuqori baho berib, uni “she’rning asli, asosi” sifatida baholaydi. Qofiyasiz she’r bo‘lishi mumkin emas. Olimning aytishicha, ba’zan qofiyasiz she’r ham uchrab turadi. Bu she’rga “harora she’r” deb nom berishgan. Qofiya munosabatida olimlar o‘rtasida ixtiloflar mavjud bo‘lib, “Funun ul-balog‘a”da ularga birma-bir e’tibor qaratilgan. Olim asarda qofiya nazariyasiga oid manbalar nomini keltirmaydi. Arab va ajam olimlarining fikrlarini o‘zaro qiyosiy o‘rganadi, turkiy adabiyotdagi holatni taqdim qiladi. Mumtoz qofiyaning turkiy adabiyotdagi o‘rnini belgilash maqsadida “she’rning asosi” sifatida qofiyani asosiy unsur sifatida taqdim etadi.

Garchi mumtoz qofiyaga oid risola bo‘lmasa-da, Alisher Navoiy va Z.M.Bobur poetika ilmiga oid asarlarida qofiyaga oid qarashlarini bildirib o‘tishgan. Ayniqsa, Boburning qofiya ilmiga oid maxsus asar yaratgani va bu asar

bizgacha yetib kelmaganligi haqida adabiyotshunoslikda bir qancha qarashlar mavjud.

Abdurahmon Jomiyning “Risolayi qofiya” asari temuriylar davri qofiya ilmi tadqiqiga bag‘ishlangan fors tilidagi muhim manbalardan biri bo‘lib, 1465-yilda yaratilgan. Jomiy ushbu risolasini Shamsiddin Qays Roziyning “Al-mo‘jam” asarining “Qofiya” qismiga asoslanib yozgan (Abdurahmon Jomiy, 1967). “Risolayi qofiya”ning bir qancha qo‘lyozma nusxalari mavjud bo‘lib, ulardan birini fan doktori A.Erkinov Berlin Davlat kutubxonasidan keltirgan. Bu nusxa “Aruzi Sayfiy Buxoriy” tarkibida “Risolai qofiyayi Mulla Jomiy” sarlavhasi asosida kiritilgan. Abdurahmon Jomiyning “Risolayi qofiya” asari dastlab nemis olimi Henri Bloshman tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib, olim “Prosody of Persians according to Saifi, Jami and others writers” (“Sayfi, Jomiy va boshqa ijodkorlarning forsiy she’rshunoslikka oid qarashlari”) nomli tadqiqotida Jomiy risolasini e’lon qilish bilan birga, tadqiqotning kirish qismida Sayfiy Buxoriyning “Aruzi Sayfiy” hamda Abdurahmon Jomiyning “Risolayi qofiya” asari xususida nazariy fikrlarini taqdim qiladi (Henri Blochman, 1972). Henri Bloshmanning bu tadqiqoti talabalar uchun mumtoz poetika ilmi, qofiya va aruz nazariyasini tushuntirishda qo‘llanma sifatida yaratilgan. Asar fors tilidagi qofiya ilmiga bag‘ishlangan muhim risolalardan biri bo‘lib, Jomiy Hamd (Boshlanma – H.O.), Muqaddima, Xotima qismi bilan birgalikda 8 qism (1. Bismillahi-r rohiani-r-rohim 2. Muqaddima 3. Hurufi qofiya (Qofiya harakatlari) 4. Harakoti qofiya (Qofiya harakatlari) 5. Mutarodif-u mutavotir va mutadorik-u mutaqorib va mutakovis 6. Muqayyadi mutlaq-u mujarrad 7. Uyubi qofiya 8. Xotima asosida qofiya ilmi bilan tanishtirgan. Risola an’anaviy hamd bilan boshlanadi. Jomiy risolaning Hamd qismida Allohga cheksiz hamd, Rasulimizga madhu sanolar aytgan holda asarning yozilish tarixi xususida ma’lumot berib o‘tadi. Fikrni she’riy - qit’a janri shaklida keltiradi.

Chu gul ba xanda daroyad labi amal zi nishot,

Agar zi gulshani lutfash vazad nasimi qabul.

Ya’ni: Labingning xursandchiligiga amal qilib gul xanda qilsun, Agar gulshanda shamol uning lutfini qabul qilsa.

Asardagi keyingi qism “Muqaddima” sarlavhasi ostida berilgan bo‘lsa-da, bu qism asarning muqaddimasi sifatida emas, qofiya ilmining muqaddimasi vazifasini bajargan. Jomiy bu qismda qofiya, radif, ridf so‘zlariga ta’rif beradi. Qofiya haqidagi risolalar kabi avvalida qofiyaga, umumiy tushunchalarga e’tibor qaratib, keyinchalik ularning qismlariga birma-bir to‘xtalib o‘tadi. Jomiy ajam shoirlari odaticha, qofiyani baytlar oxiridagi so‘zlarning takrorlanib kelishi sifatida

baholaydi. Biroq olim buning bir sharti - talaffuzda mustaqil bo‘lmasligini alohida ta’kidlaydi.

Jomiy o‘zigacha yaratilgan qofiya haqidagi risolalardan xabardor bo‘lgan, risola va muallif nomlarini keltirmasa-da, “ba’zilar jumlaning oxirini qofiya desa, ba’zilar raviy harfini qofiya deb atashadi” shaklida qofiyashunoslikdagi mavjud qarashlarni taqdim qiladi (Hamroyeva O. 2022).

Mumtoz badiiyat ilmi nazariyasiga bag‘ishlangan risolalar orasida Husayn Voiz Koshifiyning “Badoye’ ul-afkor fi sanoye’ ul-ash’or” asari muhim manbalardan sanaladi. Mumtoz poetika ilmi nazariyasiga bag‘ishlangan muhim manbalardan biri Husayn Voiz Koshifiyning “Badoye’ ul-afkor fi sanoye’ ul-ash’or” asaridir. Koshifiyning ushbu risolasi mumtoz poetikaning tarkibiy qismlaridan biri ilmi badi’ tadqiqiga bag‘ishlangan. Ilmi badi’ning aruz va qofiya bilan o‘zaro bog‘liq jihatlariga alohida e’tibor qaratilgan ushbu asar fors adabiyotining muhim manbalaridan biridir. Husayn Voiz Koshifiy o‘zigacha yaratilgan arabiy va forsiy tildagi risolalar va ilmiy manbalar bilan chuqur tanishgan holda ushbu asarini yaratgan. XV asr Xurosondagi ilmiy muhit bu asarning yuzaga kelishiga zamin yaratib berdi. Mumtoz poetika ilmining bilimdoni Abdurahmon Jomiyning poetika ilmi tarkibiy qismlaridan bo‘lmish aruz hamda qofiyaga oid “Risolayi qofiya” va “Risolayi aruz” asarlarining yaratishi, bu davr ilmiy muhiti yuqori pog‘onada ekanligidan dalolat beradi. Alisher Navoiyning aruz vazni nazariyasiga bag‘ishlangan “Mezon ul-avzon” asari esa turkiy tildagi ilmi aruz bag‘ishlangan muhim manbalardan biridir. Husayn Voiz Koshifiyning “Badoye’ ul-afkor fi sanoye’ ul-ash’or” asari ham shu davrda yaratilgan muhim manbalardan biri bo‘lib, muallif asar so‘zboshisida o‘z risolasini Hirot shohi Sulton Husaynga taqdim qilganini ta’kidlaydi. Sulton Husaynni adolatli hukmdor sifatida ta’riflab, “Badoye’ ul-afkor” uning e’tibori bilan yaratilganini ma’lum qiladi.

Mumtoz poetika ilmiga bag‘ishlangan ushbu asarda mumtoz she’r nazariyasi borasida bahs yuritiladi. Adabiy tur va janrlar, ularning o‘ziga xos xususiyati, badiiy san’atlar tavsifi asar mohiyatini belgilab bergan. “Badoye’ ul-afkor”ning matni olim R.Musulmonqulov tomonidan Moskvada e’lon qilingan bo‘lib, nashrga asarning faksimel nusxasi ham ilova qilingan (Камал ад-Дин Хусайн Ва-’из Кашифи, 1977).

Husayn Voiz Koshifiy asar so‘zboshisida “Badoye’ ulafkor”da mumtoz she’r ilmi, nazariyasi, janrlar, she’r qismlari, badiiy san’atlar, qofiya ilmi nazariyasi keltirilganini ta’kidlaydi. Koshifiy risolani yaratishda o‘zigacha yaratilgan barcha ilmiy manbalar bilan tanish bo‘lgan. An’aviy tarzda ularning uslubini davom ettirgan. Garchi asarda ularning nomlari keltirilmasa-da, san’atlar ketma-ketligi,

namunalarning berilishida bu holat ko‘zga tashlanadi. “Badoye’ ul-afkor” asari muqaddima, ikki bob va xotimadan iborat, boblar ma’lum tartib asosida she’r qismlari, janrlari, badiiy san’atlar haqida ma’lumot beradi. Muqaddima 4 fasldan tarkib topgan. Koshifiy fasllarni taqdim qilishda o‘ziga xos uslubga tayangan: har fasl so‘ngida maxsus ikki qismli “Nukta” va “Foyda” sarlavhasi ostida izoh qism keltirgan. Dastlabki fasl “She’r ta’rifi” haqida bo‘lib, she’rning o‘ziga xos xususiyatlari, yozilish tartibi xususida batafsil ma’lumot beriladi. Ikkinchi fasl “She’r na’vlari” xususida, Koshifiy umumiy xususiyatga ega bo‘lgan she’r shakllarini bir nom ostida birlashtiradi. Uchinchi faslda “Dar bayoni aqsomi she’r” sarlavhasi bilan qofiya va shakl jihatidan bir umumiy xususiyatga ega she’r shakllari haqida ma’lumot beriladi.

Husayn Voiz Koshifiy asarning Xotima qismida qofiyaga oid ilmiy-nazariy qarashlarni taqdim etadi. Bu qismda g‘azal va qasida janrlari to‘liq shaklda keltirilgan, ba’zi o‘rinlarda qasida va g‘azal baytlari bilan tanishtirish barobarida qofiya harflari, harakatlari va qofiya ayblari xususida ma’lumot keltiriladi. Koshifiy “Yakunlovchi qismning xulosalari” sarlavhasi ostida dastlab bir raqami ostida VII asrning mashhur notiqi Imom Hiraviydan qasida keltiriladi.

Ayo zi bahri tafoxur myxadaroti sipehr,
Hamisha dar harami hurmate tu, karda sujud!
Sabab vujud tu bud, ar na charkh vorunkor
Nayofaridi xud Vojib-al vujud, vujud.

Undan so‘ng qofiya harakatlari nomlari aks etgan, mumtoz qofiyaga oid fors tilidagi risolalarning deyarli barchasida keltirilgan bayt taqdim qilinadi.

Rass-u ishbo-u, hazv-u tavjih ast;
Boz majro-yu bad azust nafoz.

Ma’lumki, qofiya ilmi nazariyasiga ko‘ra qofiya harakatlari (oltita): rass, ishbo’, hazv, tavjih, majro, nafoz, ular qofiya harflari bilan yonma-yon joylashadi. “Badoye’ ul-afkor”da bu harakatlar, ularning o‘rni va joylashuvi borasida batafsil ma’lumot keltirilmaydi. Asarning keyingi qismlarida g‘azal, qasida, qit’a, ruboiy janriga oid she’riy parchalar to‘liq holatda taqdim qilinadi. Keltirilgan adabiy parchalarning aksariyati Kamol Xo‘jandiy qalamiga mansub bo‘lib, Koshifiy Kamoliddin Xo‘jandiyning badiiy jihatdan mukammal g‘azal va qasidalarini tanlab olgan. Keyingi qismlarda qofiya ayblari keltiriladi. Ayni o‘rinda Husayn Voiz Koshifiy bu sohaning yetuk mutaxassisi sifatida qofiya harf va harakatlardagi ayblarni (ixtiloflar) arab va fors tili she’riyati asosida alohida izohlagan. Olim o‘zigacha yaratilgan risolalardagi nazariy ma’lumotlarni qiyosiy o‘rgangan. Qofiyadagi ixtiloflar xususida to‘xtalganda, arab va fors adabiyotidagi farqli jihatlarni ko‘rsatadi, Shamsiddin Qays Roziyning “Al-mo‘jam” asariga murojaat

qiladi. “Badoye’ ul-afkor”dagi nazariy qarashlarning tamal toshi sifatida “Al-mo‘’jam”dagi ma’lumotlarga tayanadi.

Mumtoz poetika ilmining bilimdoni Atoulloh Husayniyning “Badoye’ us-sanoye’” asari badiiyat ilmi nazariyasi tadqiqiga bag‘ishlangan muhim manbalardan biri bo‘lib, olim ilmi badi’ tarkibida qofiyaning nazariy asoslarini taqdim qiladi.

XV asrning o‘rtalarida yashab ijod etgan shoir, olim Atoulloh Nishopuriy Husayniyning “Badoye’ us-sanoye’” asari ilmi bade’ga oid mukammal risolalardan biridir. “Badoye’ us-sanoye’”ning bir qancha qo‘lyozma nusxalari bo‘lib, risola dastlab 1974-yilda Dushanbeda Rahim Musulmonqulov tomonidan nashrga tayyorlangan. Risolaning o‘zbek tilidagi tarjimasini poetika ilmining bilimdoni A.Rustamov amalga oshirgan (Atoulloh Husayniy, 1981: 397). Asar an’anaviy hamd bilan boshlanadi. Atoulloh Husayniy risolaning so‘zboshisida aruz va qofiya ilmiga oid mukammal risola yozish niyatida ekanligini ta’kidlaydi. “Badoye’ us-sanoye’”ning “Muqaddima” qismi aruz ilmiga bag‘ishlangan, olim bu qismda zihof va bahrlarga oid ilmiy-nazariy qarashlarini taqdim qiladi. “Muqaddima”dan keyingi qismlar lafziy, ma’naviy va mushtarak san’atlar tavsifiga bag‘ishlanadi.

Atoulluoh Husayniyning “Risolayi dar qavoyidi ilmi qavofi” risolasi mumtoz qofiya ilmi nazariyasiga bag‘ishlangan mukammal manbadir (Atoulloh Husayniy, h.1393). Navoiyning “Majolis un-nafois”, Boburning “Boburnoma”, Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarlarida ilmiy salohiyatiga yuqori baho berilgan Atoulloh Husayniyning “Risola dar qofiya” asari 1487-yilda Alisher Navoiyning topshirig‘i bilan yozilgan. Ushbu risolaning “Risolayi qofiya”, “Risolayi dar qofiya”, “Risolayi vofiy dar qavoyidi ilmi qavofiy”, “Qofiya yo muntaxab maqta’a takmilul sanoye’”, “Risolai dar qavoyidi ilmi qavofi” nomlari ostidagi 80 dan ortiq qo‘lyozma nusxalari jahon kutubxonalarida saqlanadi. “Badoye’ us-sanoye’” asarining kirish qismida ham bu risolaning 79 nusxasi borligi aytiladi. Tehron va Tojikiston kutubxonalarida risolaning bir qancha nusxalari mavjud, qo‘limizdagi hij. 1393-yildagi nashri so‘zboshisida ham asar ikki nusxani solishtirish asnosida Fozil Abboszoda va Doktor Rajab Tavhidyon tomonidan Tehronda nashr qilingani aytiladi. Risola an’anaviy tarzda hamd bilan boshlanadi.

Atoulloh Husayniy risolani 9 qismga bo‘ladi. Qismlarni “Harf”atamasi ostida keltiradi: 1-harf. Qofiya ta’rifi 2-harf. Qofiya harflarining soni. Raviydan oldin va keyin keluvchi harflarning ifodalanishi 3-harf. Qofiya harflarining ifodalanishi (Raviydan keyingi harflar) 4-harf. Qofiya harakatlari xususida 5-harf. Raviy va uning o‘ziga xos xususiyatlari 6-harf. Qofiyaning taqti’ e’tiboriga ko‘ra turlari 7-harf. Qofiya otlariga tegishli bo‘lgan ayblar xususida 8-harf. Qofiya otlariga

tegishli bo‘lmagan ayblar xususida 9-harf. Hojib va radif haqida Atoulloh Husayniy qofiya ilmiga oid ilmiy-nazariy qarashlarni boshqa manbalarga tayangan holda, qiyosiy o‘rgangan holda taqdim qiladi. Shamsiddin Qays Roziyning “Almo‘jam, Nasiriddin Tusiyning “Me’yor ul-ash’or” asarlariga murojaat qilib, ba’zi o‘rinlarda ular bilan bahsga kirishadi. Ko‘rinib turibdiki, temuriylar davrida yaratilgan, qofiya ilmi tadqiqiga bag‘ishlangan risolalar o‘z strukturasi va uslubiga ega.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, temuriylar davrida poetika ilmining nazariy asoslari alohida uch ilm (ilmi segona) mustaqilligi asosida takomilga yetdi. Arab, fors adabiyotshunosligi ta’sirida shakllangan turkiy adabiyotshunoslik masalalari aruz, qofiya, badiiy ilmiga doir maxsus risolalarning yaratilishiga asos bo‘ldi. Dastlab bu uch ilm bir butunlikda poetikaga oid risolalar uchun adabiy material vazifasini bajargan bo‘lsa, temuriylar davriga kelib, ular alohida risolalar obyektiga aylandi:

- “Funun ul-balog‘a” asari – turkiy qofiyashunoslik nazariyasining dastlabki manbasi sanaladi. Ahmad Taroziy fors qofiyasini turkiy qofiya bilan qiyosiy o‘rgangan holda turkiy qofiya qonuniyatlarini ishlab chiqqan.
- Abdurahmon Jomiyning “Risolayi qofiya” va Husayn Voiz Koshifiyning “Badoye’ ul-afkor” asari muxtasar qo‘llanma sifatida o‘ziga xos uslubga ega.
- Atoulloh Husayniyning “Badoye’ us-sanoye’” asari qofiya va ilmi bade’ nazariyasining uyg‘un jihatlari aks etgan muhim manbadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdurahmon Jomiy. (2008) Risolayi qofiya. // Sharq mumtoz poetikasi. Hamidulla Boltaboyev talqinida. –T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopedisi, -B. 274-314.
2. Abdurahmon Jomiy. (1867) Risolayi qofiyayi Mulla Jomiy. Kalkutta.
3. Atoulloh Husayniy. (1981) Badoyi’ us-sanoyi’ (Forschadan A.Rustamov tarjimasi) –T., B. 397.
4. Atoulloh Husayniy. (h.1393) Risolayi qofiya. (Doktor Yusufbek Bobopur). Tehron.
5. Hamroyeva O.J. (2022)Temuriylar davridagi poetikaga oid risolalarda qofiya ilmiyning qiyosiy tadqiqi. Monografiya. -T., Bookprint.
6. Hamroyeva O.J. (2022)Mumtoz qofiyaning nazariy asoslari. O‘quv qo‘llanma. -T., Bookprint.
7. Jalolovna, HO (2022). Temuriylar davri risolalarida qofiya fanining takomillashtirilishi. *Amerika fanlararo tadqiqotlar va ishlanmalar jurnali , 10* , 342-348.

8. Камал ад-Дин Хусайн Ва-’из Кашифи.(1977) Бадаи- ал-афка-р фи-сана-и ‘ал-аш’ар (Новые мысли о поэтическом искусстве). Издание текста, предисловие, примечания и указатели Р. Мусульманкулова. – Москва: Наука.

9. Мусульманкулов Р. (1989) Персидско-таджикская классическая поэтика (X-XVвв) – Москва: Наука, –Б.240.

10. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy.(2016) Fununu-l-balog‘a. (Nashrga tayyorlovchilar H.Boltaboyev, J.Jo‘rayev) - T.: Mumtoz so‘z.

REFERENCES:

1. Abdurahmon Jomiy. (2008) Risolayi qofiya. // Sharq mumtoz poetikasi. Hamidulla Boltaboyev talqinida. – T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, -B. 274-314. (in Uzbek)

2. Abdurahmon Jomiy. (1867) Risolayi qofiyayi Mulla Jomiy. Kalkutta. (in Persian)

3. Atoulloh Husayniy. (1981) Badoyi’ us-sanoyi’ (Forschadan A. Rustamov tarjimasi) – T. (in Uzbek)

4. Atoulloh Husayniy. (h.1393) Risolayi qofiya. (Doktor Yusufbek Bobopur). Tehron. (in Persian)

5. Hamroyeva O.J. (2022) Temuriylar davridagi poetikaga oid risolalarda qofiya ilmiyning qiyosiy tadqiqi. Monografiya. -T., Bookprint. (in Uzbek)

6. Hamroyeva O.J. (2022) Mumtoz qofiyaning nazariy asoslari. O‘quv qo‘llanma. -T., Bookprint. (in Uzbek)

7. Jalolovna, H.O. (2022). Temuriylar davri risolalarida qofiya fanining takomillashtirilishi. Amerika fanlararo tadqiqotlar va ishlanmalar jurnali, 10, 342-348. (in Uzbek)

8. Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiy. (1977) Badoyi’ ul-afkor fi sanoi’ ul-ash’or (Yangi fikrlar she’riy san’at haqida). Matn nashri, kirish so‘zi, izohlar va ko‘rsatkichlar R. Musulmonqulov. – Moskva: Nauka. (in Russian)

9. Musulmonqulov R. (1989) Fors-tojik klassik poetikasi (X-XV asrlar). – Moskva: Nauka, -B. 240. (in Russian)

10. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. (2016) Fununu-l-balog‘a. (Nashrga tayyorlovchilar H. Boltaboyev, J. Jo‘rayev) - T.: Mumtoz so‘z. (in Uzbek)

QO‘QON XONLIGI YOZMA MANBALARIDA AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR TARIXI YORITILISHI
HE DEPICTION OF THE HISTORY OF AMIR TEMUR AND THE TIMURIDS IN THE WRITTEN SOURCES OF THE KOKAND KHANATE
ОСВЕЩЕНИЕ ИСТОРИИ АМИРА ТЕМУРА И ТЕМУРИДОВ В ПИСЬМЕННЫХ ИСТОЧНИКАХ КОКАНДСКОГО ХАНСТВА

Qo‘ldashev Sherali Temuralievich
Oriental universiteti v.b. professori, tarix fanlari doktori
Tel.:+998909268360
E-mail:sherali.kuldashev@gmail.com.

Annotatsiya. Ushbu maqolada, Amir Temur va temuriylar tarixiga oid ma’lumotlar Qo‘qon xonligi (1709-1876) qo‘lyozma asarlarida yozilishi haqida berilgan. Qirqqa yaqin turkiy, forsiy tillardagi manbalarda Amir Temur shaxsiy, temuriylar davriga oid ma’lumotlar, Oltin Beshik afsonasi haqida tahlil qilingan. Asarning Amir Temur va temuriylar davri tarixiga tegishli ma’lumotlar Sharofiddin Ali Yazdiyning (vafoti 1454) “Zafarnoma”, Muhammad bin Xovandshohning (1438-1498) “Ravzat us-safo”, 1552-yilda yozilgan Mavlono Ahmad ibn Muhammad al-G‘afforiyning “Tarixi Nigoriston”, Mirzo Muhammad Haydarning (1500-1551) “Tarixi Rashidiy”, Xondamirning (1475-1536) “Habib us-siyar” kabi o‘nlab asarlardagi ma’lumotlardan foydalanilganligi berilgan.

Kalit so‘zlar: *Amir Temur, temuriylar, Qo‘qon xonligi, Oltin Beshik, manba, qo‘lyozma asarlar, ilmiy tahlil, xulosa.*

Annotation. This article presents information on the history of Amir Timur and the Timurids written in manuscripts of the Kokand Khanate (1709-1876). About forty sources in Turkic and Persian languages are analyzed, including information about Amir Timur personally, the Timurid period, and the legend of the Golden Cradle. It is noted that the information on the history of Amir Timur and the Timurid period in the work is based on information from dozens of works, such as Sharafiddin Ali Yazdi’s (d. 1454) "Zafarnoma", Muhammad bin Khovandshah’s (1438-1498) "Rawzat us-safa", Mawlana Ahmad ibn Muhammad al-Gaffari’s "Tarihi Nigoristan" written in 1552, Mirzo Muhammad Haydar’s (1500-1551) "Tarihi Rashidi", and Khandamir’s (1475-1536) "Habib us-siyar".

Key words: *Amir Temuri, Timurids, Kokan Khanate, Oltin Beshik, source, manuscript works, scientific analysis, conclusion.*

Аннотация. В данной статье представлена информация об истории Амира Тимура и Тимуридов, записанная в рукописях Кокандского ханства (1709–1876). Проанализировано около сорока источников на тюркских и персидских языках, включая информацию о личном Амире Тимуре, периоде

правления Тимуридов и легенде о Золотой колыбели. Отмечается, что сведения об истории Амира Тимура и периода Тимуридов в работе основаны на сведениях из десятков произведений, таких как «Зафарнома» Шарафиддина Али Язди (ум. 1454), «Равзат ус-сафа» Мухаммада бин Ховандшаха (1438-1498), «Тарихи Нигористан» Мауляны Ахмада ибн Мухаммада аль-Гаффари. написанные в 1552 году, «Тарихи Рашиди» Мирзо Мухаммада Хайдара (1500-1551) и «Хабиб ус-сияр» Хандамира (1475-1536).

Ключевые слова: *Амир Темур, Тимуриды, Коканское ханство, Алтин Бешик, источник, рукописные произведения, научный анализ, заключение.*

KIRISH

Amir Temur va temuriylar tarixiga oid ma’lumotlar nafaqat o‘z davriga tegishli birlamchi manbalar bilan birga, undan keyingi avlodlar tomonidan yozilgan asarlarda ham uchraydi. Jumladan, Qo‘qon xonligi (1709-1876) tarixiga oid bo‘lgan qo‘lyozma asarlarda ham Amir Temur shaxsi, faoliyati, janglari, ma’muriy boshqaruv tizimi, harbiy mahorati va tajribasi, qo‘shni davlatlar bilan olib borgan munosabatlari, bunyodkorlik ishlari kabi masalalarga oid ko‘plab qiziqarli ma’lumotlar uchraydi. Qo‘qon xonligi markaziy qismi bo‘lgan Farg‘ona vodiysida tarixnavislik an’analarining shakllanishi XVIII asrning ikkinchi yarmida, aniqrog‘i Norbo‘tabiy (1763-1798) va Olimxon (1798-1810) hukmronligi davridan boshlansa-da, Amir Umarxon (1810-1822) hukmronligi davridan boshlab ancha keng tus oladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Qo‘qon xonligida yaratilgan tarixiy manbalarning aksariyati musulmon tarixnavisligi an’analariga ko‘ra, Muhammad payg‘ambar (s.a.v)ga na’t bilan boshlanib, ba’zilari muallif yashagan zamondan, ba’zilari esa Qo‘qon xonligining vujudga kelishi tarixiga oid bo‘lgan rivoyatlar (Masalan, Oltin Beshik afsonasi) hamda aniq tarixiy shaxslar faoliyati bilan bog‘langan holda boshlanganligini ko‘rish mumkin. Xronologik jihatdan bu manbalarni uch guruhga ajratish mumkin: XIX asr boshlarida yozilgan qo‘lyozma asarlar, XIX o‘rtalarida bitilgan manbalar hamda mustamlakachilik davrida yozilgan asarlarga ajratish mumkin. Xonliklar davrida yozilgan 20 dan ortiq, Qo‘qon xonligi tugatilgandan so‘ng esa uning tarixiga bag‘ishlangan 10 dan ortiq asarlar yozilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot, bevosita qiyosiy tahlil va analiz metodlari asosida mavzuga oid ilmiy asarlar va tarixiy hujjatlarni o‘rganish asosida tadqiq qilindi. Manbashunoslik nuqtayi nazardan qiyosiy tahlil qilish va germanivtika usullari

ham qo‘llanildi. Adabiy jarayonlarga nisbatan tarixiy faktaloglik masalalarga kamroq e’tibor qaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xonlik manbalari turkiy va forsiy tillarda bitilgan bo‘lib, ularning aksariyati Amir Temur va temuriylar davri bilan boshlangan. Bu manbalarda Amir Temur nomi Temur (تيمور), Temurxon Kurogon (تمورخان گوەگان), Mir Asad (مير اسد) shaklida kelgan bo‘lib, deyarli barcha manbalarda yozilgan. Temuriy hukmdorlardan Mirzo Ulug‘bek (ميرزا اولوغبيك) nomi “Tarixi jadidai Toshkand” asarida (Muhammad Solihxo‘ja Toshkandiy, 689a, 704б в), “Ansob us-salotin va tavorihi havoqin”da esa bir marta (Mirzoolim Mushrif., 1995:4) keltirilgan. Temuriy hukmdorlardan biri Zahiriddin Muhammad Boburning nomi ham bu manbalarda ko‘p uchraydigan ismlardan biridir. Uning nomi deyarli barcha manbalarda Bobur (بابور), Bobir (بابر), xon (خان), “Tarixi Aziziy” va “Tarixi jahonnoma”larda Mirzo (ميرزا), shoh (شاه), “Mirat al-futuh”da podshoh (پادشاه), “Shohnomai Umarxoniy”da sulton (سلتان), “Maktubchai xon”da Zahiriddin Muhammad Bobur (ظهيرالدين محمد بابر), va boshqa manbalarda Muhammad Zahiriddin (محمد ظهيرالدين), Mirzo Zahiriddin (ميرزا ظهيرالدين) nomlari bilan keltirilgan.

1801-yilda yozilgan Shermuhammad Akmal Ho‘qandiyning “Amirnoma” asarida Oltin Beshik afsonasi orqali Qo‘qon xoni Umarxonni shajarasini Zahiriddin Muhammad Boburga taqab yozgan. Fazliy Namangoniyning “Umarnoma” asarida ham “Dar bayoni nasl va avlodi Temurxon sohibqiron” (20a-b) qismida shu mavzuni davom ettiradi. Bu bilan muallif Qo‘qon xonlarini Amir Temurning avlodi ekanligiga urg‘u berib, buni alohida ta’kidlaydi. Fazliy o‘z asarida “Oltin Beshik” rivoyatini keltirmasa-da, u ham Qo‘qonning birinchi hukmdori Shohruxxon (1709-1721)ning shajarasini Boburga bog‘laydi. “Shohnomai Umarxoniy” asarida esa Umarxonning ham ota, ham ona tomonidan shajarasi berilgan (53b-54b). 1821-yilda yozilgan “Shohnomai nusratpoyom” asarini o‘rgangan Sh. Vohidov Oltin Beshik vositasida Qo‘qon xonlari nasabai Zahiriddin Muhammad Boburga bog‘lash xonlik tarixnavisligida birinchi bo‘lib, Mirzo Qalandar Mushrif Isfaragiyning ushbu asarida keltirgan va unda Umarxon nasabi Oltin Beshik orqali Boburga yetkazilgan (Vohidov Sh., 1998: 134). Biroq bu ma’lumotlar rivoyatlarga asoslangan.

Amir Temur va temuriylar davri tarixiga oid yana bir ma’lumotlar an’anaviy tarixiy manbalarni yozishdagi sulolaviy uslubda yozilishi jarayonida e’tibor qaratilganligi hisoblanadi. Sulolalarning davriy ketma-ketlikda yozilishida Amir Temur va temuriylar davriga oid ma’lumotlarni avvalgi tarixiy manbalardagi ma’lumotlarni qiyosiy tahlil qilib yozilgan yoki qanday bo‘lsa shunday holatda

ko‘chirilgan. Jumladan, 1844-yilda yozilgan Muhammad Hakimxonto‘raning “Muntahab ut-tavorix” (“Tarixiy yilnomalar”) asari 5 bob, 12 toifa, ya’ni sulolalar tarixiga ajratilgan holda yozilgan. Bu sulolalar safforiylar, somoniylar, daylamiylar, g‘aznaviylar, saljuqiylar, xorazmshohiylar, chingiziylardan so‘ng sakkizinchi toifa sifatida temuriylar va boburiylar, shayboniylar, ashtarxoniylar, mang‘itlar hamda minglar tarixi alohida qilib yozilgan (Muhammad Hakimxonto‘ra., 1844: 89-125-varaqlar). Avaz Muhammad Attorning “Tarixi jahonnoma” asarida esa, kirish qismidan so‘ng, Odam alayhissalom, Muhammad alayhissalom, islomgacha hukmronlik qilgan forslar, halifalar, ummaviylar, abbosiylar, tohiriylar, chingiziylardan so‘ng to‘qqizinchi bobi temuriylar bilan bir qatorda shayboniylar, safaviylar, boburiylar, yilnomalar, joniylar, Nodirshoh, mang‘itlar va Hindistondagi boburiy podshohlar tarixi hamda xulosa bilan tugatgan (Avaz Muhammad Attor Ho‘qandiy., 1999: 582). Asarda Chingizxon avlodlaridan bo‘lgan Alnakxon va Toyzixonlarning Amir Temur huzuriga borgani, uning hizmatiga kirgan hamda Temur o‘limidan so‘ng bu chingiziylar Qoraqurumga, ya’ni qalmoqlar yurtiga ketganligi haqidagi ma’lumotlar berilgan. Xuddi shu kabi manbalardan biri Muhammad Solihning “Tarixi jadidai-Toshkand” asari bo‘lib, unda so‘zboshi, Odam alayhissalom, usmoniylar, chingiziylargacha hukm surgan Turkiston podshohlari, chingiziylardan so‘ng Amir Temur (95a-200a) va temuriylar (200b-201a), shayboniylar va ashtarxoniylar, Abulfayzxon va mang‘itlar, minglar, Toshkent tarixi, muallif tarjimayi holi kabi boblarga ajratilgan. Bu asarlardagi ma’lumotlar asosan Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Muhammad Hotifiyning “Temurnoma”, “Temur tuzuklari” va boshqa manbalardagi ma’lumotlar asosida yoritilgan.

Tojirning “G‘aroyibi sipoh” asarida “Farg‘ona shohlarining nasabi fasli”da Qo‘qon xonlarining nasabi bir necha vosita bilan Chingizxonga bog‘lanishini aytilsa-da, Zahiriddin Muhammad Bobur yoki Amir Temur hamda Temuriylar davri xususida so‘z yuritilmagan. Bu holatni muallifning o‘z oldiga qo‘ygan rejasi (faqatgina Olimxon, Umarxon va Muhammad Alixon davrini bayon qilish) va asar hajmidan kelib chiqqan holda ham baholashishmiz mumkin. Biroq asarda berilgan Qo‘qon xonlari xonlikdagi davlat boshqaruvi, ma’muriy tizim, davlat va hokimiyat idoralarining ishlash prinsiplari bevosita Amir Temur va temuriylar davlat boshqaruvining davomchisi hisoblanishini yozib o‘tgan. Ayniqsa, diplomatik aloqalarda bu o‘xshashlik yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xususan, Qo‘qon xoni Muhammad Alixon (1822-1842) Xitoyning hukmron sulolasi bo‘lmish manjurlarning imperatori Daogun (綿寧, 1820-1850)ga yozgan to‘rtta maktubi

Amir Temur va uning o‘g‘li Shohrux Mirzoning Xitoy imperatorlariga yozgan xatlari mazmuni bilan aynan bir xildir. Maktub shunday yozilgan edi:

“Mening ya’ni Muhammadalixon gardunmador qoshidan sen Chinning Bodoy hoqoni huzuriga. Bil va ogoh bo‘lginkim, mening nasabim tanma-tan Chingizxonga borib yetadi. Pushtma-pusht xon va xonzoda bo‘lib kelganman. Hudoga shukurkim, ajdodlarimdan musulmonman va hozirda bu mamlakat menga padarimdan meros qolgan. Endilikda davlat nag‘orasini mening adolat tomimda chalmoqdalar. Ibrat ko‘zini ochib, mening nimalar qilganimni ko‘r. To Qashqar mulkigacha borib g‘azot qildim. Ikkinchi bor xizmatkorim Haqquli mingboshiga amr qildim, borib g‘azot qilib, sizlarning kulingizni ko‘kka sovurib keldi. Bu tarafda to Istravshan, Yom va Zomin hamda Achchi suvigacha iotat kamarini mening egarim uzangisiga bog‘ladilar. Xudo xohlasa, jahonni Yaratuvchidan umidim tez kunlarda Rumdan to Xitoy mulkigacha farmonbardor qilsa.

Ey Chin hoqoni, uch ishdan birini tanlashing lozim. Biri Bojin (hozirgi Pekin shahri) ga olib ketgan o‘sha hojalarni bu tarafga yuborishing kerakkim, ular payg‘ambar avlodlaridir. Yana biri shuki, sening hukming ostidagi Yetti shahar (Hozirgi Shinjong-Uyg‘ur tumani) dagi musulmonlar hukumatini menga ber. Toki, biz o‘zimiz hokim tayinlab, shariati sharifga muvofiq boshqaramiz.Yana biri (17a) shuki, har yili bizga Bojindan o‘n ming yombu miqdorida boj berasan. Shu uchchalasidan biri ixtiyoring. Illo, shulardan birini tanlamasang tayyor bo‘l, qo‘shin tuzib borib, ul viloyatlarni to Qumbul tegrasigacha kulini ko‘kka sovurmasam Umarxonning o‘g‘li emasman. Elchining og‘zidan bayon qilingan har bir so‘z to‘g‘ridir” (Tojir., 2014:456). Muhammad Alixon manjur imperatorida ular talab qilgan narsalarni talab qilish bilan garchi, Chingizxon avlodi deb tilgan olinsa-da, o‘zini Amir Temur ishining davomchisi, izdoshi ekanligini ko‘rsatishga harakat qilgan (Sultonov., 2010:73). Shuningdek, Muhammad Alixon buyrug‘i bilan “Temur tuzuklari” asarining fors tilidan turkiy tilga tarjima qilinganligini yuqoridagi faktlarning isboti sifatida ko‘rishimiz mumkin.

Abdulg‘afforboyning “Zafarnomayi Xudoyorxoniy” asarida Qo‘qon xoni Xudoyorxonning nasabini turkiy qabilalarning ilk ajdodi bo‘lgan bo‘ri bilan bog‘laydi. U keltirgan nasabnomada Xudoyorxon nasabi asli ajdodlari bo‘ri bo‘lgan Oltin Beshik orqali Boburga va u orqali Amir Temurga yetkazilgan (Abdulg‘ofur., 6b-varaq).

Mirzo Olim Mirzarahim Toshkandiyning “Ansob al-salotin va tavorix al-xavoqin” asarida Amir Temur ismi ikki marta uchraydi. Dastlab Qo‘qon xoni Xudoyorxonning shajarasi Mirzo Boburga va undan Amir Temurga borib taqalishi (4b, 65a) haqida ma’lumot bergan.

Muhammad Aziz Muhammad Rizo o‘g‘li Marg‘iloniyning “Tarixi Aziziy” asarining katta qismi Qo‘qon xonligi tarixiga bag‘ishlangan. “Tarixi Aziziy” asarining ham yagona nusxasi O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondidan saqlanadi. Asarning to‘rtinchi va beshinchi boblarida Qo‘qon xonligi davrida va xonlikning tugatilgandan keyingi yillardagi Farg‘ona tarixiga oid ma’lumotlar o‘rin olgan. Asarning so‘nggi ikki bobi muallifning o‘zi yashagan davriga bag‘ishlangan bo‘lib, unda bayon qilingan voqealarga muallif shaxsan o‘zi guvoh bo‘lganligi, boshqa manbalarda uchramaydigan ma’lumotlar, ishonchli odamlardan eshitgan axborotlar jamlanganligi bilan ajralib turadi. Asar tadqiqotlarda muayyan qolipga solinmagan va ma’lum tizimga ega bo‘lmagan manba sifatida baholangan. Muallif aslida ham yaxlit tizimga ega mukammal tarix yaratishni maqsad qilmagan, balki tarixiy saylanma yaratishni ko‘zlagan. Buni muallifning “Tavorixi Nigoriston” dan intixob qildim (6a), Xotif (vaf 1842)ning forsiydan turkiyga o‘girgan “Tuzuki Temuriy” kitobidan “intixob etub ko‘tarildi” (55b) deb izoh bergan (Mulla Aziz Marg‘iloniy., 2016:13). Asarning Amir Temur va temuriylar davri tarixiga tegishli ma’lumotlar Sharofiddin Ali Yazdiyning (vafoti 1454) “Zafarnoma”, Muhammad bin Xovandshohning (1438-1498) “Ravzat us-safo”, 1552-yilda yozilgan Mavlono Ahmad ibn Muhammad al-G‘afforiyning “Tarixi Nigoriston”, Mirzo Muhammad Haydarning (1500-1551) “Tarixi Rashidiy”, Hondamirning (1475-1536) “Habib us-siyar” kabi o‘nlab asarlardagi ma’lumotlardan foydalanib yozgan. Asarning 2 bobi “Amir Temur Ko‘ragonning qilgan g‘azotlarini va iqbolu saodatlarini va tariqai shukuhi saltanatlarini va xurujini va kuch-quvvati va hukumatini miqdorining va ham valiahd bo‘lgan avlodlaridan bayon” deb nomlangan. Keyingi faslda “Tuzuki Temuriy”dan olingan parcha va “Zafarnoma”dan Amir Temurning Bag‘dod hukmdori Sulton Ahmad Jaloyir ustiga yurishi to‘g‘risidagi xabar havola etiladi. Asarning 85-faslida esa “Hazrat Xoja Ahmad Yassaviyning muborak mozorlari shariflarig‘a Amir Temurni vaqf tayin qilg‘oni bayoni” deb nomlangan (Muhammad Aziz Marg‘iloniy., 90b-91a varaqlar). Bu fasl forsiyda yozilgandir. “Ushbu vaqtda ham qadim zamonda yer yuzida qanday katta shaharlar bor” deb nomlangan 108 faslda Turkistondagi “hazrat Sulton al Orifin Xoja Ahmad Yassaviyning qabrlari ustida bino qilingan gumbazning yerdan balandligi qirq sakkiz gazdur”, deb ma’lumot beradi (Muhammad Aziz Marg‘iloniy., 105a-varaq). Mashhur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyning **“**Zafarnoma**”**sida ham bu ulug‘ voqea haqida quyidagilar yozilgan**: “**Uning gumbazini shunday bunyod etsinlarki**,** aylanasi yuz o‘ttiz gaz va o‘z chizig‘i qariyb qirq gaz kelsin**.** Qurilish tamom bo‘lgach**,** balandligi ham o‘ziga munosib tarzda ko‘tarilsin**,** devoru qubbasi koshinlar ila bezatilsin**,** eshigi yetti xil ma’dan qotishmasidan tayyorlansin**,**

o‘rtasida bir hovuz barpo etib**,** uning yuzini ham yetti ma’dan qotishmasidan qoplasinlar**.** Qabr ustiga qo‘yish uchun tabriziy marmar keltirsinlar**,** uni noziklik bilan tarashlasinlar va ajoyib naqshlar-la bezasinlar**”**. Ushbu an’anani davom ettirgan Qo‘qon xonlari Ahmad Yassaviy mozoriga alohida e’tibor qaratganlar. Jumladan, Toshkent hokimi Normuhammadga mozor vaqflari bo‘yicha topshiriqlar berilgan. Mozorni qayta ta’mirlashda Umarxon, Muhammad Alixon hamda Xudoyorxon tashabbusi bilan amalga oshirilgan.

Qo‘qon xonligidagi davlat boshqaruv apparati asosan Amir Temur davrida shakllangan va keyinchalik Shayboniylar davrida isloh qilingan an’analarga asoslangan. “Amir al-muslimin” va “Xon” kabi oliy unvonlar, shuningdek, davlat iyerarxiyasidagi vazirlik va devonbegilik lavozimlari Temuriylar davlatchilik maktabining merosi sifatida saqlanib qolgan. Olimxon kabi hukmdorlar o‘z faoliyatida Amir Temur davlatining chegaralarini tiklash va markazlashgan kuchli qo‘shin tuzishga alohida e’tibor qaratgan.

Amir Temur va Temuriylarning ilm-fan va adabiyotga homiylik qilish an’anasi Qo‘qonda Umarxon va Nodirabegim davrida o‘z cho‘qqisiga chiqdi. Qo‘qon adabiy muhiti o‘zini “Temuriylar Renessansi”ning ma’naviy davomchisi deb bilgan. Temuriylar sulolasi va hokimiyati (1370–1506) musulmon sharqining ko‘p mamlakatlari uchun namunaviy model sanalib, unga bir necha yuz yil mobaynida taqlid qilib kelingan. Ayni jarayonda Amir Temur shaxsiyati va so‘nggi temuriylardan bo‘lmish Husayn Boyqaro davridagi Hirot madaniy, adabiy muhitining o‘rni katta bo‘lgan (Erkinov., 2021:271-274).

Xonlik poytaxti Qo‘qonda qurilgan masjid va madrasalar, xususan Xudoyorxon o‘rdasining bezaklari va me’moriy yechimlarida Temuriylar davriga xos koshinkorlik va muhtashamlik an’analari qayta jonlantirilgan.

Amir Temurning lashkar tuzish, qismlarga bo‘lish va jang olib borish taktikalari Qo‘qon xonligi harbiy tizimining asosini tashkil etgan. Asosiy o‘xshashliklar quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- Qo‘shin tuzilishi va taqsimoti: Amir Temur qo‘shinni o‘nlik, yuzlik, minglik va tuman (o‘n minglik)larga bo‘lib boshqargan. Qo‘qon xonligida ham ushbu tizim saqlanib qolgan bo‘lib, o‘nboshi, yuzboshi va mingboshi kabi unvonlar qo‘llanilgan.
- Lavozim va unvonlar taqlidi: Xonlikda, ayniqsa Umarxon davrida, Amir Temur va Sulton Husayn Boyqaro zamoniga taqlid qilgan holda unvonlar va davlat lavozimlari joriy etilgan.
- Jang taktikasi (Go‘l va Qanbul): Temuriylar harbiy san’atidagi markaz (go‘l), o‘ng va chap qanotlar hamda ularning pistirmalari (qanbul) kabi tartiblar

O‘rta Osiyo xonliklarida, shu jumladan Qo‘qonda ham asos sifatida qabul qilingan, garchi vaqt o‘tishi bilan ayrim o‘zgarishlarga uchragan bo‘lsa-da.

- Mafkuraviy maqsadlar: Xonlik hukmdorlari, xususan Olimxon, kuchli qo‘shin tuzish orqali Amir Temur davlatining chegaralarini tiklashga intilgan.
- Jangovar tayyorgarlik: Har ikki tizimda ham otliq qo‘shin asosiy kuch hisoblangan. Temur qo‘shinida bo‘lgani kabi, xonlikda ham tezkor harakatlanish va intizomga katta e’tibor berilgan.

Qo‘qon xonlari, xususan Abdurahimbiy (uni tarixchilar "Sohibqiron" deb atashgan) va Umarxon, qal’alar qurishda Temuriylarning shaharsozlik va mudofaa an’analariga taqlid qilishgan. Masalan, Qo‘qondagi dastlabki istehkom Eski-Qo‘rg‘on Amir Temur davridagi qal’alar kabi markaziy boshqaruv nuqtasi sifatida tiklangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qo‘qon xonligi tarixnavisligiga mansub manbalarda Amir Temur va temuriylar masalalarini yoritishga ikki xil munosabat yuzaga kelgan. Birinchidan, bu masalaga Sharqning islom mamlakatlari tarixnavisligi tamoyillari va qonuniyatlari asosidagi yondashuvlar. Bu masala musulmon mamlakatlarida hukm surgan sulolalar tarixining tarkibiy qismi sifatida davriy tartibot asosida yozilgan. Bu an’anada tarixiylik, mantiqiylik va haqqoniylik tamoyillari nisbatan ustun hisoblanadi. Albatta, ushbu o‘rinda temuriylar sulolalari tarixiga oid asosiy tarixiy qo‘lyozma asarlar – “Zafarnoma”, “Ravzat us safo”, “Habib us siyar”, “Boburnnoma” kabi asarlar muhim tarixiy manba vazifasini o‘tagan. Shuningdek, “Temur tuzuklari”, “Nigoriston” kabi asarlardagi ma’lumotlar asosida ham ko‘plab xonlik davri qo‘lyozma asarlarining asosi sifatida ko‘rish mumkin. Qo‘qon xonligi tarixnavisligiga mansub asarlarda temuriylar davrida yaratilgan tarixiy asarlar muhim manba bo‘lib xizmat qilgan.

Ikkinchidan, XIX asrning birinchi choragida shakllangan Qo‘qon tarixnavisligi an’analari va tamoyillari asosida yondashuvlar hisoblanadi. Bunda Amir Temur va temuriylarga (Zahiriddin Muhammad Bobur, Umarshayx mirzo) xonlik hukmdorlarining ajdodi sifatida qarash aksariyati saroyga yaqin kishilar bo‘lgan ushbu maktab vakillarida panegrizmning ustunlik qilishiga olib kelgan. Bu an’anada voqealar bayonidagi tarixiy jarayonlarning asosiy nuqtalari rivoyat asosida bayon qilingan. Natijada tarixiy shaxslar faoliyati va davri rivoyat zamirida o‘z tarixiyligi va mantiqiyligini yo‘qotgan.

Qo‘qon xonligi manbalarida Amir Temur shaxsiga ikki xil yondashuv mavjud bo‘lib, birinchidan, sarkarda Turonzamin va Dashti Qipchoqda hokimiyatni o‘z aqli va harbiy salohiyati bilan qo‘lga kiritgan hukmdor, tarixiy shaxs sifatida qaralgan bo‘lsa, ikkinchidan, Amir Temurga, Qo‘qon tarixnavisligi an’analaridan

chetga chiqolmagan holda, xonlarning ajdodi deya ta’riflanuvchi Zahiriddin Muhammad Boburning ajdodi sifatida baho bergan.

Amir Temurning shaxsi, davlatchilikda o‘z o‘rniga ega bo‘lganligi uchun uning avlodlari uning tarixiy merosiga ko‘proq murojaat qilgan. Uning davlat boshqaruvi, harbiy tajribasi, salohiyatidan ibrat olishga harakat qilgan. Qo‘qon xonlari taxtga egalik qilish huquqini aynan Amir Temurga olib borib taqash, taqlid qilishni merosxo‘r sifatida bilganlar. Bu davrda nafaqat Qo‘qon xoni Umarxon bilan qo‘shni Xiva xoni Muhammad Rahimxon (1806-1825) va Buxoro amiri Haydar (1800-1825) ham bu masalada taqlid qilib, she’riy aytishuvlar olib borishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdulg‘ofur. Zafarnomayi Xudoyorxon. O‘zR FA SHI, qo‘lyozma № 598.
2. Avaz Muhammad Attor Ho‘qandiy (1991). Tarixi jahonnamoyi / forschadan Sh. Vohidov tarjimasi // Sharq Yulduzi. – Toshkent, 1991. – № 8. – B. 119-137.
3. Бабаджанов Б.М (2010). Кокандское ханство: власть, политика, религия. Токио-Ташкент.
4. Бейсембиев Т (2009). Кокандская историография (исследование по источниковедению Средней Азии XVIII – XIX веков). Алматы.
5. Erkinov A (2021). Navoiyni anglash sari. Anqara.
6. Mirzoolim Mushrif, (1995). Ansob us – salotin va tavorix ul-havoqin / Nashrga tayorlovchi A. Matg‘oziev, M. Usmonova. Toshkent.
7. Muhammad Aziz Marg‘iloniy. Tarixi Aziziy // qo‘lyozma, O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondi. №11108-432 v.
8. Muhammad Hakimxonto‘ra. Muntahab ut-tavorih – qo‘lyozma. O‘zR FA SHI, inv № 594. – 445a-varaq.
9. Muhammad Solihxo‘ja Toshkandiy. Tarixi jadidayi Toshkand – O‘zR FA SHI, qo‘lyozma № 7791. –1040 v.
10. Mulla Aziz Marg‘iloniy (2016). Tarixi Aziziy. Faksimile nashr. Kirish va ko‘rsatkichlar tuzuvchi Iroda Qayumova. Toshkent.
11. Sultonov O‘, (2010). Qo‘qon xonligi tarixnavisligida Amir Temur va temuriylar mavzusining yoritilishi // Temuriylar davriga oid manbalar. To‘plam. – Toshkent., 2010. – B. 73.
12. Tojir (2014). G‘aroyib sipoh. Tarjimon va sharhlar muallifi O‘ktam Sultonov // Xrestomatiya. 3-tom. Toshkent.
13. Vohidov Sh (1998). XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Qo‘qon xonligida tarixnavislikning rivojlanishi.: Tarix fan. dokt. ... diss.

REFERENCES:

1. Abdulg‘ofur. Zafarnomayi Xudoyorxon. O‘zR FA SHI, qo‘lyozma № 598. (manuscript)

2. Avaz Muhammad Attor Ho‘qandiy (1991). Tarixi jahonnamoyi / forschadan Sh. Vohidov tarjimasi // Sharq Yulduzi. – Toshkent, 1991. – № 8. – B. 119-137. (In Uzbek)

3. Babadjonov B.M. (2010). Qo‘qon xonligi: hokimiyat, siyosat, din. Tokio-Toshkent. (In Russian)

4. Beysembiyev T. (2009). Qo‘qon xonligi tarixshunosligi (XVIII–XIX asrlar O‘rta Osiyo manbashunosligi bo‘yicha tadqiqot). Almati. (In Russian)

5. Erkinov A. (2021). Navoiyni anglash sari. Anqara. (In Uzbek)

6. Mirzoolim Mushrif. (1995). Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin / Nashrga tayyorlovchilar A. Matg‘oziev, M. Usmonova. Toshkent. (In Persian)

7. Muhammad Aziz Marg‘iloniy. Tarixi Aziziy // qo‘lyozma, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondi. № 11108-432 v. (manuscript)

8. Muhammad Hakimxonto‘ra. Muntahab ut-tavorih – qo‘lyozma. O‘zR FA SHI, inv № 594. – 445a-varaq. (manuscript)

9. Muhammad Solihxo‘ja Toshkandiy. Tarixi jadidayi Toshkand – O‘zR FA SHI, qo‘lyozma № 7791. – 1040 v. (manuscript)

10. Mulla Aziz Marg‘iloniy (2016). Tarixi Aziziy. Faksimile nashr. Kirish va ko‘rsatkichlar tuzuvchi Iroda Qayumova. Toshkent. (In Uzbek)

11. Sultonov O‘. (2010). Qo‘qon xonligi tarixnavisligida Amir Temur va temuriylar mavzusining yoritilishi // Temuriylar davriga oid manbalar. To‘plam. – Toshkent, 2010. – B. 73. (In Uzbek)

12. Tojir (2014). G‘aroyib sipoh. Tarjimon va sharhlar muallifi O‘ktam Sultonov // Xrestomatiya. 3-tom. Toshkent. (In Uzbek)

13. Vohidov Sh. (1998). XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Qo‘qon xonligida tarixnavislikning rivojlanishi. Tarix fanlari doktori... diss. (In Uzbek)

AMIR TEMUR TASHQI SIYOSATI VA XALQARO MUNOSABATLARDA STRATEGIK YONDASHUV

FOREIGN POLICY OF AMIR TEMUR AND STRATEGIC APPROACH IN INTERNATIONAL RELATIONS

ВНЕШНЯЯ ПОЛИТИКА АМИР ТЕМУРА И СТРАТЕГИЧЕСКИЙ ПОДХОД В МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЯХ

Ismatullayev Farxodjon Odiljonovich
Oriental universiteti v.b. professori,
tarix fanlari doktori(DSc)
Tel.: +998 93-804-00-89
E-mail: ismatullayevfarxodjon@gmail.com
Orcid 0009-0004-3159-4371

Annotatsiya. Muallif tomonidan tayyorlangan ushbu ilmiy maqolada Amir Temurning tashqi siyosati va diplomatik faoliyati tarixiy va nazariy jihatdan kompleks yondashuv asosida tahlil etiladi. Tadqiqotda Temur davlatchilik tizimida strategik boshqaruv, xalqaro munosabatlar va geosiyosiy jarayonlarning uyg‘unligi ilmiy jihatdan yoritilgan. Maqolada kuch va aql uyg‘unligi uning diplomatik siyosatining asosiy tamoyili sifatida asoslab berilib, harbiy qudratning muzokaralarda siyosiy ustunlikni ta’minlash vositasi sifatidagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, Buyuk Ipak yo‘lining tiklanishi, savdo yo‘llarining rivojlanishi hamda elchilik tizimining shakllanishi Temur tashqi siyosatining muhim yo‘nalishlari sifatida tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlarga tayanilib, Temurning siyosiy-diplomatik qarashlari tizimli va qiyosiy yondashuv asosida o‘rganilgan. Natijada, Amir Temur davlati o‘z davrida mintaqaviy va global geosiyosiy tizimda muhim o‘rin egallaganligi asoslab beriladi. Mazkur maqola uning diplomatik tajribasi zamonaviy xalqaro munosabatlar uchun ham dolzarb ilmiy model ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *Amir Temur, tashqi siyosat, diplomatiya, xalqaro munosabatlar, strategiya, geosiyosat, kuch va aql, Buyuk ipak yo‘li.*

Annotation. The author of this scholarly article provides a comprehensive historical and theoretical analysis of the foreign policy and diplomatic activity of Amir Temur. The study explores the integration of strategic governance, international relations, and geopolitical processes within the Timurid state system. The article substantiates the balance between power and intellect as the fundamental principle of Temur’s diplomacy, emphasizing the use of military strength as a strategic tool to achieve political advantage in negotiations. It also analyzes the restoration of the Silk Road, the development of trade routes, and the

formation of diplomatic institutions as key directions of his foreign policy.Based on historical sources and academic literature, the research systematically and comparatively examines Temur’s political and diplomatic worldview. As a result, it is demonstrated that the Timurid state occupied an important position within both regional and global geopolitical systems of its time. The study concludes that his diplomatic experience remains a relevant analytical model for modern international relations.

Key words: *Amir Temur, foreign policy, diplomacy, international relations, strategy, geopolitics, power and intellect, Silk Road.*

Аннотация. Автор данной научной статьи осуществляет комплексный историко-теоретический анализ внешней политики и дипломатической деятельности Amir Temur. В исследовании рассматривается интегратsiя стратегического управления, международных отношений и геополитических процессов в системе государства Тимуридов. В статье обосновывается положение о том, что сочетание силы и разума являлось основополагающим принципом дипломатии Тимура, при этом военная мощь рассматривалась как стратегический инструмент достижения политического преимущества в переговорах. Также анализируются восстановление Великого шёлкового пути, развитие торговых маршрутов и формирование дипломатических институтов как ключевые направления его внешней политики. На основе исторических источников и научной литературы системно и сравнительно исследуются политико-дипломатические взгляды Тимура. В результате обосновывается, что государство Тимура занимало важное место в региональной и мировой геополитической системе своего времени. Подчеркивается, что его дипломатический опыт сохраняет актуальность как научная модель для современных международных отношений.

Ключевые слова. *Амир Темур, внешняя политика, дипломатия, международные отношения, стратегия, геополитика, сила и разум, Великий шёлковый путь.*

KIRISH

Dunyoda hukmdorlar ko‘p bo‘lgan bo‘lsa-da, ularning aksariyati tarixda asosan jangchi va istilochi sifatida nom qoldirgan. Biroq Amir Temur shaxsida biz keng qamrovli siyosat yuritgan, mohir sarkarda, adolatli hukmdor, bunyodkor va ayni paytda yuksak diplomatik salohiyatga ega davlat arbobini ko‘ramiz. U nafaqat harbiy jihatdan kuchli qo‘mondon, balki xalqaro munosabatlar tizimida puxta o‘ylangan strategiyani amalga oshira olgan mohir diplomat ham edi. O‘sha davr mutafakkirlari ta’rifiga ko‘ra, Amir Temur xalqaro siyosatda kuch va aql uyg‘unligini ta’minlay olgan noyob shaxslardan biri hisoblanadi. Uning tashqi

siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlar – davlat xavfsizligini mustahkamlash, savdo yo‘llari ustidan nazoratni ta’minlash hamda xalqaro aloqalarni rivojlantirishdan iborat bo‘lgan. Mazkur yondashuvni retrospektiv tahlil qiladigan bo‘lsak, u bugungi zamonaviy davlatlar tashqi siyosatining asosiy tamoyillari bilan uyg‘un ekanligini ko‘rish mumkin. Shu jihatdan, Amir Temur diplomatiyasi nafaqat o‘z davri uchun, balki hozirgi xalqaro munosabatlar tizimi uchun ham muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Uning siyosatida muvozanatni saqlash, strategik fikrlash va davlat manfaatlarini qat’iy himoya qilish kabi tamoyillar yetakchi o‘rin egallagan bo‘lib, ular bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzuning nazariy va amaliy jihatlarini yoritishda birinchi navbatda o‘rta asr tarixiy manbalari muhim o‘rin tutadi.

Sharofiddin Ali Yazdiy (1997) o‘zining “Zafarnoma” asarida Amir Temurning harbiy yurishlari bilan birga diplomatik faoliyatini ham batafsil yoritgan. Muallif Temurning kuch va muzokara o‘rtasidagi muvozanatni saqlash siyosatini alohida ta’kidlaydi. Ibn Arabshohning asari ham Temur diplomatiyasining xususiyatlarini ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Rui Gonsales de Klavixo (2010) esa Ispaniya elchisi sifatida Samarqandda bo‘lib, Amir Temur saroyidagi diplomatik qabul va xalqaro aloqalarni bevosita kuzatganligi bois qimmatli ma’lumotlar bergan. Ushbu manba Yevropa va Temur davlati o‘rtasidagi aloqalarni o‘rganishda asosiy birlamchi manba hisoblanadi.

Xorijiy tadqiqotlarda Lyusen Karen (2007) Amir Temurning bunyodkorlik siyosati, madaniyat va diplomatiyasiga yuqori baho bergan. Uning fikricha, Temur nafaqat sarkarda, balki me’morchilik va madaniyatni yuqori darajada rivojlantirgan davlat arbobi sifatida ham benazirdir.

Shuningdek, mavzuga oid tadqiqotlarda Buyuk Ipak yo‘lining tiklanishi, savdo-iqtisodiy aloqalar va strategik ittifoqlar masalalari ham keng yoritilgan. Ushbu adabiyotlarning umumiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, Amir Temur diplomatiyasi kuch va aql uyg‘unligiga, pragmatizmga va uzoq muddatli strategik rejalashtirishga asoslangan bo‘lib, bugungi xalqaro munosabatlar nazariyasi bilan ham uyg‘unlashadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida Amir Temur davri va uning diplomatik faoliyatiga oid ilmiy adabiyotlar – monografiyalar, ilmiy maqolalar, tarixiy manbalar hamda tadqiqotchilar ishlari tizimli ravishda o‘rganildi. Metodologik jihatdan qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, tarixiylik va mantiqiy umumlashtirish usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tarixiy taraqqiyot jarayonida har bir davr o‘zining yetakchi shaxslari orqali siyosiy va ijtimoiy tizimlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan. Ana shunday murakkab tarixiy sharoitda faoliyat yuritgan Amir Temur davlatchilik va xalqaro munosabatlar rivojida o‘ziga xos maktab yaratgan shaxs sifatida alohida o‘rin egallaydi. Uning siyosiy qarashlari faqat harbiy yurishlar bilan cheklanib qolmay, balki davlatni boshqarish, ichki barqarorlikni ta’minlash hamda tashqi aloqalarni oqilona yo‘lga qo‘yishga qaratilgan keng qamrovli tizimni o‘z ichiga olgan. Shu nuqtayi nazardan, Amir Temur faoliyatini o‘rganish uning davlatchilik tajribasi va diplomatik yondashuvlarining mazmun-mohiyatini anglash, shuningdek, tarixiy jarayonlarning zamonaviy xalqaro munosabatlarga ta’sirini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

Amir Temur davri manbalari, jumladan, Ibn Arabshoh, Sharofiddin Ali Yazdiy va Rui Gonzales Klavixoning asarlarida Temur diplomatiyasining asosiy xususiyatlaridan biri sifatida – kuch va muzokara o‘rtasidagi muvozanat bo‘lganligi haqida mulohaza yuritilgan. Manbalarda keltirilishicha, u harbiy qudratni faqat urush uchun emas, balki muzokaralarda ustunlikka erishish vositasi sifatida ham qo‘llagan. Bu tamoyil bugungi xalqaro siyosatda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Amir Temur tashqi siyosatda avvalo strategik ittifoqlar va munosabatlarga katta e’tibor qaratgan. Uning davrida Markaziy Osiyo dunyo savdosining muhim markazlaridan biriga aylangan. Ayniqsa, buyuk ipak yo‘li orqali savdo aloqalarini rivojlantirish Temur siyosatida alohida o‘rin tutgan. Chunki Temurgacha mintaqani 150 yil boshqargan Mo‘g‘ullar davlati ushbu yo‘l tarmog‘ini izdan chiqargan, deyarli faoliyatini to‘xtatgan, xavfli bo‘lib qolgan edi. Qudratli buyuk davlat barpo qilgan Amir Temur bunday davlatning iqtisodiy jihatdan ravnaq topishini g‘alabalarga olib keluvchi harbiy yurishlar bilangina ta’minlab bo‘lmasligini yaxshi his etgan. Movarounnahrning markazida, strategik jihatdan qulay joylashgan Samarqand shahrini poytaxt sifatida tanlar ekan, u Buyuk Ipak yo‘lida joylashgan, Uzoq Sharqni musulmon dunyosi hamda Yevropa bilan bog‘lovchi bu shahar ulug‘vor inshootlari, dabdabali saroylari, saroy ahlining tantanavor kiyimlari bilan mehmonlarni hayratga solishi lozim, deb hisoblardi. Bundan tashqari, Samarqand azaldan ilm-fan va ma’rifat markazi bo‘lib kelgandi. Mo‘g‘ullar davrida shaharning ilmiy va madaniy an’analari buzilgandi. Shu bois hukmdor shaharning o‘sha an’analarini qayta tiklash orqali yuqorida ko‘zlagan maqsadiga erishishga jazm qildi. Bunga Movarounnahrni iqtisodiy va siyosiy hayot markaziga aylantiribgina erishish mumkin edi. Buning uchun esa g‘arb

mamlakatlari bilan Xitoy o‘rtasida o‘tmishda mavjud bo‘lgan asosiy karvon yo‘llarini tiklash va jonlantirish zarur edi.

Amir Temurgacha bo‘lgan davrda feodallar o‘rtasidagi janjallar va o‘zga chetdan tez-tez bo‘lib turadigan bosqinlar tufayli Oltin O‘rdadan Sharq mamlakatlariga olib boradigan karvon yo‘llari inqirozga uchragan edi. Egey va O‘rta dengiz sohillaridan to Xitoy chegaralarigacha, Dashti Qipchoqdan Arabiston dengizigacha bo‘lgan oraliqda ulkan saltanat barpo etib, Sohibqiron, avvalo Buyuk ipak yo‘lining karvon so‘qmoqlarini bosqinchilar hujumidan muhofaza qildi. G‘arbiy Eron, Iroq, Suriya va Sharqiy Anatoliyada bosqinchilar ayniqsa ko‘p edi. Bungacha ana shu mamlakatlardan o‘tadigan yo‘llar xavfli bo‘lganligi uchun nafaqat savdo karvonlari qatnovi, balki musulmonlar uchun farz hisoblangan haj amalini bajarish ham amri mahol bo‘lib qolgan edi. Buyuk ipak yo‘lining yopilib qolgan karvon so‘qmoqlari Amir Temur iqtidori sharofatidan qayta tiklanishi tufayli Movarounnahrga turli mamlakatlardan sarmoya va mol oqib kela boshladi. Bunda, birinchi navbatda, Movarounnahrning Samarqand, Buxoro, Aksikent, Andijon va boshqa shaharlaridan chiqqan savdogarlar faol qatnashdilar. Yurtimiz savdogarlarini Xitoy, Hindiston, Qrim, Kichik Osiyo va Shimoliy Afrikaning poytaxt shaharlari portlarida ko‘rish mumkin edi. Bundan anglash mumkinki, Temur “kuchli davlat – kuchli diplomatiya” tamoyiliga amal qilgan. Uning fikricha, savdo va iqtisodiy munosabatlar davlatning diplomatik muzokaralarida muhim o‘rin tutadi.

Amir Temur davlati va uning xalqchil ichki siyosati va adolatli tashqi siyosati tarixini genetik tahlil etar ekanmiz, Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari qariyb ikki yarim ming yildan buyon davom etib, o‘zaro savdo-madaniy aloqalar ayniqsa, Amir Temur va Temuriylar davrida o‘zining yuksalish bosqichiga ko‘tarilgan (Rui Gonzales de Klavixo. 2010: 6). Tarixshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilar ekanmiz Amir Temur tashqi siyosatda asosan quyidagi yo‘nalishlarga: Davlat xavfsizligi va barqarorlik, kuch va diplomatiya muvozanati, xalqaro ittifoqlar va aloqalar, savdo yo‘llari va iqtisodiy manfaatlar, elchilar xavfsizligi va diplomatik madaniyat, axborot va razvedka, davlat manfaatlari ustuvorligi kabi tamoyillarga e’tibor qaratilganini ko‘rishimiz mumkin. Demak, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadigan bo‘lsak, Amir Temur tashqi siyosati – bu xavfsizlik, iqtisod, diplomatiya va kuchning o‘zaro uyg‘unligiga asoslangan mukammal tizim edi.

O‘zbekistonda mustaqillikning ilk yillaridanoq Amir Temur shaxsi hamda uning jahon sivilizatsiyasi tarixidagi o‘rni davlat siyosati darajasida e’tirof etilib, ushbu yo‘nalishda tizimli ilmiy va ma’naviy-ma’rifiy ishlar yo‘lga qo‘yildi. Xususan, 1996-yilda YUNESKO (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta’lim, fan

va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti) homiyligida Parij shahrida Sohibqiron tavalludining 660 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlanishi uning tarixiy merosiga berilgan yuksak bahoning yaqqol ifodasi bo‘ldi. Mazkur davrdan boshlab respublikada Amir Temur hayoti va faoliyatini chuqur o‘rganish, uning davlat boshqaruvi tamoyillari, xususan, “Temur tuzuklari”da aks etgan siyosiy-huquqiy qarashlarni ilmiy asosda tadqiq etish hamda keng jamoatchilik orasida targ‘ib qilishga qaratilgan ko‘plab fundamental va amaliy loyihalar amalga oshirildi. Natijada, Sohibqiron merosi milliy davlatchilik an’analari, strategik boshqaruv tajribasi va ma’naviy qadriyatlar tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida qayta talqin etildi.

Shu bilan birga, yosh avlod ongiga Amir Temurning boy siyosiy va ma’naviy merosini chuqur singdirish, uni zamonaviy taraqqiyot talablari bilan uyg‘un holda talqin etish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida davom ettirilmoqda. Ana shu izchil siyosatning mantiqiy davomi sifatida 2026-yilda Sohibqiron tavalludining 690 yilligi mamlakatimizda keng jamoatchilik ishtirokida nishonlanib, bu jarayon tarixiy xotirani mustahkamlash, milliy o‘zlikni anglashni chuqurlashtirish hamda ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda. O‘zbekistonda mustaqillikning ilk yillaridanoq Amir Temur shaxsi hamda uning jahon sivilizatsiyasi tarixidagi o‘rni davlat siyosati darajasida e’tirof etilib, ushbu yo‘nalishda tizimli ilmiy va ma’naviy-ma’rifiy ishlar yo‘lga qo‘yildi. Xususan, 1996-yilda YUNESKO (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti) homiyligida Parij shahrida Sohibqiron tavalludining 660 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlanishi uning tarixiy merosiga berilgan yuksak bahoning yaqqol ifodasi bo‘ldi. Mazkur davrdan boshlab respublikada Amir Temur hayoti va faoliyatini chuqur o‘rganish, uning davlat boshqaruvi tamoyillari, xususan, “Temur tuzuklari”da aks etgan siyosiy-huquqiy qarashlarni ilmiy asosda tadqiq etish hamda keng jamoatchilik orasida targ‘ib qilishga qaratilgan ko‘plab fundamental va amaliy loyihalar amalga oshirildi. Natijada, Sohibqiron merosi milliy davlatchilik an’analari, strategik boshqaruv tajribasi va ma’naviy qadriyatlar tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida qayta talqin etildi. Shu bilan birga, yosh avlod ongiga Amir Temurning boy siyosiy va ma’naviy merosini chuqur singdirish, uni zamonaviy taraqqiyot talablari bilan uyg‘un holda talqin etish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida davom ettirilmoqda. Ana shu izchil siyosatning mantiqiy davomi sifatida 2026-yilda Sohibqiron tavalludining 690 yilligi mamlakatimizda keng jamoatchilik ishtirokida nishonlanib, bu jarayon tarixiy xotirani mustahkamlash, milliy o‘zlikni anglashni chuqurlashtirish hamda ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kundagi xalqaro vaziyatga baho berar ekan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev o‘tmishdagi tarixiy holatga baho berib: “Sohibqiron bobomizning Fransiya, Angliya, Ispaniya, Vizantiya, Misr, Xitoy, Hindiston, Usmoniylar imperiyasi kabi ko‘plab davlatlarning hukmdorlari bilan olib borgan diplomatik aloqalari va yozishmalari buni yaqqol tasdiqlaydi (Mirziyoyev Sh.M. 2018: 282)”, - deya ta’kidlaydi.

Bevosita Amir Temur hukmronligi davrida Yevropaning yirik davlatlaridan o‘nlab elchilar kelgan. Temurning bag‘rikenglik va diniy e’tiqod borasidagi erkinligi davlat hududida yashagan xristian hamda yahudiylarning o‘z dinlariga bemalol amal qilish imkoniyatini yaratgan (Lyusen Karen: 2007). Amir Temur tomonidan boshqa davlatlarga yuborilgan elchilar xalqaro va diplomatiya huquqi mezonlariga qat’iy amal qilganlar (Ermatov B. 2019: 32-36).

Amir Temur diplomatiyasi mardlik, jasurlik, tashabbuskorlik va jamiyki insoniy fazilatlarga yo‘g‘rilganligi, hatto u yengilgan raqibiga katta hurmat va jumardlik ko‘rsatgan. (Sharofiddin Ali Yazdiy 1997:261). Temurning Yevropaga, jumladan, Fransiya bilan hamkorlik aloqasiga jiddiy e’tibor qaratganligini, va o‘z navbatida Fransiya qiroli Karl VI ham bunga munosib javob qaytarganligini, yozilgan maktublari orqali bilib olish mumkin (Mirziyoyev Sh.M. 2019: 248).

Shu bilan birga, Amir Temur hayoti va faoliyatini chuqur o‘rgangan fransuz olimi Luyusen Keren uning shaxsiga yuksak baho berib, quyidagilarni ta’kidlaydi: “Temurbek benazir siymo bo‘lib, uning qiyosi yo‘q. Amir Temur me’morchilik va dekorativ san’atni nozik did bilan anglay olgan. Uning davrida Samarqand va Keshda bunyod etilgan masjid, saroy va madrasalar fors me’morchiligining oddiy taqlidi emas, balki buyuk amir tomonidan qo‘llab-quvvatlangan, yuksak madaniyat va texnik salohiyatga ega ustalarning original ijod mahsulidir”. Mazkur fikrlar Amir Temurning bunyodkorlik siyosati chuqur o‘ylangan va maqsadli bo‘lganini ko‘rsatadi. U mintaqani jahonning eng obod va go‘zal shaharlariga aylantirishni strategik vazifa sifatida ilgari surgan. Natijada amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar davlatning xalqaro nufuzini mustahkamladi, savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga xizmat qildi, xavfsizlik tizimini ta’minladi hamda Markaziy Osiyoni o‘z davrining muhim global siyosiy va iqtisodiy markazlaridan biriga aylantirdi.

Amir Temur diplomatiyasining yana bir muhim jihati – elchilar xavfsizligini ta’minlash hamda xalqaro huquqiy me’yorlarga qat’iy rioya etishdan iborat bo‘lgan. U elchilarga nisbatan hurmat va daxlsizlik tamoyilini davlat siyosati darajasiga ko‘targan holda, diplomatik munosabatlarning barqarorligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratgan. Xususan, Xitoy bilan munosabatlarni izga solish va rasmiy aloqalarni mustahkamlash maqsadida 1387-1396-yillar davomida bir necha bor elchilar Pekin shahriga yuborilgan. Amir Temur diplomatik missiyalarni amalga

oshirishda elchilar tanloviga ham jiddiy yondashib, asosan ilmli, tajribali va ijtimoiy nufuzga ega shaxslarni jalb etgan. Jumladan, Xitoyga yuborilgan elchilar tarkibida Mavlono Hofiziy, Toj ad-Din, Shohalil, Nig‘mat ad-Din, Darvish va Alomat ad-Din kabi vakillar bo‘lib, ular orqali Pekin bilan nafaqat diplomatik, balki savdo-iqtisodiy aloqalar ham tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilgan.

Amir Temur tashqi siyosatda real voqelik va mavjud siyosiy vaziyatni chuqur tahlil qilish asosida qarorlar qabul qilgan. U pragmatik yondashuvni ustuvor deb bilib, zarur holatlarda xorijiy davlatlar tomonidan ilgari surilgan turli ittifoqlar tuzish takliflariga ham ijobiy munosabat bildirgan. Bu esa uning diplomatik faoliyatida moslashuvchanlik, strategik tafakkur va uzoqni ko‘zlab ish yuritish tamoyillari ustuvor bo‘lganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, Yevropa davlatlari bilan munosabatlarda buni yaqqol ko‘rish mumkin. Bunga misol tariqasida Ispaniya (Kastiliya) bilan tuzilgan ittifoqni ko‘rsatish mumkin. Ispaniya qiroli Amir Temur huzuriga elchilari – Pelayo de Sotomayor va Fernando de Palazueloslarni yuborgan. Bunga javoban Temur Ispaniya saroyiga Muhammad Qozi nomli o‘z elchisini yuborgan, xat va sovg‘alar bilan diplomatik aloqa o‘rnatgan. Bu Ittifoq va tashqi munosabatlar strategiyasining aniq misolidir. Klavixoning esdaliklarida yozilishicha, Temur Yevropadan kelgan rasmiy elchilar bilan yaxshi munosabatlar o‘rnatgan. Masalan, Ispaniyadan Rui Gonzales de Klaviho rahbarligidagi delegatsiya Samarqandga kelgan va u yerda Temur bilan rasmiy muloqotlar o‘tkazgan. Bu ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik tus va hamkorlikni ko‘rsatadi.

Bundan tashqari Amir Temur Fransiya qiroli Karl VI ga elchi yuborib, hujum va mudofaa ittifoqini taklif qilgan va savdo hamkorligini rivojlantirishni maqsad qilgan. Jumladan, Temurning elchisi Parijga 1403-yil 15-iyunda yetib borgan. Bugun shu elchilikdan darak beruvchi noyob manba, ya’ni xatlarning asl nusxalari Fransiyaning Luvr muzeyida saqlanmoqda.

Amir Temur o‘zining “Tuzuklar”ida diplomatiya haqida qimmatli fikrlarini ham berib o‘tgan. Jumladan, davlat ishlarida kengash (diplomatiya)ning katta o‘rin tutishini ta’kidlaydi. Ya’ni Amir Temur davlat ishlarini savol-javob, mulohaza va kengash orqali olib borish muhimligini ta’kidlaydi. Bu diplomatik qarashning asosiy tamoyili bo‘lib, har bir vazifani adolat bilan hal etishda axborot va maslahat muhim ekanligini ko‘rsatadi. Demak, Amir Temur diplomatiyani davlat ishida muhim vosita sifatida ko‘rgan.

Mana oradan qariyb olti asr o‘tib, ikki mintaqa xalqlarining avlodlari yana bir-biri bilan o‘zaro aloqalarni tikladi. Ikki mintaqa o‘rtasida siyosiy, madaniy hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Fransiya O‘zbekiston rahbari 2018-yil oktyabr oyidagi rasmiy tashrif bilan kelgan Yevropadagi birinchi mamlakat ekanini qayd etib, o‘n beshinchi asr boshida buyuk sohibqiron Amir Temur va Fransiya qiroli Karl VI

davridan buyon davom etib kelayotgan do‘stlik, o‘zaro hurmat va ishonch mamlakatlarimizni bog‘lab turishiga e’tibor qaratdi. Hamda bugungi kun va o‘tmishni qiyoslagan holda Prezident Sh. Mirziyoyev “... Biz mamlakatimizga chet el investitsiyalarini jalb qilishda elchilarimiz va diplomatlarimizning ishtirokini kuchaytirish haqida so‘z yuritdik. Bu masala Amir Temur zamonida ham kun tartibiga dolzarb vazifa sifatida qo‘yilganligini ko‘rishimiz mumkin” – deya ta’kidlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda, balki kuch va aql uyg‘unligiga asoslangan mukammal diplomatik tizim yarata olgan davlat arbobi bo‘lgan. Uning tashqi siyosati davlat xavfsizligi, iqtisodiy manfaatlar va xalqaro hamkorlikni uyg‘un holda rivojlantirishga qaratilgan edi. Ayniqsa, Buyuk ipak yo‘lini tiklash orqali savdo va madaniy aloqalarni rivojlantirishi uning strategik fikrlash darajasini yaqqol ko‘rsatadi. Temur diplomatiyasida muzokara va harbiy qudrat o‘rtasidagi muvozanat muhim o‘rin tutgan bo‘lib, bu tamoyil bugungi xalqaro munosabatlarda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Shuningdek, elchilar xavfsizligi, diniy bag‘rikenglik va xalqaro huquq normalariga amal qilish kabi jihatlar uning siyosatini yanada mukammal qilgan. Natijada, Amir Temur davrida Movarounnahr global siyosiy va iqtisodiy markazlardan biriga aylangan. Shu bois, uning diplomatik merosi hozirgi zamon davlatlari uchun ham muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur mavzuni chuqur o‘rganish va tahlil qilish natijasida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish mumkin.

Amir Temur diplomatiyasini zamonaviy xalqaro munosabatlar bilan qiyosiy o‘rganish asosida ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish.

Oliy ta’lim muassasalarida “Temur diplomatiyasi”ga oid maxsus o‘quv kurslarini joriy etish.

Yosh diplomatlarni tayyorlashda Amir Temurning strategik fikrlash va muzokara olib borish tajribasidan foydalanish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoev Sh.M. (2018) Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T. 2. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU,. – B. 282.
2. Mirziyoev Sh.M. (2019) Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. T. 3. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU.
3. Ermatov B. (2019) G‘arbiy Yevropa mamlakatlari adabiyotlarida Amir Temur siymosi: sarchashmalar va tasavvurlar // Fuqorolik jamiyati. №1. – B. 32-36.

4. Lyusen Karen (2007) “Men o‘z umrimni Temuriylar merosini o‘rganishga bag‘ishladim” // Xalq so‘zi. 10 aprel.

5. МИД РУз. Цели и задачи внешнеполитического курса Узбекистана. http://www.mfa.uz. (Дата обращения: 13.11.22).

6. Rui Gonzales de Klavixo. (2010) Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar). Tarj. O. Tog‘aev. – T.: O‘zbekiston.

7. Шараф ад-Дин Али Яздий (1997) Зафарнома. – Тошкент.: Шарқ нашриёти. – Б. 261.

8. Uzoq muddatli hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash yo‘lida // Xalq so‘zi. – 2018. – 10 oktyabr.

REFERENCES:

1. Mirziyoev Sh.M. (2018) Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T. 2. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU. – B. 282. (In Uzbek)

2. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. T. 3. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. – B. 248. (In Uzbek)

3. Ermatov B. G‘arbiy Yevropa mamlakatlari adabiyotlarida Amir Temur siymosi: sarchashmalar va tasavvurlar // Fuqorolik jamiyati. 2019. №1. – B. 32-36. (In Uzbek)

4. Lyusen Karen: “Men o‘z umrimni Temuriylar merosini o‘rganishga bag‘ishladim” // Xalq so‘zi. – 2007. – 10 aprel. (In Uzbek)

5. MID RUz. Tseli i zadachi vneshnepoliticheskogo kursa Uzbekistana. http://www.mfa.uz. (Data obrashcheniya: 13.11.22). (In Russian)

6. Rui Gonzales de Klavixo. Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar). Tarj. O. Tog‘aev. – T.: O‘zbekiston, 2010. – B. 6-7. (In Uzbek)

7. Sharaf ad-Din Ali Yazdi. Zafarnoma. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 1997. – B. 261. (In Uzbek)

8. Uzoq muddatli hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash yo‘lida // Xalq so‘zi. – 2018. – 10 oktyabr. (In Uzbek)

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XITOY BILAN OLIB BORILGAN ALOQALAR

RELATIONS WITH CHINA DURING THE ERA OF AMIR TEMUR AND THE TIMURIDS

ОТНОШЕНИЯ С КИТАЕМ В ЭПОХУ АМИРА ТЕМУРА И ТЕМУРИДОВ

Mamataxunov Nozim Azizovich
Oriental universiteti Rektori
t.f.f.d. (PhD), dotsent
Orcid 0009-0000-0601-222X

Annotatsiya. Ushbu maqolada Amir Temur va Temuriylar davlatining Xitoy (Min sulolasi) bilan olib borgan diplomatik, savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalari tadqiq etiladi. Maqolada ikki mintaqa o‘rtasidagi elchilik munosabatlari, Buyuk Ipak yo‘lining qayta tiklanishi va ushbu aloqalarning Markaziy Osiyo taraqqiyotidagi o‘rni tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, Temuriylar diplomatiyasining o‘ziga xos xususiyatlari va Xitoy imperatorlari bilan yozishmalarning ahamiyati yoritib berilgan.

Tayanch so‘zlar: *Amir Temur, Temuriylar renessansi, Min sulolasi, diplomatiya, Buyuk Ipak yo‘li, elchilik aloqalari, savdo munosabatlari, Samarqand, tarixiy manbalar.*

Annotation. This article examines the diplomatic, trade, economic, and cultural relations between the state of Amir Temur and the Timurids and China (the Ming dynasty). Based on historical sources, the study analyzes the ambassadorial ties between the two regions, the revival of the Great Silk Road, and the role of these relations in the development of Central Asia. Furthermore, the specific features of Timurid diplomacy and the significance of correspondence with Chinese emperors are highlighted.

Keywords: *Amir Temur, Timurid Renaissance, Ming Dynasty, diplomacy, Great Silk Road, ambassadorial relations, trade relations, Samarkand, historical sources.*

Аннотация. В данной статье исследуются дипломатические, торговые и культурные связи государства Амира Темура и Темуридов с Китаем (династия Мин). На основе исторических источников анализируются посольские отношения между двумя регионами, возрождение Великого шелкового пути и роль этих связей в развитии Центральной Азии. Также освещаются особенности дипломатии Темуридов и значение переписки с китайскими императорами.

Ключевые слова: *Амир Темур, Темуридский ренессанс, династия Мин, дипломатия, Великий шелковый путь, посольские связи, торговые отношения, Самарканд, исторические источники.*

KIRISH

Amir Temur va Temuriylar davlatining Xitoydagi Min sulolasi bilan olib borgan munosabatlari o‘rta asrlar diplomatiyasining eng murakkab va strategik ahamiyatga ega sahifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu ikki buyuk qudrat o‘rtasidagi hamkorlik asosida, birinchi navbatda, diplomatik aloqalarning strategik maqsadlari yotgan bo‘lib, bu munosabatlar nafaqat siyosiy tan olish, balki mintaqaviy xavfsizlik va “Buyuk Ipak yo‘li” ustidan nazorat o‘rnatish niyatida shakllangan.

Munosabatlarning muvaffaqiyati ikki tomonning iqtisodiy imkoniyatlari bilan ham bevosita bog‘liq edi. Temuriylar davlati G‘arb va Sharqni bog‘lovchi asosiy chorraha hamda yirik savdo markazi sifatida Xitoy mollarini jahon bozoriga chiqishida muhim vositachi rolini o‘ynagan. Shu bilan birga, Samarqand va Hirotdan Xitoy imperator saroyiga yuborilgan zotdor otlar, qimmatbaho toshlar va paxta mahsulotlari savdo aylanmasining asosini tashkil etgan. O‘z navbatida, Min sulolasi o‘zining ulkan sanoat salohiyati – ipakchilik, chinni va qog‘oz ishlab chiqarish texnologiyalari bilan Temuriylar bozorida yuqori mavqega ega bo‘lgan. Bu jarayon nafaqat tovar ayirboshlash, balki ilm-fan, tibbiyot va san’at sohasidagi o‘zaro tajriba almashinuviga ham keng yo‘l ochgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Amir Temur va Temuriylar davlatining Xitoydagi Min sulolasi bilan munosabatlari tarixshunoslikda o‘ziga xos konseptual xususiyatlar va metodologik yondashuvlar asosida tahlil etiladi. Ushbu mavzuning o‘rganilishida eng ko‘zga tashlanadigan xususiyat – diplomatik muloqotlarning siyosiy maqomini talqin qilishdagi qarama-qarshilikdir; xususan, an’anaviy Xitoy manbalari ushbu aloqalarni “sinotsentrizm” g‘oyasi doirasida, ya’ni Temuriylarni o‘lpon keltiruvchi vassal sifatida tasvirlashga moyil bo‘lsa, o‘zbek tarixshunosligi Asom O‘rinboyev (1961) va Akademik Bo‘riboy Ahmedov (1996) kabi olimlarning tadqiqotlariga tayanib, bu munosabatlarni o‘zaro manfaatli va teng huquqli sheriklik sifatida asoslab beradi. Shu bilan birga, tarixshunoslikda munosabatlarning davriylashtirilishi ham muhim o‘rin tutadi: agar Amir Temur davri tadqiqotlarda ko‘proq geosiyosiy raqobat va harbiy to‘qnashuv xavfi bilan tavsiflansa, Shohrux Mirzo va Mirzo Ulug‘bek davri “diplomatiyaning oltin davri” hamda intellektual almashinuv bosqichi sifatida tahlil qilinadi. T.f.d. professor Omonulla Bo‘riyev yozma manbalar, tarixiy geografiya va diplomatiya yo‘nalishlarida chuqur ilmiy

izlanishlar olib borgan. Uning “Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo” (1997) monografiyasi mashhur hisoblanadi.

Xorijiy, xususan amerikalik tarixchi Morris Rossabi “The Ming and Inner Asia” (2008) asarida Temuriylar va Min imperiyasi o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganib, ularni “iqtisodiy pragmatism”ga asoslangan aloqalar deb ta’riflaydi. Uning fikricha, har ikki tomon ham siyosiy ambitsiyalardan ko‘ra, savdo yo‘llaridan keladigan daromadni ustuvor deb bilgan.

Turkiyalik tarixchi Ahmad Shimshirgilning (2023) “Amir Temur” asarida Sohibqironning tashqi siyosati keng qamrovda yoritilib, uning Xitoy bilan munosabatlari ham muhim geosiyosiy yo‘nalish sifatida talqin etiladi. Muallif Amir Temurni nafaqat buyuk sarkarda, balki uzoqni ko‘ra oladigan strategik davlat arbobi sifatida tasvirlaydi.

Xitoylik taniqli olim, Nankin universitet professori Liu Yingsheng (2003) Amir Temur va Temuriylar davri tarixini xitoy va fors manbalari asosida tadqiq qilgan eng nufuzli xorijiy mutaxassislardan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi Amir Temur va Temuriylar davlatining Xitoydagi Min sulolasi bilan olib borgan diplomatik hamda iqtisodiy aloqalarini tizimli va xolis tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida tarixiylik va obyektivlik tamoyillariga tayanilgan holda, ikki buyuk davlat o‘rtasidagi munosabatlar o‘sha davrning geosiyosiy voqeliklari va xalqaro aloqalar tizimi kontekstida o‘rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

XIV asrning so‘nggi choragi va XV asr boshlarida Xitoydagi Min imperiyasi hamda Markaziy Osiyodagi Temuriylar davlati o‘rtasida faol diplomatik aloqalar yo‘lga qo‘yilgan. Biroq, ushbu mavzu tadqiq etilganda tarix fanida qator noaniqliklar va chigalliklar ko‘zga tashlanadi. Bunday ziddiyatli holatlarning vujudga kelishi turlicha omillar bilan bog‘liq bo‘lib, ba’zan ilmiy yondashuvlarning chalkashishiga va tarixiy haqiqat chegaralaridan og‘ishishiga sabab bo‘ladi.

Eng avvalo, shuni ta’kidlash joizki, Amir Temur va Xitoy hukmdorlari o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar o‘z davrida yetarli darajada batafsil yoritilmagan. Mavjud manbalardagi uzuq-yuluq ma’lumotlar qat’iy ilmiy xulosalar chiqarish uchun kamlik qiladi. Shu bilan birga, ushbu ma’lumotlarning ishonchlilik darajasi ham hamisha yuqori emas. Har ikki tomon (Xitoy va musulmon dunyosi) manbalarida “saroy tarixchiligi” an’analari ustuvorligini hisobga olgan holda, ushbu mavzu yuzasidan manbalar bilan ishlashda tanqidiy yondashuv talab etiladi.

O‘z davrining siyosiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, Xitoy yilnomalarida ham, musulmon muarrixlarining asarlarida ham hukmron sulolani ulug‘lash va raqib tomonning kamchiliklarini bo‘rttirib ko‘rsatish holatlari uchrashi tabiiy hol. Shunga qaramay, turli tarixiy manbalarni xolislik va adolat tamoyillari asosida o‘rganish orqali tarixiy haqiqatni birmuncha aniq tiklash imkoniyati mavjud.

Amir Temur bilan Xitoy imperatorlari o‘rtasida elchilik aloqalarining qachon boshlanganligi masalasi tarixiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Masalan, ba’zi tadqiqotchilar Min imperiyasi XIV asrning 70-yillaridayoq Amir Temur huzuriga o‘z elchilarini yuborganligini qayd etadilar. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad – G‘arbiy mamlakatlarga Xitoyda yangi sulola (Min) hokimiyat tepasiga kelganini ma’lum qilish bo‘lgan. Biroq, Amir Temur tomonidan ushbu tashrifga javob elchiligi jo‘natilmagani ta’kidlanadi (Zsombor Rajkai, 2015: 50).

Fransuz sharqshunosi R. Grussening fikricha, dastlabki elchilik 1385-yilda Xitoy imperatori Xun’u (1368-1398 yy.) tomonidan yuborilgan. Ushbu missiya Xami, Turfon va Ilibaliq orqali kelib, Chig‘atoy (aniqrog‘i Jeta) va Dug‘lat beklari haqida ma’lumot to‘plagan hamda Samarqandga yo‘l olgan. Fu An boshchiligidagi mazkur elchilik vakillari Samarqandda ushlab qolinib, uzoq muzokaralardan so‘ng ortiga qaytishiga ruxsat berilgan (Р. Груссэ, 1996: 55).

Amir Temur tomonidan Xitoyga keyingi yillarda bir necha marotaba elchilar jo‘natilganligi tarixiy adabiyotlarda qayta-qayta ta’kidlanadi. Min sulolasi tarixiga oid manbalardan sanaluvchi “Min shi lu” (“Min sulolasining haqiqiy tarixi”) kitobida 1389-1398-yillarda Xitoyga Amir Temur saltanatidan to‘qqiz marta elchi kelganligi qayd etilgan (С.Саидқосимов, 2001: 121). Min sulolasi manbalarida tilga olingan Amir Temur elchilari quyidagilar: 1387 va 1389-yillarda ikki marotaba Manla Xafeyszы (Mulla Hofiz), 1388-yilda Tachjudin (Toj ad-Din), 1391-yilda Shaxali (Shoxalil), 1392-yilda Nimaopudin (Nig‘mat ad-Din), 1394 va 1395-yillarda ikki marta Daeryueshi (Darvesh) hamda 1396-yilda Alamadan (Alomat ad-Din) boshchiligidagi elchilar guruhi Amir Temur nomidan Xitoy imperatori qabulida bo‘lganlar (А. Хўжаев, 2007: 199).

Amir Temurning tashqi siyosatida Xitoy bilan aloqalar keskinlashganining bir qancha sabablarini keltirib o‘tish mumkin. Xususan, Xitoydagi Min sulolasi o‘zini dunyoning eng oliy davlati deb bilgan va boshqa hukmdorlardan bo‘ysunishni, ya’ni soliq yuborishni talab qilgan. Bunday talablar esa Amir Temur kabi mustaqil va qudratli hukmdor uchun qabul qilib bo‘lmaydigan holat edi. Xitoy elchilari orqali Temuriylar davlatidan doimiy ravishda ulkan sovg‘a va to‘lovlar talab qilinishi, shuningdek, Xitoy imperatorining o‘zini ustun qo‘yib, go‘yoki boshqa hukmdorlarni o‘ziga qaram deb ko‘rsatishga urinishlari Amir Temurning g‘azabiga sabab bo‘lgan.

Manbalarda qayd etilishicha, Amir Temur Xitoydan kelgan elchilarni bir muddat o‘z saroyida ushlab turadi va ularning qaytishiga darhol ruxsat bermaydi. Bu esa uning Xitoy siyosatiga nisbatan keskin munosabat bildirganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, Amir Temur dunyoning yirik imperiyalaridan birini barpo etgan hukmdor sifatida o‘z davlatining qudratini yanada kengaytirishni maqsad qilgan edi. Xitoyga yurish ham uning yirik harbiy-siyosiy rejalarining bir qismi bo‘lib, bu orqali u nafaqat siyosiy mustaqilligini himoya qilish, balki o‘z ta’sir doirasini kengaytirishni ko‘zlagan.

Ba’zi manbalarda bu yurish diniy jihatdan, ya’ni islomni yoyish va musulmon bo‘lmagan xalqlarga qarshi kurash sifatida ham talqin qilinadi. Biroq tarixchilar fikriga ko‘ra, diniy omil bilan birga siyosiy, diplomatik va strategik manfaatlar bilan bog‘liq edi.

1395-yilda Fu An boshchiligidagi Min elchisi 1500 kishi bilan kelgan, ammo Temur ularni 13 yil ushlab turgan, bu esa razvedka uchun ishlatilgan.

Imperatorning fikricha, Temur unga tegishli hududlarni ham ishg‘ol qilgan emish. Bularning solig‘ini to‘lashi kerak ekan, u esa yetti yildan beri to‘lamay kelayotgan emish. Imperator o‘sha yetti yillik soliqni to‘lashni talab qilibdi. Temur Chin elchilariga shunday javob berdi:

Chin xoqonining buni talab qilishga haqqi bor. Ammo yetti yillik soliqni elchilar olib ketishi juda mushkul. Shuning uchun bu soliqlarni to‘plab bo‘lgach, o‘zimiz yetkazamiz. Xotirjam bo‘lsin (Ahmad Shimshirgul, 2023: 275).

Sohibqiron Xitoy imperatorining tanobini tortib qo‘yish payti kelganini anglab yetdi. Samarqandda bir necha kun dam olib, charchog‘ini chiqargan Amir Temur shahzoda va amirlarini huzuriga chaqirib, rejasini shunday bildirdi: “Buyuk Robbimiz bizga shunday kuch-qudrat berdiki, qilichning kuchi bilan dunyoni fath etib, yer yuzidagi podshohlarni itoatimiz ostiga oldik. Allohga shukrlar bo‘lsinki, U Zot bizga ato etgan ne’mat juda oz sonli sultonlarga nasib etgan. Endi niyatimiz shuki, bundan keyin ham kofirlarning ustiga bostirib borib, jihod qilish va u kofirlarni Allohning inoyati bilan iymon yo‘liga kiritishdir. Xitoy ustiga yurish qilib, u yerdagi butxona va otashparastlik ibodatxonalari o‘rniga masjidlar, xonaqohlar quramiz” (Ahmad Shimshirgul, 2023: 276).

Amir Temur Xitoyga katta yurish boshlash arafasida bo‘lgan, biroq 1405-yilda O‘tror yaqinida vafot etgani sababli bu reja amalga oshmay qolgan. Shunday qilib, umumiy xulosa qilganda, Amir Temurning Xitoyga yurish rejalari asosan diniy omil bilan bog‘liq bo‘lish bilan birga, siyosiy mustaqillikni saqlash, diplomatik bosimlarga javob berish va imperiyani kengaytirish kabi maqsadlarga ham qaratilgan edi.

Amir Temur vafotidan keyin Xitoy bilan munosabatlarda iliqlik kuzatildi. Ayniqsa, Shohrux Mirzo davrida xalqaro diplomatik aloqalar rivojlangan. Shohrux davrida Temuriylar davlatining Xitoy bilan elchilik aloqalari 1409-yildan, Hirotga Xitoy elchilari kelgan paytdan boshlanadi. Hofiz Abruning “Zubdat at-tavorix” asarida va u orqali Abdurazzoq Samarqandiyning “Matla us-sa’dayn” kitobida Xitoydan kelgan va Temuriylar davlatidan yuborilgan elchilar haqida xabar beriladi (N.Karimova, 1996: 48).

1412-yilda Xitoy imperatorining elchilari Samarqandga tashrif buyurgan. Bu elchilar orqali imperator Shoxrux saroyiga 3 tilda – fors, mo‘g‘ul belgisi bilan turkiy hamda xitoy tillarida bitilgan maktublarni jo‘natgan edi. U.Chambers asarida ham bu voqea xuddi shunday berib o‘tilgan. Ma’lumotlarga umumiy qaraladigan bo‘lsa, muallif o‘z asarida Xitoydan Sulton Shohrux huzuriga jami 4 marta – 1408, 1412, 1417 va 1419-yillarda elchilar kelganini qayd etgan.

Temuriylar davlatining Shohrux Mirzo va uning vorislari davridagi Xitoy (Min sulolasi) bilan munosabatlari o‘rta asrlar tarixining eng samarali va tinchliksevar diplomatik davrlaridan biri hisoblanadi. Amir Temurdan keyingi hukmdorlar, ayniqsa, Shohrux Mirzo tashqi siyosatda harbiy to‘qnashuvlardan ko‘ra iqtisodiy pragmatizm va savdo aloqalarini ustuvor deb bildilar, natijada ikki buyuk davlat o‘rtasida “Buyuk Ipak yo‘li”ni qayta tiklashga qaratilgan strategik hamkorlik qaror topdi. Ushbu davrda diplomatik muloqotlar avvalgi keskinlikdan xoli bo‘lib, o‘zaro teng huquqlilik va ehtirom tamoyillari asosida shakllandi. Shohrux Mirzo va Xitoy imperatori o‘rtasidagi doimiy elchilik almashinuvlari yaqqol misol bo‘ladi. G‘iyosuddin Naqqosh kabi elchilarning safar kundaliklari orqali Xitoy madaniyati va davlatchilik tizimi musulmon dunyosiga keng tanitilgan bo‘lsa, Xitoy saroyida ham Temuriylar elchilariga yuksak hurmat ko‘rsatilib, ularning zotdor otlari va hunarmandchilik mahsulotlari imperatorlar tomonidan yuqori baholangan. Bu hamkorlik nafaqat iqtisodiy daromad keltirdi, balki madaniy va ilmiy integratsiyaga ham yo‘l ochdi; natijada Temuriylar san’atida Xitoy uslubi unsurlari boyisa, Xitoyda astronomiya va islom sivilizatsiyasi yutuqlariga bo‘lgan qiziqish ortdi. Umuman olganda, Temuriylar va Min sulolasi o‘rtasidagi ushbu davr munosabatlari XV asr jahon savdo tizimining barqarorligini ta’minlagan va ikki mintaqaning ham iqtisodiy yuksalishiga xizmat qilgan buyuk diplomatik renessans namunasi bo‘lib xizmat qildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Amir Temur va Temuriylar davlatining Xitoydagi Min sulolasi bilan olib borgan ko‘p qirrali munosabatlarini tadqiq etish natijasida quyidagi **xulosalarga** kelindi:

Birinchidan, ikki davlat o‘rtasidagi aloqalar bir tekisda kechmagan. Agar Amir Temur davrida munosabatlar ko‘proq geosiyosiy raqobat va harbiy ustunlikka intilish harakati bilan xarakterlansa, Shohrux Mirzo va uning vorislari davrida bu aloqalar o‘zaro teng huquqlilik, tinch-totuv qo‘shnichilik va iqtisodiy pragmatizm tamoyillariga asoslangan “oltin davri”ga kirdi.

Ikkinchidan, Temuriylar va Min sulolasi o‘rtasidagi hamkorlikning harakatlantiruvchi kuchi “Buyuk Ipak yo‘li” xalqaro savdo tarmog‘ining xavfsizligini ta’minlash bo‘lgan. Savdo aloqalari nafaqat davlat xazinasini boyitgan, balki mintaqalararo tovar ayirboshlash orqali hunarmandchilik va sanoatning rivojlanishiga turtki bergan.

Uchinchidan, diplomatik aloqalar faqat siyosiy doirada cheklanib qolmay, chuqur madaniy ta’sirlashuvga yo‘l ochdi. Temuriylar san’atidagi xitoy uslubi unsurlari hamda Xitoyda islom sivilizatsiyasi yutuqlari, ayniqsa, astronomiya va tibbiyotga bo‘lgan qiziqishning ortishi bu aloqalarning madaniy integratsiya kuchini ko‘rsatadi.

Mavzuni yanada chuqurroq o‘rganish va uning ilmiy-amaliy ahamiyatini oshirish maqsadida quyidagi **takliflar** ilgari suriladi:

- qiyosiy manbashunoslikni rivojlantirishga zarurat seziladi. O‘zbekiston va Xitoy tarixchilari hamkorligida fors va xitoy tillaridagi birlamchi manbalarning (xususan, hali o‘zbek tiliga tarjima qilinmagan Min sulolasi yilnomalarining Markaziy Osiyoga tegishli qismlari) qiyosiy akademik nashrlarini tayyorlash lozim;
- O‘zbekiston hududidagi Temuriylar davri shaharlaridan (Samarqand, Hirot, Shahrisabz) topilgan Xitoy chinnilari va boshqa artefaktlarni kimyoviy va san’atshunoslik nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qilib, savdo yo‘nalishlarining aniq xaritalarini ishlab chiqish zarur.
- mazkur tarixiy tajribani zamonaviy “Bir makon, bir yo‘l” kabi global loyihalar kontekstida tahlil qilib, oliy o‘quv yurtlarining tarix va xalqaro munosabatlar yo‘nalishlari uchun maxsus o‘quv modullarini yaratish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Аҳмедов Б. (1991). Амир Темур: Тарихий-биографик очерк. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти.

2. Бартольд В.В. (1964). Сочинения. Том II, часть 2. Работы по истории Центральной Азии. – Москва: Наука.

3. Груссэ Р. (2006). Империя степей: Аттила, Чингиз-хан, Тамерлан (Перевод Х.Хамраева). – Алматы: Санат.

4. Каримова Н. (1996). Темурийлар билан Хитой алоқалари (Хитой манбалари бўйича) // Шарқшунослик. – Тошкент, №7.

5. Карoматов Ҳ. (2001) Амир Темур жаҳон тарихида / Масъул муҳаррир: – Тўлдирилган ва қайта ишланган иккинчи нашри. – Тошкент: Шарқ.

6. Liu Yingsheng. (2005). The Relations between the Timurids and the Ming Court. – Nanjing University Press.

7. Rossabi M. (1998). The Ming and Inner Asia // The Cambridge History of China. Vol. 8. – Cambridge University Press.

8. Ртвеладзе Э.В. (1996). Китайские посольства ко двору Амира Темура и Темуридов // Общественные науки в Узбекистане. – Тошкент: Фан, № 7-10.

9. Sharafuddin Ali Yazdiy. (2003). Zafarnoma. – Toshkent: Sharq.

10. Ўринбоев А. (1961). Абдураззоқ Самарқандийнинг Ҳиндистон сафарномаси. – Тошкент.

11. Хўжаев А. (2007). Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти.

REFERENCES:

1. Ahmedov B. (1991). Amir Temur: Tarixiy-biografik ocherk. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati. (In Uzbek)

2. Bartold V.V. (1964). Sochineniya. Tom II, chast 2. Raboty po istorii Tsentralnoy Azii. – Moskva: Nauka. (In Russian)

3. Grusse R. (2006). Imperiya stepey: Attila, Chingiz-xan, Tamerlan (Perevod X. Xamraeva). – Almaty: Sanat. (In Russian)

4. Karimova N. (1996). Temuriylar bilan Xitoy aloqalari (Xitoy manbalari bo‘yicha) // Sharqshunoslik. – Toshkent, №7. (In Uzbek)

5. Karomatov H. (2001). Amir Temur jahon tarixida / Mas’ul muharrir. – To‘ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashri. – Toshkent: Sharq. (In Uzbek)

6. Liu Yingsheng. (2005). The Relations between the Timurids and the Ming Court. – Nanjing University Press. (In English)

7. Rossabi M. (1998). The Ming and Inner Asia // The Cambridge History of China. Vol. 8. – Cambridge University Press. (In English)

8. Rtveladze E.V. (1996). Kitayskie posolstva ko dvoru Amira Temura i Temuridov // Obshchestvennye nauki v Uzbekistane. – Toshkent: Fan, № 7-10. (In Russian)

9. Sharafuddin Ali Yazdiy. (2003). Zafarnoma. – Toshkent: Sharq. (In Uzbek)

10. O‘rinboev A. (1961). Abdurazzoq Samarqandiyning Hindiston safarnomasi. – Toshkent. (In Uzbek)

11. Xo‘jayev A. (2007). Buyuk ipak yo‘li: munosabatlar va taqdirlar. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. (In Uzbek)

AMIR TEMUR DAVRIDA MAMLUKLAR SULTONLIGI BILAN OLIB BORILGAN ALOQALAR

DIPLOMATIC AND MILITARY RELATIONS WITH THE MAMLUK SULTANATE DURING THE REIGN OF AMIR TEMUR

ДИПЛОМАТИЧЕСКИЕ И ВОЕННЫЕ ОТНОШЕНИЯ С МАМЛЮКСКИМ СУЛТАНАТОМ В ЭПОХУ АМИРА ТЕМУРА

Bobojonov Islombek Usmonaliyevich
Oriental universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD)
Tel.:+998 97-454-66-88
E-mail:islombekbobojonov1989@gmail.com
Orcid 0009-0002-2504-8505

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Temuriylar saltanati hamda Misr Mamluklar sultonligi o‘rtasidagi diplomatik, harbiy va iqtisodiy munosabatlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda Amir Temurning tashqi siyosatidagi strategik maqsadlari, xususan, savdo yo‘llari xavfsizligini ta’minlash va mintaqaviy barqarorlikni o‘rnatishga qaratilgan intilishlari yoritilgan. Shuningdek, Anqara jangidan so‘ng ikki davlat o‘rtasidagi kuchlar muvozanatining o‘zgarishi, Mamluklar sultonligining siyosiy va iqtisodiy jihatdan bo‘ysunish jarayoni hamda xutba va tanga zarbi kabi itoatkorlik belgilarining huquqiy ahamiyati manbalar asosida ko‘rib chiqiladi.

Tayanch so‘zlar: *Amir Temur, Mamluklar sultonligi, Sulton Barquq, Sulton Faraj, diplomatiya, xutba, tanga zarbi, xiroj, geosiyosat.*

Annotation. This article analyzes the diplomatic, military, and economic relations between the Timurid Empire and the Mamluk Sultanate of Egypt during the late 14th and early 15th centuries. The study highlights the strategic objectives of Amir Temur’s foreign policy, particularly his efforts to ensure the security of trade routes and establish regional stability. Furthermore, based on historical sources, the research examines the shift in the balance of power between the two states following the Battle of Ankara, the process of the Mamluk Sultanate’s political and economic submission, and the legal significance of vassalage signs such as the mentioning of the name in the khutbah and the minting of coins.

Keywords: *Amir Temur, Mamluk Sultanate, Sultan Barquq, Sultan Faraj, diplomacy, khutbah, minting of coins, kharaj, geopolitics.*

Аннотация. В данной статье анализируются дипломатические, военные и экономические отношения между империей Тимуридов и Мамлюкским султанатом Египта в конце XIV – начале XV веков. В исследовании освещаются стратегические цели внешней политики Амира Темура, в

частности, его стремление к обеспечению безопасности торговых путей и установлению региональной стабильности. Также на основе исторических источников рассматриваются изменение баланса сил между двумя государствами после Анкарской битвы, процесс политического и экономического подчинения Мамлюкского султаната, а также правовое значение признаков вассалитета, таких как упоминание имени в хутбе и чеканка монет.

Ключевые слова: *Амир Темур, Мамлюкский султанат, Султан Баркук, Султан Фарадж, дипломатия, хутба, чеканка монет, харадж, геополитика.*

KIRISH

XIV asrning so‘nggi choragida Markaziy Osiyodan Yevrosiyo kengliklari tomon yoyilgan Amir Temur saltanati va Yaqin Sharqning an’anaviy qudrati – Misr Mamluklar sultonligi o‘rtasidagi munosabatlar o‘rta asrlar diplomatiyasi va harbiy strategiyasining eng murakkab sahifalaridan birini tashkil etadi. Sohibqironning G‘arbiy Osiyo tomon yurishlari boshlanishi bilan ikki islomiy davlat o‘rtasidagi geosiyosiy muvozanat yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu aloqalar shunchaki ikki hukmdor o‘rtasidagi muloqot emas, balki buyuk savdo yo‘llari ustidan nazorat o‘rnatish, islom olamida ma’naviy-siyosiy ustunlikka erishish va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash yo‘lidagi ulkan kurashning ifodasi edi. Dastlabki diplomatik ehtiromlar bilan boshlangan bu jarayon, keyinchalik Mamluk sultonlarining Oltin O‘rda va Usmoniylar bilan Amir Temurga qarshi tuzgan yashirin ittifoqlari sababli shiddatli to‘qnashuvlarga aylanib, Sharq va G‘arbni bog‘lovchi o‘q ildizlarini tarixiy sinovdan o‘tkazdi.

Amir Temur va Mamluk sultonlari (ayniqsa, Sulton Barquq va Sulton Faraj) o‘rtasidagi aloqalar murakkab va ziddiyatli xarakterga ega bo‘ldi. Dastlabki yillarda bu munosabatlar diplomatik elchilar almashinuvi va savdo yo‘llari xavfsizligini ta’minlash kabi tinch maqsadlarda boshlangan bo‘lsa-da, keyinchalik mintaqaviy ustunlik uchun kurash natijasida keskinlashdi. Sulton Barquqning Amir Temurga qarshi Usmoniylar va Oltin O‘rda bilan ittifoq tuzishga urinishi, shuningdek, Amir Temur elchilarining hibsga olinishi kabi voqealar ikki davlat o‘rtasidagi ochiq harbiy to‘qnashuvlarga olib keldi.

Amir Temur vafotidan so‘ng, uning vorislari – Shohrux Mirzo va boshqa Temuriy hukmdorlar davrida Mamluklar bilan munosabatlar yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu davrda harbiy qarama-qarshiliklar o‘rnini diplomatik muloqot va madaniy-ma’rifiy aloqalar egalladi. Xususan, Ka’ba yopinchig‘ini (kisva) yuborish huquqi kabi ramziy masalalardagi raqobat ikki davlatning islom dunyosidagi obro‘-e’tibori naqadar yuqori bo‘lganidan dalolat beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Amir Temur davridagi Mamluklar sultonligi bilan munosabatlar tarixi tarixshunoslikda o‘zining murakkabligi va strategik ahamiyati bilan markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Mazkur mavzuga doir mavjud adabiyotlar va tadqiqotlarni zamonaviy ilm-fan yo‘nalishlaridan kelib chiqib, shartli ravishda quyidagi ikki yirik guruhga – mahalliy adabiyotlar va xorijiy olimlarning tadqiqotlariga ajratish mumkin.

Mahalliy tarixshunoslikda ushbu masala asosan Temuriylar davri diplomatiyasi, manbashunoslik va mintaqaviy xavfsizlik kontekstida tahlil qilingan. Xususan, atoqli olim Ubaydulla Uvvatov (1996) o‘zining “Amir Temur va mamluklar” kabi ko‘p yillik izlanishlari orqali Sohibqironning Mamluklar sultonligi bilan aloqalarini yoritishda ulkan hissa qo‘shdi. Shu bilan bir qatorda, yetuk mutaxassis, uzoq yillar SSR ning Misrdagi elchixonasida tarjimon bo‘lib faoliyat yuritgan Ahadjon Hasanov (1996) o‘z tadqiqotlarida e’tiborni elchilik aloqalarining amaliy jihatlariga qaratdi.

Zuxra Aripova (2021) O‘rta asrlarda Markaziy Osiyo – Misr munosabatlari nomli monografiyasida Temuriylar va Mamluk sultonlari o‘rtasidagi munosabatlar tarixini chuqur tahlil qildi. Akademik Bo‘riboy Ahmedov (1996) esa ushbu munosabatlarni umumiy tarixiy fon va harbiy-siyosiy jarayonlar bilan bog‘lagan holda o‘rgandi. Olim forszabon manbalar va arxiv hujjatlari asosida ikki qudratli davlat o‘rtasidagi ziddiyatlarning tub sabablari hamda ularning mintaqa taqdiriga ko‘rsatgan ta’sirini asoslab berdi.

Xorijiy tarixshunoslikda esa mavzu ko‘proq xalqaro munosabatlar tizimi, geosiyosiy muvozanat va iqtisodiy raqobat yo‘nalishida tadqiq etiladi. Bu borada amerikalik olima Anna Brodbridjning (2008) “Musulmon va mo‘g‘ul dunyosida hukmdorlik va mafkura” (Kingship and Ideology in the Islamic and Mongol Worlds) asari fundamental ahamiyatga ega. Olima Temuriylar va Mamluklar o‘rtasidagi diplomatik muloqot tilini mukammal tahlil qilib, maktublardagi murojaat shakllari orqali har ikki davlatning islom dunyosidagi siyosiy mavqeyini ko‘rsatib berdi. Yana bir amerikalik tadqiqotchi, Tuft universiteti (Tufts University) professori Beatris Forbes Manz (1989) esa o‘zining “Amir Temurning hokimiyatga kelishi va boshqaruvi” (The rise and rule of Tamerlane) asarida Amir Temurning Yaqin Sharqdagi harbiy strategiyasini batafsil yoritib, Mamluklar bilan to‘qnashuvlarini yirik geosiyosiy tartib o‘rnatishga bo‘lgan urinish sifatida baholadi.

Turkiyalik tarixchi Ahmad Shimshirgilning (2023) “Amir Temur” asari Sohibqiron shaxsiyati va u qurgan ulkan saltanat tarixini xolis va ilmiy-ommabop uslubda yoritib beradi. Shimshirgil ushbu asari orqali G‘arb tarixshunosligidagi

“shafqatsiz fotih” obrazini inkor etib, Amir Temurning islom olami va turk dunyosi tarixidagi buyuk birlashtiruvchilik rolini ko‘rsatib bergan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Amir Temur va Temuriylar bilan Mamluklar o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritishda tarixiy-qiyosiy metoddan foydalanilib, ikki davlatning siyosiy boshqaruv tizimi va diplomatik muloqot uslublari o‘zaro qiyoslandi. Shuningdek, tizimli tahlil metodi orqali aloqalar nafaqat harbiy to‘qnashuvlar, balki iqtisodiy, diniy va madaniy jarayonlar majmuasi sifatida ko‘rib chiqildi. Diplomatik maktublarni o‘rganishda kontent-tahlil usuli qo‘llanilib, ulardagi ramziy ma’nolar va mafkuraviy unvonlar talqin qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Amir Temurning 1392-1396-yillardagi besh yillik harbiy va siyosiy faoliyati eng yirik strategik missiyalardan biri hisoblanadi. Ushbu yurish davomida Eronning katta qismi, Iroq, Ozarbayjon va Armaniston hududlarida Amir Temur ta’siri o‘rnatildi. Muzaffariylar va Jaloiriylar kabi raqib sulolalar zaiflashtirildi. Yaqin Sharq eshiklari ochilib, aynan shu yurish yakunida Amir Temur va Mamluklar sultonligi o‘rtasidagi to‘qnashuv muqarrar bo‘lib qoldi.

Ubaydulla Uvatovning tadqiqotlariga ko‘ra, Amir Temur va Misr sultoni Barquq o‘rtasidagi rasmiy munosabatlar 1385-yildan boshlanganini qayd etadi. Nisbatan qisqa muddat ichida, ya’ni 1386-yildan 1405-yilgacha bo‘lgan davrda Barquq va uning vorisi Sulton Faraj ibn Barquq, shuningdek ularning Suriyadagi noiblari bilan o‘zaro aloqalar faol bo‘lgan. Bu davr mobaynida tomonlar o‘rtasida taxminan 25 marotaba maktublar almashilgan va elchiliklar yuborilgan (U.Uvatov, 1996: 64).

1382-yilda Mamluklar sultonligida hokimiyatga Sayfiddin Barquqning kelishi bilan ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi boshlandi. Bundan tashqari, Misr mamluklari Sohibqiron Amir Temurning ashaddiy dushmani Sulton Ahmad ibn Uvaysga mamlakatdan panoh bergan edilar. Shunga ko‘ra, Sohibqiron maktublaridan birida Misrga qochib kelgan Bag‘dod hokimi Sulton Ahmad ibn Uvaysni yuborishni, ya’ni Misrdan chiqarib yuborishni talab qilgan edi (U.Uvatov, 1996: 65).

Amir Temurning tashqi siyosatdagi bosh strategik maqsadi – o‘z tasarrufidagi va unga qo‘shni bo‘lgan hududlarda savdo yo‘llari xavfsizligini ta’minlash hamda xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish edi. Shu maqsadda u Misr va Shom hukmdori Sulton Barquq huzuriga elchi sifatida mashhur Shayxni qimmatbaho sovg‘alar va maxsus maktub bilan yuboradi. Maktubda Sohibqiron o‘zining siyosiy mavqeyini va mintaqadagi yangi voqelikni bayon etadi. U Abu Said Bahodirxon

vafotidan so‘ng Eron va Iroqda yuzaga kelgan tarqoqlikka chek qo‘yganini, Ollohning inoyati bilan Turon va Eronni yagona bayroq ostida birlashtirganini ta’kidlaydi (Sharafiddin Ali Yazdiy, 1997: 158).

Mazkur tarixiy voqelik Amir Temurning nafaqat zabardast fotih, balki uzoqni ko‘ruvchi tinchliksevar hukmdor hamda savdo-iqtisodiyot homiysi bo‘lganini yaqqol namoyon etadi. Uning siyosati zamirida harbiy qudratni faqatgina adolatni o‘rnatish va yo‘llarda osoyishtalikni saqlash vositasi deb bilgan yuksak davlatchilik tafakkuri yotadi. Sohibqiron o‘zining diplomatik tashabbuslari orqali musulmon dunyosining yaxlitligini asrash va xalqaro savdoni jonlantirishga intilgan islohotchi rahbar sifatida ish tutdi. Shuningdek, u chegaradosh davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik siyosatiga alohida e’tibor qaratadi va bu ishini Islom qoidalariga ko‘ra sharhlaydi.

“Arab diyori tasxir etilgach, 795-yilda Amir Temur Gurgon kelib chiqishining ulug‘ligi va shaxsiy xizmatlarining buyukligi jihatidan yuqori bo‘lgan Sova shayxini elchi sifatida Misr va Shom sultoni Malik Barquq oldiga yuborgan edi. Unga yaxshi, tiniq va puxta so‘zlar va ma’qul kalimalar aytib xabar jo‘natdi, ammo Barquq aqlli podshohlar qoidasiga xilof ravishda “elchiga o‘lim yo‘q,” deyishga qaramasdan, Shayx va uning sheriklarini o‘ldirib yubordi.

U paytda jahongir Sohibqiron Dashti Qipchoqda To‘xtamishxon bilan jon olib, jon berayotgan hamda Qora Yusuf Turkman bilan Avnik qal’asi qutvoli Otlamish Qavchin o‘rtasida urush ro‘y berayotgan edi. Taqdir ekan, Otlamishni mahbus etib, bu voqeani sobiq jazo hisobiga ilova qildi” (Xondamir, 2013: 210-211).

Shu vaqtda Rum yerlaridan g‘alaba bilan qaytgach, Amir Temur Malotiyadan turib Misr sultoniga yana elchi jo‘natadi. Ushbu elchilikda Amir Temur Amir Otlamishni zudlik bilan qaytarish talabini qo‘yadi va buning evaziga elchini o‘ldirganlik gunohidan o‘tadi. Biroq Misr sultonlari bu talabni mensimay, Amir Temurga rad javobini beradi.

Yaqin Sharqda Amir Temurga nisbatan katta harbiy-siyosiy ittifoq tashkil qilinayotganligi sababli Sohibqiron og‘ir-vazminlik bilan yo‘l tutishiga to‘g‘ri keldi. Bu ittifoq To‘xtamishxon, Sayfiddin Barquq hamda Yildirim Boyazid o‘rtasida yuzaga kelayotgan edi. Ayni shunday murakkab siyosiy vaziyatda Amir Temur har uch raqib bilan bir vaqtda jang qilish qiyin ekanligini to‘g‘ri anglagan holda, bu raqiblarga qarshi bosqichma-bosqich kurash olib boradi. U avvalo To‘xtamishxon bilan ayrim janglarda ustunlikka erishgach, e’tiborini Misr mamluklariga qaratadi. Shom diyori, Iroq va Bag‘dod hududlariga bir necha harbiy yurishlar tashkil etib, u yerlarda mamluklar ta’sirini zaiflashtiradi.

Sohibqiron Misr hukmdoriga shunday xat yo‘lladi: “Bilginkim, biz Xudoning lashkarlarimiz, u bizni g‘azabga kelgan paytida yaratgan va qahrga uchraganlarni jazolashni topshirgan... Biz bilan birga bo‘lmaganlarning boshlariga kulfat va yana kulfat yog‘ilgay! Agar siz qarshi isyon ko‘rsatsangiz, o‘zingizdan o‘pkalang... Muhoraba o‘ti yoqilmasdan oldin bizga javob yozishga shoshiling... Biz sizga elchilar yuborib, adolat bo‘yicha ish tutdik, ularni ham birinchi elchilar kabi qatl ettirsangiz, o‘zingizdan xafa bo‘ling!” (Keren L., 1999: 101).

1399-yilda Sayfiddin Barquqning vafoti vaziyatni yanada o‘zgartiradi va masalani yumshoqroq hal qilish imkonini beradi. Uning o‘rniga taxtga chiqqan an-Nosir Faraj avvalgi sultonga nisbatan siyosiy jihatdan mustahkam irodaga ega emasligi, hali yosh ekanligi sababli Amir Temurga qarshi qat’iy qaror qabul qilishga jazm qila olmaydi. Unga Otlamishni qaytarish talabi bilan Amir Temur elchi jo‘natganda uning talabini bajarishni paysalga soladi.

Mavlono Badriddin Ahmad ibn Shayx Shamsuddin Muhammad Jazariyni elchi sifatida Misrga jo‘natdi va Malik Farajga: “Ul diyorda bizning humoyun ismimiz va laqabimizga xutba o‘qitilishi va tangalar zarb qilinishi kerak!” deb xabar jo‘natdi. “Otlamish hibsdan ozod etilib, bu tomonga shoshilsin, aks holda jahongir Rum viloyatidan qaytib kelgach, ul chegara va mamlakatga yurish qiladi”, degan so‘zlarni ham aytdi (Xondamir, 2013: 245). Mamluklar saroyidagi amirlar bu talablarni qabul qilishdan bosh tortishdi va Mavlono Badriddin Jazariyni talablariga dastlabki rad javobini berishdi. Aslida bu vaqtda Amir Temur Usmonli imperiyasiga yurish uchun tayyorgarlik ko‘rayotgan edi.

Elchilarga rad javobi berilgach, 1401-yilda Amir Temurning Shom yurishlari davomida Damashq shahri qamal qilinadi. 1401-yil 5-aprel seshanba kuni Bu davrda mashhur tarixchi va mutafakkir Ibn Xaldun Misr mamluklari tomonidan Damashqqa yuborilgan edi. Shahar Amir Temur qo‘shinlari tomonidan qurshab olingach, Ibn Xaldun vaziyatni chuqur anglagan holda Amir Temur huzuriga borishga qaror qiladi. Bu uchrashuv oddiy diplomatik tashrifdan ko‘ra kengroq mazmunga ega bo‘ladi. Amir Temur Ibn Xaldunni hurmat bilan kutib oladi va ular o‘rtasida bir necha bor uchrashuvlar tashkil etiladi. Taxminan bir oy davom etgan bu suhbatlarda davlat boshqaruvi, tarixiy jarayonlar, xalqlar taqdiri va siyosiy strategiyalar haqida fikr almashiladi. Ibn Xaldun o‘zining keng bilim va tajribasiga tayangan holda Amir Temurga Mag‘rib – Shimoliy Afrika hududlari, u yerdagi sulolalar va siyosiy vaziyat haqida batafsil ma’lumot beradi. Amir Temur esa uning bilimidan manfaatdor bo‘lib, savollar beradi va muhokamalarni chuqurlashtiradi. Bu muloqot ikki buyuk shaxsning intellektual darajasini namoyon etgan tarixiy voqea sifatida e’tirof etiladi (Ahmad Shimshirgil, 2023: 207-209).

1400-1401-yillardagi janglarda Amir Temur Misr mamluklarini mag‘lubiyatga uchratgach, 1402-yil Anqara jangida Yildirim Boyazidning mag‘lubiyatga uchrashidan so‘ng, Sulton Faraj endi Amir Temurga teng kela olmasligini payqaydi va Amir Temurning elchilarini talabini qondiradi. Sulton Faraj Amir Temur hukmronligini tan olishga majbur bo‘ladi.

Amir Temur Ko‘ragonning Rum iqlimidagi g‘alabasi va Boyazid Yildirimning asir olinishi Yaqin Sharqdagi geosiyosiy muvozanatni butkul o‘zgartirib yubordi. Buning mantiqiy davomi o‘laroq, Misr va Shom mamlakatlarining barcha nohiyalarida jahongir Sohibqironning mutloq hokimiyati tan olinib, u zotning muborak nomlariga xutba o‘qitildi hamda tangalar zarb qilindi. Mazkur harakat o‘rta asrlar islomiy davlatchilik huquqida Mamluklar sultonligining amalda Temuriylar vassaliga aylanganini tasdiqlovchi oliy legitim belgisi edi.

Diplomatik aloqalarning qayta tiklanishi ramzi sifatida, Sulton Faraj uzoq vaqt asirlikda saqlangan Amir Temur amiri – Otlamishni o‘zining maxsus mulozimlari Ahmad va Aqta hamrohligida, munosib ehtirom bilan Sohibqiron qarorgohiga yo‘lladi. Bu bilan Mamluklar hukmdori ilgari yo‘l qo‘yilgan diplomatik xatolar va adovat uchun uzr so‘rab, Temuriylar saltanatiga bo‘lgan sadoqatini amalda namoyon etdi.

Ushbu bo‘ysunish nafaqat siyosiy, balki ulkan iqtisodiy majburiyatlarni ham qamrab olgan edi. Sulton tomonidan yuborilgan sanoqsiz naqd mablag‘lar, javohir- u marjonlar, nodir Misr matolari, mashhur arabiy tulporlar va o‘tkir tig‘li qilichlar oliy hukmdorga taqdim etiladigan sadoqat tuhfasi hisoblangan. Eng muhimi, Sulton Faraj bundan buyon Misr o‘lkasidan yig‘iladigan boj va xirojni muntazam ravishda Temuriylar xazinasiga yetkazib turish majburiyatini rasman qabul qildi.

Otlamish va hamrohlari Oqshahar mavzesida Sohibqiron huzuriga yetib kelganlarida, Mamluklar elchilari oliy darajadagi diplomatik protokolga muvofiq, yer o‘pish marosimini bajarib, o‘z itoatkorliklarini izhor etdilar. Bu voqea Amir Temurning Nil vodiysidan to Hind daryosigacha bo‘lgan ulkan makonda yagona va mutloq rahbar sifatida tan olinganini, Mamluklar sultonligi esa uning irodasiga to‘liq bo‘ysunuvchi ma’muriy birlikka aylanganini tarixiy haqiqat sifatida muhrladi. (Xondamir, 2013: 250)

Ushbu voqeadan so‘ng Misr ham Amir Temurga o‘z itoatkorligini izhor etdi va Amir Temur Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika tutashgan nuqtada barqaror siyosiy muhit yaratib, o‘z davrining eng qudratli global imperiyasini shakllantirishga muvaffaq bo‘ldi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Amir Temurning Yaqin Sharq yo‘nalishidagi tashqi siyosati yangi hududlarni egallash emas, balki qit’alararo savdo yo‘llari xavfsizligini ta’minlash va musulmon dunyosida yagona iqtisodiy makon yaratishga qaratilgan uzoqni ko‘zlovchi strategiyasi bo‘lgan. Shuningdek, ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarning keskinlashuviga Mamluk sultoni Barquq diplomatik etika qoidalarini buzib, Amir Temur elchilarini qatl ettirishi hamda Sohibqironning ashaddiy raqiblariga, ya’ni Ahmad Jaloir va Qora Yusufga panoh berishi asosiy sabab bo‘lgan. Bu esa diplomatiyaning harbiy to‘qnashuvga aylanishiga olib kelgan asosiy sabablardan biri bo‘ldi.

Amir Temur uch buyuk raqib – Oltin O‘rda, Mamluklar va Usmonli turklar ittifoqiga qarshi “bo‘lib tashla va hukmronlik qil” tamoyili asosida bosqichma-bosqich kurash olib bordi. Avval harbiy, Anqara jangidan so‘ng ruhiy ustunlikka erishish orqali Mamluklarni jangsiz bo‘ysundirishga muvaffaq bo‘ldi. Natijada Mamluklar sultonligining bo‘ysunishi xutba o‘qitish, tanga zarb qilish va boj-xiroj to‘lash kabi huquqiy majburiyatlar bilan mustahkamlandi. Bu voqea Amir Temuriylar imperiyasining Nil daryosidan Hind daryosigacha bo‘lgan ulkan hududda geosiyosiy nazorat o‘rnatganini ko‘rsatadi.

Mavzuni tadqiq etish natijasida quyidagi **takliflar** ishlab chiqildi:

Ushbu yo‘nalishda dastlab manbashunoslik sohasini kengaytirish taklif etiladi. Xususan, Temuriy va Mamluk munosabatlarini o‘rganishda nafaqat Markaziy Osiyo, balki Misr va Suriya arxivlarida saqlanayotgan arab tilidagi birlamchi manbalarni, masalan, Ibn Tag‘riberdi, al-Maqriziy asarlarini kengroq ilmiy iste’molga kiritish lozim.

Shuningdek, ushbu tarixiy tajribani zamonaviy xalqaro munosabatlar kontekstida o‘rganish, xususan, mintaqalararo transport yo‘llarini tashkil etishda “tinchlik va xavfsizlik – iqtisodiy taraqqiyot garovi” degan Temuriy tamoyillardan namuna olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ahadjon Hasanov. (1996) Sohibqiron va Misr sultonlari. – Xalq so‘zi. 1996-yil 20-fevral, № 37 (1290)
2. Anna Brodbridge. (2008) Kingship and Ideology in the Islamic and Mongol Worlds. – New York
3. Aripova Z. (2021) O‘rta asrlarda Markaziy Osiyo – Misr munosabatlari. – Toshkent.
4. Beatris Forbes Manz. (1989) The rise and rule of Tamerlane. – Cambridge.

5. Xondamir G‘iyosiddin Muhammad. (2013) Habib us-siyar. – Toshkent.
6. Ahmad Shimshirgul (2023) Amir Temur. – Toshkent.: “Nasim Kutub” .
7. Аминов Ҳ. (2018) Амир Темур дипломатияси: илмий-оммабоп қўлланма. – Тошкент: “Ijod-press”.
8. Аҳмедов Б. (1996) Амир Темур. – Тошкент: Ўзбекистон.
9. Ибн Арабшоҳ (1960) Ажоиб ал-мақдур фи тарихи Таймур. – Қоҳира.
10. Ибн Халдун (2004) Муқаддима. – Байрут: Dar al-Fikr.
11. Керен Л. (1999) Амир Темур салтанати. – Тошкент: Шарқ.
12. Муқминова Р. (1994) Темурийлар даврида Ўрта Осиё. – Тошкент: Фан.
13. Низомиддин Шомий (1996) Зафарнома. – Тошкент: Фан.
14. Уватов У. (2005) Амир Темур ва мамлуклар. – Тошкент.
15. Шарафиддин Али Яздий (1997) Зафарнома. – Тошкент.

REFERENCES:

1. Ahadjon Hasanov. (1996) Sohibqiron va Misr sultonlari. – Xalq so‘zi. 1996-yil 20-fevral, № 37 (1290) (In Uzbek)
2. Anna Brodbridge. (2008) Kingship and Ideology in the Islamic and Mongol Worlds. – New York (In English)
3. Aripova Z. (2021) O‘rta asrlarda Markaziy Osiyo – Misr munosabatlari. – Toshkent. (In Uzbek)
4. Beatris Forbes Manz. (1989) The rise and rule of Tamerlane. – Cambridge. (In English)
5. Xondamir G‘iyosiddin Muhammad. (2013) Habib us-siyar. – Toshkent. (In Uzbek)
6. Ahmad Shimshirgul (2023) Amir Temur. – Toshkent.: “Nasim Kutub”. (In Uzbek)
7. Aminov H. (2018) Amir Temur diplomatiyasi: ilmiy-ommabop qo‘llanma. – Toshkent: “Ijod-press”. (In Uzbek)
8. Ahmadov B. (1996) Amir Temur. – Toshkent: O‘zbekiston. (In Uzbek)
9. Ibn Arabshoh (1960) Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur. – Qohira. (In Arabic)
10. Ibn Xaldun (2004) Muqaddima. – Bayrut: Dar al-Fikr. (In Arabic)
11. Keren L. (1999) Amir Temur saltanati. – Toshkent: Sharq. (In Uzbek)
12. Muqminova R. (1994) Temuriylar davrida O‘rta Osiyo. – Toshkent: Fan. (In Uzbek)
13. Nizomiddin Shomiy (1996) Zafarnoma. – Toshkent: Fan. (In Uzbek)
14. Uvatov U. (2005) Amir Temur va mamluklar. – Toshkent. (In Uzbek)
15. Sharafiddin Ali Yazdi (1997) Zafarnoma. – Toshkent. (In Uzbek)

AMIR TEMUR DAVLATI UNING IJTIMOIY - IQTISODIY, MADANIY HAYOTI

THE STATE OF AMIR TEMUR: ITS SOCIO-ECONOMIC AND CULTURAL LIFE

ГОСУДАРСТВО АМИРА ТЕМУРА: ЕГО СОЦИАЛЬНО - ЭКОНОМИЧЕСКАЯ И КУЛЬТУРНАЯ ЖИЗНЬ

Djurayev Ikrom Nematovich
Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Tel.: +998979022081
E-mail: ikromgdu@mail.ru
Xurramova Sevinch Jamshid qizi
Guliston davlat pedagogika instituti
Tarix yo‘nalishi 33-24 guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Amir Temurning tuzgan davlati, uning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayoti haqida ma’lumot berilgan. Bu davrning katta bir o‘zgarishi “Ikkinchi Renessans” vaqtida adabiy muhit va tasviriy san’atda ham bo‘lgan yuksalishi haqida turli xil manbalar asosida tahlil qilingan va qimmatli ma’lumotlar berilgan. Undan tashqari maqolada Amir Temur davrini turli xil davrlarda turli xil yoritilganligi haqida ham ma’lumot berilgan. Amir Temur Sovetlar davrida zolim, hukmdor va bosqinchi sifatida yoritilgan. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng esa Amir Temurga nisbatan ishlatilgan noto‘g‘ri ayblovlar ham olib tashlanganligi haqida ham ma’lumot berilgan. Bulardan tashqari maqolada Amir Temur davrida ilm-fanning rivojlanganligi, keng qurilish ishlari olib borilganligi ham aytib o‘tiladi. Maqolada Amir Temurning o‘zini ham nihoyatda bilimli bo‘lganligi haqida ham so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *Turon, Hindiston, Hofiz Abru, Amir Tarag‘ay ibn Barquq, Takinaxotun, Kesh, Klavixon, Amir Husayn.*

Annotation. This article provides comprehensive information about the state established by Amir Temur, focusing on its socio-economic and cultural aspects. Based on various historical sources, it analyzes the significant transformations of this period, particularly the flourishing of the literary environment and fine arts during the "Second Renaissance." Furthermore, the article examines how Amir Temur’s era has been interpreted differently across various historical periods. It highlights that during the Soviet era, Amir Temur was portrayed as a cruel ruler and an invader. However, after gaining independence, these false accusations were dismissed, and his true historical legacy was restored. The article also discusses the

rapid development of science, extensive construction projects, and the high level of personal erudition and knowledge possessed by Amir Temur himself.

Keywords: *Turon, India, Hafiz-i Abru, Amir Taraghay ibn Barquq, Tekina Khatun, Kesh, Clavijo, Amir Husayn.*

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности государственного устройства Амира Темура, а также социально-экономические и культурные аспекты жизни в эпоху его правления. На основе анализа различных источников приводятся ценные сведения о значительном подъеме в литературной среде и изобразительном искусстве, происходившем в период «Второго Ренессанса». Кроме того, в статье освещается вопрос трансформации исторической оценки личности Амира Темура в разные эпохи. Автор отмечает, что в советский период Темур изображался как жестокий правитель и завоеватель, однако после обретения независимости эти необоснованные обвинения были пересмотрены. В работе также подчеркиваются достижения в области науки, масштабные строительные работы того времени и глубокая образованность самого Амира Темура.

Ключевые слова: *Туран, Индия, Хафиз Абру, Амир Тарагай ибн Баркук, Текинахотун, Кеш, Клавихо, Амир Хусейн.*

KIRISH

Amir Temur shaxsi bilan qancha g‘ururlansak, faxr iftixor etsak, shunga munosibdir. Binobarin, aynan buyuk Sohibqiron o‘z faoliyati bilan Turonda Uyg‘onish davrini boshlab bergan, bugungi saodatli kunlarimizning tamal toshini qo‘ygan. Temuriylar sulolasining ro‘yxati 193 nafar shahzoda va 300 dan ziyod malikadan iborat ekanligining o‘zi hayratomuz ma’lumot. Bu sulola jami 488 yil hukmronlik qilganini ta’riflashga til ojiz. Binobarin, tarixda bu qadar uzoq yashagan sulola bo‘lgan emas (Odilov, 2016).

Amir Temur davrida Uyg‘onish jarayonining yuz berishiga asosiy omil bu davrda insonning har tomonlama rivojlanishiga va har bir kishiga o‘z qobiliyatini to‘la namoyon qilishga qulay shart-sharoitlar yaratilgan edi.Amir Temur bobokalonimiz mana shu Turonda tug‘ilgan, mana shu yurtda yashab, uni yovdan ozod qilgani, buyuk davlat barpo etgani bilan barchamiz haqli ravishda faxrlanamiz. Bu ulug‘ zotni esa bizga Ollohning o‘zi millatimizga qaram sifatida inoyat etgan Sohibqiron bizga qoldirgan meros barcha avlodlarimizga xizmat qiladigan abadiy meros hisoblanadi.

Sohibqironning hukmdorlik davridagi madaniy va ma’naviy hayot tahlili shundan dalolat beradiki, ilm-ma’rifat sohiblariga ko‘rsatilgan yuksak e’tibor,

xayrixohlik davlat va jamiyat taraqqiyotidagi barqarorlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilgan

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ta’kidlash joizki, jahon miqyosida ulkan iz qoldirgan buyuk davlat arbobi va mohir sarkarda Amir Temur hayoti va faoliyati xususida bir qator tarixiy manbalar mavjud. Mazkur davrga oid ilk manbalardan biri bu fiqhshunos olim G‘iyosiddin Ali ibn Jamol al-Islom Yazdiyning “Ruznomayi g‘azavoti Hindiston” asari hisoblanadi. Mazkur “Kundalik” o‘zida Amir Temurning Hindistonga yurishi masalasini qamrab olgan bo‘lib, u hukmdorning shaxsiy topshirig‘iga ko‘ra uning muallifi tomonidan 1394-1403-yillar oralig‘ida yozilgan. Ushbu asarda Amir Temur harbiy yutuqlari, ushbu yutuqlarining mohiyati, buyuk sarkardaning harbiy strategiyasi va taktik uslublar, harbiy tuzilma, amir va bahodirlar faoliyati, ko‘plab taniqli davlat va harbiy amaldorlar, turli jug‘rofiya, hudud, shaharlar to‘risidagi qiziqarli ma’lumotlar mavjud. Temuriylar davri tarixini o‘z ichiga qamrab olgan muhim manbalardan yana biri tarixchi va geograf Hofiz Abru qalamiga mansub asar hisoblanadi (Сагдуллаев А., 2000: 137). Hofiz Abru hukmdor saroyiga yaqin shaxs bo‘lib, Amir Temurning chet el yurishlarida ham qatnashgan. U o‘z asarida Nizomiddin Shomiyning asari matnlarini ham kiritgan. Undagi qator ma’lumotlar aynan shu asarda o‘z aksini topgan. Masalan, Amir Temurning Samarqand yaqinidagi sug‘orish ishlarining amalga oshirilishi, Sohibqironning so‘nggi kunlari haqidagi ma’lumotlar aynan shu asarda o‘z aksini topgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda Amir Temur davlati, uning boshqaruvi, harbiy yurishlari, ijtimoiy-iqtisodiy hayotida xolislik tamoyiliga amal qilinib, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tarixiy tahlil hamda xronologik yondashuv kabi ilmiy usullardan foydalaniladi. Amir Temur davrining mustaqillikkacha va mustaqillikdan keyingi davrlarda qanday asosda o‘rganilganligi ham tahlil qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Buyuk davlat arbobi va mahoratli sarkarda Amir Temur 1336-yil 9-aprelda Keshga qarashli Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida barlos beklaridan biri bo‘lmish Amir Tarag‘ay ibn Barquq oilasida dunyoga keladi. Temurning onasi Takinaxotun Keshning obro‘li bekalaridan biri bo‘lgan, u haqida manbalarda ma’lumotlar ham saqlanib qolgan. Shunday bo‘lishiga qaramay bu ayol o‘z davrining zukko va dono ayollaridan biri bo‘lgan degan fikrni ilgari surish mumkin.

Ibn Arabshox Klavixon va boshqalar 1360-yilga qadar uning hayotining ayrim ma’lumotlari bilan izohlashga Temur yoshligidan zehnli va layoqatli bola

bo‘lib, bir tomondan uni otasi xat-savodga o‘rgatgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan o‘spirin yigit qator harbiy san’at sirlaridan xabardor bo‘ldi.

1360-1361-yillarda Mo‘g‘uliston hukmdori Tug‘luq Temur Movarounahr ichki hayotiga raxna sola boshlaydi. U ikki marotaba o‘lkaga yurish qiladi. 1360-1370-yillarda Movarounahr siyosiy hayotida Temur bilan bir qatorda ta’sir o‘tkazgan shaxslardan yana biri bu Amir Qozog‘onning nevarasi bo‘lmish Amir Husayn edi. Ta’kidlash joizki, Balx va uning atrofidagi yer-mulklar uning tasarrufida bo‘lgan. 1361-yilda Temur Amir Husayn bilan yaqinlashib, ikkala hokim birlashgan holda mo‘g‘ullar xonlariga qarshilik ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar (Азамат З., 2000). 1362-yil kuzida Tug‘luq Temur Movarounahrda o‘g‘li Ilyosxo‘jani qoldiradi. Yosh hokim loqayd va irodasiz bo‘lib, ko‘plab vaqtini maishatda o‘tkazadi, boshqaruv ishlarini esa amir beklik o‘z qo‘lida jamlab olib, o‘z holicha ish tutar edi.

Amir Temur va Amir Husaynning birlashgan qo‘shinlari Ilyosxo‘jaga qarshi 1362-yili Seyistonda jang bo‘lib o‘tadi. Amir Temur jang vaqtida o‘ng qo‘lining tirsagidan va o‘ng oyog‘iga kamon o‘qi tegishidan katta jarohatlanadi. Buning oqibatida u bir umr oqsoqlanib qoladi. Amir Temurning rasman taxtga kelishi 1370-yilga to‘g‘ri keladi. 1371-yili Amir Temur Xorazmga qo‘shin tortib keldi. Gurganjga borish uchun Kat shahri orqali o‘tish kerak edi. Bu shahar biroz qarshilik ko‘rsatgandan keyin Amir Temur qo‘shini tomonidan ishg‘ol qilindi (Хайруллаев М., 1997: 60)

1381-1382-yillarda Kalot, Turchiz, Sabzavor va Mozandaron, 1383-yil Seyiston bo‘ysundiriladi. 1384-yili esa Astrobod va Ozarbayjonga qilingan yurish natijasida Sori, Sultoniya, Tabriz,shaharlari egallandi. Natijada XIV asrning 80-yillari o‘rtalarida kelib butun Xuroson Amir Temur qo‘lga o‘tdi.

Amir Temur tomonidan amalga oshirilgan harbiy yurishlari tarixda, Uch yillik”, “Besh yillik’, “Yetti yillik” yurishlar deb nom olgan. Uch yillik yurish davrida Amir Temur Ozarbayjon, Mozondaron, Gilonni bo‘ysundiradi. Shundan keyin u Kavkazga yurish boshlab Tiflis, Arzirum va Van qa’laiarini egalladi (Абдураимов М., 2000)

Davlat boshqaruv tizimi. Ma’lumki, qurultoy qadimdan turkiy, mog‘ul kabilar ichida eng muhim masalalar bo‘yicha chaqiriladigan o‘ziga xos katta kengash hisoblangan. Turkiy udumlarga ko‘ra odatda davlat boshliqlari aynan qurultoyda saylangan, ular oq kigiz ustida o‘tkazilib, yuqoriga ko‘tarilgan. Oq kigizning to‘rt uchini eng nufuzli amaldorlar, diniy arboblar ko‘tarishga haqli bo‘lgan. Qurultoyda barcha qabila boshliqlari, eng nufuzli amaldorlar, diniy arboblar, sarkardalar ishtirok etishgan. Qurultoyda taxtga o‘tkazilgan kishi qonuniy hukmdor sifatida tan olingan.

Amir Temur dastlabki siyosiy faoliyatidan to vafotiga qadar o‘z qudratining o‘ndan to‘qqiz qismiga diplomatik salohiyat tufayli erishgan. Sohibqironning vorislari Shoxruh, Mirzo Ulug‘bek , Husayn Boyqaro, Bobur kabi yirik davlat arboblari ham ichki va tashqi aloqalarda Amir Temurning diplomatik merosiga amal qilib, uning bu boradagi siyosatini davom ettirganlar (Mo‘minov, 1993).

Tinchlik tomonidan manfaatdorligi, raqibiga shafqat qilish va unga imkon yaratish, har qanday sharoitda ham elchini qadrlash, tashqi siyosat va diplomatiya qoidalariga qat’iy amal qilish, inson hayoti daxlsizligi, Amir Temur tashqi siyosati va diplomatiyasining asosi hisoblangan. Chunonchi, Amir Temur maktublaridan birida “Elchig o‘lm va bandalik yo‘qdir, elchining gardaniga vazifa buyruqni aniq yetkazishdan boshqa narsa emasdir” deb yoziladi (Эшов И., 2025: 20).

Amir Temur topshirig‘iga ko‘ra barpo etilgan inshootlarning ulug‘vorligi siyosiy sohadagi vazifalardan biri edi. Mazkur holat Shahrisabzdagi Oqsaroy peshtoqiga bitilgan “Agar qudratimiz va karomatimizga shubha qilsa, shak keltirsa, qurdirgan imoratlarimizga qarang degan yozuvda o‘zining aniq ifodasini topdi. Amir Temur qurdirgan me’moriy inshootlar ichida, shubhasiz, Oqsaroy eng yirik va nodir obida hisoblanadi. Abdurazzoq Samarqandiyning yozishiga qaraganda Amir Temur to‘rtinchi marotaba, ya’ni 1379-yili Xorazmga yurishidan qaytganidan so‘ng xorazmlik bir guruh kishilarni Keshga ko‘chirib keltirganligini qayd etadi. Ko‘chirib keltirilganlar orasida quruvchi usta, mutaxassis bunyodkorlar ham bo‘lganki, ular Amir Temurning buyrug‘i bilan Keshda yangi saroy barpo etish ishiga jalb qilingan. Oqsaroyning qurilishi 1380-yil bahorida boshlangan. (Бўриев О., 2011). O‘z davrida umumiy balandlik darajasi 70 metrni tashkil etgan Oqsaroy binosining hozirgi vaqtgacha saqlanib qolgan qismi 38 metrni tashkil etadi. 1404-yil 29-avgust kuni Keshda bo‘lgan ispan elchisi Klavixo ustalar hanuz qurilish ishlarini davom ettirishayotganligini ta’kidlagan. Oqsaroy ko‘lami, ma’rifiy yechimi bo‘yicha tengi yo‘q imorat bo‘lib, uning saroyda saqlanib qolgan quyidagi yozuv ham tasdiqlaydi: “Go‘zalligi jihatidan hayratlanarli va ko‘k gumbazlari bo‘lgan bu bino peshtoq qubbalarida o‘z aksini topgan va jilvalanuvchi turli rangdagi nurlarni taratuvchi mash’alaga o‘xshaydi”. Nizomiddin Shomiy o‘zining “Zafarnoma” asarida Oqsaroy haqida “Uning toq va ravoqlari ayiq yulduziga yetadi, binobarin, dunyoda unga teng keladigan narsani hech kim hech qachon ko‘rmagan va eshitmagan” deya yuqorida ta’rif bergan edi (Темур тузуклари, 1996: 124-125).

Amir Temur davriga kelib miniatyura san’ati yanada rivoj topdi. Ibn Arabshoxning o‘z asarlarida Amir Temurning Samarqanddagi saroylarida bir qancha devoriy suratlar bo‘lganligini yozadi. Maqbaralar naqshlarida naqqoshlik va xattotlik san’ati namunasi bilan bir qatorda tasviriy lavhalar ham mavjud. Amir

Temur davrida Samarqandda o‘ziga xos miniatyura rassomchilik maktabi qaror topdi (Низомиддин Шомий, 1996).

Amir Temur ilm-fan arboblarini qadrlagan va hurmat qilgan. Arab tarixchisi, Damashqda Sohibqiron bilan shaxsan uchrashgan ibn Xaldun Amir Temurning tarixini chuqur bilish, bilim doirasi, salohiyatiga tan bergan edi. Amir Temur olimlarni qadrlashni “Tuzuklar”ida ham qayd etgan (Бўриев О., 2016: 155). O‘z vaqtida Sohibqiron Samarqandga mashhur astronom olimlar Nisodan at-Taftazoniy, Gurgondan al-Jurjoniylarni ham taklif qilib, o‘z ilmiy ishlarini aynan saltanat poytaxtida davom ettirishlariga imkon yaratgan edi. Sohibqironning o‘zi ilm-fan ixlosmandi bo‘lib, tarix, jug‘rofiya, mantiq, astronomiya, falsafa, diniy ilmlardan yaxshi xabardor bo‘lgan. Bibixonim tomonidan jome masjidi to‘g‘risida madrasa barpo etilishi ham ilm-fanga bo‘lgan intilish davlat miqyosida qo‘llab-quvvatlanganligining dalilidir.

Sharafiddin Ali Yazdiy va Ibn Arabshohning ma’lumot berishlaricha, Amir Temur Shomdan (Suriya) Samarqandga mashhur tabiblar Mavlono Jaloliddin va Mavlono Sulaymonlarni olib kelgan. O‘z davrining mashhur tabibi hisoblangan Mavlono Fayzulloh Tabriziy Sohibqironning shaxsiy tabibi bo‘lib xizmat qilgan. Shuningdek, saroyda Mavlono Izatiddin Ma’sud Sheroziy va Mavlono Farruh tabib singari tabiblar ham faoliyat ko‘rsatishgan. O‘z davrida mashhur tabib ibn Faqih Ilyosning tibbiyotga bag‘ishlangan bir nechta risolalari yozilgan bo‘lib, mahalliy tabiblar uchun yaxshi qo‘llanma rolini o‘tagan (Муҳамаджонов А., 1996). Bu esa tibbiyot ilmi XV asr boshlarida rivoj topganligidan darak beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Amir Temur va Temuriylar davri tarixini o‘rganishda Rus arxeologik jamiyatining Sharq bo‘limi boshchiligida olib borilgan arxeologik izlanishlarning hissasi katta bo‘lganini ta’kidlash joizdir.

Mustaqillik yillarida Amir Temur va Temuriylar davriga munosabat tubdan o‘zgaradi. Uzoq yillar mobaynida bu mavzuni o‘rganishdagi mavjud yondashuvlardan voz kechildi va Sovet tarixi fanidagi aksariyat xulosalarning asossizligi isbotlanadi. Avvalo bu borada davlat tomonidan amalga oshirilgan ishlarni ta’kidlab o‘tish joiz.

Bir so‘z bilan aytganda, Amir Temur temuriylar davrida ilm-fan, me’morchilikda juda katta yutuqlarga erishadi. Buning asosiy sababi sifatida Amir Temurning o‘zini ham bilimli bo‘lganligini, undan tashqari ilm ahlini doimo qo‘llab-quvvatlaydi, ilm-fanning rivojlanishi uchun yetarli shart-sharoit yaratib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдураимов М. (2000) Темур ва Тўхтамишхон. Тошкент.
2. Азамат Зиё (2000) Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент.
3. Бўриев О. (2011) Соҳибқирон Амир Темур. Тошкент.
4. Бўриев О. (2016) Амир Темур давлатида бошқарув тизими. Тошкент.
5. Ешов Б., Одилов А. (2025) Ўзбекистон тарихи. Тошкент. 15, 20 б.
6. Мўминов И. (1993) Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. Тошкент.
7. Муҳамаджонов А. (1996) Амир Темур ва Темурлар даври. Тошкент.
8. Низомиддин Шомий (1996) Зафарнома. Тошкент.
9. Одилов А. (2016) Амир Темур Тузуклари - давлат бошқарув асоси. Тошкент.
10. Сагдуллаев А., Мавлонов Ў., Норқулов Н. (2000) Ўзбекистон тарихи. Тошкент. 137 б.
11. Темур Тузуклари. (1996) Тошкент. 122, 123, 124, 125 б.
12. Хайруллаев М., Ўринбоев А. (1997) Темурлар бунёдкорлиги давр манбалари. Тошкент. 60 б.

REFERENCES:

1. Abduraimov M. (2000) Temur va To‘xtamishxon. Toshkent. (In Uzbek)
2. Azamat Ziyo (2000) O‘zbek davlatchilik tarixi. Toshkent. (In Uzbek)
3. Bo‘riyev O. (2011) Sohibqiron Amir Temur. Toshkent. (In Uzbek)
4. Bo‘riyev O. (2016) Amir Temur davlatida boshqaruv tizimi. Toshkent. 155 b. (In Uzbek)
5. Eshov B., Odilov A. (2025) O‘zbekiston tarixi. Toshkent. (In Uzbek)
6. Mo‘minov I. (1993) Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. Toshkent. (In Uzbek)
7. Muhamadjonov A. (1996) Amir Temur va Temuriylar davri. Toshkent. (In Uzbek)
8. Nizomiddin Shomiy (1996) Zafarnoma. Toshkent. (In Uzbek)
9. Odilov A. (2016) Amir Temur Tuzuklari - davlat boshqaruv asosi. Toshkent. (In Uzbek)
10. Sagdullayev A., Mavlonov O‘., Norqulov N. (2000) O‘zbekiston tarixi. Toshkent. 137 b. (In Uzbek)
11. Temur Tuzuklari. (1996) Toshkent. 122, 123, 124, 125 b. (In Uzbek)
12. Xayrullayev M., O‘rinboyev A. (1997) Temuriylar bunyodkorligi davr manbalari. Toshkent. 60 b. (In Uzbek)

QASIDALARDA TEMURIYLAR MADHI
PRAISE FOR THE TIMURIDS IN QASIDAS
ВОСХВАЛЕНИЕ ТИМУРИДОВ В КАСЫДАХ

Xasanova Mashxura Jumanovna
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti
mumtoz adabiyot tarixi kafedrasi dotsenti
Tel: +998 93-994-66-80
E-mail: ikaroy1984@gmail.com

Annotatsiya. Mumtoz adabiyotning murakkab janrlaridan biri bo‘lgan qasidaning shakllanishi va taraqqiyot bosqichlarini hukmdorlar faoliyati va homiyligisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu janr tabiatan ijtimoiy-siyosiy xarakterga ega bo‘lib, uning rivoji bevosita davlatchilik an’analari va saroy madaniyati bilan bog‘liq. Qasidaning shakllanishi va taraqqiy etishi saroy adabiy muhitining shakllanishi, ijtimoiy buyurtma va janr mundarijasi, moddiy rag‘bat (sila) va mansab berish an’anasi, qasidalarning yangi turlari paydo bo‘lishi yoki hukmdorning ijodkor ekanligi kabi omillarga bog‘liq bo‘lgan.

Kalit so‘zlar: *Qasida, mamduh, adolat, saxovat, olim, podshoh, temuriylar, turkiy qasidalar*

Annotation. The formation and developmental stages of the *qasida*, one of the most complex genres of classical literature, cannot be envisioned without the influence and patronage of rulers. By its nature, this genre possesses a socio-political character, and its evolution is directly linked to the traditions of statehood and court culture. The growth of the *qasida* depended on several key factors: the emergence of a courtly literary environment, social demand and genre content, the tradition of material rewards (*sila*) and appointments to office, the appearance of new types of odes, and the creative involvement of the rulers themselves.

Key words: *Qasida, mamduh (the praised one), justice, generosity, scholar, monarch, Temurids, Turkish odes*

Аннотация. Становление и этапы развития касыды – одного из сложнейших жанров классической литературы – невозможно представить без деятельности и покровительства правителей. Этот жанр по своей природе носит общественно-политический характер, а его расцвет непосредственно связан с традициями государственности и придворной культурой. Формирование и эволюция касыды зависели от таких факторов, как становление придворной литературной среды, социальный заказ и содержание жанра, традиции материального вознаграждения (*сила*) и присвоения чинов, возникновение новых видов оды, а также творческая

деятельность самих правителей. Важную роль в развитии тюркского касидописания сыграла эпоха Тимуридов.

Ключевые слова: *Касыда, мамдух (восхваления), справедливость, щедрость, ученый, падишах, Темуридов, турецких одах*

KIRISH

Qasidaning shakllanishi va taraqqiyot bosqichlarini hukmdorlar faoliyati va homiyligisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu janr tabiatan ijtimoiy-siyosiy xarakterga ega bo‘lib, uning rivoji bevosita davlatchilik an’analari va saroy madaniyati bilan bog‘liq. Qasidaning shakllanishi va taraqqiy etishi saroy adabiy muhitining shakllanishi, ijtimoiy buyurtma va janr mundarijasi, moddiy rag‘bat (sila) va mansab berish an’anasi, qasidalarning yangi turlari paydo bo‘lishi yoki hukmdorning ijodkor ekanligi kabi omillarga bog‘liq bo‘lgan.

Sharq davlatchiligida, xususan, Qoraxoniylar, Somoniylar, G‘aznaviylar, Saljuqiylar va Temuriylar davrida hukmdorlar o‘z atrofiga eng iste’dodli shoirlarni to‘plashgan. Saroyda “malik ush-shuaro” (shoirlar sultoni) lavozimining joriy etilishi qasidago‘ylikni kasbiy darajaga ko‘tardi. Hukmdorlarning she’riyatga bo‘lgan qiziqishi shoirlar o‘rtasida sog‘lom raqobatni yuzaga keltirdi, bu esa janrning badiiy jihatdan mukammallashuviga xizmat qildi. Qasida janri hukmdorlarning g‘alabalarini, adolatini va bunyodkorlik ishlarini tarixga muhrlash vositasi bo‘lgani uchun hukmdorlar o‘z siyosiy nufuzini mustahkamlash uchun, nomlari tarixda qolishi uchun shoirlarga murojaat qilishgan. Shu tariqa, qasida nafaqat she’riy asar, balki davlatning mafkuraviy quroliga ham aylangan. Mahorat bilan yozilgan qasidalar uchun shoirlarga hukmdorlar tomonidan beriladigan qimmatbaho sovg‘alar, tilla va mansablar janrning yashab qolishini ta’minladi. Hukmdorlar shoirlarni moddiy jihatdan to‘liq ta’minlaganlari sababli, ijodkorlar bor diqqatini qasidaning tili va mazmunini sayqallashga qaratganlar. Podshohlarning faoliyati faqat urush yoki siyosat bilan cheklanib qolmagan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Temuriylar davri adabiyoti XV asrdan buyon o‘rganilib kelinmoqda deyishimiz mumkin. Bunga birinchi bo‘lib o‘z davrining buyuk siymosi Alisher Navoiy qo‘l urgan edi. Uning “Majolis un-nafoyis” (1997), “Muhokamat ul-lug‘atayn” (2000), “Badoye’ ul-bidoya” (1987) debochasida temuriylar zamonida yashagan shoirlar, temuriy ijodkorlar haqida dastlabki ma’lumotlarni beradi. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” (1960) asarida ham o‘z zamonasining yetuk ijodkorlari qatori she’riyat bilan mashg‘ul bo‘lgan temuriylar haqida ham ma’lumot olishimiz mumkin. Zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligida temuriylar davri adabiyoti V.Abdullayev (1968), B.Valixo‘jayev (2002),

N.Mallayev (1965), E.Rustamov (1963), S.Erkinov (1965), E.Ahmadxo‘jayev (1978), S.G‘aniyeva (1968), Abduqodir Hayitmetov (1996), Aziz Qayumov (1996), M.Muhiddinov (2005) va boshqa bir qator adabiyotshunos olimlarimizning monografik tadqiqotlarida, maqolalarida u yoki bu tarzda yoritildi. Asarlari, devonlari nashr etildi. To‘plamlarga, antologiyalarga kiritildi. XV asr qasidachiligi, xususan, temuriylarga bag‘ishlangan qasidalar maqola muallifining “XV asr turkiy she’riyatida qasida janri” mavzusidagi PhD dissertatsiyasida tadqiq etildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada tarixiy-komparativ, qiyosiy-tarixiy, ilmiy-tahliliy, qiyosiy-tipologik, germenevtik, analitik, lingvopoetik metodlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Taroziy “Funun ul-balog‘a”da “qasidaning aqalli yigirma yetti bo‘lur yo andin o‘ksukrak va aksari muayyan ermas. Har necha qofiya dast bersa ayturlar. Va har ne maqsud bo‘lsa, bayong‘a keltirurlar” (Шайх Аҳмад Тарозий. 1996: 32), - deb mamduhning adl-u insofini, shijoatini, saxovatini, va bu to‘rt sifatdan boshqa sifatlarini bayon etish shoirning ixtiyorida ekanini ta’kidlab o‘tgan.

XV asrda yashagan deyarli barcha shoirlar qasida janrida ijod qilishgan. Alisher Navoiy “Majolis un-nafoyis”da Mavlono Kotibiy, Xoja Ismatullo, Mir Islom G‘azzoliy, Abdurahmon Jomiy, Mavlono Sohib Balxiy, Mavlono Toliiy, Bobo Savdoiy, Mavlono Sohidiy, Mavlono Orifiy, Xoja Avhad Mustavfiy, mavlono To‘tiy, Mavlono Faseh Rumiy, Darvesh Mansur, Sayid Kamol Kachko‘l, Sayid Kozimiy, Mavlono Qanbariy, Mavlono Volah, Mavlono Ishqiy, Mavlono Abdulvahhob, Mavlono Ayoziy, Mavlono Lutfiy, Amir Shayxim Suhayliy, Mavlono Hasanshoh, Bobo Sho‘rida, Mir Husayn Ali, Mavlono Ahliy (Navoiy A., 1997: 16-156) kabi qasidanavis shoirlarni tilga oladi. Shulardan o‘ndan ortig‘i madh qasidalar yozgan bo‘lsa, qolganlari ulug‘ qasidanavis shoirlarning qasidalariga falsafiy tatabbu’lar qilishgan.

Ularning eng mashhurlari Mavlono Sakkokiy, Mavlono Lutfiy, Hofiz Xorazmiy, Haydar Xorazmiy, Shayx Ahmad Taroziy, Mavlono Gadoiylardir. Ular tomonidan o‘ttizdan ziyod qasidalar yaratilgan. Birgina temuriyzodalarga bag‘ishlangan, bizga hozirgacha ma’lum bo‘lgan, turkiy qasidalarning o‘zi yigirmadan ortiq. Ulug‘bek Mirzoga bag‘ishlangan to‘qqizta (beshtasi Mavlono Sakkokiy, uchtasi Shayx Ahmad Taroziy (“Funun ul-balog‘a” orqali qisman yetib kelgan), bittasi Abdurazzoq Baxshi qalamiga mansub), Iskandar mirzoga bag‘ishlangan bitta (Mavlono Haydar Xorazmiy qalamiga mansub), Xalil sultonga bag‘ishlangan bitta (Mavlono Sakkokiy qalamiga mansub), boshqa sulton Xalilga bag‘ishlangan bitta (Gadoiy qalamiga mansub), Shohrux Mirzoga bag‘ishlangan

uchta (bittasi Mavlono Lutfiy, ikkitasi Hofiz Xorazmiy qalamiga mansub), Boysunqur Mirzoga bag‘ishlangan ikkita (Mavlono Lutfiy qalamiga mansub), Alovuddavlaga bag‘ishlangan bitta (Mavlono Lutfiy qalamiga mansub) qasidalar shular jumlasidandir.

Abdurazzoq Samarqandiyning “Matla’ us-sa’dayn” asarida juma namozlaridan birida Ahmad Lur degan ko‘rnamak tomonidan pichoqlangan Shohrux mirzo haqida “… go‘shanishinlar dilu jondan samimiy duoda bo‘lganliklari uchun pichoq kor qilmadi; zahm kuchli emas edi…Shunday qilib haq taolo (xoqoni saidga) to‘la sihatlik karomat qildi…” (Самарқандий Абдураззоқ. 1969:351-353) deb ma’lumot beradi. Mavlono Lutfiyning shu munosabat bilan yozilgan qasidasi kompozitsion jihatdan an’anaviy tarzda tuzilmagan. Uning muqaddimasi tugun bo‘lib, u keyingi qismlarda yechiladi. Ya’ni, boshida, birinchi baytda shoir Tangri Taolo ulug‘ podshohga sihatlik ato etganligi uchun shukrlar aytadi. Ikkinchi baytdan boshlab Shohrux mirzoni shariat mulkining shohi, viloyat charxining qutbi, saodat jismining ruhi, xilofat taxtining xoni; Sulaymon saltanatliq; Mu’in ud-din vad-dunyo; ochunning yorug‘i, havovu hilmning bahri, safovu sidqning koni; Temurbek xonadonining chirog‘i-yu yoruq ko‘zi, malak siyrat, Nabiy xilqat deb maqtaydi. Shohrux sulton hukmronligi davridagi adolatli jamiyat, Jamshid, Iskandar, Mahmud, Sanjarlar orzu qilgan, ular o‘rganishi lozim bo‘lgan hukmdorlik, podshohlik haqida fikr yuritadi. Uning davlatida sanamlar sochidan o‘zga yomonlik qilguvchi yo‘q ekanligi, zaiflar uchun podshohning adolati kuchli ekanligi, uning davrida bo‘ri tayog‘iga tayanib qo‘ylarga cho‘ponlik qilayotganligi, uning singari haqiqiy podshohni yer qiyomatgacha aylanib topmasligini uqtiradi. Keyingi baytda esa, yana tugunga qaytiladi. Ya’ni, Shohrux Sultonning kasal bo‘lganligi voqeasi barcha el-ulusni, xususan Mahdi ulyo - Gavharshodbegimni qattiq tashvishga solib qo‘ygani, uning iztiroblari, dod-u faryodi, Ollohga iltijolari tufayli Olloh inoyati bilan shohning shifo topgani haqida gap boradi:

Shaho, bir necha kun sizga takassur bo‘lmag‘ay voqe’,
Jahon barham ura yozdi, ulusning qolmadi joni.
Begimni shukrlillahkim, niyozi bo‘lmadi zoye’,
O‘g‘an faryodig‘a yetti, chu ko‘ktin oshti afg‘oni.
Bu holatdin xabar borgach, Muhammad Jo‘gi Mirzog‘a,
Nag‘u qatlong‘a qildi deb yuz urdi ming pushaymoni (Мавлоно Лутфий. 2010: 18).

Bir kulfat kelmasdan qadr bilinmasligidek, shunday jahon podshosining qadrini el-ulus endi bilganini bayon etadi. Duoda podshohga (Shohrux sultonga) Gavharshodbegim bilan umrboqiylikda hayot kechirishini, jahon omonligi uchun

iqboli abadiy bo‘lishini, quyoshning nuricha, bani odam yer yuzida turgancha boqiy bo‘lishini tilaydi.

Davlatshoh Samarqandiy “Shohrux sulton zamonida Boysung‘ur bahodirga shoirlardan Bobo Savdoyi, mavlono Yusuf Amiriy, Amir Shohiy Sabzavoriy, mavlono Kotibiy Turshiziy, Amir Yaminiddin Nuzulobodiy mulozim edilar” (Самарқандий Давлатшоҳ. 1981:141), - deb ma’lumot beradi. Boysung‘ur mirzo haqida tarixiy asarlarda, tazkiralarda juda iliq fikrlar bildirilganligi bilan birgalikda ziyofatga, maishatga, zeb-ziynatga o‘chligi, doimiy ichkilikka berilgani borasida fikrlar keltirilgan. Lutfiyning ikki qasidasi mamduhi Boysunqur sulton bo‘lib, bittasi biror jangdan g‘olib qaytgani munosabati bilan yozilgan bo‘lsa, ikkinchisi qasidachilikda kamdan kam uchraydigan nasihat usulida yaratilgan. Nasihat usulidagi qasidasida Lutfiy mamduhga ko‘zingga uyquni harom qilgin, bu yo‘l ogohlik yo‘li bo‘lishi kerak, ko‘p maqsadlar uzoqda va xatarlidir, safar yarog‘ini sen ertaga qoldirma, chunki safarga ravon chiqish amri berilgan, deydi. Xazinalarni unga Tangri tijorat uchun bergani, shuncha xazinalarni hosil etib nima qila olganini so‘raydi va bugun mollarning egasi bularni oson hal etishi mumkin, ammo so‘roq kunida So‘roqchi so‘raganda, hisobini berish mushkul bo‘lishidan ogohlantiradi:

Xazinalarni senga berdi Haq tijorat uchun,
Ne qilding oncha xazoyin bila qilib hosil.
Bukun tasarrufi amvol xush qilur oson,
So‘ruqchi tongla so‘rarda hisob erur mushkil (Мавлоно Лутфий. 2010: 11).

Do‘st visoli kerak bo‘lsa, o‘zidan kechish lozimligi, bu orada uning o‘zi to‘siq bo‘lishini ta’kidlaydi. Bu baytda shoirning “vahdat” masalasidagi fikri bayon etiladi. Shoir uni johil deb atab, solik Tangri ishini bugun qiladi, sen esa uni ertaga qoldirding deb malomat qiladi va Janobi Hazrati Haq qabul qilishi uchun azalda kishi uning inoyati bilan muqbil – iqbolli bo‘lishi kerakligi, hamma go‘zal narsalarni buzuvchi ajalni bila turib ham but arab bilan bazm qilmog‘i juda g‘alati ekanligini bayon etadi.

Mumtoz adabiyotda talmeh sifatida keladigan nomlar ham ma’lum vazifani bajaradi. Masalan, Farhod-Shirin, Layli-Majnun kabi oshiq va ma’shuqlar nomlari nasibi muhabbat mavzusidagi qasidalarda tilga olinsa, bir paytlar dunyoni zir titratgan, ammo adam chohida g‘oyib bo‘lgan podshohlar nomlari nasibi nasihat usulida bitilgan qasidalarda ko‘proq uchraydi. Biz ko‘zdan kechirayotgan Lutfiy qasidasida Malikshoh, Hoqon, Sanjar, To‘g‘an, Qizil Arslon, To‘g‘ril kabi nomdor shohlar tilga olinib, ularning bari foniy olamdan chin olamga ko‘chgani, aql egasi hamma ham shu yo‘lda ekanini yaxshi bilishini bayon etadi:

Qani Malikshohu Hoqonu qaydadur Sanjar,
Qani To‘g‘anu Qizil Arslon, qani To‘g‘ril.

Bu barcha ko‘chti, kechishti jahoni foniydan,
Qamuq kishiga budur yo‘l oqil ersang bil
Xazinalarni senga berdi Haq tijorat uchun,
Ne qilding oncha xazoyin bila qilib hosil.
Bukun tasarrufi amvol xush qilur oson,
So‘ruqchi tongla so‘rarda hisob erur mushkil (Мавлоно Лутфий. 2010: 11).

Nasibning so‘nggi baytida shoir mirzoni qattiq ogohlantiradi. Alloh Taolo tomonidan senga hayot abadiy berilgan, sen hayotning bekasisan degan vahiy nozil etilganmi deb, nasihat qilganining sabablarini bayon etadi:

Sanga hayot bekasi bo‘lur deyu hargiz,
Xudoy hazratidin vahy bo‘ldimi nozil (Мавлоно Лутфий. 2010:11).

Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” asarida keltirilishicha, Ulug‘bek mirzo zamonida “… ulamoning darajasi ko‘tarildi va fuzalo zo‘r martabaga erishdi”. Shayx Ahmad Taroziy esa o‘zining “Funun ul-balog‘a” asari muqaddimasida “Ul saltanat daryosining gavhari va maьdilat konining javhari, saxovat boronining abri va shijoat beshasining babri, farosat sipehrining mohi, kayosat mamlakatining shohi, shahanshohi a’zam, shahriyori a’lam, sohibus sayf va-l qalam, farmondehi turk-u arab-u ajam, mag‘isiddin va-d davron amir Ulug‘bek Ko‘ragon”, - deydi va ushbu adabiyotshunoslikka oid qimmatli asarni mirzo Ulug‘bekka bag‘ishlaydi. Bu davrda yaratilgan turkiy qasidalarning ham ko‘pchiligi Ulug‘bek mirzoga bag‘ishlangan. Ularda Ulug‘bek mirzoning podshohlik, olimlik, arboblik faoliyati, shaxsiy fazilatlari madh etiladi. Sakkokiy qasidalarida (o‘n uchta qasidadan beshtasi Ulug‘bek mirzoga bag‘ishlangan) Ulug‘bek mirzo davridagi bayram-u saroy Jamshid, Faridun, Qubodlar davrida bo‘lmaganligi, adolat mezoni tuzilib, rostlik rivojlanganligi, fitna bozori buzilganligi, mirzo yuritayotgan adolatni No‘shiravon umrida ko‘rmaganligi kabi ijtimoiy hayot tasviri; dushman qadamga kelib, yog‘iylar el bo‘lganligi, hukmi uchun bu kun qal’alar darvoza ochganligi, shu vaqtda barcha shaharlar mamduh otiga hukm o‘qiyotganligi kabi diplomatik hayot tasviri; nayza uchi bilan xalqa olgandek jahonni olganligi, bu bir o‘yin yo hunar bo‘lsa, u ustoz ekanligi, shijoat o‘rmonida har tulki bir sarkashlik qilsa bo‘ynini sindirishga tayyor bir sher ekanligi, jang kuni askarlarining mardligi, bir na’ra bilan dushman qo‘shini tor-mor bo‘lishi, gurzisining birgina parchasi va yo o‘qining uchini ko‘rgan po‘lat mumdek erishi, urush kunicha dushman vujudi kuyib, bir zarra kulga aylanishi kabi shaxsiy jahongirlik fazilatlari tasviri; din rivojlanganligi, bid’at ahli to‘g‘ri yo‘lga kirganligi, zuhdu taqvo yuksalib, isyonu fasod ahli yo‘qolganligi, mulku millat hammasi undan boy bo‘lganligi, chunki Alloh Taoloning qudratiga tavakkal qilishga odatlanganligi, kim haqqa e’tiqod qilsa, ishi oson bo‘lishi kabi diniy hayot

tasviri berilganligini ko‘rishimiz mumkin. Madhda mirzo Ulug‘bekning xulqi, sidqi, adolati, din va davlat ishlarini birgalikda olib borganligi, adabiyotga, ilm-fanga e’tibori, nuktadonligi maqtalib, jumlayi jonivor: vuhush tayr ins jon ; yer, osmon, yulduzlar uning uchun xizmatda ekanligi ta’kidlanib, xulqda Muhammad (s.a.v), sidqda Yahyo (a.s) va Abu Bakr (r.a)ga, qo‘li Muso (a.s) qo‘liga, jonbaxsh nafasda Iso (a.s), ilhomda Xizr (a.s), ra’yda Osaf, farmonbardorlikda Jamshid, shohlikda Iskandarga, salobatda Umar (r.a.), saxovatda Usmon (r.a.), shijoatda Ali (r.a.)ga o‘xshatiladi:

Muhammad xulq-u Yahyo sidq-u Muso yad, Maseho dam,
Xizr ilhomu Osaf ra’yu Jamfarmo shah Iskandar.
Erur sidq-u salobatda, erur judu shijoatda
Abu Bakr-u Umar, Usmon, Amiral mo‘minin Haydar (Мавлоно Саккокий, 2017:27).

Ulug‘bek mirzo adolatli, sharafli, hashamdor podshohlardan Kayumars, Anushervon, Jamshed, Faridunga o‘xshatilib, uning xizmatida Hoqon, Manuchehr, Bahromu Qaysarlar yasovul, xodim, navkaru darvozabon ekanligi go‘zal tashbehlar bilan ifoda etiladi. Shoir mamduhni olimlikda Aristolis, Aflotun, Batlimus, Jolinus, Abu Ali ibn Sino, Fayloqus, Arastu Abu Ma’sharga o‘xshatadi. Ammo ular riyoziyot, hikmat, iksir, bade’ va sano‘ye kabi ilmlarni Ulug‘bek mirzochalik puxta bilmaganligini ta’kidlaydi:

Riyozihisht-u hikmatrasd iksir-u uqlidus,
Badei-vu sano‘yeni saningtek bilmadi onlar (Мавлоно Саккокий, 2017:28).

Shayx Ahmad Taroziy o‘zining baytlarini ba’zi o‘rinlarda kimniki ekanligini yozmasdan, ba’zan Taroziy taxallusi bilan keltirgan. Qasida janrining xususiyatlari to‘g‘risida fikr yuritilganda, husni matla’, deb muallifsiz quyidagi baytlarni keltiradi:

Ey qading to‘biy, xading erur g‘ayrati jinon,
Hayron erur sanga malaku huru insu jon,
Gar xalqe mehru mohni ravshan etur O‘g‘on,
Ravshan budurki, yo‘qtur alar sencha dilsiton (Тарозий. 1996:76)

“husnul-ta’lil”ni ta’riflaganda quyidagi baytni:

Falakning zug‘mina kim zulm aylar,
Qilur Sulton Ulug‘bek adlu ehson... (Шайх Аҳмад Тарозий. 1996:88)

XULOSA VA TAKLIFLAR

Turkiy she’riyatda qasida janrining taraqqiyot bosqichi temuriylar davriga to‘g‘ri kelishi ham tarixiy sharoit tufayli sodir bo‘ldi. XV asr turkiy dunyo uchun yangi bir ko‘tarilish davri bo‘lganligi va unda temuriylar sulolasi hokimiyati mustahkamlanganligi turkiy she’riyatda ham qasida janrining rivojlanishi uchun

sharoit yaratdi, siyosiy bir janr sifatida madh qasida o‘zining yuqori bosqichiga ko‘tarildi. Hattoki, Davlatshoh Samarqandiy ma’lumot berishicha, mirzo Ulug‘bek saroyidagi adabiy majlislarda Badr Chochiyga tatabbu’ qila olish ma’lum shoirning kamolot o‘lchovi sifatida baholangan. Bu davrda mumtoz qasidalarning eng ko‘p mamduhlari ham temuriy sultonlar bo‘ldi.

Bu qasidalarda nafaqat shoirlarning, balki, xalqning odil podshoh, komil inson haqidagi g‘oyalari aks etadi. Qasidalar xalqparvar, millatparvar shaxsning fazilatlarini ulug‘lash, uning xalq va millat oldidagi burchlarini eslatish, ezgu maqsadlar, ezgu g‘oyalar sari yetaklash, inson sifatidagi qadr-qimmatini yuqori tutishga chorlash kabi hayotbaxsh mavzularni qamrab olganligi bilan ham katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдуллаев В. (1948) Навоий Самарқандда. Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти.

2. Абдураззоқ Самарқандий. (1969) Матлаъи саъдайн ва мажмаъи баҳрайн. Т.: Фан.

3. Алишер Навоий. (1987) Бадоеъ ул-бидоя. 20 томлик, 1-том. Т.: Фан.

4. Алишер Навоий. (1997) Мажолис ун-нафойис. 20 томлик, 13-том. Т.: Фан.

5. Алишер Навоий. (1997) Мажолис ун-нафойис. МАТ, 20 томлик, 13-том. Т.: 16-156-бетлар.

6. Алишер Навоий. (2000) Муҳокамат ул-луғатайн. 20 томлик, 16-том. Т.: Фан.

7. Аҳмадхўжаев Э. (1978) Гадоий (Ҳаёти ва ижодий мероси). Тошкент: Фан.

8. Давлатшоҳ Самарқандий. (1981) Шоирлар бўстони. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.

9. Девони Мавлоно Саккокий. (–) Ўзбекистон ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти, 7685 инв.

10. Қаюмов А. (1996) Амир Темур қиссалари. Т.: Ёзувчи.

11. Мавлоно Саккокий девони. (2017) Т.: Мумтоз сўз.

12. Маллаев Н. (1965) Ўзбек адабиёти тарихи. Т.: Ўқитувчи.

13. Муҳиддинов М. (2005) Комил инсон-адабиёт идеали. Т.: Маънавият.

14. Рустамов Э. (1963) Узбекская поэзия в первой половине XV века. Москва.

15. Хасанова М.Ж. (2018) XV аср туркий шеъриятида қасида жанри. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражаси учун ёзилган диссертация. Самарқанд.

16. Ҳайитметов А. (1996) Темурийлар даври ўзбек адабиёти. Т.: Фан.
17. Шайх Аҳмад Тарозий. (1996) Фунун ул-балоға. Т.: Хазина.

REFERENCES:

1. Abdullayev V. (1948) Navoiy Samarqandda. Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. (In Uzbek)
2. Abdurazzoq Samarqandiy. (1969) Matla‘i sa‘dayn va majma‘i bahrayn. T.: Fan. (In Uzbek)
3. Alisher Navoiy. (1987) Badoe‘ ul-bidoya. 20 jildlik, 1-jild. T.: Fan. (In Uzbek)
4. Alisher Navoiy. (1997) Majolis un-nafoyis. 20 jildlik, 13-jild. T.: Fan. (In Uzbek)
5. Alisher Navoiy. (1997) Majolis un-nafoyis. MAT, 20 jildlik, 13-jild. T.: 16-156-betlar. (In Uzbek)
6. Alisher Navoiy. (2000) Muhokamat ul-lug‘atayn. 20 jildlik, 16-jild. T.: Fan. (In Uzbek)
7. Ahmadxo‘jayev E. (1978) Gadoiy (Hayoti va ijodiy merosi). Toshkent: Fan. (In Uzbek)
8. Davlatshoh Samarqandiy. (1981) Shoirlar bo‘stoni. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. (In Uzbek)
9. Devoni Mavlono Sakkokiy. (–) O‘zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, 7685 inv. (In Uzbek)
10. Qayumov A. (1996) Amir Temur qissalari. T.: Yozuvchi. (In Uzbek)
11. Mavlono Sakkokiy devoni. (2017) T.: Mumtoz so‘z. (In Uzbek)
12. Mallaev N. (1965) O‘zbek adabiyoti tarixi. T.: O‘qituvchi. (In Uzbek)
13. Muhiddinov M. (2005) Komil inson-adabiyot ideali. T.: Ma’naviyat. (In Uzbek)
14. Rustamov E. (1963) Uzbekskaya poeziya v pervoy polovine XV veka. Moskva. (In Russian)
15. Hasanova M.J. (2018) XV asr turkiy she’riyatida qasida janri. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasi uchun yozilgan dissertatsiya. Samarqand. (In Uzbek)
16. Hayitmetov A. (1996) Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti. T.: Fan. (In Uzbek)
17. Shayx Ahmad Taroziy. (1996) Funun ul-baloga. T.: Xazina. (In Uzbek)

TEMURIYLAR DAVRIDA ERONNING GEOSIYOSIY O‘RNI
THE GEOPOLITICAL ROLE OF IRAN DURING THE TIMURID PERIOD
ГЕОПОЛИТИЧЕСКАЯ РОЛЬ ИРАНА В ЭПОХУ ТИМУРИДОВ

Qo‘chqarov Temurbek Baxromjon o‘g‘li
Oriental universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi
katta o‘qituvchisi
Tel.: +998 93-076-11-96
E-mail: qochqarovt33@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Amir Temur saltanati diplomatiyasining tarixiy mohiyati, uning Yevrosiyo makonidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarga ta’siri ilmiy asosda tahlil qilingan. Ayniqsa, Eron mintaqasining Temuriylar davridagi geosiyosiy ahamiyati, karvon yo‘llari xavfsizligi, savdo-iqtisodiy aloqalar rivoji hamda diplomatik munosabatlarning davlat barqarorligidagi o‘rni yoritilgan. Muallif tarixiy manbalar va zamonaviy tadqiqotlarga tayangan holda Amir Temur diplomatiyasining nafaqat harbiy-siyosiy qudrat, balki mintaqalararo integratsiya, shaharlar ravnaqi va xalqlar o‘rtasidagi madaniy yaqinlashuvni ta’minlagan muhim omil bo‘lganini asoslaydi. Maqola Temuriylar davri tashqi siyosatini yangi yondashuvda baholashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *Amir Temur, E.Bjezinskiy, Chingizxon, Fors, konfutsiylik, assimilyatsiya, Elxoniylar, Chig‘atoyzoda, Markaziy Osiyo, farsax, diplomatiya.*

Annotation. This article analyzes, on a scholarly basis, the historical essence of Amir Temur’s diplomacy and its influence on the political, economic, and cultural processes of the Eurasian space. Particular attention is paid to the geopolitical importance of the Iranian region during the Timurid period, the security of caravan routes, the development of trade and economic relations, and the role of diplomatic interaction in ensuring state stability. Drawing on historical sources and modern research, the author demonstrates that Amir Temur’s diplomacy was not only an expression of military and political power, but also an important factor in promoting interregional integration, urban development, and cultural rapprochement among peoples. The article contributes to a new interpretation of the foreign policy of the Timurid era.

Keywords: *Amir Temur, Zbigniew Brzezinski, Genghis Khan, Persia, Confucianism, assimilation, Ilkhanate, Chagatai, Central Asia, farsakh, diplomacy.*

Аннотация. В данной статье на научной основе анализируются историческая сущность дипломатии Амира Темура и её влияние на политические, экономические и культурные процессы в евразийском пространстве. Особое внимание уделяется геополитическому значению иранского региона в эпоху Тимуридов, безопасности караванных путей, развитию торгово-экономических связей, а также роли дипломатических отношений в обеспечении устойчивости государства. Опираясь на исторические источники и современные исследования, автор показывает, что дипломатия Амира Темура являлась не только проявлением военно-политической мощи, но и важным фактором межрегиональной интеграции, развития городов и культурного сближения народов. Статья способствует новому осмыслению внешней политики эпохи Тимуридов.

Ключевые слова: *Амир Темур, Э. Бжезинский, Чингисхан, Персия, конфуцианство, ассимиляция, Ильханиды, Чагатаиды, Центральная Азия, фарсах, дипломатия.*

KIRISH

XIV asrning ikkinchi yarmi – XV asr boshlarida Yaqin va O‘rta Sharq, Markaziy Osiyo hamda Kavkaz hududlarida yuz bergan siyosiy jarayonlar jahon tarixining muhim burilish nuqtalaridan birini tashkil etadi. Aynan shu davrda Amir Temur tomonidan barpo etilgan qudratli saltanat nafaqat harbiy-siyosiy kuch sifatida, balki keng mintaqaviy makonda diplomatik, iqtisodiy va madaniy integratsiyani ta’minlagan yirik tarixiy hodisa sifatida namoyon bo‘ldi. Bu jarayonda Eron hududi alohida geosiyosiy ahamiyat kasb etib, Temuriylar davlatining g‘arbiy va janubi-g‘arbiy strategik yo‘nalishlarida tayanch makon vazifasini bajardi. Mintaqaning qulay geografik joylashuvi, karvon yo‘llari tugunida joylashgani, yirik savdo-iqtisodiy markazlarga egaligi hamda siyosiy-harbiy nuqtayi nazardan o‘ta muhim hudud ekanligi uni Temuriylar tashqi siyosati va diplomatik faoliyatining markaziy bo‘g‘inlaridan biriga aylantirdi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Amir Temur diplomatiyasi va uning mintaqaviy siyosatdagi o‘rni masalasini yoritishda o‘zbek tarixshunosligida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar muhim o‘rin tutadi. Xususan, Sh.O‘ljayevaning “Amir Temur diplomatiyasi” asarida Sohibqiron tashqi siyosatining nazariy va amaliy asoslari, diplomatik aloqalar tizimi hamda Eron mintaqasining strategik ahamiyati yoritilgan (2018). Muallif Eron hududini Amir Temur uchun nafaqat harbiy yurishlar obyekti, balki karvon yo‘llari, iqtisodiy resurslar va geosiyosiy ustunlikni ta’minlovchi tayanch makon sifatida talqin qiladi.

Temuriylar davridagi savdo yo‘llari va iqtisodiy aloqalarni tadqiq etishda G.Agzamova (2018)ning ilmiy izlanishlari alohida e’tiborga loyiqdir. Tadqiqotchi Movarounnahr savdogarlarining Eron hududi orqali janub va janubi-g‘arb mamlakatlari bilan olib borgan savdo-sotiq aloqalarini tahlil qilib, Marv, Nishopur, Hamadon, Ray, Sheroz, Kermon kabi shaharlarning tranzit va iqtisodiy markaz sifatidagi mavqeini ochib beradi.

Mavzuning nazariy-metodologik asoslarini kengroq tarixiy jarayonlar bilan bog‘lab tushuntirishda xorijiy mualliflarning qarashlari ham muhimdir. Jumladan, amerikalik siyosatshunos E.Bjezinskiy (2022) mo‘g‘ullar imperiyasining parchalanish omillarini tahlil qilar ekan, bosib olingan hududlarda hukmdorlarning asta-sekin assimilyatsiyalashuvi, siyosiy-madaniy birlikning sustligi va vorislik muammolarini alohida ko‘rsatib o‘tadi. Shuningdek, K.E.Bosvortning asarlarida Markaziy Osiyo va Fors mintaqasining siyosiy tarixiga doir muhim ilmiy mulohazalar ilgari suriladi (Босворт К.Е., 2007). U o‘rta asrlarda ushbu ikki makonni yagona siyosiy hokimiyat ostida birlashtirish jarayoni aynan Amir Temur faoliyatida eng yuqori bosqichga chiqqanini ta’kidlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada Temuriylar davrida Eronning geosiyosiy o‘rnini tadqiq etishda tarix fanining asosiy metodologik tamoyillari - tarixiylik, xolislik, tizimlilik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tarixiylik tamoyili asosida Eron hududining siyosiy, iqtisodiy va diplomatik ahamiyati o‘z davrining aniq tarixiy sharoitlari bilan bog‘liq holda o‘rganildi. Shu orqali mintaqaning Amir Temur saltanati siyosatidagi o‘rni mo‘g‘ullar davridan keyingi siyosiy vaziyat, Elxoniylar merosi va xalqaro savdo yo‘llari tizimi doirasida tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Amir Temur saltanati diplomatiyasi tarixi o‘zbek diplomatiyasi tarixining cho‘qqilaridan birini tashkil etadi. U nafaqat O‘zbekiston, balki jahon tarixida ham katta o‘rin tutadi.

Amir Temur diplomatiyasi Yevrosiyo mintaqasini birlashtiruvchi muhim kuch rolini bajarishi bilan birga, ana shu xalqlarning tinchlik-farovonligi, savdo-iqtisodiy munosabatlarning gurkurab rivojlanishiga muhim ta’sir ko‘rsatdi. Ilgari gavjum bo‘lgan, lekin keyingi bir yarim asr davomidagi biqiqlik tufayli hayot nurlari so‘na boshlagan shaharlar diplomatik harakatlar tufayli qayta rivojlana boshladi, ularda hayot qaynadi, davlatlar va millatlar o‘rtasidagi muhim ko‘prik o‘rnatildi.

Amir Temur davlatida diplomatik qonun-qoidalar o‘z davri taomiliga muvofiq olib borilgan. U davlat ishlari, xususan, diplomatik ishlarni ham din shariat

asosida, o‘z davrida mavjud bo‘lgan to‘ra va tuzukka solib, saltanatning martaba-yu maqomini saqlab turgan.

Amerikalik siyosatshunos E.Bjezinskiy o‘z asarida “…mo‘g‘ul hukmdorlari bosib olgan hududlarida asta-sekin assimilatsiya jarayoni kuchayib, uch mintaqada – imperiyaning Xitoy qismidagi Chingizxonning nabiralari konfutsiylikni jo‘shqin targ‘ibotchisiga aylangan, yana biri Fors sultoni sifatida dindor musulmon, uchinchisi esa O‘rta Osiyoning madaniylashgan forsiy hukmdori bo‘ldi. Hukmron siyosiy madaniyat yo‘qligi, hukmdorlarning assimilyatsiyalashishi – ya’ni o‘zi zabt etgan xalqlarga qo‘shilib ketishi, Buyuk xonga vorislikni hal etilmagani imperiyaning qulashiga sabab bo‘ldi” (Бжезинский Э., 2022) – deya buyuk imperiyaning inqirozi sabablarini ko‘rsatib o‘tgan. Eron hududida mo‘g‘ullarning assimilatsiyaga uchragan davlati (Бжезинский Э., 2022) - Elxoniylar tashkil topdi. Mo‘g‘ullarning baynalminalligi, nasroniy Yevropa va Sharq madaniyati kabi bir-biridan farqlanuvchi madaniyatlar bilan aloqalari fors dunyosining ma’naviy hayotida, san’atida, savdo-sotiq ishlarida yangi epkinlar olib keldi. Jumladan, poytaxt Tabrizda italiyalik savdogarlarning mahallasi paydo bo‘ldi va Elxoniylar saltanati Uzoq Sharq va Hindiston bilan savdo ishlarida muhim bog‘lovchi kuchga aylandi (Босворт К.Е., 2007). Ushbu davlatni ma’lum muddat Misr mamluklari bilan o‘zaro ziddiyatli siyosiy munosabatlarga yuz tutib turgan vaqtda, o‘zlarining qon-qarindosh Markaziy Osiyodagi Chig‘atoyzodalar bilan o‘zaro aloqalarda ham iliq munosabatda kechmadi. Ushbu jarayonlar K.E.Bosvort o‘z asarida tariflaganidek, Markaziy Osiyo va Fors mintaqasini uzil-kesil bir hokimiyat ostida rivojlangan o‘rta asrlarda faqatgina Amir Temurgagina nasib qildi birlashtirish (Босворт К.Е., 2007).

Tarixchi olima Sh.O‘ljayeva o‘zining “Amir Temur diplomatiyasi” asarida, Eron mintaqasining Amir Temur uchun naqadar geosiyosiy muhim nuqta ekanligi haqida so‘z yuritib, Oltin O‘rda xoni To‘xtamishxonni aynan ushbu mintaqani o‘zining davlatining bir qismiga aylantirish orqali karvon yo‘lining yakka egasiga aylanish hamda Temuriylar davlatining harbiy yurishlarini cheklabgina qolmay, balki iqtisodiy jihatdan ham siqib qo‘yishga urinishi oxir oqibatda ikki o‘rtada uch marta kuchli muhorabaga sabab bo‘lganligi haqida so‘z yuritadi (Ўлжаева Ш., 2018).

Sohibqiron Amir Temur uch yillik (1386-1388), besh yillik (1392-1396) yurishlari davrida qishlash hamda qo‘shin tarkibini qayta kuchaytirish uchun Eron hududini tanlagan edi(Ўлжаева Ш., 2018). O‘sha davr tarixchilari mintaqa haqida so‘z yuritar ekan, Amir Temurni keyinchalik butun Eronni birlashtirishga muvaffaq bo‘lgan Safaviylar sulolasiga asos solgan Ismoil Safaviyning bobosi

Shayx Xo‘ja Alini ziyorat qilish uchun Ardabilga tashrif buyurgani (Maria Szuppe., 1997) haqida ma’lumotlar ham uchraydi.

Tarixchi olima G.Agzamovaning tadqiqotlariga ko‘ra, Temuriylar davrida Movarounnahr savdogarlari O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘idan janub va janubi-g‘arbiy tomonda joylashgan mamlakatlar bilan qizg‘in savdo-sotiq olib borganlar (Агзамова Г.А., 2018). Movarounnahrdan boshlangan yo‘l Omuldagi kechuv orqali Xurosonga qarab ketgan. Ushbu yo‘ldagi yirik to‘xtash joyi – muhim savdo-iqtisodiy markaz – Marv shahri edi. Omuldan Marvgacha bo‘lgan masofa 36 farsax va olti kunlik yo‘l deb o‘lchangan. Yo‘lning davomi Saraxsga qarab ketar, u yerdan esa savdogarlar Nishopur tomon otlanar edi. Yo‘lning ushbu qismini bosib o‘tish uchun olti kun ketgan. Nishopurdan so‘ng yo‘l Isfarayn, Bistom, Damg‘on, Sinon, Ray va Kermonshoh orqali Hamadongacha yetgan. Ayni yo‘l davomidagi eng muhim shaharlardan biri Nishopur hisoblangan. Xurosonning yirik savdo-iqtisodiy markazi bo‘lgan bu shaharga turli mamlakat savdogarlari intilar edi. Movarounnahrlik savdogar yuqorida ta’kidlangan yo‘l bo‘ylab Nishopurgacha kelgach, Mashhad orqali Hirot, Kobulga yoki Hirotdan Qandahorga yetib olishi mumkin bo‘lgan (Байкова Н.Б., 1964).

Movarounnahrdan Marv orqali Nishopurgacha bo‘lgan yo‘l ma’lum ma’noda tranzit xususiyatiga ega edi. Samarqand, Buxoro va boshqa shahar hunarmandlarining mahsulotlari yuklangan savdo karvonlari Nishopurda katta dam olish uchun to‘xtab, bu yerdan uzoq mamlakatlarga otlanishi mumkin edi. Hamadondan Bag‘dodgacha bo‘lgan yo‘l davomida quyidagi to‘xtash joylari bo‘lgan: Asadobod, Kermonshoh, Xulvan, Naxravan (Агзамова Г.А., 2018). Eronning ushbu shaharlari karvonsaroy vazifasini o‘taganligi shundan ma’lum.

Ibn Arabshoh “Amir Temur tarixi” asarida Temurning Bag‘doddan Mosulga qarab yurishini bayon eta turib, yo‘ldagi to‘xtash joylari Takriyt va Mordin bo‘lganini eslatadi (Ибн Арабшоҳ., 1992). Hamadonda undan shimol va shimoli-g‘arbiy tomonda joylashgan yirik savdo-iqtisodiy va siyosiy markazlarni bog‘lovchi yo‘llar tutashgan. Ushbu yo‘ldan o‘tgan Klavixo bu to‘g‘rida shunday xotirlaydi: “Shaharda juda ko‘p yaxshi qurilgan ko‘chalar va tor ko‘chalar mavjud hamda turli mollar sotiladigan yaxshi rastalar joylashgan. Bu ko‘chalar orasida ko‘p darvozali katta uylar joylashgan bo‘lib, uning ichida esa turar joy va turli rastalari bo‘lgan do‘konlar qurilgan” (Клавихо Руи Гонзалес., 1990). Savdo karvonlari uchun qulaylik ortidan, Eron shaharlari ham Temuriylar davrida gullab yashnadi. Ayniqsa, Shohrux Mirzoni bugungi kunda ham Eronda eng qadrlanadigan temuriy hukmdordir. Eron tarixini yoritib beradigan manbalardan birida, Shohrux Mirzo oldin qilingan vayronalarni qayta tiklaganligi, Marv hamda Hirot devorlarini qayta qurganligi, shaharlar aholisiga katta ijtimoiy yordam

qilganligi, “muruvvatli podshoh, ilm ahlini ulug‘lab, hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlagan, sanoatni yuksaltirgan” (13) hukmdor deya ta’riflangan.

Mazkur yo‘l borasida Ibn Arabshoh ham Temurning Hamadon va Tabrizga yurishini bayon qila turib, ma’lumot beradi. Oxirgi manzilgohdan so‘ng yo‘l Merend, Naxchivan orqali yirik savdo-iqtisodiy markaz – Dobilgacha borgan. U Yerevandan uncha uzoq bo‘lmagan yerda joylashgan (Ибн Арабшоҳ., 1992) - deya o‘z asarida qayd etadi.

Movarounnahr savdogarlari o‘rta asrlarda Eronning boshqa karvon yo‘llaridan ham foydalanganlar. Shulardan biri savdogarlarni Raydan Isfahonga, so‘ng Eronning katta 104 savdo markazi – Sherozga yetaklagan. O‘sha davrda Raydan boshlangan yo‘l Obi sho‘r daryosidan “g‘ishtli ko‘prik” orqali o‘tar edi. Temur Sherozdan Isfahonga aynan shu yo‘l orqali borgan. “A’lo hazratlari bir necha kun Sherozda to‘xtashga amr etdilar. Fors davlat ishlarini tartibga keltirish uchun a’lo hazratlari Isfahonga yo‘l oldilar” (Гийасаддин Али., 1958).

Temur karvon yo‘llarining qulayligi va xavfsizligini kuzatib turgan. Biroq, zamondoshlari guvohlik berishicha, bu yo‘llar ham har doim bexavotir bo‘lmagan. Ibn Arabshoh Yazd va Sheroz oralig‘idagi karvon yo‘lida qaroqchilik bilan shug‘ullangan xafan qabilasiga mansub Jamol Luk otlig‘ qandaydir arab to‘g‘risida hikoya qiladi (Ибн Арабшоҳ., 1992).

Movarounnahrlik savdogarlar Eronning boshqa ijtimoiy-iqtisodiy markazlari bilan ham qizg‘in savdo-sotiq olib borishgan. Shunday markazlardan misol tariqasida Kermonni ko‘rsatib o‘tish mumkin. Kermonga boruvchi eng serqatnov yo‘l Nishopur orqali o‘tar va janubiy yo‘nalishda davom etar edi. Chapga qarab otlanganlar yo‘lida Kain, Birjond, Xusp, Nime, Xabis degan to‘xtash yerlari joylashgan (Агзамова Г.А., 2018). Eronlik tarixchi Zahra Azarniush Temurni Eron mintaqasidagi olib borgan harbiy yurishlarini tarixiy baholar ekan: “…mo‘gullarni Eron hududiga yetqazgan ziyonidan, uniki kamroq edi va madaniy yuksalishiga avvalgidan ham ko‘proq hissa qo‘shdi” (www.kojaro.com) – deya ta’riflaydi.

Temuriylar davrida XIV–XV asr oxirlarida Movarounnahrni ma’lum mamlakatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy, ba’zi hollarda siyosiy va harbiy ahamiyatga ega bo‘lgan karvon yo‘llari bog‘lagan edi. Mana shunday tarixiy sharoitda karvon yo‘llari savdo, diplomatik va boshqa aloqalarning amaliy vazifasini bajara turib, ayni vaqtda turli mamlakatlar va xalqlarning o‘zaro iqtisodiy va madaniy ta’sirini mustahkamlashga xizmat qilganligini ko‘rishimiz mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Temuriylar davrida Eronning geosiyosiy o‘rnini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ushbu hudud Amir Temur saltanati tarkibida oddiy zabt etilgan

makon emas, balki yirik mintaqaviy siyosiy, iqtisodiy va diplomatik tizimning strategik tayanchi sifatida namoyon bo‘lgan. Eronning Markaziy Osiyo, Iroq, Kavkaz, Kichik Osiyo va Hindistonni o‘zaro bog‘lovchi qulay geografik joylashuvi, uni Temuriylar davlatining tashqi siyosati, harbiy strategiyasi va savdo-kommunikatsiya manfaatlari nuqtayi nazaridan alohida ahamiyatli hududga aylantirgan. Aynan shu omil Amir Temurning Eron mintaqasiga nisbatan olib borgan faol siyosatining asosiy mazmunini belgilagan.

Tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, Temuriylar davrida Eron hududi saltanat ichki va tashqi aloqalarini birlashtiruvchi ko‘prik vazifasini bajargan. Marv, Nishopur, Hamadon, Tabriz, Ray, Sheroz, Kermon singari shaharlarning savdo, diplomatik va harbiy-strategik markaz sifatida rivojlanishi Eronning geosiyosiy salohiyatini yanada kuchaytirgan. Bu shaharlar orqali karvon yo‘llarining faol ishlashi Movarounnahr bilan janubiy va g‘arbiy hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni jonlantirgan, natijada Temuriylar davlati hududiy yaxlitligi va iqtisodiy barqarorligi mustahkamlangan.

Mazkur xulosalardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin. Avvalo, Temuriylar davrida Eronning geosiyosiy o‘rni masalasini yanada chuqurroq o‘rganish uchun birlamchi sharq manbalari, ayniqsa forsiy va arabiy yozma merosni kengroq jalb etish maqsadga muvofiqdir. Ikkinchidan, mavzuni faqat siyosiy tarix doirasida emas, balki tarixiy geografiya, geoiqtisodiyot va diplomatiya tarixi bilan uzviy bog‘liq holda interdisiplinar yondashuv asosida tadqiq etish zarur. Uchinchidan, Temuriylar davrida Eron orqali o‘tgan karvon yo‘llari, savdo markazlari va diplomatik elchiliklar faoliyatini maxsus ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o‘rganish muhim natijalar berishi mumkin. To‘rtinchidan, o‘zbek tarixshunosligida Amir Temur saltanati diplomatiyasi va Eron bilan aloqalariga bag‘ishlangan tadqiqotlarni zamonaviy xalqaro tarixshunoslikdagi qarashlar bilan qiyosiy asosda boyitish lozim.

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davrida Eronning geosiyosiy o‘rni masalasi Amir Temur saltanatining mintaqaviy siyosiy tafakkuri, savdo-iqtisodiy strategiyasi va diplomatik faoliyatini anglashda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu mavzuning chuqur tadqiq etilishi nafaqat Temuriylar davri tarixini kengroq yoritishga, balki o‘zbek davlatchiligi, diplomatiyasi va xalqaro aloqalar tarixi bo‘yicha ilmiy qarashlarni boyitishga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Агзамова Г.А. (2018) Амир Темур ва Темурийлар даврида Мовароуннаҳрни хориж билан боғлаган карвон йўллари. // Амир Темур даврида Мовароуннаҳр: археология, тарих, маданият. / Э.В. Ртвеладзе, А.М.

Атаходжаев, М.И. Филанович таҳрири остида. – Тошкент: Адабиёт учқунлари.

2. Байкова Н.Б. (1964) Роль Средней Азии в русско-индийских торговых связях. Ташкент.

3. Босворт К.Е. (2007) Мусулмон сулолалари. –Т.: Фан.

4. Гийасаддин Али. (1958) Дневник похода Темура в Индию. М.

5. Ибн Арабшоҳ. (1992) Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари). 1 китоб. Тошкент.

6. Клавихо Руи Гонзалес. (1990) Дневник путешествия ко двору Темура в Самарканд в 1403–1406 гг. / Подлинный текст с переводом и примечаниями, составленными под редакцией И.И. Срезневского. СПб., М.

7. Ўлжаева Ш. (2018) Амир Темур дипломатияси: илмий-оммабоп кўлланма. Т.: “IJOD-PRESS” нашриёти.

8. Ғиёсиддин ибн Ҳумомиддин Хондамир. (2013) «Хабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар» («Башар ахли сийратидан хабар берувчи дуст»). Тошкент. “O‘zbekiston”.

9. Эбигнев Бжезинский. (2022) Буюк шахмат тахтаси / инглиз тилидан “Шарқшунос таҳлилчилар” жамоаси таржимаси. Тошкент: Trust And Support Mchj, Тирилиш.

10. لغتنامه دهخدا. ذیل عبارت شاهرخ میرزا

11. https://www.kojaro.com/history-art-culture/192479-timurids-political-cultural-development-iran/#ca424a38-dfa1-47da-8ab9-1e2f7ebc64f9

REFERENCES:

1. Agzamova G.A. (2018) Amir Temur va Temuriylar davrida Movarounnahrni xorij bilan bog‘lagan karvon yo‘llari. // Amir Temur davrida Movarounnahr: arxeologiya, tarix, madaniyat. / E.V. Rtveladze, A.M. Ataxo‘jayev, M.I. Filanovich tahriri ostida. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari. (In Uzbek)

2. Baykova N.B. (1964) Rol’ Sredney Azii v russko-indiyskix torgovyx svyazyax. Toshkent. (In Russian)

3. Bosvort K.Ye. (2007) Musulmon sulolalari. –T.: Fan. (In Uzbek)

4. Giyosiddin Ali. (1958) Dnevnik poxoda Temura v Indiyu. M. (In Russian)

5. Ibn Arabshoh. (1992) Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari). 1 kitob. Toshkent. (In Uzbek)

6. Klavixo Rui Gonzales. (1990) Dnevnik puteshestviya ko dvoru Temura v Samarkand v 1403–1406 gg. / Podlinniy tekst s perevodom i primechaniyami, sostavlennimi pod redaktsiyey I.I. Sreznevskogo. SPb., M. (In Russian)

7. O‘ljonova Sh. (2018) Amir Temur diplomatiyasi: ilmiy-ommabop ko‘llanma. T.: “IJOD-PRESS” nashriyoti. (In Uzbek)

8. G‘iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir. (2013) «Xabib us-siyar fi axbori afrodi bashar» («Bashar axli siyiratidan xabar beruvchi dast»). Toshkent. “O‘ZBEKISTON”. (In Uzbek)

9. Zbignev Bjezinskiy. (2022) Buyuk shaxmat taxtasi / ingliz tilidan “Sharqshunos tahlilchilar” jamoasi tarjimasi. Toshkent: TRUST AND SUPPORT MChJ, Tirilish. (In Uzbek)

10. Lug‘atnoma-yi Dihxudo, zayl-i iborat-i Shohrux Mirzo. (In Persian)

11. https://www.kojaro.com/history-art-culture/192479-timurids-political-cultural-development-iran/#ca424a38-dfa1-47da-8ab9-1e2f7ebc64f9 (In Persian)

TEMURIYLAR DAVRI HIROT TARIXCHILIK MAKTABI
THE HERAT SCHOOL OF HISTORIOGRAPHY OF THE TIMURID PERIOD
ГЕРАТСКАЯ ИСТОРИЧЕСКАЯ ШКОЛА ПЕРИОДЫ ТЕМУРИДОВ

Sherzod Jo‘rayev Norovich
Oriental universiteti,
Tarix kafedrasi katta o‘qituvchisi
Tel.:+998 90-986-75-39
E-mail:Sjuraev107@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Sulton Husayn Mirzo hukmronligi yillarida Hirot ilmiy-madaniy muhitida tarixnavislikning sifat va mazmun jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishi tahlil qilinadi. Alisher Navoiyning bevosita homiyligi va ilmiy-ma’rifiy tashabbuslari natijasida Mirxond, Xondamir, Kamoliddin Abdurazzoq Samarqandiy, Davlatshoh Samarqandiy va Zayniddin Vosifiy ijodida manbaga tayangan tahliliy, qiyosiy yondashuv hamda sabab-oqibat bog‘liqliklarini aniqlash usullari mustahkamlandi. Tadqiqotda “Ravzat us-safo”, “Habib us-siyar”, “Matla’ as-sa’dayn va majma’ al-bahrayn”, “Tazkirat ush-shuaro”, “Badoyi’ al-vaqoyi’”, shuningdek Navoiy qalamiga mansub “Tarixi anbiyo va hukamo” hamda “Tarixi mulki Ajam” asarlarining mazmuni va xususiyatlari ko‘rsatildi.

Kalit so‘zlar: *Sulton Husayn Mirzo, Alisher Navoiy, Hirot maktabi, Mirxond, Xondamir, Abdurazzoq Samarqandiy, Davlatshoh Samarqandiy, Zayniddin Vosifiy.*

Annotation. The article analyzes how historiography in the scholarly-cultural milieu of Herat reached a new qualitative and substantive stage during the reign of Sultan Husayn Mirza. Owing to Alisher Navoi’s direct patronage and scholarly-educational initiatives, the works of Mirkhwand, Khwandamir, Kamoliddin Abdurazzoq Samarqandi, Davlatshoh Samarqandi, and Zayniddin Vosifi consolidated source-based analysis, comparative approaches, and methods for identifying causal relationships. The study outlines the content and features of Ravzat us-safo, Habib us-siyar, Matlaʿ as-saʿdayn va majmaʿ al-bahrayn, Tazkirat ush-shuaro, Badoyiʿ al-vaqoyiʿ, as well as Navoi’s Tarixi anbiyo va hukamo and Tarixi mulki Ajam.

Keywords: *Sultan Husayn Mirza, Alisher Navoi, Herat school, Mirkhwand, Khwandamir, Abdurazzoq Samarqandi, Davlatshoh Samarqandi, Zayniddin Vosifi.*

Аннотация. В статье анализируется вывод историографии в научно-культурной среде Герата на новый качественный и содержательный этап в годы правления султана Хусейна Мирзы. Благодаря непосредственному покровительству Алишера Навои и его научно-просветительским инициативам в трудах Мирхонда, Хавандмира, Камолиддина Абдураззока

Самарканди, Давлатшаха Самарканди и Зайнуддина Васифи укрепились источниковедческий анализ, сравнительный подход и методы выявления причинно-следственных связей. В исследовании показаны содержание и особенности произведений Равзат ус-сафо, Ҳабиб ус-сияр, Матла ас-саъдайн ва мажма ал-баҳрайн, Тазкират уш-шуаро, Бадойи ал-вақойи, а также навоиевских Тарихи анбиё ва ҳукамо и Тарихи мулки Ажам.

Ключевые слова: *султан Хусейн Мирза, Алишер Навои, гератская школа, Мирхонд, Хавандмир, Абдураззок Самарканди, Давлатшах Самарканди, Зайнуддин Васифи.*

KIRISH

Sulton Husayn Mirzo hukmronlik qilgan davr (1469–1506) Temuriylar renessansining o‘ziga xos cho‘qqisi bo‘lib, bu davrda ilm-fanning barcha sohalari qatori tarixnavislik ilmi ham yuksak taraqqiyot bosqichiga ko‘tarildi. Hirotda shakllangan o‘ziga xos tarixchilik maktabi nafaqat o‘sha davr, balki butun Sharq tarixshunosligi an’analarini yangi pog‘onaga olib chiqdi. Mazkur ilmiy muhitning vujudga kelishida Sulton Husayn Boyqaroning shaxsan o‘zi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy, shuningdek, Mirxond, Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy va Zayniddin Vosifiy kabi yetuk olimlarning xizmati beqiyosdir. Ularning qalamiga mansub shoh asarlar jahon tarixi fanining nodir manbalari hisoblanib, bugungi kunga qadar o‘zining ilmiy qimmatini yo‘qotmay kelmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur yo‘nalishda jahon miqyosida, xususan, O‘zbekiston, Eron, Turkiya hamda Yevropa mamlakatlarida keng ko‘lamli ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Temuriylar davri davlatchiligi va madaniyati tarixini o‘rganish asnosida Sulton Husayn Mirzo zamoni tarixnavisligi hamda olimlar diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Jumladan, B.Ahmedov (2003), N.Norqulov (1996) va A.Rejepova (2019) kabi tadqiqotchilar ushbu davrning ijtimoiy-siyosiy manzarasi hamda tarixiy asarlarning manbashunoslik tahliliga salmoqli hissa qo‘shganlar. Turk olimi T.Yildirim (2002), shuningdek, o‘zbekistonlik olimlardan A.Qayumov, O.Bo‘riyev, D.Yusupova (Yusupova D., 2001) va A.O‘rinboyevlarning ilmiy ishlarida Hirot tarixnavislik maktabining o‘ziga xos xususiyatlari, tarixiy xotira va an’analar davomiyligi masalalari chuqur tahlil etilgan. Ushbu tadqiqotlar Sulton Husayn Boyqaro davri ma’naviy hayotini yoritishda poydevor vazifasini o‘taydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy tadqiqotni tayyorlashda o‘tmish voqeligini anglashning xolislik, ilmiylik va tarixiylik kabi poydevor tamoyillariga tayanildi. Sulton Husayn Boyqaro hukmronligi davridagi tarixnavislik an’analarini har tomonlama yoritish

maqsadida tarixiy-qiyosiy tahlil, manbashunoslik tadqiqi, tizimli yondashuv hamda voqealarning vaqt bo‘yicha ketma-ketligini ta’minlovchi xronologik izchillik usullari o qo‘llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mirxond – asl ismi Mirxond Hamiduddin Muhammad ibn Havandshoh al-Balxiy bo‘lgan bu mashhur tarixchi 1433-yilda Balx shahrida tavallud topgan (Ахмедов Б., 2003: 18). Uning otasi aslida buxorolik bo‘lib, ilm olish maqsadida Balxga ko‘chib kelgan. Mirxondning nasabi Sayyid Buxoriy avlodidan kelib chiqqan bo‘lib, bu oila o‘z davrida nufuzli sayyidlar sulolasidan sanalgan.

Otasi Havandshoh Balxdan Hirotga ko‘chib, u yerda mashhur mutasavvif Shayx Bahoiddin Umar Jag‘aroyining muridi bo‘lgan va undan ta’lim olgan. Ularning o‘zaro aloqasi shu darajada samimiy bo‘lganki, Shayx vafoti chog‘ida tobuti boshida Fotihani aynan Havandshoh o‘qishini vasiyat etgan. Havandshoh vafot etganida esa ustozining maqbarasiga dafn etilgan.

Shunday ilmiy va ruhiy muhitda voyaga yetgan Mirxond puxta ta’lim olgan va yoshligidan tarix faniga qiziqish bildirgan. Uning iste’dodi tez orada e’tibor qozondi va u Temuriylar saroyida xizmat qilgan Alisher Navoiy bilan yaqin munosabat o‘rnatdi. Navoiy Mirxondga Ihlosiya xonaqohida ijod qilish uchun joy ajratib, tarixiy manbalar to‘plashda yordam ko‘rsatgan. Shu sharoit Mirxondning eng mashhur asari – **“**Ravzat us-safo fi siyrat al-anbiyo va-l-muluk va-l-xulafo” (“Payg‘ambarlar, podshohlar va xalifalar hayoti haqida poklik bog‘i”) (Мирхонд, 1996) nomli yirik tarixiy asarni yaratishiga turtki bo‘ldi. Asar 1483-1498-yillar oralig‘ida yozilgan bo‘lib, Temuriylar davri tarixshunosligining eng muhim manbalaridan biri hisoblanadi.

Alisher Navoiy o‘zining “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” va boshqa asarlarida Mirxond haqida iliq so‘zlar aytib, uni quyidagicha ta’riflaydi:

“U Balxning ulug‘ zotlaridan Shayx Havandshohning o‘g‘li bo‘lib, yuksak nasab va bilim egasi edi. Shunga qaramay, u kibrdan yiroq, kamtar va xushxulq inson bo‘lgan. Bu tabiati umrining oxirigacha o‘zgarmagan.”

Navoiy, shuningdek, Mirxonddan yaratilishdan to o‘z zamonigacha bo‘lgan davrni qamrab oluvchi tarixiy asar yozishni so‘raganini, u esa bu iltimos asosida “Ravzat as-safā”ni yozishga kirishganini qayd etadi. Navoiy uning shaxsiy fazilatlarini quyidagicha eslaydi:

“Mirxond iltimos qilgan asarning yarmicha qismini yozdi, inshoalloh, uni yakunlashga muvaffaq bo‘lur. Yozilgan tarixiy asarlar orasida uning asaridan yaxshirog‘i yo‘q. U shon-shuhratni yoqtirmas, kayfiyati xira bo‘lsa, bir qadah may ichar, kayfiyati ko‘tarilgan paytlarda esa shaxmat o‘ynardi. U doimo kamtarligini saqlardi.”

Mirxond vafot etganida asar hali to‘liq yakunlanmagan edi. U hayotining so‘nggi davrida, kasal yotog‘ida asarning oltinchi jildini yozib tugatdi. Birinchi jilddan oltinchi jildgacha bo‘lgan qismda tarix fanining foydalari, Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) va to‘rt xalifa davri, Ummaviylar va Abbosiylar xalifaligi, ularning davrida yashagan hukmdorlar, Chingizxon va uning avlodlari, shuningdek, Amir Temur va Temuriylar sulolasi tarixi batafsil yoritilgan (Ахмедов Б., 2003: 18-20).

Mirxondning nabirasi Xondamir asarning yettinchi jildini yozib tugallagan. Shu tariqa “Ravzat as-safā” o‘z davrining eng mukammal, umumiy tarixiy asarlaridan biriga aylandi. Bu asar keyingi asrlarda fors, turkiy va arab tarixchilari uchun asosiy manbalardan biri sifatida keng qo‘llanilgan.

Xondamir G‘iyosiddin Muhammad ibn Xoja Humomiddin ibn Xoja Jaloliddin Muhammad ibn Burhoniddin Muhammad Sheroziy – taxminan 1473–1476-yillar oralig‘ida Hirotda tug‘ilgan, 1534-yilda Dehlida vafot etgan (Ахмедов Б., 2003: 62). Uning tarix ilmiga erta qiziqishi bobosi Mirxondning ilmiy muhitida shakllandi. Alisher Navoiy va Mirxond tomonidan ma’naviy hamda moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlab borilgan. Navoiyning hurmati va e’tibori bois Xondamir 10 yoshidan Navoiy kutubxonasida ishlaydi va o‘qiy boshlagan. 1498-yildan esa shu kutubxonada mudirlik qilgan.

Xondamir o‘ndan ortiq tarixiy asar meros qoldirgan. Bugungi kungacha asosan quyidagilari keng tarqalgan va ilmiy muomalada: “Maosir ul-muluk”, “Xulosat ul-axbor”, “Makorim ul-axloq”, “Dastur ul-vuzaro”, “Nomayi nomi”, “Ravzat us-safo”ning yettinchi jildi, hamda “Habib us-siyar”.

Xondamirning shoh asari “Habib us-siyar” – muqaddimada olamning yaratilishi haqidagi qarashlarni batafsil bayon etadi (Хондамир, 2011: 304). Asar keyingi boblarda tarixiy jarayonlarni izchil va mantiqan bog‘lab yoritadi. Birinchi bob islomdan avvalgi payg‘ambarlar rivoyatlari, so‘ng Islom payg‘ambari hayoti va to‘rt xalifa davrini qamrab oladi.

Ikkinchi bobda Ummaviylar va Abbosiylar boshchiligidagi siyosiy sulolalar bilan birga Tohiriylar, Safforiylar, Somoniylar kabi hududiy sulolalarning hokimiyati haqida mazmunli ma’lumotlar beriladi.

Uchinchi bob ikki qismdan iborat bo‘lib, avvalo Chingizxon, uning avlodlari va nasab zanjiri, shuningdek Qoraxitoylar, Xorazmshohlar, Sarbadorlar tarixiga doir voqealar yoritiladi. Bobning keyingi qismlarida Amir Temurning tug‘ilishidan boshlab Ulug‘bek Mirzo, Abu’l-Qosim Bobur Mirzo, Sulton Abu Sa’id Mirzo va Sulton Husayn Mirzo kabi temuriylar faoliyati bayon etiladi. Shu doirada Bobur Mirzoning ota-bobolari, temuriylar saltanatini saqlab qolish yo‘lidagi kurashlar,

Shayboniyxonning hokimiyat tepasiga kelishi hamda Dashti Qipchoqdagi siyosiy jarayonlar haqida e’tiborli ma’lumotlar keltiriladi.

Diplomatik aloqalarda ko‘p tillilik tizimini rivojlantirish bo‘yicha Amir Temur davrida elchilik munosabatlarida turli tillardan (turkiy, forsiy, arabiy va yevropa tillari) foydalanilgan. Shu tajribadan kelib chiqib, diplomatik aloqalarda samarali muloqot uchun professional tarjimonlar va ko‘p tilli mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish zarur.

Tarjimonlarning siyosiy va madaniy savodxonligini oshirish orqali Elchilik jarayonida tarjimonlar faqat til biluvchi emas, balki siyosiy vaziyatni tushunadigan vositachi bo‘lgan. Masalan, Ruy González de Clavijo kabi elchilar bilan aloqalarda tarjimonlar muhim rol o‘ynagan. Shu bois, zamonaviy diplomatiyada tarjimonlar uchun tarix, madaniyat va diplomatik etikani o‘rgatish muhim.

Diplomatik yozishmalarda standartlashtirilgan tarjima tizimini joriy etishda Amir Temur davrida elchilik maktublari aniq va tushunarli tarzda tarjima qilinishi zarur edi. Bu tajriba asosida bugungi kunda ham xalqaro hujjatlar tarjimasida yagona standartlar, terminologik aniqlik va ishonchlilikni ta’minlash tizimini kuchaytirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Amonov J. Amir Temur davlatining tashqi siyosati va ichki siyosati. (2023-2024). Innovatsion ilmiy jurnal. Termiz davlat universiteti.
2. Atiya A.S. (1938). The Crusade in the Later Middle Ages. London: Methuen.
3. Аҳмедов Б. А., Муқминова Р. Г., Пугаченкова Г. А. (1999). История и культура эпохи Амира Темура. Ташкент: Фан.
4. Аҳмедов Б.А. Темур ва Улуғбек даври тарихи. (1996). Тошкент
5. Baxtiyorov Sh. G‘ulom o‘g‘li. (2023). Amir Temur va Temuriylar davrida davlat boshqaruvi va diplomatik aloqalar. Qo‘qon universiteti ilmiy jurnali.
6. Beatrice Forbes Manz. (1989). The rise and rule of Amir Temure. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Beknazarov I. (2021). Соҳибқирон Темур – буюк саркарда ва адолатли подшоҳ. Халқаро конференция материаллари (ЮНЕСКО ҳомийлигида). Тошкент. https://surgery.med.tma.uz/archives/2637
8. Fischel W.F. (1969). Ibn Khaldun in Egypt: His public functions and his historical research. Berkeley: University of California Press.
9. Fisher W.B. (Ed.). (1986). The Cambridge history of Iran (Vol. 6). Cambridge: Cambridge University Press.

10. González de Clavijo R., López Estrada F. (1999). Embajada a Tamorlán. Madrid: Castalia.

11. Moralez S. R. (2015). Ruy González de Clavijo, un madrileño en el reino del Gran Tamerlán. The Diplomat in Spain. http://thediplomatinspain.com/ruy-gonzalez-de-clavijo-un-madrileno-en-el-reinodelgran-Amir Temur/

12. Rahimboyev A. (2018). Amir Temur va Yildirim Boyazid orasidagi maktublashuv.

13. Ramanova N., Oraqbayeva Z. (2022). Amir Temur davlatining diplomatik aloqalari. Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: nazariya va amaliyot (konferensiya materiallari).

14. Raximov B., Tashmuradov U. (2025). Amir Temur va Temuriylar davrida tashqi diplomatik aloqalarning davlat siyosiy taraqqiyotidagi ahamiyati. Actual Problems of Humanities and Social Sciences, 5(3), 53–57.

15. Sog‘uniy A., Karomatov, H. (Tarj.). (1991). Temur tuzuklari (fors tilidan tarjima). Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi.

REFERENCES:

1. Amonov J. Amir Temur davlatining tashqi siyosati va ichki siyosati. (2023-2024). Innovatsion ilmiy jurnal. Termiz davlat universiteti. (In Uzbek)

2. Atiya A.S. (1938). The Crusade in the Later Middle Ages. London: Methuen. (In English)

3. Ahmedov B. A., Muqminova R. G., Pugachenkova G. A. (1999). Istoriya i kul’tura epoxi Amira Temura. Toshkent: Fan. (In Russian)

4. Ahmedov B.A. Temur va Ulug‘bek davri tarixi. (1996). Toshkent. (In Uzbek)

5. Baxtiyorov Sh. G‘ulom o‘g‘li. (2023). Amir Temur va Temuriylar davrida davlat boshqaruvi va diplomatik aloqalar. Qo‘qon universiteti ilmiy jurnali. (In Uzbek)

6. Beatrice Forbes Manz. (1989). The rise and rule of Amir Temure. Cambridge: Cambridge University Press. (In English)

7. Beknazarov I. (2021). Sohibqiron Temur – buyuk sarkarda va adolatli podshoh. Xalqaro konferensiya materiallari (YUNESKO homiyligida). Toshkent. https://surgery.med.tma.uz/archives/2637 (In Uzbek)

8. Fischel W.F. (1969). Ibn Khaldun in Egypt: His public functions and his historical research. Berkeley: University of California Press. (In English)

9. Fisher W.B. (Ed.). (1986). The Cambridge history of Iran (Vol. 6). Cambridge: Cambridge University Press. (In English)

10. González de Clavijo R., López Estrada F. (1999). Embajada a Tamorlán. Madrid: Castalia. (In Spanish)

11. Moralez S. R. (2015). Ruy González de Clavijo, un madrileño en el reino del Gran Tamerlán. The Diplomat in Spain. http://thediplomatinspain.com/ruy-gonzalez-de-clavijo-un-madrileno-en-el-reinodelgran-Amir Temur/ (In English)

12. Rahimboyev A. (2018). Amir Temur va Yildirim Boyazid orasidagi maktublashuv. (In Uzbek)

13. Ramanova N., Oraqbayeva Z. (2022). Amir Temur davlatining diplomatik aloqalari. Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: nazariya va amaliyot (konferensiya materiallari). (In Uzbek)

14. Raximov B., Tashmuradov U. (2025). Amir Temur va Temuriylar davrida tashqi diplomatik aloqalarning davlat siyosiy taraqqiyotidagi ahamiyati. Actual Problems of Humanities and Social Sciences, 5(3), 53–57. (In Uzbek)

15. Sog‘uniy A., Karomatov, H. (Tarj.). (1991). Temur tuzuklari (fors tilidan tarjima). Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. (In Uzbek)

TEMURIYLAR DAVLATIDA XALQARO DIPLOMATIYA VA POCHTA TIZIMINING O‘RNI

THE ROLE OF INTERNATIONAL DIPLOMACY AND THE POSTAL SYSTEM IN THE TIMURID STATE

РОЛЬ МЕЖДУНАРОДНОЙ ДИПЛОМАТИИ И ПОЧТОВОЙ СИСТЕМЫ В ГОСУДАРСТВЕ ТЕМУРИДОВ

Ismatullayeva Zebo Shukurjonovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti, Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi,
Tel.:+998 93-804-00-98
E-mail: zeboismatullayeva1987@gmail.com
orcid: 0009-0008-2633-4603

Anotatsiya. Mazkur maqolada Amir Temur va Temuriylar davrida shakllangan pochta tizimi (“yom” tizimi)ning davlat boshqaruvidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu tizimning markaziy hokimiyat bilan hududlar o‘rtasida uzluksiz va tezkor axborot almashinuvi ta’minlashdagi roli yoritilgan. Shuningdek, uning siyosiy, harbiy, ma’muriy hamda iqtisodiy jarayonlarni muvofiqlashtirishdagi funksiyalari ilmiy asosda ochib beriladi. Manbalar asosida pochta tizimining tashkil etilishi, ishlash mexanizmi va nazorat usullari ko‘rib chiqilib, uning o‘rta asrlar davlat boshqaruvida muhim institutsional yechim bo‘lganligi asoslanadi. Tadqiqot natijalari Temuriylar davlati barqarorligini ta’minlashda rivojlangan kommunikatsiya tizimi hal qiluvchi omil bo‘lganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *Amir Temur, Temuriylar davlati, yom tizimi, pochta tizimi, davlat boshqaruvi, kommunikatsiya, markazlashuv, harbiy boshqaruv.*

Annotation. This article analyzes the postal system (“yam system”) established during the era of Amir Temur and the Timurid state, as well as its role in public administration. Particular attention is given to its importance in ensuring continuous and rapid communication between the central authority and regional territories. The study also examines its functions in coordinating political, military, administrative, and economic processes on a scientific basis. Based on historical sources, the organization, operational mechanisms, and control methods of the postal system are explored, demonstrating that it served as an important institutional solution in medieval state governance. The findings indicate that a developed communication infrastructure was a key factor in maintaining the stability of the Timurid state.

Keywords: *Amir Temur, Timurid state, yam system, postal system, public administration, communication, centralization, military management.*

Аннотация. В данной статье анализируется почтовая система («ямская служба»), сформированная в эпоху Амира Темура и Темуридов, а также её роль в государственном управлении. Особое внимание уделяется значению данной системы в обеспечении непрерывного и оперативного обмена информatsией между центральной властью и регионами. Также на научной основе раскрываются её функции в координatsии политических, военных, административных и экономических процессов. На основе исторических источников рассматриваются организatsия, механизм функционирования и методы контроля почтовой системы, что позволяет оценить её как важное институциональное решение в управлении государством в средние века. Результаты исследования показывают, что развитая коммуникatsионная инфраструктура была одним из ключевых факторов стабильности государства Темуридов.

Ключевые слова: *Амир Темур, государство Темуридов, ямская система, почтовая система, государственное управление, коммуникация, централизация, военное управление.*

KIRISH

Amir Temur tomonidan barpo etilgan davlat o‘z davrining eng keng hududlarni qamrab olgan siyosiy tuzilmalaridan biri bo‘lib, Markaziy Osiyo, Eron, Iroq, Kavkaz, Hindistonning shimoliy qismi hamda Kichik Osiyogacha cho‘zilgan ulkan makonni birlashtirgan. Bunday murakkab va ko‘p millatli hududni boshqarish nafaqat harbiy qudrat, balki puxta tashkil etilgan ma’muriy tizim hamda tezkor aloqa vositalariga tayanishni taqozo etgan. Shu nuqtayi nazardan, Temuriylar davrida shakllangan aloqa va pochta tizimi davlat boshqaruvi samaradorligini ta’minlovchi muhim institutlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Temuriylar davlati boshqaruv amaliyotida axborot almashinuvi strategik ahamiyat kasb etib, markaziy hokimiyat bilan viloyatlar o‘rtasida uzluksiz aloqani yo‘lga qo‘yish asosiy vazifalardan biri hisoblangan. Bu ichki boshqaruv tizimi bilan bir qatorda, xalqaro diplomatiya samaradorligini ta’minlashda ham muhim rol o‘ynagan. Xususan, maxsus yo‘l tarmoqlari, bekatlar (yom tizimi), choparlar (elchilar va xabarchilar) faoliyati orqali siyosiy, harbiy va iqtisodiy ma’lumotlar nafaqat ichki hududlarga, balki qo‘shni davlatlar va diplomatik markazlarga ham tezkor ravishda yetkazilgan. Mazkur tizim xalqaro elchilar almashinuvi jarayonini tezlashtirib, davlatlararo muzokaralar va diplomatik qarorlarning o‘z vaqtida qabul qilinishini ta’minlagan. Elchilarning xavfsiz harakatlanishi va uzluksiz aloqa tizimi Temuriylar davlatining xalqaro maydondagi ishonchliligini oshirgan. Shu orqali davlat tashqi siyosatda tezkor javob berish, harbiy-siyosiy vaziyatlarni baholash va ittifoqlarni muvofiqlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Temuriylar davridagi pochta (“yom”) tizimini o‘rganish turli tarixiy manbalar va zamonaviy tadqiqotlarga tayanadi. Avvalo, g‘arb tarixshunosligida muhim o‘rin tutgan Beatrisa Forbes Manzning *“The Rise and Rule of Tamerlane”* (1989) asarida Temur davlati boshqaruv tizimi chuqur tahlil qilinadi. Shu bilan birga, tarixiy birlamchi manbalar orasida Sharafuddin Ali Yazdiyning *“Zafarnoma”* asari alohida ahamiyatga ega. Ushbu manbada Temuriylar davridagi boshqaruv tizimi, jumladan aloqa va yo‘l infratuzilmasi haqida muhim ma’lumotlar beriladi.

Mahalliy tarixshunoslikda Ahmadali Asqarovning *“O‘zbekiston tarixi”* asari muhim o‘rin tutadi. Garchi pochta tizimi alohida tadqiqot obyekti sifatida ko‘rib chiqilmagan bo‘lsa-da, markaz va hududlar o‘rtasidagi uzluksiz aloqalar mavjudligi bilvosita aks ettiriladi.

Mo‘g‘ullar davri bilan uzviylik masalasi David Morganning *“The Mongols”* (2007) asarida ham yoritiladi. Muallif mo‘g‘ullar davridagi “yom” tizimining keng rivojlanganligini ko‘rsatib, keyingi davlatlar, jumladan Temuriylar tomonidan ushbu tajriba qayta ishlanganini qayd etadi. Yana bir muhim tadqiqot – Mariya Eva Subtelniy tomonidan yozilgan *“Timurids in Transition”* (2007) asaridir. Asarda aloqa tizimi bevosita markaziy mavzu bo‘lmasa-da, dastlabki davrlarda samarali boshqaruv va kommunikatsiya mexanizmlarining mavjudligi, keyinchalik esa siyosiy parchalanish natijasida ularning samaradorligi pasaygani qayd etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda Temuriylar davridagi pochta (“yom”) tizimini o‘rganishda tarixiy-tahliliy, qiyosiy va tizimli yondashuvlardan foydalanildi. Birlamchi manbalar hamda zamonaviy tadqiqotlar asosida tizimning shakllanishi va funksiyalari tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Temur davrida yo‘lga qo‘yilgan pochta tizimi oddiy xabar yetkazish vositasi bo‘lib qolmasdan, balki markaz va hududlar o‘rtasidagi siyosiy, harbiy hamda ma’muriy bog‘liqlikni ta’minlovchi murakkab tizim vazifasini bajargan (Manz B.F. 1989:202). Shu jihatdan, “yom” tizimini o‘rta asrlar davlat boshqaruvida muhim institutsional yechim sifatida baholash mumkin.

Temuriylar davrida shakllangan pochta tizimi tarixiy jihatdan mo‘g‘ullar davridagi aloqa an’analariga tayanadi, biroq u yangi siyosiy sharoitlarga mos ravishda qayta ishlab chiqilgan (Sharafuddin Ali Yazdiy. 1997). Bu tizimda asosiy e’tibor tezkorlik, uzluksizlik va nazoratga qaratilgan.


Pochta tizimining ishlash mexanizmini quyidagicha tavsiflash mumkin:

- yo‘llar bo‘ylab muntazam oraliqlarda maxsus bekatlar tashkil etilgan;

- har bir bekatda safarga tayyor otlar va xizmat ko‘rsatuvchi shaxslar mavjud bo‘lgan;
- choparlar bekatlar o‘rtasida otlarni almashtirib, uzluksiz harakatni ta’minlagan;
- tizimdan foydalanish maxsus ruxsat hujjatlari orqali tartibga solingan.

Xususan, Beatrice Forbes Manz fikricha, Temur davlati barqaror faoliyat yuritishida aloqa va nazorat tizimlari hal qiluvchi infratuzilmaviy omil vazifasini bajargan. Bu esa pochta tizimining oddiy texnik vosita emas, balki davlat boshqaruvi mexanizmining ajralmas qismi ekanligini ko‘rsatadi (Manz B.F. 1989:202).

Samarqand shahri Temuriylar davlati uchun nafaqat siyosiy markaz, balki aloqa tizimining asosiy tuguni vazifasini bajargan. Aynan shu markazdan turli yo‘nalishlarga strategik yo‘llar tarqalgan.



Aloqa yo‘llarining shakllanishida geografik va siyosiy omillar muhim rol o‘ynagan. Yo‘llar yirik ma’muriy va savdo markazlarini bog‘lagan holda qurilgan bo‘lib, ular orqali davlat boshqaruvi amalga oshirilib, iqtisodiy aloqalar qo‘llab-quvvatlangan hamda harbiy kuchlar muvofiqlashtirilgan;

Bundan tashqari, birlamchi manbalardan biri bo‘lgan Ibn Arabshoh asarlarida Temur davridagi yo‘llarning xavfsizligi va qat’iy nazorat ostida bo‘lganligi qayd etiladi. Bu holat pochta tizimining tezkor va uzluksiz ishlashiga imkon yaratganini ko‘rsatadi. Shu jihatdan, Temuriylar davridagi aloqa tizimi o‘z davri uchun yuqori darajada tashkil etilgan boshqaruv mexanizmi sifatida baholanishi mumkin (Ибн Арабшох., 1997). Mazkur tizim bir vaqtning o‘zida bir necha strategik vazifalarni bajargan. Ular orasida eng muhimlari quyidagilar:

- markaziy hokimiyat qarorlarini tez yetkazish;

- harbiy yurishlar vaqtida operativ boshqaruvni ta’minlash;
- diplomatik aloqalarni qo‘llab-quvvatlash;
- iqtisodiy va soliq tizimini nazorat qilish.

Beatrice Forbes Manz ushbu tizimni Temur davlatining barqaror ishlashida “asosiy infratuzilmaviy omil” sifatida baholaydi (Morgan D. 2007:273). Demak, pochta tizimi davlatning funksional yaxlitligini ta’minlashda muhim rol o‘ynagan.

Temuriylar davridagi pochta tizimini o‘ziga xos qilgan jihat – uning harbiy va ma’muriy ehtiyojlarga moslashganligidir. Tizim nafaqat tinch davrda, balki harbiy yurishlar paytida ham samarali ishlagan. Bundan tashqari, tizim yuqori darajada markazlashgan va qat’iy nazorat asosida boshqarilgan. Davlat resurslari hisobidan ta’minlangan. Natijada u uzoq muddatli siyosiy barqarorlikni ta’minlash vositasiga aylangan.

Ahmadali Asqarovning “O‘zbekiston tarixi” asarida Temuriylar davriga oid ijtimoiy-siyosiy jarayonlar umumiy tarixiy kontekstda yoritilgan bo‘lib, unda davlat boshqaruvining markazlashganligi, hududiy birlikni ta’minlashga qaratilgan siyosat hamda qat’iy tartib-intizom tizimi ustuvor ahamiyat kasb etgani qayd etiladi. Muallif tomonidan aloqa tizimi alohida institut sifatida maxsus tahlil qilinmagan bo‘lsa-da, markaz va viloyatlar o‘rtasidagi uzluksiz boshqaruv aloqalarining mavjudligi bilvosita aks ettiriladi (Асқаров А., 1994).

Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, Temuriylar davlati boshqaruv tizimida samarali kommunikatsiya mexanizmlarining mavjudligi ilmiy jihatdan asoslanadi. Xususan, keng hududlarni qamrab olgan davlat sharoitida markaziy hokimiyatning tezkor axborot almashinuvi va nazoratni ta’minlashga bo‘lgan ehtiyoji rivojlangan aloqa infratuzilmasini, jumladan, pochta (“yom”) tizimini shakllantirishni taqozo etgan. Shu bois, Asqarov tomonidan keltirilgan umumiy tarixiy tavsiflar Temuriylar davrida pochta tizimi davlat boshqaruvining muhim funksional elementi bo‘lganini bilvosita tasdiqlovchi ilmiy asos sifatida talqin qilinishi mumkin.

Yana bir horijlik tadqiqotchi Maria Eva Subtelnyning *“Timurids in Transition”* (Subtelny M.E., 2007:305) asarida Temuriylar davlati boshqaruvi, siyosiy tuzilma va inqiroz jarayonlari keng tahlil qilinadi. Muallifning asosiy e’tibor nuqtasi davlatning ichki transformatsiyasi, markaziy hokimiyatning zaiflashuvi hamda hududiy boshqaruv tizimlaridagi o‘zgarishlarga qaratilgan. Mazkur asarda pochta (“yom”) tizimi alohida markaziy mavzu sifatida batafsil yoritilmagan bo‘lsa-da, Temuriylar davlatining dastlabki davrlarida samarali ma’muriy boshqaruv va tezkor kommunikatsiya tizimlari mavjud bo‘lganligi umumiy kontekstda qayd etiladi. Subtelny ta’kidlashicha, Temuriylar davlatining barqaror faoliyat yuritishida markazlashgan boshqaruv mexanizmlari muhim rol

o‘ynagan, biroq keyingi davrlarda siyosiy parchalanish jarayoni bu tizimlarning samaradorligini pasaytirgan. Shu nuqtayi nazardan, asardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, Temuriylar davrida shakllangan boshqaruv va aloqa infratuzilmalari dastlab davlat integratsiyasini ta’minlagan muhim omil bo‘lgan, biroq vaqt o‘tishi bilan markaziy nazoratning susayishi ushbu tizimlarning funksional imkoniyatlarini cheklab qo‘ygan.

Ushbu masalaga doir muhim ma’lumotlar ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixoning sayohatnomasida ham atroflicha yoritilgan. U o‘z asarida Amir Temur davlatida diplomatik munosabatlar yuqori darajada tashkil etilgani, ayniqsa elchilarning daxlsizligi va xavfsizligi qat’iy huquqiy me’yorlar asosida ta’minlanganini alohida ta’kidlaydi. Jumladan, Temuriylar davlat boshqaruv tizimida elchilar instituti nafaqat tashqi siyosat vositasi, balki davlatning ichki barqarorligi va axborot almashinuvining muhim mexanizmi sifatida ham qaralgan. Elchilarning erkin harakatlanishi, ularga nisbatan har qanday tajovuzning qattiq jazolanishi davlatning xalqaro nufuzini mustahkamlashga xizmat qilgan. Bu holat o‘sha davr uchun xos bo‘lgan diplomatik madaniyatning yuqori darajasini namoyon etadi.

Ayniqsa, Klavixo qayd etganidek, elchilar va choparlar uchun yaratilgan maxsus huquqiy imtiyozlar – masalan, yo‘l davomida transport vositasi sifatida otlarni erkin almashtirish huquqi – davlatda markazlashgan pochta-aloqa tizimi mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu tizim orqali markaz va chekka hududlar o‘rtasida tezkor axborot almashinuvi ta’minlangan. Agar kimdir elchi yoki choparga yordam ko‘rsatishdan bosh tortsa, bu davlat manfaatlariga qarshi harakat sifatida baholanib, og‘ir jazolar bilan jazolangan. Shuningdek, XIII asrda ayrim hududlarda elchilarga nisbatan salbiy munosabatlar kuzatilgani ma’lum. Bu esa xalqaro munosabatlarda ishonch inqiroziga sabab bo‘lib, ayrim davlatlarning siyosiy obro‘yiga putur yetkazgan. Temuriylar davlatida esa bu kabi holatlarga barham berish maqsadida diplomatik daxlsizlik prinsipi amalda joriy etilgan va qat’iy nazorat qilingan. Bu, o‘z navbatida, davlatning tashqi siyosiy barqarorligini ta’minlash bilan birga, uning geosiyosiy manfaatlarini ilgari surishda muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

Temuriylar davlati tajribasi diplomatiya davlat barqarorligi va xalqaro nufuzning asosiy ustuni ekanini yaqqol ko‘rsatadi. Elchilarning daxlsizligi va xavfsizligini ta’minlash orqali ishonchga asoslangan munosabatlar tizimi shakllangan. Bu esa tashqi siyosiy aloqalarda tezkor va samarali axborot almashinuvini ta’minlagan. Pochta (“yom”) tizimi diplomatik qarorlarning o‘z vaqtida yetkazilishida muhim vosita bo‘lgan. Davlatning markazlashgan boshqaruvi xalqaro munosabatlarda izchil siyosat yuritish imkonini bergan.

Diplomatik qoidalarning qat’iyligi siyosiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilgan. Shu orqali Temuriylar davlati mintaqaviy va xalqaro maydonda kuchli siyosiy subyekt sifatida shakllangan. Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, samarali diplomatiya davlatning tashqi xavfsizligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, u madaniy va siyosiy aloqalarni kengaytirishga ham xizmat qiladi. Demak, Temuriylar diplomatiyasi zamonaviy xalqaro munosabatlar uchun ham muhim ilmiy manba hisoblanadi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qiladigan bo‘lsak, yuqorida keltirilgan tahlillar asosida shuni alohida ta’kidlash joizki, Amir Temur davrida shakllangan pochta tizimi – ya’ni “yom” tizimi – davlat boshqaruvining muhim va ajralmas tarkibiy qismi sifatida faoliyat yuritgan. Ushbu tizim orqali markaziy hokimiyat bilan viloyatlar o‘rtasida tezkor va uzluksiz axborot almashinuvi ta’minlangan bo‘lib, bu esa siyosiy barqarorlikni saqlash, harbiy yurishlarni muvofiqlashtirish hamda iqtisodiy jarayonlarni nazorat qilishda muhim omil vazifasini bajargan. Ayniqsa, keng hududlarni o‘z ichiga olgan Temuriylar davlatida tezkor aloqa tizimining mavjudligi markazlashgan boshqaruvni samarali amalga oshirish imkonini bergan.

Shu bilan birga, “yom” tizimi faqatgina xabar yetkazish vositasi bo‘lib qolmay, balki davlatning ichki integratsiyasini mustahkamlovchi mexanizm sifatida ham xizmat qilgan. U orqali turli hududlar o‘rtasida siyosiy, ma’muriy va hatto madaniy aloqalar mustahkamlanib, yagona davlat tizimi shakllanishiga zamin yaratilgan. Bu esa o‘z navbatida Temuriylar davlatining uzoq muddat barqaror faoliyat yuritishiga xizmat qilgan muhim omillardan biri hisoblanadi.

Mazkur tizimni tarixiy nuqtayi nazardan tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, o‘rta asrlar sharoitida ham samarali davlat boshqaruvi rivojlangan kommunikatsiya infratuzilmasiga bevosita bog‘liq bo‘lgan. Shu boisdan, Temuriylar davridagi pochta tizimi nafaqat amaliy boshqaruv vositasi, balki davlat boshqaruvi evolyutsiyasining muhim bosqichlaridan biri sifatida ilmiy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi.

Masala mazmunidan kelib chiqqan holda quyidagi xulosaviy takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, temuriylar davridagi aloqa tizimini alohida ilmiy yo‘nalish sifatida chuqurroq o‘rganish va maxsus tadqiqotlar sonini oshirish;

Ikkinchidan, pochta (“yom”) tizimini boshqa tarixiy davrlar (ayniqsa mo‘g‘ullar davri) bilan qiyosiy tahlil qilishni kengaytirish;

Uchinchidan, ushbu tizimni zamonaviy logistika va kommunikatsiya tizimlari bilan bog‘liq holda interdisiplinar yondashuvda tahlil qilish;

To‘rtinchidan, tarixiy tajribani ta’lim jarayonlariga kiritish orqali yosh avlodda davlat boshqaruvi tarixiga qiziqishni oshirish;

Beshinchidan, mavzuga oid manbalarni tarjima qilish va ilmiy muomalaga kengroq kiritish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Allen T. (2001) Culture and Conquest in Mongol Eurasia. – Cambridge: Cambridge University Press. – 245 p.
2. Асқаров А. (1994) Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи.
3. Бартольд В.В. (1928) Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – Лондон: Luzac & Co. – 488 с.
4. Ибн Арабшах. (1997) Амир Темур тарихи. – Тошкент.
5. Klavixo R.G. (2009) Embassy to Tamerlane, 1403–1406. – Cambridge: Cambridge University Press. – 344 p.
6. Манз Б.Ф. (1989) The Rise and Rule of Tamerlane. – Cambridge: Cambridge University Press. – 202 p.
7. Морган Д. (2007) The Mongols. – Oxford: Blackwell Publishing. – 273 p.
8. Омонулла Б. (1997) Темурлар даври ёзма манбаларда Марказий Осиё. – Тошкент: Ўзбекистон.
9. Рёмер Х.Р. (1986) The Timurid Period // The Cambridge History of Iran. Vol. 6: The Timurid and Safavid Periods. – Cambridge: Cambridge University Press. – pp. 1-50.
10. Субтелни М.Е. (2007) Timurids in Transition. – Leiden: Brill. – 305 p.
11. Шарафуддин Али Яздий. (1997) Зафарнома. – Тошкент: Фан.

REFERENCES:

1. Allen T. (2001) Culture and Conquest in Mongol Eurasia. – Cambridge: Cambridge University Press. – 245 p. (In English)
2. Asqarov A. (1994) O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi. (In Uzbek)
3. Bartold V.V. (1928) Turkestan v epoxu mongol’skogo nashestviya. – London: Luzac & Co. – 488 s. (In Russian)
4. Ibn Arabshah. (1997) Amir Temur tarixi. – Toshkent. (In Uzbek)
5. Klavixo R.G. (2009) Embassy to Tamerlane, 1403–1406. – Cambridge: Cambridge University Press. – 344 p. (In English)
6. Manz B.F. (1989) The Rise and Rule of Tamerlane. – Cambridge: Cambridge University Press. – 202 p. (In English)
7. Morgan D. (2007) The Mongols. – Oxford: Blackwell Publishing. – 273 p. (In English)

8. Omonulla B. (1997) Temuriylar davri yozma manbalarda Markaziy Osiyo. – Toshkent: O‘zbekiston. (In Uzbek)

9. Ryomer X.R. (1986) The Timurid Period // The Cambridge History of Iran. Vol. 6: The Timurid and Safavid Periods. – Cambridge: Cambridge University Press. – pp. 1–50. (In English)

10. Subtelni M.E. (2007) Timurids in Transition. – Leiden: Brill. – 305 p. (In English)

11. Sharafuddin Ali Yazdi. (1997) Zafarnoma. – Toshkent: Fan. (In Uzbek)

MIRZO ULUG‘BEK VA MUHAMMAD XORAZMIYNING “YETTI IQLIM” NAZARIYASIGA DOIR QARASHLARI QIYOSIY TAHLILI

A COMPARATIVE ANALYSIS OF THE VIEWS OF MIRZO ULUGBEK AND MUHAMMAD AL-KHWARIZMI ON THE THEORY OF THE "SEVEN CLIMES"

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ВЗГЛЯДОВ МИРЗО УЛУГБЕКА И МУХАММАДА АЛЬ-ХОРЕЗМИ НА ТЕОРИЮ «СЕМИ КЛИМАТОВ»

Bo‘riyev Islom Sobir o‘g‘li
O‘zbekiston Fanlar akademiyasi
Sharqshunoslik instituti kichik ilmiy xodimi
Tel: +998 93-001-40-95
E-mail: islomb361@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk o‘zbek qomusiy olimlari Mirzo Ulug‘bek Muhammad Tarag‘ay (1394-1449) va Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso Xorazmiy (783-850) ijodidagi “Yetti iqlim” nazariyasiga doir qarashlar o‘zaro qiyosiy tahlil qilinadi. Muhammad Xorazmiy musulmon olimlari orasida “Yetti iqlim” nazariyasining asoschisi, geografiyaga doir bir qancha asarlar muallifi, Turonda bu ilm rivojiga tamal toshini qo‘ygan shaxs sanaladi. Shu tufayli uning bu sohadagi ilmiy merosi nisbatan yaxshi o‘rganilgan. Biroq bu mutafakkir boshlab bergan g‘oyalarni Ikkinchi Uyg‘onish chog‘ida davom ettirgan Mirzo Ulug‘bekning ijodidagi geografik qarashlar ancha kamroq tadqiq etilgan. Umuman, Muhammad Xorazmiy va Mirzo Ulug‘bekning “Yetti iqlim” nazariyasiga doir qarashlarini qiyosiy o‘rganish O‘zbekistonda geografiya ilmining tarixiy rivojlanishini tadqiq etishda dolzarb ahamiyatga egadir.

Kalit so‘zlar: *Mirzo Ulug‘bek, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Turon, qomusiy olim, Birinchi Uyg‘onish, Ikkinchi Uyg‘onish, geografiya, “Yetti iqlim” nazariyasi.*

Annotation. This article provides a comparative analysis of the views on the theory of the "Seven Climates" in the works of the great Uzbek encyclopedists Mirza Ulughbek Muhammad Taraghai (1394–1449) and Abu Abdullah Muhammad ibn Musa al-Khwarizmi (783-850). Muhammad Al-Khwarizmi is considered among Muslim scholars to be the founder of the theory of the "Seven Climates", the author of several works on geography, and the person who laid the foundation for the development of this science in Turan. Because of this, his scientific legacy in this field has been relatively well studied. However, geographical views in the works of Mirza Ulughbek, who continued during the Second Renaissance the ideas started by this thinker, have been much less studied. In general, a comparative study of the views of Muhammad al-Khwarizmi and Mirza Ulughbek on the theory

of the “Seven Climates” is of great importance in studying the historical development of geographical science in Uzbekistan.

Keywords: *Mirza Ulughbek, Muhammad ibn Musa al-Khwarizmi, Turan, encyclopedist, First Renaissance, Second Renaissance, geography, "Seven Climates" theory.*

Аннотация. В данной статье представлен сравнительный анализ взглядов на теорию «семи климатов» в трудах великих узбекских энциклопедистов Мирзы Улугбека Мухаммада Тарагая (1394–1449) и Абу Абдуллы Мухаммада ибн Мусы аль-Хорезми (783–850). Мухаммад аль-Хорезми считается среди мусульманских ученых основателем теории «семи климатов», автором нескольких работ по географии и человеком, заложившим основы развития этой науки в Туране. В связи с этим его научное наследие в этой области относительно хорошо изучено. Однако географические взгляды в работах Мирзы Улугбека, который в эпоху Второго Ренессанса продолжил идеи, начатые этим мыслителем, изучены гораздо меньше. В целом, сравнительное изучение взглядов Мухаммада аль-Хорезми и Мирзы Улугбека на теорию «семи климатов» имеет большое значение при изучении исторического развития географической науки в Узбекистане.

Ключевые слова: *Мирза Улугбек, Мухаммад ибн Муса аль-Хорезми, Turan, энциклопедист, Первый Ренессанс, Второй Ренессанс, география, теория «семи климатов».*

KIRISH

Mirzo Ulug‘bek Muhammad Tarag‘ay (1394-1449) – buyuk o‘zbek olimi, davlat arbobi, Sohibqiron Amir Temurning (1336-1405) nevarasidir. Ulug‘bek bolaligidanoq qobiliyatli, zukko bo‘lgan, turli bilimlarni, ayniqsa, aniq fanlarni o‘rganishga juda qiziqqan. U hukmronligi chog‘ida yurtda ilm-fanni rivojlantirgan, bir necha shaharlarda madrasalar qurdirgan, Samarqandda rasadxonaga asos solgan, bu yerga turli yerlardan olimlarni taklif qilgan. Ulug‘bekning o‘zi ham aniq, tabiiy va ijtimoiy fanlarni juda yaxshi bilgan qomusiy olim bo‘lgan.

Bugungacha uning aniq fanlar bo‘yicha merosi jahon miqyosida yaxshi o‘rganilgan. Biroq olimning boshqa sohalar, xususan, geografiyaga doir qarashlari ham diqqatga sazovordir. “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asarining bir qismi bevosita geografiyaga oiddir. Afsuski, olimning bu sohadagi faoliyati shu paytgacha yetarlicha tadqiq etilmagan. Bu bo‘yicha sanoqli tadqiqotlar mavjud. Aslida Mirzo Ulug‘bekning geografiya bo‘yicha ilmiy merosi olim vafotidan 200-yil keyin tahliliy o‘rganila boshlangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Xususan, 17-asr o‘rtalarida yevropalik olim Yohannes Gravius “Ziji jadidi Ko‘ragoniy”ning geografiyaga oid, ya’ni dunyodagi turli shaharlarning jug‘rofiy koordinatalari berilgan qismini lotin tiliga tarjima qilgan va nashr etgan. Nashrning kirish qismida tarjimon Mirzo Ulug‘bekning geografiyaga doir qarashlarini ma’lum ma’noda tahlil qilgan (Ulug Beigi. 1650: 1-104). Shuningdek, tarjimon taniqli qomusiy olim Nasiriddin Tusiy (1201-1274) va Mirzo Ulug‘bek asarlarida keltirilgan turli joylarning jug‘rofiy koordinatalari jadvallarini ham birgalikda lotin tiliga o‘girib nashr qilgan. Mazkur nashrda bu ikki olimning geografik jadvallari qiyosiy tahlil etilgan (Gravii J. 1652: 1-164). Shundan keyin deyarli 300-yildan oshiq vaqt davomida Mirzo Ulug‘bek geografiyasi deyarli yaxshi o‘rganilmagan. Yangi davrda esa uni G. Matviyevskaya (Матвиевская Г.П., Розенфельд Б.А. 1983: 416, 418;), B. Rozenfeld va E. Ihsano‘g‘lular (Boris Rozenfeld and Ekmeleddin İhsanoğlu. 2003: 277-279) qisman tadqiq etishgan. Biroq, Mirzo Ulug‘bek ijodidagi geografiya, xususan, “Yetti iqlim” nazariyasi maxsus ilmiy ish sifatida hozirgacha o‘rganilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda Muhammad Xorazmiy va Mirzo Ulug‘bekning “Yetti iqlim” nazariyasiga doir qarashlari o‘zaro solishtirilgan. Ikkala olimning asarlaridagi g‘oyalar, geografik tasavvurlar, iqlimlarning tavsifi, kenglik va uzunlikni hisoblash usullari hamda farqli jihatlari chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, qiyosiy-tarixiy va manbashunoslik yondashuvi asos qilib olingan bo‘lib, unda tarixiy-tahliliy, qiyosiy va matnshunoslik usullari kompleks tarzda qo‘llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ulug‘bek o‘zining geografiya bo‘yicha qarashlarida o‘tmishda Birinchi Uyg‘onish chog‘ida yashagan yirik olimlar, xususan, Muhammad Xorazmiyning (783-850) bu sohadagi g‘oyalariga tayanadi, ularni rivojlantiradi. Biroq uning ijodida anchagina farqli tomonlar uchraydi va ba’zan o‘z shaxsiy fikrlarini ham ilgari suradi. XV asrda Turonda geografiya ilmida yetti iqlim nazariyasi hukmron bo‘lgan. Unga IX asrda turonlik buyuk olim Muhammad ibn Muso Xorazmiy tomonidan asos solingan. Bu nazariyaga ko‘ra Yer yuzasining inson yashaydigan, dehqonchilik qilsa bo‘ladigan ma’muriy qismi ekvatordan qutblarga tomon yetti iqlimga bo‘lingan. Xorazmiydan boshlab musulmon olimlar Yer sayyorasini ekvatordan qutblarga tomon birinchi iqlimdan yettinchi iqlimgacha tavsiflashgan va bu asosan shimoliy yarimsharga nisbatan amalga oshirilgan (Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy. 1983: 292-365). Xorazmiyning “Kitobu suratu-l-arz”

(“Yerning tasviri kitobi”), “Kitobu ixtisori-l-Majestiy” (“Ptolemeyning “Majestes” asari qisqartmasi”), “Ma’rifatu arzi-l-balad” (“Shaharning kenglamasini aniqlash”), “Ma’rifatu uruzi-l-aqolim” (“Iqlimlarning kenglamalarini aniqlash”) asarlarida “Yetti iqlim” nazariyasi batafsil tushuntirilgan, amaliyotga tatbiq etilgan (بن محمد الخوارزمي موسى. Ms. or. oct. 273: 55b-59a).

Xorazmiyga ko‘ra, birinchi iqlim kengligi 15-darajagacha (ekvator atroflari, bu hozirda ekvatorial mintaqaga to‘g‘ri keladi). Ikkinchi iqlim: kengligi 24 darajagacha (15-24-parallellar oralig‘i, miqdori 9 daraja, bu mintaqasi hozirda subekvatorial mintaqaga to‘g‘ri keladi). Uchinchi iqlim: kengligi 30-darajagacha (24-30 parallellar oralig‘i, miqdori 6 daraja, bu hozirda tropik mintaqaga to‘g‘ri keladi). To‘rtinchi iqlim: kengligi 36-darajagacha (30–36-parallellar oralig‘i, miqdori 6 daraja, bu hozirda taxminan subtropik mintaqaga to‘g‘ri keladi). Beshinchi iqlim: kengligi 41-darajagacha (36-41-parallellar oralig‘i, miqdori 5 daraja, hozirda mo‘tadil mintaqaga to‘g‘ri keladi, taxminan). Oltinchi iqlim: kengligi 45-darajagacha (41-45-parallellar oralig‘i, miqdori 4 daraja, bu hozirda taxminan mo‘tadil mintaqaga to‘g‘ri keladi). Yettinchi iqlim: kengligi 48-darajagacha (45-48-parallellar oralig‘i, miqdori 3 daraja, bu hozirda, taxminan, mo‘tadil va subantarktik mintaqalarga to‘g‘ri keladi) (Myco ал-Хоразмий. 1983:292-466).

Xorazmiy jug‘rofiy narsalarni janubdan shimolga tomon tavsiflaydi. Shuni ham aytish kerakki, u ko‘rsatgan jug‘rofiy o‘rinlar hozirgidan 3-4 darajagacha farq qiladi. Lekin bu xato degani emas. Mazkur farqning sababi Xorazmiyning Yer yuzini darajali to‘rlarida tasvirlash usuli hozirgidan o‘zgachaligidadir. Ulug‘ olim Yerning o‘z aylanish o‘qiga nisbatan egilish burchagini hisobga olib, ekvatorni bugungidan qiyaroq tasavvur etadi. Bosh meridian esa to‘qqizinchi yuz yillikda inson yashaydigan yerlarning eng g‘arbiy chekkasi deb o‘ylangan Kanar orollaridan, yani bugingi bosh meridian Grinvichdan 21 daraja g‘arbda tasvirlanadi (Myco ал-Хоразмий 1983: 246-247). Natijada jug‘rofiy nuqtalarning o‘rinlarida bugungidan ozgina farq yuzaga keladi.

Masalan, Xorazmiyga ko‘ra, Masisa shahri (Masisa – bugungi Turkiyaning janubida Jayhon daryosi bo‘yidagi Misis shahri) jug‘rofiy o‘rni 59° 40’ sharqiy uzunlik, 36° shimoliy kenglikda ko‘rsatilgan (. الخوارزمي موسى بن محمد №4830/g:195a). Bu bugungi hisobda taqriban 38° shq. uz., 35-40° darajalar oralig‘idagi shm. k. bo‘ladi. Shaharning hozirgi o‘rni esa taqriban 36° shq. uz., 37° shm. k. da. Demak, farq unchalik katta emas. Bu 1200-yil oldingi ilm-fan uchun juda yaxshi ko‘rsatkichdir. O‘z vaqtida Ptolemey bu shaharning jug‘rofiy o‘rnini 62° 30’ shq. uz., 38° 30’ shm. k. deb qayd etgandi (Claudii Ptolemaei. 1845: 23).

Xorazmiyning hisob-kitoblari bundan farq qilishi u yunon olimi asarlariga chuqur tayanmaganini yana bir bor isbotlaydi.

Mirzo Ulug‘bekda esa “Yetti iqlim” boshqacharoq: Yer yuzasi g‘arbdan sharqqa tomon tavsiflanadi. Bunda olim yunon mutafakkiri Ptolemeyning (taxminan 100-170) asarlariga tayangan ko‘rinadi. Chunki uning Yer yuzasini tasvirlash yo‘sini shunga o‘xshash bo‘lgan (Claudii Ptolemaei. 1843: 2-284; Claudii Ptolemaei. 1845: 2-263). Biroq Mirzo Ulug‘bekning ustozi, Samarqandda u tashkil etgan akademiyaning bosh olimlaridan bo‘lgan G‘iyosiddin Jamshid Koshiy (o‘limi 1436) Ptolemeyning emas, Xorazmiy va Beruniyning g‘oyalariga tayangan. Bu olim o‘zi tuzgan zijda Yer yuzidagi joylarning jug‘rofiy koordinatalarini berishda aynan shularning yo‘lidan borgan (غياث الدين جمشيد الكاشاني. 2692: 54b-56b). Mirzo Ulug‘bekning o‘zi Koshiyning asarlaridan yaxshi xabardor bo‘lganligini, shuningdek, Samarqanddagi akademiyaning boshqa olimlari ham Xorazmiyning qarashlariga ergashganligini hisobga olsak, temuriyzoda mutafakkir “Yetti iqlim” nazariyasini qo‘llaganligi anglashiladi. Ammo “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asarida geografik masalalarda bu nazariya boshqacharoq talqin qilinganligi seziladi.

Mirzo Ulug‘bek bosh meridian borasida Ptolemeydan farqli fikrda bo‘lgan. Muhammad Xorazmiydan tashqari Ptolemey, Abu Rayhon Beruniy (973-1051) ham, bosh meridianni Kanar orollarining g‘arbiy chekkasidan hisoblashgan. Shuning uchun ularning hisob-kitoblari bugungidan 20-21 darajaga farq qiladi (Abu Rayhon Beruniy. 2022: 356-361; Claudii Ptolemaei. 1843: 2-284). Mirzo Ulug‘bek esa bosh meridianni Azor orollarining g‘arbiy chekkasidan hisoblaydi (ميرزا الغ بيك. Ms. or. 280: 100a-101b). Natijada uning hisob-kitoblarida Xorazmiynikidan taxminan 10 daraja, bugungidan taxminan 30-31 daraja farq ko‘rinadi.

Masalan, Ptolemeyning “Geografiya” asarida Misr shimolidagi Aleksandriya (bugungi Iskandariya) shahri 31 daraja shimoliy kenglik, 50 daraja 50 daqiqa sharqiy uzunlikdaligi berilgan. Xorazmiyning “Kitobu suratu-l-arz” (“Yerning tasviri kitobi”) asarida bu shahar 31 daraja shimoliy kenglik, 51 daraja 20 daqiqa sharqiy uzunlikda deb ko‘rsatiladi (Claudii Ptolemaei. 1843: 251; Муса ал-Хоразмий. 1983: 297). “Ziji jadidi Ko‘ragoniy”da esa Iskandariya shahri 30 daraja 58 daqiqa shimoliy kenglik, 61 daraja 54 daqiqa sharqiy uzunlikdaligi yozilgan (ميرزا الغ بيك. Ms. or. 280: 100a). Bunda Mirzo Ulug‘bek keltirgan uzunlama ilgarigi olimlarnikidan taxminan 10 daraja farq qilishi yaqqol ko‘rinadi. Shaharning bugungi hisob bo‘yicha jug‘rofiy o‘rni esa 31 daraja 12 daqiqa shimoliy kenglikda, 29 daraja 55 daqiqa sharqiy uzunlikdadir. Demak, rostdan ham Mirzo Ulug‘bek ko‘rsatgan uzunlamalar bugungi hisobdan taxminan 31 darajaga farq qilar ekan.

Shu tariqa “Ziji jadidi Ko‘ragoniy”da 246 ta jug‘rofiy narsaning (shahar, dengiz va orol) koordinatalari birma-bir keltirib o‘tiladi (بيك الغ ميرزا. Ms. or. 280: 100a–101b). Yana bir e’tiborli jihat borki, “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asarining turli nusxalarida shaharlarning soni har xil beriladi. Masalan, Oksforddagi nusxada 160 ta, Berlindagi to‘liq nusxada 246 ta, Toshkentdagi Sharqshunoslik qo‘lyozmalar instituti jamg‘armasidagi №7531 inventar raqamli nusxada 240 ta, shu muassasadagi №2118 inventar raqamli nusxada esa 244 ta shaharning koordinatalari berilgan. Bu turli xillikni qo‘lyozmalarni ko‘chirgan kotiblarning matnga kiritgan o‘zgartirishlari bilan izohlash mumkin (بيك الغ ميرزا. Ms. or. 280: 100a-101b; بيك الغ ميرزا. MS 151: 130a-131a; . بيك الغ ميرزا№ 7531: 122a-124a; ميرزا بيك الغ. №2118:113b-114b).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, turonlik buyuk mutafakkir Mirzo Ulug‘bek jahon ilm-fani rivojiga katta hissa qo‘shgan qomusiy olimdir. Uning asarlari dunyoda aniq va tabiiy fanlardagi kashfiyotlar amalga oshirilishida muhim o‘rin tutgan. Xususan, uning geografiyaga doir qarashlari ham diqqatga sazovor bo‘lib, ilgarigi olimlarning ishlaridan anchayin farq qilgan. Birinchi Uyg‘onish chog‘ida yashagan Muhammad Xorazmiy “Yetti iqlim” nazariyasini musulmon olimlari orasida birinchi bo‘lib ishlab chiqib, bu borada tamal toshini qo‘ygan bo‘lsa, Mirzo Ulug‘bek Ikkinchi Uyg‘onish chog‘ida bu qarashlarni rivojlantirgan. Bu orqali Mirzo Ulug‘bekning ijodi Turonda Ikkinchi Uyg‘onish chog‘ida geografiya fani yangi bosqichga chiqishiga xizmat qilgan. Umuman, Muhammad Xorazmiy va Mirzo Ulug‘bekning “Yetti iqlim” nazariyasiga doir qarashlarini qiyosiy o‘rganish O‘zbekistonda geografiya ilmining tarixiy rivojlanishini tadqiq etishda dolzarb ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абу Райҳон Беруний. Танланган асарлар. IV жилд. Қонуни Масъудий. Биринчи китоб. – Тошкент, 2022. – 544 б.

2. Абу Райҳон Беруний. Танланган асарлар. VI жилд. Тафҳим. – Тошкент-Урганч-Хива, 2006. – 294 б.

3. Binae tabulae geographicae, una Nassir Eddini Persae, altera Ulug Beigi Tartari. Opera et Studio J. Gravii. – Londini, 1652. – 64 p.

4. Claudii Ptolemaei. Geographia. Tom I. – Lipsiae, 1843. – 284 p.

5. غياث الدين جمشيد الكاشاني. زيج خاقانى فى تكميل زيج ايلخاني Qo‘lyozma. Istanbul. Sulaymoniya kutubxonasi: Aya Sofya jamg‘armasi. № 2692. –165 varaq.

6. Г.П. Матвиевская, Б.А. Розенфельд. Математики и астрономы мусульманского средневековья и их труды (VIII-XVII вв.). Книга 1. – Москва: Восточная литература, 1983. – 480 с.

7. Г.П. Матвиевская, Б.А. Розенфельд. Математики и астрономы мусульманского средневековья и их труды (VIII-XVII вв.). Книга 2. – Москва: Восточная литература, 1983. – 652 с.

8. ميرزا الغ بيك. Qo‘lyozma. Berlin davlat kutubxonasi. Islomiy qo‘lyozmalar bo‘limi. Ms. or. 280. – 195 var.

9. ميرزا الغ بيك. زيج جديد سلطانى Qo‘lyozma. Oksford. Oksford universiteti, St. John’s kolleji. Forscha qo‘lyozmalar jamg‘armasi. MS 151. –180 varaq.

10. ميرزا الغ بيك. زيج الغ بيك Qo‘lyozma. O‘zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik qo‘lyozmalar instituti jamg‘armasi. Asosiy fond. № 7531. – 235 varaq.

11. ميرزا الغ بيك. الزيج الجديد – زيج ألغ بيك Qo‘lyozma. O‘zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik qo‘lyozmalar instituti jamg‘armasi. Asosiy fond. №2118. –217 varaq.

12. محمد بن موسى الخوارزمي. اختصار المجسطي Qo‘lyozma. Berlin davlat kutubxonasi. Islomiy qo‘lyozmalar bo‘limi. Ms. or. oct. 273. – 145 s.

13. محمد بن موسى الخوارزمي. معرفة عرض البلد Qo‘lyozma. Istanbul. Sulaymoniya kutubxonasi: Aya Sofya jamg‘armasi. №4830/g. – 193b–196b-s.

14. محمد بن موسي الخوارزمي. معرفة عروض الأقاليم Qo‘lyozma. Istanbul. Sulaymoniya kutubxonasi: Aya Sofya jamg‘armasi. № 4830/h. –199a–199b-varaqlar.

15. Муҳаммад ибн Мусо ал-Хоразмий. Танланган асарлар. "Сурату-л-арз" китоби. –Тошкент, 1983. – 246–466-б.

REFERENCES:

1. Abu Rayhon Beruniy. (2022) Tanlangan asarlar. IV jild. Qonuni Mas’udiy. Birinchi kitob. – Toshkent. (In Uzbek)

2. Abu Rayhon Beruniy. (2006) Tanlangan asarlar. VI jild. Tafhim. – Toshkent-Urganch-Xiva. (In Uzbek)

3. Binae tabulae geographicae, una Nassir Eddini Persae, altera Ulug Beigi Tartari. (1652) Opera et Studio J. Gravii. – Londini. (In Latin)

4. Claudii Ptolemaei. (1843) Geographia. Tom I. – Lipsiae. (In Latin)

5. G‘iyosiddin Jamshid al-Koshoniy. Ziji xoqoniy fi takmili ziji ilxoniy. Qo‘lyozma. Istanbul. Sulaymoniya kutubxonasi: Aya Sofya jamg‘armasi. № 2692. (In Persian)

6. Matviyevskaya G.P., Rozenfeld B.A. (1983) Matematiki i astronomy musulmanskogo srednevekovya i ix trudy (VIII-XVII vv.). Kniga 1. – Moskva: Vostochnaya literatura. (In Russian)

7. Matviyevskaya G.P., Rozenfeld B.A. (1983) Matematiki i astronomy musulmanskogo srednevekovya i ix trudy (VIII-XVII vv.). Kniga 2. – Moskva: Vostochnaya literatura. (In Russian)

8. Mirzo Ulug‘bek. az-Zij al-jadid – Zij Ulug‘bek. Qo‘lyozma. O‘zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik qo‘lyozmalar instituti jamg‘armasi. Asosiy fond. №2118. (In Persian)

9. Mirzo Ulug‘bek. Zij. Qo‘lyozma. Berlin davlat kutubxonasi. Islomiy qo‘lyozmalar bo‘limi. Ms. or. 280. (In Persian)

10. Mirzo Ulug‘bek. Zij jadidi sultoni. Qo‘lyozma. Oksford. Oksford universiteti, St. John’s kolleji. Forscha qo‘lyozmalar jamg‘armasi. MS 151. (In Persian)

11. Mirzo Ulug‘bek. Zij Ulug‘bek. Qo‘lyozma. O‘zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik qo‘lyozmalar instituti jamg‘armasi. Asosiy fond. № 7531. (In Persian)

12. Muhammad ibn Musa al-Xorazmiy. Ikhtisor al-majisti. Qo‘lyozma. Berlin davlat kutubxonasi. Islomiy qo‘lyozmalar bo‘limi. Ms. or. oct. 273. (In Arabic)

13. Muhammad ibn Musa al-Xorazmiy. Ma’rifatu arzi al-balad. Qo‘lyozma. Istanbul. Sulaymoniya kutubxonasi: Aya Sofya jamg‘armasi. №4830/g. (In Arabic)

14. Muhammad ibn Musa al-Xorazmiy. Ma’rifatu uruzi al-aqolim. Qo‘lyozma. Istanbul. Sulaymoniya kutubxonasi: Aya Sofya jamg‘armasi. № 4830/h. (In Arabic)

15. Muhammad ibn Musa al-Xorazmiy. (1983) Tanlangan asarlar. “Suratu-l-arz” kitobi. – Toshkent. (In Uzbek)

TEMURIYLAR TARIXI DAVLAT MUZEYI EKSPOZITSIYASIDA QO‘LYOZMALARNI NAMOYISH ETISH IMKONIYATI VA AHAMIYATI

THE OPPORTUNITIES AND IMPORTANCE OF EXHIBITING MANUSCRIPTS IN THE EXPOSITION OF THE STATE MUSEUM OF THE TEMURID HISTORY

ВОЗМОЖНОСТИ И ЗНАЧЕНИЕ ЭКСПОНИРОВАНИЯ РУКОПИСЕЙ В ЭКСПОЗИЦИИ ГОСУДАРСТВЕННОГО МУЗЕЯ ИСТОРИИ ТЕМУРИДОВ

Yunusov Komiljon Alimdjanovich
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti mustaqil izlanuvchisi;
O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining Muzey va eksponatlar ilmiy bo‘limi kichik ilmiy xodimi
Tel.: +998 94 650-44-12
E-mail: komiljonyunuszoda@gmail.com
ORCID: 0009-0005-4921-0943

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik qo‘lyozmalar institutida saqlanayotgan temuriylar davriga oid manbalar haqida to‘plangan ma’lumotlar taqdim etiladi. Ushbu tadqiqotdan ko‘zlangan maqsad temuriylar davri qo‘lyozmalari shunchaki o‘rta asrlardan saqlanib qolgan kitoblar emas, balki ular o‘zi bilan birga bebaho ma’naviy merosni mujassam etgani bilan birga ko‘plab fan sohalari taraqqiy etganini isbotlovchi ashyo ekanini ta’kidlashdir. Ma’lumotlarni yig‘ishda manbashunoslik va tarixshunoslikka murojaat etilgan holda ekspeditsion usul, kuzatish va tahlil metodlaridan foydalanildi. Izlanish natijalari sifatida Sharqshunoslik qo‘lyozmalar institutida saqlanayotgan temuriylar davriga oid manbalar anchagina ekani, ularni (yoki nusxalarini) namoyish etish orqali temuriylar davri ilm-fani, madaniyati va san’atini kengroq yoritish uchun katta imkoniyatlar mavjudligi bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: *Temuriylar, muzey, ekspozitsiya, qo‘lyozma, ilm-fan, tarix, tarixiy ashyo, san’at, madaniyat.*

Annotation. The article presents collected information on sources related to the Temurid period preserved at the Abu Rayhan Beruni Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. The main purpose of this research is to emphasize that the manuscripts of the Temurid era are not merely books preserved from the Middle Ages, but also artifacts embodying invaluable spiritual heritage and serving as evidence of the

development of numerous fields of science. In collecting the data, source studies and historiography were consulted, while expeditionary methods, observation, and analytical approaches were employed. As a result of the study, it is stated that the Institute of Oriental Manuscripts preserves a considerable number of sources related to the Temurid period, and that exhibiting them (or their copies) provides broad opportunities for more comprehensive coverage of the science, culture, and art of the Temurid era.

Keywords: *Temurids, museum, exposition, manuscript, science, history, historical artifact, art, culture.*

Аннотация. В статье представлены собранные сведения об источниках периода Темуридов, хранящихся в Институт востоковедения имени Абу Райхана Беруни Академия наук Республики Узбекистан. Основная цель данного исследования – подчеркнуть, что рукописи эпохи Темуридов являются не просто книгами, сохранившимися со Средневековья, но и артефактами, воплощающими бесценное духовное наследие и свидетельствующими о развитии многих отраслей науки. При сборе материалов использовались методы источниковедения и историографии, а также экспедиционный метод, наблюдение и анализ. В результате исследования отмечается, что в Институте востоковедения хранится значительное количество источников, относящихся к эпохе Темуридов, а их экспонирование (или демонстрация копий) открывает широкие возможности для более полного освещения науки, культуры и искусства эпохи Темуридов.

Ключевые слова: *Темуриды, музей, экспозиция, рукопись, наука, история, исторический артефакт, искусство, культура.*

KIRISH

Temuriylar davriga oid yozma manbalar bugungi kunda yurtimiz hamda dunyoning ko‘plab muzeylari, kutubxonalari va kolleksiyalarida saqlanmoqda. Ushbu qo‘lyozmalar temuriylar davri ilm-fani, san’ati, madaniyati va tafakkur olamining yuksak darajasini mujassam etgan bebaho tarixiy manbalardir. Ularning matni, xattotlik uslubi, bezaklari, miniatyuralari hamda kitobat san’ati namunalarida o‘sha davr ma’naviy va ilmiy muhitining o‘ziga xos jihatlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Temuriylar davri qo‘lyozmalarini muzey ekspozitsiyalarida namoyish etish orqali o‘sha davrda astronomiya, matematika, tibbiyot, tarix, adabiyot, falsafa, geografiya va boshqa ko‘plab fan sohalari taraqqiy etganini keng jamoatchilikka ko‘rsatish mumkin. Ayniqsa, qo‘lyozma sahifalari, miniatyuralar, xattotlik namunalari hamda matnlarning tarjimalari orqali temuriylar davrida ilmiy tafakkur va badiiy did yuksak darajada rivojlanganini ochib berish imkoniyati mavjud. Bunday manbalar ajdodlarimizning ilmiy merosi, ularning insoniyat

taraqqiyoti yo‘lidagi buyuk xizmatlari va jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan hissasini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida temuriylar davriga oid ko‘plab noyob manbalar saqlanadi. Mazkur qo‘lyozmalar orasida tarixiy asarlar, ilmiy risolalar, diniy va badiiy adabiyot namunalari mavjud bo‘lib, ular temuriylar davrining ilmiy va madaniy muhitini o‘rganishda muhim manba vazifasini bajaradi. Ushbu manbalarni ekspozitsiyalarda asl holida yoki nusxalari yordamida namoyish etish temuriylar davri madaniy merosini kengroq targ‘ib qilish bilan birga, yosh avlodda tarixiy xotira va milliy merosga hurmat tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu jihatlarni e’tiborga olib, temuriylar davri qo‘lyozmalarini o‘rganish va ularni muzey ekspozitsiyalarida namoyish etish imkoniyatlarini tadqiq etish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada temuriylar davriga oid qo‘lyozma manbalar, ularning mazmun-mohiyati hamda ekspozitsiyalarda namoyish etish imkoniyatlari haqida tavsifiy va tahliliy ma’lumotlar keltiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu mavzuni tadqiq etish jarayonida temuriylar davri qo‘lyozmalarini muzey ekspozitsiyalarida namoyish etish masalasiga bag‘ishlangan alohida ilmiy tadqiqotlar, dissertatsiyalar yoki maxsus maqolalar deyarli aniqlanmadi. Mavjud ilmiy adabiyotlarda temuriylar davriga oid qo‘lyozmalar haqida ayrim ma’lumotlar uchrasa-da, ularda asosan qo‘lyozmalarning tarixiy tavsifi yoki kataloglash masalalariga e’tibor qaratilib, ularni muzey ekspozitsiyalarida namoyish etish imkoniyatlari hamda ilmiy-ma’rifiy ahamiyati yetarlicha yoritilmagan. Shu bois mazkur mavzu bugungi kungacha alohida tadqiqot obyekti sifatida keng o‘rganilmagan ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Shunday bo‘lsa-da, mavzuni o‘rganish davomida ayrim tadqiqotchilarning ishlarida temuriylar davri manbalari va muzey kolleksiyalari haqida qisman ma’lumotlar uchrashi kuzatildi. Jumladan, Dilafruz Qurbonova tomonidan tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan “Xorij muzeylarida saqlanayotgan temuriylar davriga oid tarixiy va madaniy yodgorliklar” nomli dissertatsiyada temuriylar davriga oid ayrim madaniy yodgorliklar va eksponatlar haqida ma’lumotlar keltirilgan (Қурбонова Д., 2009). D. Kuryazovaning “O‘zbekiston muzeylari va ularning mustaqillik davridagi faoliyati (Tarix va o‘lkashunoslik muzeylari misolida)” nomli dissertatsiyasida esa Temuriylar tarixi davlat muzeyining tashkil etilishi, ekspozitsiyasi va fondi haqida qisqacha ma’lumotlar berilgan (Курязова Д., 2009).

Shuningdek, S. Eshpo‘latov tomonidan yozilgan “Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasining temuriylar davriga oid arxeologik kolleksiyalari” nomli maqolada Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi tarkibidagi muzeylarda saqlanayotgan temuriylar davriga oid ashyolar haqida statistik ma’lumotlar bayon etilgan (Eshpo‘latov S., 2024). Biroq ushbu tadqiqotlarda qo‘lyozma manbalarining ekspozitsiyadagi o‘rni, ularni namoyish etish usullari hamda ular orqali temuriylar davri ilm-fani, madaniyati va san’atini yoritish imkoniyatlari masalasi alohida tahlil qilinmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot davomida asosan manbashunoslik, tarixshunoslik, kuzatish va tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy manbalari sifatida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan temuriylar davriga oid manbalar, kataloglar hamda ilmiy adabiyotlarga murojaat qilindi. Qo‘lyozmalarning mazmuni, bezak xususiyatlari, ilmiy yo‘nalishlari va ekspozitsiyalarda namoyish etish imkoniyatlari qiyosiy hamda tavsifiy tahlil asosida o‘rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan moddiy yodgorliklar o‘tmishdagi hunarmandchilik va san’at taraqqiyotini aks ettirsa, yozma manbalar ularning ilmiy salohiyati, tafakkuri va hayot tajribasini yoritib beradi. Shu bois temuriylar davri madaniyati, ilm-fani, san’ati va adabiyotini aynan shu davr qo‘lyozma manbalarisiz to‘laqonli o‘rganish mumkin emas.

Ma’lumki, Amir Temur va temuriy hukmdorlar kitobat san’ati hamda ilmiy va badiiy asarlarni ko‘chirish va asrashga katta e’tibor qaratgan. Samarqand, Hirot kabi shaharlarda kutubxonalar tashkil etilib, xattotlik, miniatyura va kitob bezagi san’ati yuksak taraqqiy etdi. Natijada temuriylar davriga oid qo‘lyozmalar nafaqat mintaqa, balki jahon madaniy merosining bebaho qismi sifatida qadrlanmoqda.

Mazkur manbalar temuriylar davri tarixini, ilmiy va madaniy yuksalishini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Shu sababli ularni o‘rganish, targ‘ib qilish va muzey ekspozitsiyalarida namoyish etish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotda foydalanilgan qo‘lyozmalar ikki guruhga mansub bo‘lib, bir qismi XIV–XV asrlarda temuriylar homiyligida ko‘chirilgan va bezatilgan asarlar, ikkinchi qismi esa temuriylar davri mualliflariga tegishli manbalardir. Ayrim nusxalar keyingi asrlarda ko‘chirilgan bo‘lsa-da, asl asar temuriylar davriga oid bo‘lgani uchun tadqiqot doirasiga kiritildi. Ushbu manbalar ikkinchi uyg‘onish davrida ilm-fan,

kitobat san’ati va badiiy tafakkur naqadar yuksak darajada rivojlanganini ko‘rsatadi.

Temuriylar davriga oid tarixiy manbalar orasida umumiy tarix, sulolalar tarixi, tarjimayi hol va memuar xarakterdagi qo‘lyozmalar alohida o‘rin tutadi. Ushbu asarlar orqali nafaqat siyosiy voqealar, balki davrning ilmiy muhiti, madaniy hayoti, kitobat san’ati va badiiy tafakkuri haqida ham muhim ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Qo‘lyozmalarning aksariyati nafis nasx, suls va nasta’liq xatlarida ko‘chirilgan bo‘lib, ayrim nusxalar miniatyuralar va bezaklar bilan boyitilgani ularning san’at asari sifatidagi qiymatini ham oshiradi.

Shunday manbalardan biri “Jome at-tavorix” bo‘lib, Rashiduddin Fazlulloh tomonidan yozilgan ushbu asarda dunyo xalqlari va mo‘g‘ullar tarixi bayon etiladi. XV asrga oid fors tilidagi nusxa nasx xatida ko‘chirilgan bo‘lib, Sharq tarixnavisligining muhim namunalaridan hisoblanadi (inv. №1620).

Temuriylar tarixini yoritishda “Zafarnoma” alohida ahamiyat kasb etadi. Sharafuddin Ali Yazdiy qalamiga mansub ushbu asarda Amir Temur faoliyati va temuriylar davri voqealari batafsil tasvirlangan. Samarqandda 1629-yilda ko‘chirilgan nusxasi nasta’liq xatida bitilgan bo‘lib, sahifalaridagi miniatyuralar davr madaniyati va harbiy hayotini tasvirlashi bilan qimmatlidir (inv. №4472). Xurosonda XV asrda yoqutiy suls xatida bitilgan yana bir nusxasi ham saqlanmoqda (inv. №3440).

Abdulloh Hotifiy tomonidan yozilgan “Temurnoma” hamda “Zafarnoma” asarlari Amir Temur tarixining she’riy talqinini beradi. Ushbu qo‘lyozmalar temuriylar davri voqealarini badiiy uslubda yoritishi bilan birga, miniatyuralari orqali o‘sha davr estetik qarashlari va tasviriy san’atini namoyon etadi (inv. №2102).

Tarixnavislikka oid muhim manbalardan yana biri “Ravzat as-safo” bo‘lib, Muhammad Xovandshoh Mirxond tomonidan yozilgan ushbu asar Sharq tarixshunosligining mashhur namunalaridan sanaladi. Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai sa’dayn va majmai bahrayn” asari esa temuriylar davrining siyosiy va diplomatik tarixini o‘rganishda muhim manbadir.

Shuningdek, G‘iyosuddin Ali qalamiga mansub “Ro‘znomai g‘azovoti Hindiston”, Hofizi Abruning “Tarixi Hofizi Abru” hamda Mirzo Muhammad Haydar Dug‘latning “Tarixi Rashidiy” asarlarida Markaziy Osiyo, Xuroson va Sharqiy Turkiston tarixiga oid muhim ma’lumotlar uchraydi. Bu manbalar orqali temuriylar davridagi siyosiy munosabatlar, geografik tasavvurlar va tarixiy jarayonlarni kengroq anglash mumkin.

Badiiy va ma’naviy merosga oid manbalar orasida “Tarixi muluki Ajam” hamda “Risolayi qudsiyya” kabi asarlar ham muhim o‘rin egallaydi. Ular o‘z

davrining diniy-falsafiy qarashlari, adabiy tafakkuri va ma’naviy muhitini yoritib beradi.

Temuriylar davrida astronomiya va matematika fanlari yuksak taraqqiy etgan bo‘lib, bu holat mazkur davrga oid ilmiy qo‘lyozmalarda yaqqol aks etadi. Ayniqsa, Mirzo Ulug‘bek va uning ilmiy maktabi faoliyati natijasida Samarqand sharq ilm-fanining muhim markazlaridan biriga aylangan. Qo‘lyozma manbalar orqali o‘sha davr olimlarining osmon jismlarining harakati, hisob-kitob usullari, geometriya va algebra borasidagi ilmiy qarashlarini kuzatish mumkin. Ushbu asarlar nafaqat ilmiy mazmuni, balki xattotlik va kitobat san’ati namunasi sifatida ham alohida ahamiyatga ega.

Astronomiyaga oid muhim manbalardan biri “Al-mulaxxas fi-l-haya” asari hisoblanadi. Mahmud ibn Muhammad al-Chag‘miniy qalamiga mansub ushbu qo‘lyozmada sayyoralar harakati, osmon ekvatori, ekliptika, qibla yo‘nalishini aniqlash hamda quyosh va oy yillari haqida ma’lumotlar beriladi. Asarning 1443-yilda Mashhadda ko‘chirilgan nusxasi temuriylar davri astronomik bilimlari qay darajada rivojlanganini ko‘rsatadi (inv. №10417).

Nosiriddin Tusiy tomonidan yozilgan “Tatimma ar-risala mu’iniya” asarida osmon jismlarining shakli, harakati va ular orasidagi masofalar tahlil qilinadi. 1422-yilda ko‘chirilgan ushbu nusxa temuriylar davrida astronomik merosga bo‘lgan katta qiziqishni namoyon etadi (inv. №8990/2). Shuningdek, Sa’duddin Taftazoniyning “Sharhu risolati-sh-shamsiyya” asari arifmetika va astronomik qarashlarning o‘zaro bog‘liqligini aks ettiruvchi muhim sharhlardan biridir.

Temuriylar davri astronomiya maktabining eng yirik yodgorliklaridan biri “Ziji Jadidi Ko‘ragoniy” bo‘lib, unda astronomiyaning nazariy asoslari hamda 1018 ta yulduz koordinatalari jamlangan. XV asrda Ali Qushchi tomonidan ko‘chirilgan ushbu qo‘lyozma jahon astronomiyasi tarixidagi eng muhim ilmiy asarlardan biri sifatida e’tirof etiladi (inv. №2214). Ulug‘bekning astronomik qarashlari keyingi asrlarda ham katta ta’sir ko‘rsatgan bo‘lib, Nizomiddin Birjandiy tomonidan yozilgan “Sharhi Ziji Ulug‘bek” asari bunga misol bo‘la oladi (inv. №704).

Astronomiya bilan bir qatorda matematika ilmi ham rivojlangan bo‘lib, bu sohadagi qo‘lyozmalarda algebra, arifmetika, geometriya va hisob usullari keng yoritilgan. Jumladan, “Al-faroyiz as-sirojiya” asarida meros taqsimoti masalalarining algebraik yechimlari va matematik formulalar bayon etiladi. Ushbu asarning XV asrga oid nusxasi matematik bilimlarning amaliy hayot bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi (inv. №8693/2).

Nosiriddin Tusiyning “Jomi al-hisob bi-t-taxt va-t-turob” asarida butun va kasr sonlar ustida bajariladigan arifmetik amallar yoritilgan bo‘lsa, “Risola dar ilmi

hisob” asarida hind hisobi, astronomik hisob va geometriya masalalari bayon qilingan (inv. №3894/3).

Shuningdek, “Hisabu-l-hind”, “Jadvali sittiyn” hamda “Risolayi Sodiqiya dar hisob” kabi qo‘lyozmalarda sonlar nazariyasi, kasrlar, algebra va astronomik hisob-kitob usullari haqida muhim ma’lumotlar uchraydi.

Mazkur ilmiy manbalar temuriylar davrida aniq fanlar yuqori bosqichga ko‘tarilganini, ajdodlarimizning ilmiy tafakkuri jahon sivilizatsiyasi rivojiga katta hissa qo‘shganini ko‘rsatadi. Shu bois bu qo‘lyozmalarni muzey ekspozitsiyalarida sahifalari, jadvallari va matn tarjimalari bilan birgalikda namoyish etish orqali temuriylar davri ilm-fanining yuksak darajasini keng jamoatchilikka yetkazish mumkin.

Temuriylar davrida tibbiyot, kimyo, diniy ilmlar va tasavvuf sohasi ham yuksak taraqqiy etgan bo‘lib, bu holat davrga oid qo‘lyozma manbalarda yaqqol aks etadi. Mazkur asarlar orqali o‘sha davr olimlarining inson salomatligi, dorishunoslik, diniy tafakkur, axloqiy qarashlar va tasavvuf falsafasi haqidagi bilimlari bilan tanishish mumkin. Ushbu qo‘lyozmalar ilmiy mazmuni bilan birga, xattotlik, sahifa bezagi va kitobat san’atining nodir namunasi sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Tibbiyotga oid manbalar orasida “Sharh al-asbob va-l-alomat” alohida o‘rin tutadi. Asarda kasalliklarning kelib chiqish sabablari va ularning belgilari haqida ma’lumot berilgan bo‘lib, ushbu nusxa 1424-yilda ko‘chirilib Mirzo Ulug‘bekka tuhfa qilingan (inv. №2872). Inson anatomiyasiga oid muhim manbalardan yana biri “Risola dar tashrihi badani inson” asari bo‘lib, unda inson tanasining tuzilishi va anatomik qarashlar bayon etiladi (inv. №2105).

Dorishunoslikka oid “Bahru-l-xavoss” asarida sodda va murakkab dorilar, ularning tayyorlanish usullari hamda shifobaxsh xususiyatlari yoritilgan. Muallif yunon, arab, hind va turkiy tibbiy an’analarni birlashtirgan holda dorivor moddalar haqida keng ma’lumot beradi (inv. №2146). “Bahru-l-javohir” asari ham tibbiyot va dorishunoslikka oid muhim manbalardan sanaladi.

Kimyo va tabiiy fanlarga oid qo‘lyozmalar orasida “Tansuqnomayi Ilxoniy” asari e’tiborga loyiqdir. Ushbu manbada qimmatbaho toshlar, metallar va xushbo‘y moddalar haqida ma’lumotlar berilgan bo‘lib, u temuriylar davrida mineralogiya va kimyoviy bilimlarga qiziqish yuqori bo‘lganini ko‘rsatadi (inv. №4388/2).

Diniy ilmlarga oid qo‘lyozmalar esa temuriylar davrida Qur’on tafsiri, hadis, fiqh va kalom ilmlari keng rivojlanganidan dalolat beradi. Jumladan, “Al-Kashshof”, “Miftahu-t-tanzil”, “Mavahibi a’liya” va “Tafsiri Charxiy” kabi tafsir asarlari diniy tafakkurning yuksak darajasini aks ettiradi. Ayniqsa, “Al-Jome as-

Sahih”ning 1399-yilda Buxoroda ko‘chirilgan nusxasi hadis ilmining Movarounnahrdagi nufuzini ko‘rsatadi (inv. №3257/1).

Fiqh ilmlariga oid “Kitabu-l-usul”, “Kanzu-l-vusul ila ma’rifati-l-usul”, “Xizonatu-l-fiqh” hamda “Al-Hidoya” singari asarlar islom huquqshunosligi va fiqh maktablari taraqqiyotini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

Axloq va ma’naviyatga oid “Axloqi Jaloliy” hamda “Axloqi Muhsiniy” asarlarida jamiyat, davlat boshqaruvi va inson odobiga doir qarashlar yoritilgan. Bu manbalar temuriylar davrida axloqiy-falsafiy tafakkur ham rivojlanganini ko‘rsatadi.

Tasavvufga oid qo‘lyozmalar orasida “Faslu-l-xitob”, “Fuqorotu-l-orifin”, “Nafahotu-l-uns” va “Maqomoti Amir Kulol” kabi manbalar alohida ahamiyatga ega. Ushbu asarlar orqali tasavvuf nazariyasi, mashhur so‘fiylar hayoti va naqshbandiya tariqatining ma’naviy qarashlari haqida ma’lumot olish mumkin.

Mazkur qo‘lyozmalar temuriylar davrida ilm-fan, tibbiyot, diniy tafakkur va ma’naviy hayot yuqori darajada rivojlanganini namoyon etadi. Ularni muzey ekspozitsiyalarida sahifalari, miniatyuralari va matn tarjimalari bilan birgalikda namoyish etish orqali temuriylar davri ilmiy va ma’naviy merosini keng jamoatchilikka yanada ta’sirchan tarzda yetkazish mumkin.

Temuriylar davri badiiy adabiyoti qo‘lyozmalari sharq adabiy merosining eng yuksak namunalaridan biri bo‘lib, ular nafaqat estetik tafakkur, balki davrning ma’naviy, falsafiy va madaniy dunyoqarashini ham o‘zida mujassam etadi. Ushbu asarlar orqali o‘rta asr sharqida she’riyat, epik adabiyot, nasriy hikoyalar hamda tarjima an’analari yuksak darajada rivojlanganini kuzatish mumkin. Qo‘lyozmalarning aksariyati nasta’liq, nasx va suls xatlarida ko‘chirilgan bo‘lib, ular nafis bezaklar va miniatyuralar bilan boyitilgan.

Temuriylar davri adabiy merosida Xamsa dostonlari ham alohida o‘rin tutadi. Ushbu asarlar forsiy va turkiy adabiyotning klassik namunalari bo‘lib, XV asrga oid qo‘lyozma nusxalari temuriylar davrida ham yuqori darajada qadrlanganini ko‘rsatadi.

Amir Xusrav Dehlaviy qalamiga mansub “Duvalroniy va Xizrxon” asari ham temuriylar davrida keng tarqalgan she’riy meros namunasi bo‘lib, 1398-yilda ko‘chirilgan nusxasi o‘zining badiiy uslubi bilan ajralib turadi (inv. №7454). Shohnoma esa fors epik adabiyotining eng yirik yodgorliklaridan biri bo‘lib, 1450-yilda ko‘chirilgan nusxasi temuriylar davrida ham bu asarga bo‘lgan yuksak e’tiborni ko‘rsatadi (inv. №1585).

Falsafiy va tasavvufiy mazmundagi “Al-qasidat an-nafsiya” asari inson ruhiyati va ma’naviy olami haqida chuqur qarashlarni ifodalaydi. “Kulliyoti

Sa’diy” va “Masnaviyi ma’naviy” esa sharq axloqiy-falsafiy tafakkurining asosiy manbalaridan sanaladi.

Temuriylar davri adabiy muhiti Abdurahmon Jomiy ijodi bilan ham bevosita bog‘liq bo‘lib, uning “Haft avrang”, “Yusuf va Zulayxo” hamda “Kulliyoti Jomiy” asarlari fors-tojik adabiyotining yuksak namunalaridir.

Turkiy adabiyotning rivojida Xamsa va uning “Xazoyinu-l-maoniy” “G‘aroyibu-s-sig‘ar”, “Navodiru-sh-shabob” hamda “Favoyidu-l-kibar” kabi devonlar muhim o‘rin egallaydi. Bu asarlar turkiy tilda yuksak badiiy ifoda imkoniyatlarini namoyon etgan.

Shuningdek, “Devoni Hofizi Sheroziy”, “Devoni Lutfiy”, “Devoni Qosimi Anvor” kabi devonlar ham temuriylar davri adabiy muhitining rang-barangligini ko‘rsatadi. “Kalila va Dimna” va “Anvori Suhayliy” esa qadimgi hind masalchilik an’analarining sharq adabiyotidagi davomiyligini ifodalaydi.

Nasriy asarlar orasida “Majolisu-n-nafois”, “Mahbubu-l-qulub” hamda “Samaratu-l-avroq” kabi manbalar adabiy tanqid, hikoya va axloqiy-ma’naviy qarashlarni o‘zida jamlagan.

Mazkur qo‘lyozmalar temuriylar davrida adabiyot va badiiy tafakkur yuksak bosqichga ko‘tarilganini, sharq klassik adabiyoti esa aynan shu davrda o‘zining eng mukammal shakllaridan biriga erishganini ko‘rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sanab o‘tilgan qo‘lyozmalar bilan bir qatorda, temuriylar davriga oid turli xil tarixiy hujjatlar (jumladan, Shohrux Mirzo zamoniga tegishli farmon va yozishmalar), maktublar (Xoja Ahror Valiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy hamda Bobur nomalaridan namunalar), silsila hujjatlari, miniatyuralar va alohida qo‘lyozma sahifalari ham mavjud. Ushbu manbalarni chuqur o‘rganish va muzey ekspozitsiyalarida namoyish etish orqali temuriylar davri tarixini yanada keng va ko‘p qirrali yoritish imkoniyati yaratiladi.

Manbalar majmuasiga nazar tashlansa, o‘sha davrda tarix, geografiya, falakiyot, matematika, tibbiyot, kimyo, musiqa, adabiyot, tafsir, hadis, fiqh, aqoid va tasavvuf kabi turli ilmiy yo‘nalishlarda yuksak bilimga ega olimlar yetishib chiqqanini ko‘rish mumkin. Ular o‘z faoliyati bilan ushbu fanlarning rivojiga sezilarli hissa qo‘shgan. Ajdodlarimizning bunday intellektual salohiyatini muzey tashrifchilari e’tiboriga havola etish tarixiy haqiqatni tiklash, uni keng targ‘ib qilish va ma’naviy merosni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, yuzga yaqin qo‘lyozma manbalarining har biri o‘zining ham ilmiy, ham madaniy qiymati bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ekspozitsiya zallarida ushbu kitoblarning ayrim sahifalarini elektron formatda yoki kattalashtirilgan nusxalarda namoyish etish, ulardagi ilmiy va badiiy mazmunni

tashrifchilarga yetkazish orqali temuriylar davri ilm-fanining jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi o‘rnini yanada aniqroq ifodalash mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mazkur qo‘lyozmalar asosida asl nusxalar yoki mulyajlardan iborat doimiy ko‘rgazmalar tashkil etish, shuningdek, ekspozitsiyalarda ularning sonini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Fikrimizcha, qo‘lyozmalar o‘zining ilmiy-ma’naviy qiymati jihatidan boshqa muzey ashyolaridan ustun turadi va buyuk tariximizni namoyish etishda eng muhim manbalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR:

1. D. Kurbanova, Z. Dosmetova, U. Karabayev, E.Khaitov, N. Nabieva, G. Abdullaeva. (2025) Museum Artifacts as Linguistic Archives: Exploring Linguistic Insights from Timurid Artifacts // Jurnal Arbitrer - Vol. 12 No. 4

2. Eshpo‘latov, S. (2024). Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasining temuriylar davriga oid arxeologik kolleksiyalari // International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. Vol. 4, Issue 4. – P. 33-44.

3. Қурбонова Д. А. (2009). Хориж музейларида сақланаётган темурийлар даврига оид тарихий ва маданий ёдгорликлар. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент.

4. Курязова Д. (2009). Ўзбекистон музейлари ва уларнинг мустақиллик давридаги фаолияти (Тарих ва ўлкашунослик музейлари мисолида). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент.

5. Ўзбекистон маданий мероси. Самарқанд тўпламлари. – Toshkent, 2019.

6. Ўзбекистон маданий мероси. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти тўплами. Биринчи қисм. – Toshkent, 2021.

7. Ўзбекистон маданий мероси. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти тўплами. Иккинчи қисм. – Toshkent, 2021.

8. Ўзбекистон маданий мероси. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти тўплами. Учинчи қисм. – Toshkent, 2021.

9. Ўзбекистон маданий мероси. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти тўплами. Тўртинчи қисм. – Toshkent, 2021.

10. Ўзбекистон маданий мероси. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти тўплами. Бешинчи қисм. – Toshkent, 2021.

11. Ўзбекистон маданий мероси. “Ичан Қалъа” давлат музей-қўриқхонаси тўплами. – Toshkent, 2022.

REFENCES:

1. D. Kurbanova, Z. Dosmetova, U. Karabayev, E. Khaitov, N. Nabieva, G. Abdullaeva. (2025) Museum Artifacts as Linguistic Archives: Exploring Linguistic Insights from Timurid Artifacts // Jurnal Arbitrer - Vol. 12 No. 4. (In English)

2. Eshpo‘latov, S. (2024) Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasining temuriylar davriga oid arxeologik kolleksiyalari // International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. Vol. 4, Issue 4. – P. 33-44. (In Uzbek)

3. Kurbanova D. A. (2009) Xorij muzeylarida saqlanayotgan temuriylar davriga oid tarixiy va madaniy yodgorliklar. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Toshkent. (In Uzbek)

4. Kuryazova D. (2009) O‘zbekiston muzeylari va ularning mustaqillik davridagi faoliyati (Tarix va o‘lkashunoslik muzeylari misolida). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Toshkent. (In Uzbek)

5. O‘zbekiston madaniy merosi. “Ichan Qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi to‘plami. – Toshkent, 2022. (In Uzbek)

6. O‘zbekiston madaniy merosi. Samarqand to‘plamlari. – Toshkent, 2019. (In Uzbek)

7. O‘zbekiston madaniy merosi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti to‘plami. Birinchi qism. – Toshkent, 2021. (In Uzbek)

8. O‘zbekiston madaniy merosi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti to‘plami. Ikkinchi qism. – Toshkent, 2021. (In Uzbek)

9. O‘zbekiston madaniy merosi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti to‘plami. Uchinchi qism. – Toshkent, 2021. (In Uzbek)

10. O‘zbekiston madaniy merosi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti to‘plami. To‘rtinchi qism. – Toshkent, 2021. (In Uzbek)

11. O‘zbekiston madaniy merosi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti to‘plami. Beshinchi qism. – Toshkent, 2021. (In Uzbek)

MUSTAQILLIK YILLARIDA AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR MEROSI TIKLANISHIDA YUNESKONING O‘RNI
THE ROLE OF UNESCO IN THE REVIVAL OF THE HERITAGE OF AMIR TEMUR AND THE TIMURIDS IN THE YEARS OF INDEPENDENCE
РОЛЬ ЮНЕСКО В ВОЗРОЖДЕНИИ НАСЛЕДИЯ АМИРА ТЕМУРА И ТЕМУРИДОВ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Sattorov Ulug‘bek Abdurazzoq o‘g‘li
Oriental universiteti o‘qituvchisi
Tel.+9981-470-66-09
E-mail: beksattoroff123@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0009-7376-2421

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston tarixi, madaniyati, san’ati hamda qadriyatlarining xalqaro miqyosda targ‘ib qilish borasida YUNESKO bilan faol hamkorlik aloqalari yoritib berilgan. Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, barcha sohalarda bo‘lgani singari madaniy sohada ham tub islohotlar amalga oshirilganligi, sohaga oid huquqiy tizim mustahkamlanganligi, qadimiy shaharlarimiz va u yerda joylashgan madaniy yodgorliklarning madaniy tashkilot YUNESKOning turli ro‘yxatlari va dasturlariga kiritilishiga oid tadqiqotlar tahliliga qaratilgan. Maqolada tarixiy shaxslar Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek va tarixiy shaharlar Samarqand, Shahrisabz yubileylarining madaniy tashkilot YUNESKO hamkorligida nishonlanganligiga alohida urg‘u beriladi. Mavzuni yoritishda ushbu sohaga oid tegishli me’yoriy hujjatlar, ilmiy tadqiqotlar, adabiyot va davriy matbuot materiallaridan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: *BMT, YUNESKO, Samarqand, Shahrisabz, moddiy madaniy meros, nomoddiy madaniy meros, fan, ta’lim, madaniyat, xalqaro tashkilotlar.*

Annotation. The article examines Uzbekistan’s active cooperation with UNESCO in promoting the country’s history, culture, art, and values at the international level. The study focuses on the period following Uzbekistan’s independence, highlighting that, as in other sectors, fundamental reforms were implemented in the cultural sphere, the legal framework governing the sector was strengthened, and research has been conducted on the inclusion of the country’s ancient cities and their cultural heritage sites in various UNESCO lists and programs. The article places particular emphasis on the commemoration of jubilees of historical figures such as Amir Temur and Mirzo Ulug‘bek, as well as historic cities including Samarqand and Shahrisabz, celebrated in cooperation with UNESCO.

In addressing the topic, the study draws upon relevant normative legal documents, scholarly research, academic literature, and periodical press materials.

Keywords: *United Nations, UNESCO, Samarkand, Shakhrisabz, tangible cultural heritage, intangible cultural heritage, science, education, culture, international organizations.*

Аннотация. В статье освещается активное сотрудничество Республики Узбекистан с ЮНЕСКО в деле продвижения истории, культуры, искусства и ценностей страны на международном уровне. В данном исследовании анализируется период после обретения Узбекистаном независимости, в ходе которого, как и во всех других сферах, в культурной области были осуществлены коренные реформы, укреплена нормативно-правовая база, а также рассмотрены вопросы включения древних городов и расположенных в них культурных памятников в различные списки и программы ЮНЕСКО. В статье особо подчёркивается проведение юбилеев исторических личностей, таких как Амир Темур и Мирзо Улугбек, а также исторических городов – Самарканд и Шахрисабз, организованных в сотрудничестве с ЮНЕСКО.

При раскрытии темы использованы соответствующие нормативно-правовые документы, научные исследования, научная литература и материалы периодической печати.

Ключевые слова: *ООН, ЮНЕСКО, Самарканд, Шахрисабз, материальное культурное наследие, нематериальное культурное наследие, наука, образование, культура, международные организации.*

KIRISH

O‘zbekiston istiqlolga erishgan dastlabki yillardan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatishga va tarixiy-madaniy merosini jahon miqyosida targ‘ib etishga alohida e’tibor qaratdi. 1993-yil 26-oktyabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining fan, ta’lim, madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti YUNESKOga a’zo bo‘lishi xalqaro maydonda respublikamizni qadimiy tarixiy merosga ega davlat sifatida e’tirof etilishiga sabab bo‘ldi. Tashkilot bilan faol hamkorlik aloqalari rivojlanishi natijasida fan, ta’lim sohalaridagi hamkorlik aloqalari bilan bir qatorda, madaniyat sohasida hamkorlik aloqalari yildan-yilga rivojlanib bormoqda. Madaniy sohadagi hamkorlik aloqalari natijasida mamlakatimiz moddiy va nomoddiy madaniy merosi YUNESKOning “Umumjahon madaniy merosi” ro‘yxati va “Nomoddiy madaniy merosning reprezentativ” ro‘yxatiga kiritilishi, qator tarixiy shaharlar va tarixiy shaxslarlar yubileylarining nishonlanishi, tashkilot shafeligida yurtimiz tarixiy shaharlarida qator xalqaro anjumanlar va musiqa festivallarini o‘tkazish an’anaga aylandi. Bugungi kunda O‘zbekiston va YUNESKO o‘rtasida mustahkam hamkorlik aloqalari har qachongidan ham

mustahkamlanib bormoqda. Madaniy yo‘nalish O‘zbekiston va YUNESKO o‘rtasidagi bir necha o‘n yillardan beri davom etayotgan munosabatlarning muhim sohasi bo‘lib kelmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu mavzu alohida tadqiqot mavzusi sifatida tadqiq etilmagan bo‘lsa-da, me’yoriy hujjatlar, qator tadqiqot ishlari, monografiyalar, maqolalar, adabiyot va davriy matbuot materiallarida mazkur mavzuga to‘xtalib o‘tilgan. Jumladan, M.Rahimov va O.Abdimo‘minov (2021), M.Asrorxo‘jayeva (2024) larning monografiyalarida, “Xalq so‘zi” gazetasining maxsus sonlarida ushbu mavzuga oid ma’lumotlar tahlili keltirilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada respublikamiz tarixiy merosining tiklanishi va YUNESKO bilan hamkorlik rivojlanishini o‘rganishda tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma’lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab respublikamizda madaniy sohani rivojlantirishga, milliy urf-odatlar va an’analarni tiklashga alohida e’tibor qaratila boshlandi. Uch ming yillik davlatchilik tarixiga ega bo‘lgan respublikamizda mustaqillik sharoiti bilan tarixiy xotirani tiklash imkoniyati paydo bo‘ldi. Yurtimizda tarixiy-me’moriy obidalarni tiklash va restavratsiya qilish, ularni asl holatida saqlashga alohida e’tibor berila boshlandi.

O‘zbekiston hududida “Birinchi Renessans” va “Ikkinchi Renessans davri” jahon ilm-fani rivojlanishiga ijobiy ta’sir qildi. Jumladan, temuriylar davri renessansi nafaqat Movarounnahrda balki, butun Sharq olamining ilm-fani va madaniy yuksalishiga ta’sir ko‘rsatdi. Amir Temurning 690 yillik yubileyi munosabati bilan yurtimizda alohida qaror qabul qilindi (PQ 46). Qarorga binoan har yilning aprel oyida respublikamizda Amir Temur oyligi deb e’lon qilinishi, mahalliy va xalqaro miqyosida ilmiy-amaliy konferensiyalar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etilishi belgilab qo‘yildi.

Amir Temur va temuriylar davriga oid me’moriy yodgorliklar bugungi kungacha saqlanib qolgan bo‘lib, turli davlatlarda Amir Temur va temuriylar sulolasi tarixiga bag‘ishlab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda, kitoblar nashr etilmoqda. Bugungi kunda ham mamlakatimizda va xalqaro miqyosida temuriylar davri tarixi va madaniyatiga qiziqish yildan-yilga ortib bormoqda. Xalqaro miqyosida YUNESKO bilan hamkorlikda temuriylar davrini o‘rganishga alohida e’tibor berilmoqda. Amir Temur shaxsi va Temuriylar davri madaniy

merosini jahon miqyosida targ‘ib qilishda YUNESKO bilan hamkorlik beqiyos ahamiyat kasb etdi.

YUNESKO bilan Respublikamiz o‘rtasida mustaqillikning ilk yillarida rasmiy aloqalar o‘rnatilgan. Respublikamiz hali Sovet Ittifoqida bo‘lgan paytlardayoq tashkilot bilan tor doirada bo‘lsa-da hamkorlik qilingan hamda asosan madaniyat sohasidagi hamkorlikka qaratilgan.

O‘zining qadimiy tarixi, boy madaniy merosi bilan yurtimiz tashkilot e’tiborini XX asrning 60-yillarida o‘ziga qaratgan. Jumladan, 1969-yil 23-27-sentyabr kunlari Samarqandda “Temuriylar davri san’ati” mavzusida xalqaro miqyosidagi anjuman YUNESKO ishtirokida o‘tkazilgan. Mazkur ilmiy anjuman to‘rt sho‘bada ish olib borgan bo‘lib, ular “Temuriylar davri arxitekturasi”, “Temuriylar davri miniatyurasi”, “Temuriylar davrida xattotlik va naqqoshlik”, “Temuriylar davri amaliy san’ati” deb nomlangan. Anjumanda dunyoning 50 dan ortiq olimlari o‘z ma’ruzalari bilan ishtirok etgan. YUNESKO tomonidan “Temuriylar davri san’ati” kitob-albomi, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Alisher Navoiyning “Xamsa” asari, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Kamoliddin Behzod, Husayn Boyqaro, Sultonali Mashhadiy, Mirali Tabriziy singari tarixiy shaxslarning portretlari mazkur ilmiy-amaliy anjumanda nashr etildi.

Mustaqillik yillarida tashkilot mandatiga kiruvchi barcha sohalarda ishonchli hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yildi. Madaniy sohada mustahkam hamkorlik aloqalari mustahkamlanib bormoqda. Tashkilotning qator dastur va loyihalarida respublikamiz faol ishtirok etib kelmoqda. Jumladan, tashkilotning “Butunjahon merosi” ro‘yxati 1978-yildan beri tuzilib, jahonning noyob yodgorliklarini xalqaro miqyosda ro‘yxatga kiritish va muhofaza etishga qaratilgan. O‘zbekistondan ushbu ro‘yxatga 1990-yil Xivadagi Ichan qal’a, 1993-yil Buxoro shahrining tarixiy markazi, 2000-yilda Shahrisabz shahrining tarixiy markazi, 2001-yilda Samarqand madaniyatlar chorrahasi, 2016-yil O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston davlatlari qo‘shma nomzodligida G‘arbiy Tyan-Shan tog‘lari, 2023-yilda “Turonning qishki sovuq sahrolari”, 2023-yilda “Ipak yo‘li: Zarafshon-Qoraqum koridori” kiritilgan.

Ushbu ro‘yxatga 2000-yilda Shahrisabz shahri tarixiy markazi (https://whc.unesco.org/en/list/885/) ham kiritilgan bo‘lib, bu shahar Amir Temur tug‘ilgan va yoshlik yillari o‘tgan hudud hisoblanadi. 1999-yil 27-30-noyabr kunlari YUNESKOning Avstraliyada bo‘lib o‘tgan 24-sessiyasida Shahrisabz shahri va madaniy yodgorliklari YUNESKOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritildi. Ushbu majmua Amir Temur va temuriylar davri shaharsozligi, me’morchiligi va madaniyatini aks ettiruvchi noyob tarixiy makon hisoblanadi.

‘‘Shahrisabz tarixiy markazi saroylar, maqbaralar, masjidlar, ziyorat majmualari hamda an’anaviy shaharsozlik tuzilmasidan iborat yaxlit tarixiy ansamblni tashkil etadi’’. Mazkur ro‘yxatga kiritilgan madaniy yodgorlikning bebaho va umuminsoniy qimmatga ega ekanligi e’tirof etiladi hamda insoniyat manfaati uchun himoya qilinishi zarurdir (https://whc.unesco.org/en/list/603/). Samarqand shahrining tarixiy markazi YUNESKOning 2001-yil Finlandiyada bo‘lib o‘tgan 25-sessiyasida Butunjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritildi. ‘‘Samarqand madaniyatlar chorrahasi masjidlar, madrasalar, maqbaralar, savdo inshootlari hamda an’anaviy turarjoylardan iborat yaxlit shahar-majmuani tashkil etadi’’. Samarqand madaniyatlar chorrahasi turli davrlar va sivilizatsiyalar me’morchiligi, shaharsozligi va madaniy qatlamlari uyg‘unlashgan noyob tarixiy shahar-makon hisoblanib, tashkilotning ushbu ro‘yxatiga kirgan. Samarqand – madaniyatlar chorrahasi Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan mamlakatimizning Ichan qal’a, Buxoro shahrining tarixiy markazi, Shahrisabz shahrining tarixiy markazi kabi alohida berilgan nomzodnomasi hisoblanadi. Samarqand respublikamizdagi eng mashhur va qadimiy shahar bo‘lib, Amir Temur tomonidan saltanat poytaxti qilib belgilagan. Shahar faqatgina XIV-XVI asrlarda emas, balki, undan keyingi davrda ham davlatchiligimiz tarixida eng mashhur madaniy va tarixiy markazlaridan biri bo‘lib kelmoqda.

O‘zbekiston va YUNESKO hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilgan davrdan to hozirgi kungacha tarixiy shaxslar, qadimiy shaharlar va milliy qadriyatlarimiz yubiley sanalari xalqaro miqyosda keng nishonlanib kelinmoqda. 1994-yildan boshlab YUNESKO bilan hamkorlikda xalqaro miqyosda tarixiy shaxslar yubileylarini o‘tkazish an’anasi boshlandi. Aslida bu an’ana mustaqillikka erishish arafasida boshlangandi. 1994-yilda temuriylar sulolasining mashhur vakili, buyuk olim Mirzo Ulug‘bek tavalludining 600 yilligi (O‘z MA.) O‘zbekiston va xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Mirzo Ulug‘bek tavalludi xalqaro miqyosda tashkilot bilan hamokrlikda mustaqillik yillarida nishonlangan dastlabki yubiley tadbiri edi. Aynan shu yildan boshlab tashkilot va respublikamiz o‘rtasida yubileylarni hamkorlikda nishonlash an’anaga aylandi.

1994-yil 29-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to‘g‘risida qarori qabul qilindi. Shu munosabat bilan 1995-yilning 29-mart kuni Qashqadaryo viloyati hokimligida Amir Temurning voha aholisi tarixida tutgan o‘rnini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy - amaliy konferensiya bo‘lib o‘tdi. Mazkur konferensiyada viloyat madaniy-ma’rifiy sohasi vakillari, tarixchi olimlar va jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 29-dekabrdagi qarorining 5-bandiga asosan viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan

birgalikda Amir Temur nomi bilan bog‘liq obidalar va qadamjolarni ta’mirlash, konservatsiyalash va obodonlashtirish tadbirlari belgilandi. 1995-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “ 1996-yilni “Amir Temur yili” deb e’lon qilish to‘g‘risida”gi Farmoni e’lon qilindi. 1996-yilda YUNESKO Bosh konferensiyasining Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to‘g‘risidagi qarori qabul qilindi.

1996-yilda temuriylar davlati asoschisi, buyuk sarkarda Amir Temur tavalludining 660-yilligi YUNESKO qarorgohi Parijda Fransiyaning “Temuriylar davri tarixi va madaniyatini o‘rganish” Assotsiatsiyasi, “Fransiya-O‘zbekiston” do‘stlik jamiyati tashkilotlari bilan hamkorlikda keng nishonlandi. Ushbu tadbirlar doirasida tashkilot qarorgohida “Temuriylar davrida fan, madaniyat va ma’rifatning gullab-yashnashi” mavzusida ko‘rgazma ochildi. Temurshunos olimlar ishtirokida “Temuriylar davrida fan va madaniyatning gullab-yashnashi” mavzusida xalqaro konferensiya tashkil etilib, 16 ta ilmiy ma’ruzalar eshitildi. Shuningdek, ushbu tadbir doirasida Amir Temur va temuriylar tarixini jahon miqyosida xalqaro targ‘ib etishdagi xizmatlari uchun YUNESKO Bosh direktori Federiko Mayor O‘zbekiston Respublikasining “Do‘stlik” (http://old.lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=2377932&twolang=true) ordeni bilan taqdirlandi. Ushbu xalqaro tadbirlar doirasida “Temuriylar davri madaniyati va san’ati” kitobi va ko‘rgazmasi tayyorlandi. Temurshunos olim Lyusen Kerenning “Amir Temur” kitobi o‘zbek tiliga tarjima qilinib, 5000 nusxada, “Temur tuzuklari” asari esa fransuz tiliga tarjima qilinib, 5000 nusxada nashr etildi.

2001-yili Shahrisabz shahrining 2700 yillik yubileyi tadbirlariga tayyorgarlik davomida Xiva, Samarqand, Buxoro va Qo‘qon shaharlaridan kelgan eng mohir ustalar shahardagi qadimiy obidalarda ta’mirlash va mustahkamlash ishlarini olib borishdi. Shular jumlasiga, Oqsaroy me’moriy obidasida 119 million so‘mlik ta’mirlash ishlarini Shahrisabzdagi “Meros” hissadorlik jamiyati ustalari amalga oshirdi**.** 2002-yil O‘zbekistondagi qadimiy shaharlardan biri, Amir Temur tug‘ilib o‘sgan Shahrisabz shahrining 2700-yilligi YUNESKO hamkorligida keng nishonlandi. 2002-yil 29-martda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Shahrisabz shahrining 2700-yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish tog‘risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga (http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=1677083) muvofiq shahardagi tarixiy va madaniy obidalarni ta’mirlash va tiklash uchun 980,5 mln so‘mlik ishlar amalga oshirildi. Shahardagi Oqsaroy, Dor ut-tilovat, Dor us-soadat majmualari, Chorsu savdo markazi, Chubiya madrasasi singari shaharning qadimiy markazlarida konservatsiya, restavratsiya, mustahkamlash hamda obodonlashtirish ishlari

amalga oshirildi. (М.Раҳимов,О.Абдимўминов., 2021: 232) 2018-yilda ushbu shaharda YUNESKO tashkiloti bilan hamkorlikda Maqom san’at festivali o‘tkazildi va yurtimizda bu festivalni o‘tkazish an’anaga aylandi.

Temuriylar davlati poytaxti, qadimgi va o‘rta asrlarda Sharqning mashhur shahri, bugungi kunda xalqaro anjumanlar o‘tkazilish markaziga aylangan Samarqand shahrining yubileyi ham xalqaro tashkilot bilan hamkorlikda nishonlangan. 2006-yil 25-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Samarqand shahrining 2750-yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori (Xalq so‘zi) qabul qilindi. 2007-yil 7-may kuni Parijdagi YUNESKOning vakolatxonasida “Jahon tamaddunida Marg‘ilon va Samarqandning roli” mavzusida ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazilib, o‘zbek va jahon olimlari ishtirok etdi. 2005-yil 20-oktyabrda YUNESKO Bosh konferensiyasida Samarqand shahri 2750 yoshga ega ekanligi haqida maxsus qaror qabul qilindi. 2006-yil 25-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Samarqand shahrining 2750 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. 2007-yilda shaharning 2750 yilligi jahon hamjamiyati tomonidan keng nishonlandi. Yubiley arafasida shaharda keng ko‘lamli qurilish va bunyodkorlik ishlari bilan birga, tarixiy obidalar kapital ta’mirlanib, ularning atrofida obodonlashtirish ishlari olib borildi (Б.С.Ғойибов ва бошқалар. 2021: 378.).

2025-yil 30-oktabrdan 13-noyabrgacha (dunyo.info/uz/UNESCO---samarkand/43) O‘zbekiston, qadimiy va hamisha navqiron Samarqand shahrida jahon miqyosidagi muhim tadbirga YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasiga mezbonlik qildi. Tadbir mamlakatimizning xalqaro miqyosdagi nufuzini yanada yuksaltirishga, jahon hamjamiyatini O‘zbekistonning boy tarixi va madaniyati bilan yaqindan tanishtirishga yordam bergan tarixiy ahamiyatga ega voqeadir. BMTning madaniy tashkiloti bo‘lgan YUNESKOning asosiy anjumani 40 yildan ortiq vaqt davomida ilk bor uning Parijdagi bosh qarorgohidan tashqarida tashkil etildi. Oxirgi bor tashkilot Bosh konferensiyasi safar formati 1985-yil Bolgariyaning Sofiya shahrida bo‘lib o‘tgan.

Bosh konferensiya sessiyasi YUNESKOning Markaziy Osiyoda o‘tkazgan birinchi shunday yirik yig‘ilishi bo‘lishiga qaramay, ilm-fan, ta’lim va san’atning muhim markazlaridan biri hisoblangan Samarqand oxirgi yillarda jahon ahamiyatiga molik bir qator yirik xalqaro uchrashuvlarga mezbonlik qilganligini ta’kidlab o‘tish o‘rinlidir.

5-noyabr kuni Hilton Samarkand Regency mehmonxonasida ‘‘Samarqand: 3000 yillik meros’’ nomli xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. Tadbir O‘zbekiston Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi,

Milliy arxeologiya markazi hamda Samarqand viloyati hokimligi tomonidan YUNESKO ko‘magida tashkil etildi. Konferensiya YUNESKO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasi doirasida o‘tkazildi. Forum dunyoning yetakchi olimlari, tadqiqotchilari va xalqaro tashkilotlar vakillarini bir joyga jamladi. Ishtirokchilar arxeologik kashfiyotlar, Zarafshon vodiysining shaharsozlik rivoji hamda Samarqandning jahon sivilizatsiyasi tarixidagi o‘rni haqida fikr almashdilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida respublikamizda madaniy sohada amalga oshirilgan ishlar, tarixiy va madaniy yodgorliklarning holati, ularni saqlash va restavratsiya qilish qilish, ayniqsa, temuriylar davridagi madaniy yodgorliklarni saqlash va restavratsiya qilish ishlariga alohida e’tibor qaratildi. Shuningdek, tarixiy shaxslar va tarixiy shaharlar yubileylarining nishonlanishi, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi an’anaga aylandi. Xalqaro miqyosidagi tadbirlarda YUNESKO tashkiloti alohida o‘rin tutadi. Madaniy yodgorliklarimizning YUNESKO ro‘yxatlariga kiritilishi O‘zbekiston boy madaniy merosining xalqaro miqyosda e’tirof etilishiga xizmat qiladi. Hamda yodgorliklarning xalqaro miqyosda muhofaza qilinishini ta’minlash uchun asos bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, mamlakatimizda madaniy yodgorliklar tarixini o‘rganish, ularni saqlash va kelajak avlodga asl holatida yetkazish bugungi kunning qilinayotgan va qilinishi kerak bo‘lgan muhim vazifalari hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 05.02.2026 yildagi PQ-46-son // https://lex.uz/uz/docs/-8036449

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 10-apreldagi «Federiko Mayorni O‘zbekiston Respublikasinng «Do‘stlik» ordeni bilan mukofotlash to‘g‘risida»gi farmoni // http://old.lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=2377932.

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори. // http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=1677083&twolang=true .

4. Б.С.Ғойибов ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи (Самарқанд тарихи) IX жилд. «O‘zbekiston» nashriyoti. Тошкент – 2021. Б 378.

5. М.Раҳимов, О.Абдимўминов. Ўзбекистон ва БМТ: Муносабатлар тарихи ва барқарор ривожланиш омиллари. Монография: Hamkornashr. Тўлдирилган ва қайта ишланган иккинчи нашр. Тошкент – 2021. Б. 232.

6. O‘z MA. M-37-fond, 1-ro‘yxat, 824-yig‘ma jild, 2-varaq.

7. Samarqandda YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi o‘z ishini rasman yakunladi. // dunyo.info/uz/UNESCO---samarkand/43-ya-sessiya-generalnoy-konferencii-yunesko-v-samarkande-oficialno-zavershila-svoyu-rabotu

8. Samarqand tarixiy markazining YUNESKOning «Umumjahon madaniy merosi» ro‘yxatiga kiritilishi. // https://whc.unesco.org/en/list/603/ (In Uzbek)

9. Shahrisabz tarixiy markazining YUNESKOning «Umumjahon madaniy merosi» ro‘yxatiga kiritilishi. // https://whc.unesco.org/en/list/885/ (In Uzbek)

10. Xalq so‘zi. 2006 26-iyul.

REFERENCES:

1. B.S. G‘oyibov va boshqalar. (2021) O‘zbekiston tarixi (Samarqand tarixi) IX jild. «O‘zbekiston» nashriyoti. Toshkent. B 378. (In Uzbek)

2. M. Rahimov, O. Abdimominov. (2021) O‘zbekiston va BMT: Munosabatlar tarixi va barqaror rivojlanish omillari. Monografiya: Hamkornashr. To‘ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashr. Toshkent. B. 232. (In Uzbek)

3. O‘z MA. M-37-fond, 1-ro‘yxat, 824-yig‘ma jild, 2-varaq. (In Uzbek)

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 10-apreldagi «Federiko Mayorni O‘zbekiston Respublikasining «Do‘stlik» ordeni bilan mukofotlash to‘g‘risida»gi farmoni. // http://old.lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=2377932. (In Uzbek)

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 05.02.2026 yildagi PQ-46-son. // https://lex.uz/uz/docs/-8036449 (In Uzbek)

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. // http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=1677083&twolang=true. (In Uzbek)

7. Samarqandda YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi o‘z ishini rasman yakunladi. // dunyo.info/uz/UNESCO---samarkand/43. (In Uzbek)

8. Samarqand tarixiy markazining YUNESKOning «Umumjahon madaniy merosi» ro‘yxatiga kiritilishi. // https://whc.unesco.org/en/list/603/ (In Uzbek)

9. Shahrisabz tarixiy markazining YUNESKOning «Umumjahon madaniy merosi» ro‘yxatiga kiritilishi. // https://whc.unesco.org/en/list/885/ (In Uzbek)

10. Xalq so‘zi. 2006 26-iyul. (In Uzbek)

ROBIYA SULTON-BEGIM VA TEMURIYLAR SAROYIDA AYOLLARNING TARIXIY O‘RNI
ROBIYA SULTON-BEGIM AND THE HISTORICAL ROLE OF WOMEN IN THE TIMURID COURT
РОБИЯ СУЛТАН-БЕГИМ И ИСТОРИЧЕСКАЯ РОЛЬ ЖЕНЩИН ПРИ ДВОРЕ ТИМУРИДОВ

Abdullayeva Gulandom Anvarovna
Oriyental universiteti
Xotin-kizlar masalalari buyicha rektor maslaxatchisi
Tel.:+998998101790
E-mail:Abdullaevagulandom@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ishda Temuriylar davlati va uning ijtimoiy-siyosiy tuzilishi, shuningdek, Robiya Sulton-Begim shaxsi misolida Temuriylar saroyida ayollarning tarixiy o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda Temuriylar davrida ayollarning siyosiy, diplomatik va madaniy hayotdagi ishtiroki, ularning saroy muhitidagi nufuzi hamda jamiyat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi yoritiladi. Shuningdek, Robiya Sulton-Begimning sulolaviy nikohlar va siyosiy munosabatlardagi o‘rni orqali Temuriylar davlatining diplomatik tizimi ochib beriladi. Ishning asosiy maqsadi Temuriylar davrida ayollarning ijtimoiy maqomini o‘rganish va tarixiy merosimizni chuqur anglashga hissa qo‘shishdan iborat.

Kalit so‘zlar: *Temuriylar davlati, Amir Temur, Robiya Sulton-Begim, saroy ayollari, siyosiy tarix, diplomatiya, ijtimoiy tuzilma, madaniyat.*

Annotation. This work analyzes the Timurid state and its socio-political structure, as well as the historical role of women in the Timurid court, exemplified by the figure of Robiya Sultan-Begim. The study highlights the participation of women in the political, diplomatic, and cultural life of the Timurid period, their influence within the court, and their contributions to the development of society. Furthermore, the diplomatic system of the Timurid state is revealed through Robiya Sultan-Begim's role in dynastic marriages and political relations. The primary objective of this work is to study the social status of women during the Timurid era and to contribute to a deeper understanding of our historical heritage.

Keywords: *Timurid state, Amir Temur, Robiya Sultan-Begim, women of the court, political history, diplomacy, social structure, culture.*

Аннотация: В данной работе анализируется государство Тимуридов и его социально-политическая структура, а также историческая роль женщин при дворе Тимуридов на примере Робия Султан-Бегим. В исследовании рассматривается участие женщин в политической, дипломатической и культурной жизни государства, их влияние при дворе и вклад в развитие

общества. Особое внимание уделяется династическим бракам и дипломатической роли Робии Султан-Бегим, что позволяет раскрыть особенности внешней политики государства Тимуридов. Цель работы заключается в изучении социального положения женщин в эпоху Тимуридов и осмыслении исторического наследия.

Ключевые слова: *Государство Тимуридов, Амир Темур, Робия Султан-Бегим, придворные женщины, политическая история, дипломатия, социальная структура, культура.*

KIRISH

Jahon tarixida o‘rta asrlar davri yirik imperiyalar, kuchli davlatlar va buyuk sarkardalarning shakllanishi bilan ajralib turadi. Ana shunday davlatlar orasida Markaziy Osiyo hududida XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr boshlarida vujudga kelgan Temuriylar davlati alohida o‘rin egallaydi. Bu davlatning asoschisi Amir Temur bo‘lib, u nafaqat yirik harbiy sarkarda, balki kuchli siyosiy arbob va davlat quruvchisi sifatida ham tarixda chuqur iz qoldirgan.

Temuriylar davlatining yana bir muhim jihati uning ijtimoiy tuzilishi va saroy hayotidir. Saroy tizimida turli tabaqalar, amirlar, ilm ahli va hatto saroy ayollari ham ma’lum darajada siyosiy va ijtimoiy ta’sirga ega bo‘lgan. Bu esa Temuriylar davlatining murakkab va rivojlangan ijtimoiy tizimga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

Shu sababli Amir Temur va Temuriylar davlati tarixi bugungi kungacha ham tarixshunoslikda muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Uning davlat boshqaruvi, harbiy siyosati, iqtisodiy tizimi va madaniy merosi nafaqat Markaziy Osiyo, balki jahon tarixida ham katta ahamiyatga ega. Temuriylar davlati tarixini o‘rganish jarayonida shuni alohida ta’kidlash lozimki, bu saltanat faqat harbiy qudrat va siyosiy markazlashuv bilan emas, balki ijtimoiy hayotning murakkab va rivojlangan tizimi bilan ham ajralib turadi. Amir Temur asos solgan davlatda jamiyat tuzilishi qat’iy tartib asosida shakllangan bo‘lib, unda turli ijtimoiy qatlamlar o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan. Ayniqsa, saroy hayoti va hukmdor oilasi atrofidagi muhit davlat siyosati va madaniyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Temuriylar davridagi ayollarning, xususan saroy hayotida, siyosiy va diplomatik jarayonlardagi o‘rni masalasi zamonaviy tarixshunoslikda muhim o‘rin tutadi. Mavzuni o‘rganishda asosan rus, ingliz va fors tillaridagi klassik va zamonaviy tadqiqotlar asos qilib olinadi. Ushbu adabiyotlar Temuriylar sulolasining umumiy siyosiy tarixi, madaniyati va ijtimoiy tuzilishini yoritish bilan birga, ayollarning nufuzi va faolligini ham qayd etadi.

V.V.Bartoldning “Туркестан в эпоху монгольского нашествия” va “Тимур и его эпоха” asarlari Temuriylar davrining asosiy manbalarini va siyosiy muhitini chuqur tahlil qiladi. Bartold Temuriylar davlatidagi sulolaviy nikohlar va ayollarning sulola ichidagi mavqeini ham yoritib, ularning diplomatik vosita sifatidagi rolini ta’kidlaydi.

L.Golombek va D.Wilberning Temuriylar arxitekturasi bo‘yicha asari ayollarning me’moriy yodgorliklar qurilishidagi homiylik faoliyatini yoritadi. Bu esa ayollarning nafaqat siyosiy, balki madaniy hayotdagi faolligini tasdiqlaydi.

Zamonaviy tadqiqotlardan “Timurid Women and Their Role in Politics and Society” (Journal of Central Asian Studies, 2021) maqolasi mavzuni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘rganib, Temuriylar davridagi ayollarning siyosiy jarayonlarda bilvosita ishtirokini va nikoh diplomatiyasining mexanizmlarini tahlil qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot tarixshunoslik va manbashunoslik tamoyillariga asoslangan bo‘lib, Temuriylar davridagi ayollarning siyosiy, diplomatik va ijtimoiy hayotdagi o‘rni, xususan Robiya Sulton-Begim shaxsiyati va faoliyatini o‘rganishga qaratilgan. Shuningdek, voqealar va jarayonlarni ularning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va o‘zaro bog‘liqligi kontekstida ko‘rib chiqish. Robiya Sulton-Begimning hayoti va nikohi Temuriylar sulolasining umumiy siyosiy strategiyasi doirasida tahlil qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, Robiya Sulton-Begim XV asrda (taxminan 1435-1485-yillarda) yashagan bo‘lib, Temuriylar sulolasining mashhur vakillaridan biri – Mirzo Ulug‘bekning (1394–1449) qizi sifatida tanilgan (Бартольд В.В., 1992: 210-225; Валиходжаев Б., 2018). Bu jihat uning bevosita Temuriylar imperiyasining markaziy sulolaviy tizimiga mansubligini ko‘rsatadi. Ulug‘bek davri Temuriylar tarixida ilm-fan, astronomiya va madaniyatning eng yuqori darajada rivojlangan bosqichi hisoblanadi. Shu sababli Robiya Sulton-Begim ham ana shunday ilmiy va siyosiy muhitda voyaga yetgan, yuqori madaniy saviyaga ega shaxs sifatida qaraladi.

Robiya Sulton-Begimning hayotidagi eng muhim tarixiy voqealardan biri uning 1451-yilda Dashti Qipchoq (O‘zbek ulusi) hukmdori Abu’l-Xayrxon (1412-1468) bilan nikoh qurishidir (Манз Б.Ф., 1989: 98; Субтельный М.Е., 2007: 45; Абдуллаев Р., 2020). Bu nikoh oddiy oilaviy ittifoq emas, balki Temuriylar sulolasi va qo‘shni siyosiy kuchlar – o‘zbek xonligi o‘rtasidagi muhim diplomatik kelishuv sifatida baholanadi. O‘rta asr Sharq siyosatida bunday sulolaviy nikohlar

davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, tinchlikni saqlash va harbiy-siyosiy ittifoqlarni yaratishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qilgan.

Bu nikoh orqali Temuriylar sulolasi o‘z ta’sirini shimoliy hududlarga kengaytirishga harakat qilgan. Nikohdan keyin Robiya Sulton-Begim Abu’l-Xayrxonning to‘rtinchi xotini bo‘lib, ulardan Suyunchxo‘ja xon, Ko‘chkunchi xon va boshqa avlodlar tug‘ilgan. Bu avlodlar keyinchalik Shayboniylar davlatida muhim rol o‘ynagan.

Tarixiy manbalarda uning shaxsiy hayoti haqida batafsil ma’lumotlar kam bo‘lsa-da, u Temuriylar sulolasining muhim ayol vakillaridan biri sifatida qayd etiladi (Вудс Дж.Е., 1990: 102). Ayrim tadqiqotlarda Robiya Sulton-Begimning siyosiy ahamiyati uning sulolaviy nikohlar orqali davlatlararo munosabatlarda vositachi rolini bajargani bilan izohlanadi. Bu esa Temuriylar davrida ayollarning jamiyatdagi o‘rni nisbatan faol bo‘lganini ko‘rsatadi (Субтельный М.Е., 2015: 120-135).

Robiya Sulton-Begim yashagan davrda Temuriylar saroyi murakkab siyosiy va ijtimoiy tuzilishga ega edi. Saroy hayotida faqat erkak hukmdorlar emas, balki ularning onalari, xotinlari va qizlari ham muhim o‘rin egallagan. Ular ko‘pincha siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida bilvosita ishtirok etgan, saroy ichki muhitini tartibga solishda va madaniy hayotni rivojlantirishda katta rol o‘ynagan (Голомбек Л., Уилбер Д., 1988: 320-340). Ayniqsa, nikoh diplomatiyasi orqali ayollarning siyosiy jarayonlarga ta’siri katta bo‘lgan. Robiya Sulton-Begimning Abu’l-Xayrxon bilan nikohi ham aynan shunday strategiyaning yorqin namunasi hisoblanadi. Bu nikoh orqali Temuriylar va Dashti Qipchoq o‘rtasida ma’lum darajada siyosiy yaqinlik va hamkorlik yuzaga kelgan.

Shuningdek, Robiya Sulton-Begim Temuriylar sulolasining madaniy va ijtimoiy an’analarini davom ettirgan avlod vakillaridan biri sifatida ham qaraladi. Temuriylar saroyida ayollar odatda yuqori madaniy saviya, odob-axloq va siyosiy ongga ega bo‘lgan. Bu esa ularning jamiyatdagi nufuzini yanada oshirgan. Umuman olganda, Robiya Sulton-Begim shaxsi Temuriylar davrida ayollarning tarixiy o‘rnini o‘rganishda muhim misol hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davri va Robiya Sulton-Begim kabi tarixiy shaxslar faoliyatini chuqur o‘rganish bizga o‘z tarixiy ildizlarimizni yanada yaxshi anglash imkonini beradi. Temuriylar davlati nafaqat harbiy qudrati bilan, balki ijtimoiy va madaniy hayotning rivojlanganligi bilan ham ajralib turgan. Ayniqsa, bu davrda ayollarning saroy hayoti, siyosiy jarayonlar va madaniy-ma’rifiy faoliyatdagi o‘rni e’tiborga loyiqdir. Temuriylar saroyida ayollar, jumladan Robiya Sulton-Begim kabi nufuzli shaxslar, o‘z davrining ijtimoiy va siyosiy muhitiga

ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatgan. Ularning faoliyati orqali biz o‘rta asrlarda ham ayollar faqatgina oilaviy doira bilan cheklanib qolmaganini, balki jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etganini ko‘ramiz. Bu esa tarixiy merosimizning naqadar boy va rang-barang ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu bois, tarixiy ildizlarimizni o‘rganish, ajdodlarimiz qoldirgan boy madaniy va siyosiy merosni anglash har bir yosh avlod uchun muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon nafaqat bilimni oshiradi, balki milliy g‘urur va o‘zlikni anglash tuyg‘usini ham mustahkamlaydi. O‘z tarixini bilgan inson o‘z xalqining qadriyatlarini chuqurroq his qiladi va unga nisbatan hurmati ortadi.

Ayniqsa, Temur davlati va undagi ayollarning ijodiy, siyosiy hamda madaniy faoliyatini o‘rganish kelajak avlodning ajdodlarga bo‘lgan hurmatini yanada kuchaytiradi. Bu esa yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy qadriyatlarga sodiq bo‘lish va tarixiy merosni asrab-avaylashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, Temuriylar davri tarixini, xususan, undagi ayollarning o‘rnini o‘rganish – bu faqat o‘tmishni bilish emas, balki kelajakni to‘g‘ri shakllantirish uchun ham muhim ma’naviy asosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бартольд В.В. (1963) Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – М.: Наука. – 704 с.

2. Бартольд В.В. (1992) Тимур и его эпоха. – М.: Восточная литература. – 320 с.

3. Manz B.F. (1989) The Rise and Rule of Tamerlane. – Cambridge: Cambridge University Press. – 210 p.

4. Subtelny M.E. (2007) Timurids in Transition: Turko-Persian Politics and Acculturation in Medieval Iran. – Leiden: Brill. – 356 p.

5. Woods J.E. (1990) The Timurid Dynasty. – Cambridge: Cambridge University Press. – 280 p.

6. Encyclopaedia Iranica. Timurids and Timurid Women. – URL: https://www.iranicaonline.org (murojaat sanasi: 03.05.2026).

7. Golombek L., Wilber D. (1988) The Timurid Architecture of Iran and Turan. – Princeton: Princeton University Press. – 450 p.

8. Ruy Gonzalez de Clavijo. (2009) Embassy to Tamerlane (1403–1406). – London: Routledge. – 300 p.

9. Timurid Women and Their Role in Politics and Society // Journal of Central Asian Studies. – 2021. – №2. – 45-60-b.

10. Maria Subtelny (2015) Society and Culture in the Timurid Period. – Tehran: Iranian Studies Series. – 290 p.

REFERENCES:

1.Бартольд В.В. (1963) Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – М.: Наука. – 704 с. (In Russian)

2. Бартольд В.В. (1992) Тимур и его эпоха. – М.: Восточная литература. – 320 с. (In Russian)

3. Манз Б.Ф. (1989) The Rise and Rule of Tamerlane. – Cambridge: Cambridge University Press. – 210 п.

4. Subtelny M.E. (2007) Timurids in Transition: Turko-Персиан Politics and Acculturation in Medieval Iran. – Leiden: Brill. – 356 п.

5. Woods J.E. (1990) The Timurid Dynasty. – Cambridge: Cambridge University Press. – 280 п.

6. Encyclopaedia Iranica. Timurids and Timurid Women. – УРЛ: https://www.iranicaonline.org (мурожаат санаси: 03.05.2026).

7. Golombek Л., Wilber D. (1988) The Timurid Architecture of Iran and Turan. – Princeton: Princeton University Press. – 450 п.

8. Ruy Гонзалез де Славижо. (2009) Embassy to Tamerlane (1403–1406). – Лондон: Routledge. – 300 п.

9. Timurid Women and Their Role in Politics and Society // Journal of Central Asian Studies. – 2021. – №2. – 45-60-б.

10. Maria Subtelny (2015) Society and Culture in the Timurid Period. – Te: Iranian Studies Series. – 290 п.

TEMURIYLAR DAVRIDA HUNARMANDCHILIK TARMOQLARI RIVOJI

DEVELOPMENT OF CRAFT SECTORS IN THE TIMURID PERIOD

РАЗВИТИЕ ОТРАСЛЕЙ РЕМЕСЛЕННОГО ПРОИЗВОДСТВА В ЭПОХУ ТИМУРИДОВ

Po‘latov Otabek Orifjon o‘g‘li
O‘zbekiston Jurnalistika va Ommaviy kommunikatsiyalar universiteti stajor – o‘qituvchisi
Tel: +998938076967
E-mail: pulatovotabek43@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Temuriylar davrida hunarmandchilikning rivojlanish jarayonlari, uning iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi o‘rni tahlil qilinadi. Davr hukmdorlarining hunarmandlarga ko‘rsatgan e’tibori natijasida ishlab chiqarish hajmi, mahsulot turlari va sifati sezilarli darajada oshgani manbalar asosida ochib beriladi. Shuningdek, turli hududlardan keltirilgan ustalar faoliyati natijasida hunarmandchilik uslublarining o‘zaro uyg‘unlashuvi jarayoni yoritiladi. Maqolada to‘qimachilik, metallsozlik, kulolchilik kabi asosiy sohalarning rivoji va ularning ichki hamda tashqi savdodagi ahamiyati ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari Temuriylar davrida hunarmandchilik davlat siyosati bilan chambarchas bog‘liq holda taraqqiy etganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *Hunarmandchilik, Temuriylar davri, iqtisodiy siyosat, to‘qimachilik, metallsozlik, kulolchilik, savdo, ijtimoiy tizim, ustoz-shogird, ishlab chiqarish.*

Annotation. This article examines the development of craftsmanship during the Timurid period and analyzes its role in the economic and social life of society. Based on historical sources, it reveals that due to the attention given by the rulers of the period to artisans, the volume of production, the variety of goods, and their quality significantly increased. The study also highlights the process of interaction and synthesis of craft traditions resulting from the activities of masters brought from different regions. Particular attention is paid to the development of key branches such as weaving, metalworking, and pottery, as well as their importance in internal and external trade. The findings show that during the Timurid period, craftsmanship developed in close connection with state policy.

Key words: *Craftsmanship, Timurid period, economic policy, weaving, metalworking, pottery, trade, social structure, master-apprentice, production.*

Аннотация: В данной стате рассматривается развитие ремесленного производства в эпоху Тимуридов и анализируется его рол в экономической и сотсиалной жизни общества. На основе исторических источников

раскрывается, что благодаря вниманию правителей к ремесленникам значительно возросли объемы производства, разнообразие и качество продуксии. Также освещается протсесс взаимодействия и взаимного обогащения ремесленных традитсий, обусловленный деятелностю мастеров, привезённых из различных регионов. Особое внимание уделяется развитию таких отраслей, как ткачество, металлообработка и керамика, а также их значению во внутренней и внешней торговле. Результаты исследования показывают, что в эпоху Тимуридов ремесло развивалос в тесной связи с государственной политикой.

Ключевые слова: *Ремесло, эпоха Тимуридов, экономическая политика, ткачество, металлообработка, керамика, торговля, сотсиалная структура, система мастер-ученик, производство*.

KIRISH

Temuriylar davrida hunarmandchilik keng rivojlanib, Samarqand va Hirot mahsulot ishlab chiqarishning yirik markazlariga aylandi. Temur va uning avlodlari mamlakat bo‘ylab obodonchilik ishlarini amalga oshirdi. Shaharlardagi hunarmandchilik ishlab chiqarish shaharliklar va atrof qishloqlardagi aholining ehtiyojini qondirishga, dasht va cho‘llarda istiqomat qiladigan ko‘chmanchi aholiga sotishga, chet mamlakatlar savdogarlari bilan tovar ayirboshlashga mo‘ljallab tayyorlanar edi. Bularning hammasi hunarmandchilik ishlab chiqarishni rivojlantirishga yordam berdi. Buning natijasida hunarmandlar, ustalar soni ko‘paydi, ular tomonidan tayyorlanadigan mahsulotlarning turlari ortdi, sifati yaxshilandi, shuningdek ularning ma’lum buyumlarni ishlab chiqarish bo‘yicha ixtisoslashuvi keng tus oldi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy o‘zbek tarixshunosligida Temuriylar davri iqtisodiy va madaniy hayoti masalalari A.Muhammadjonov, (1994) S.Saiddosimov (2001), Sh.O‘ljayeva (2017), A.Hakimov (2022) kabi tadqiqotchilar asarlarida yoritilgan. A.Muhammadjonovning Temur va Temuriylar saltanati haqidagi tadqiqotlarida davlat boshqaruvi, shahar hayoti va xo‘jalik tizimining umumiy ko‘rinishi berilgan bo‘lsa, S.Saiddosimov rahbarligidagi mualliflar tomonidan chop etilgan “Amir Temur jahon tarixida” asari Temuriylar davrining sivilizatsion o‘rni, shu jumladan hunarmandchilik va shahar madaniyatining taraqqiyoti ko‘rsatib o‘tiladi. Sh.O‘ljayevaning davlat boshqaruvi va tashqi siyosatga bag‘ishlangan tadqiqotlari markaziy hokimiyatning iqtisodiy siyosatini tushunishda metodologik ahamiyatga ega. A.Hakimovning san’at tarixi bo‘yicha ishlari esa hunarmandchilik

mahsulotlarining badiiy-uslubiy xususiyatlarini, ayniqsa bezak san’ati, kulolchilik, zargarlik va me’moriy bezaklar taraqqiyotini tahlil qilishda muhimdir.

Maxsus tarmoq tadqiqotlari orasida U.Xolmo‘minovning Amir Temur va temuriylar davri tog‘-konchiligi hamda metallurgiya hunarmandchiligiga bag‘ishlangan maqolasi muhim ahamiyat kasb etadi (Холмўминов У., 2018: 146 - 153). Unda metall qazib olish, qayta ishlash, qurol-yarog‘ va xo‘jalik buyumlari tayyorlash jarayonlari tarixiy manbalar va arxeologik dalillar asosida yoritiladi. Bu tadqiqot metallsozlikning faqat amaliy hunar emas, balki davlat harbiy qudratini ta’minlovchi strategik tarmoq bo‘lganini asoslashga yordam beradi.

Shu bilan birga, mavjud tarixshunoslikda bir qator bo‘shliqlar saqlanib qolmoqda. Birinchidan, ko‘plab tadqiqotlarda hunarmandchilik asosan iqtisodiy faoliyat yoki badiiy mahsulot ishlab chiqarish nuqtai nazaridan yoritilgan, biroq uning ijtimoiy tizim sifatidagi funksiyasi yetarlicha ochilmagan. Ikkinchidan, ustoz-shogird munosabatlari, hunarmandlar guruhlarining ichki tashkiloti, mahsulot sifati ustidan nazorat va markaziy hokimiyat bilan aloqalar kabi masalalar ko‘pincha uzuq-yuluq ma’lumotlar orqali tilga olinadi, ammo tizimli tahlil kam uchraydi. Uchinchidan, hunarmandchilikning turli tarmoqlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, shahar ixtisoslashuvi va bozor infratuzilmasi bilan aloqalari ham yetarli darajada kompleks ko‘rib chiqilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot tarixiy-tahliliy, qiyosiy va tizimli yondashuvlar asosida olib borildi. Asosiy manbalar sifatida yozma tarixiy asarlar, safarnomalar va ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi. Hunarmandchilik sohalari rivojini aniqlashda tavsifiy usul, turli hududlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlashda qiyosiy metod qo‘llanildi. Shuningdek, hunarmandchilikni ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida baholashda kompleks yondashuvdan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Amir Temur markaziy shaharlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratdi. Zabt etilgan har bir o‘lkaning ilmi ahli, hunarmandlariga alohida hurmat ko‘rsatdi (Яздий Ш.А., 1997: 117). Natijada, boshqa o‘lkalar hunarmandchiligi va Turkiston hunarmandchiligi an’ana va uslublari qorishuvi vujudga keldi. Xususan, Shom va Damashqni zabt etgach kamonchi, sovutsoz, shishasoz, toshtarosh, o‘ymakor ustalar, Turkiyadan o‘q-yoy ustalari, tosh yo‘nuvchilar, qo‘li gul zargarlar, muhandis, to‘pchilar, arg‘amchi to‘quvchilar olib kelinib hukumat tassarrufidagi ustaxonalarga joylashtirilgan. Klavixoning yozishicha, Amir Temur zabt etgan o‘lkalardan keltirilgan aholining umumiy soni 150 mingga yaqin ed (Клавихо Р. Г., 2010: 200). Bu aholining katta qismi hunarmandlar va olimlardan

iborat bo‘lgan. Ushbu davrda Eron, arab davlatlari va Turkistonda yaratilgan hunarmandchilik buyumlari bir-biriga juda o‘xshash bo‘lganidan, ularni ajratib olish mushkul edi (Саиддосимов С., Ахмедов А., Ахмедов Б., 2001: 160). Amir Temur barcha odamlarga kasb-hunar o‘rgatish, ish bilan ta’minlash, dehqonchilik, hunarmandchilik va tijorat ishlari bilan mashg‘ul bo‘lishga yaxshi imkoniyatlar yaratib bergan. Buning isbotini biz “Tuzuklar” dagi quyidagi jumlalarda ko‘ramiz: “Kasb-hunar va ma’rifat ahllariga saltanat korxonalaridan ulush berilsin”, bu sarmoya asosida “bilagida kuchi bor faqir-miskinlar esa o‘z ahvoli va kasb-koriga yarasha yo‘l tutsinlar” (Тузуклар, 1991: 67).

Temuriy hukmdorlar tomonidan hunarmandlarga alohida ehtirom ko‘rsatilgan. Ibn Arabshoh Temur har bir kasb egasi borki, unda biron fazilatni ko‘rsa, unga alohida ehtirom ko‘rsatganini, ularga g‘oyatda mehr qo‘yganini yozadi (Ибн Арабшоҳ, 1992:49). Amir Temur o‘zining tuzuklarida hunarmandlarni alohida toifa sifatida tilga olib, ularning har bir sinfidan bo‘lganlarni o‘z saroyiga olib kelib, joy berganini ta’kidlaydi (Тузуклар, 1991: 66). Shuningdek, hunarmandlar barcha toifalaridan vakillar saroyda tashkil etiladigan bazmlar, to‘y marosimlarga taklif etilgan, hamda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan (Вамбери А., 1990: 34). Ular mazkur yig‘inlarda ishtirok etib, hukmdor va uning a’yonlariga o‘z mahoratini ko‘rsatishga uringanlar. Jumladan, shunday tadbirlardan birida bir hunarmand qamishdan suvoriy jangchi va uning qurol-yarog‘ini yasab ko‘rsatgan (Ибн Арабшоҳ, 1991; 49). Hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida temuriy hukmdorlar bir qator farmonlar chiqarganlar. Jumladan, o‘rmak nomli matoni ixtiro qilib, libos keltirgan Jaloliddin Muhammadni Husayn Boyqaro 4 ming dinor pul mukofoti bilan siylagan

Amir Temur hukmronligi davrida Samarqandda hunarmandlar uchun maxsus ustaxona qurilib, unda qo‘shin uchun maxsus buyumlar yasalgan. Bu ustaxonada mingga yaqin hunarmand faoliyat yuritgan, qasr atrofi chuqur xandaq bilan o‘ralgan bo‘lib, unga qozikalon va uning xizmatchilaridan boshqa hech kim kirish huquqiga ega emas edi (Клавихо Р.Г., 2010: 220). Klavixo bu joyning qattiq qo‘riqlanishiga davlat xazinasining shu yerda saqlanishini sabab qilib keltiradi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, bu ustaxonadagi hunarmandlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri hukmdorning buyrug‘ini bajarishgan va qo‘shin uchun sovut, dubulg‘a, kamon, nayza yasaganlar. Shu bois bu joy alohida ahamiyatga ega bo‘lib, hukmdor tomonidan alohida e’tibor berilgan.

Hunarmandlar guruhlari va ularning markaziy hukumat bilan aloqalarini tartibga solish uchun yagona tizim ishlab chiqish zaruriyati mavjud edi. Bu davrda hunarmandchilikning turli sohalariga ixtisoslashgan mahallalar mavjud bo‘lib, ularning har birining o‘z nazoratchisi bo‘lgan. Temuriylar davlatida hunarmandlar

rastasining boshlig‘i “kunu” deb atalgan. Bunday kishilar kasb-u hunari, oilaviy ahvoli bilan ibrat bo‘la oladigan, halol va o‘z kasbida mohir bo‘lgan, uzoq yillar davomida ushbu kasb an’analariga qat’iy amal qilib kelgan, usta shogirdlar tayyorlagan, jamoatchilik orasida obro‘ga ega kishilar orasidan tanlab olingan (Ўлжаева Ш., 2017: 109). Kunu hunarmandlarning haq-huquqlarini ham himoya qilgan, hunarmandchilik mahsulotlari sifatini nazorat qilish va hunarmandchilik mahsulotlarining bozorga yetkazilishi nazorat qilgan.

Temurning avlodlari davriga kelib, hunarmandlar va hukumat o‘rtasidagi aloqalar o‘zgacha tus olib, hunarmandlar Xuroson va Turkistonning yirik shaharlaridagi bozorlarda joylasha boshlaganlar. Bozorlar hunarmandlar uchun nafaqat mahsulotlar sotiladigan joy, balki, ishlab chiqarish markaziga ham aylandi. Hirotda hunarmandlar yagona hunarmandchilik uyushmasiga birlashganlar, bu birlashma turli hunarmandchilik guruhlarini o‘z ichiga olardi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, temuriylar davrida shaharlar ma’lum hunar turlariga ixtisoslashtirilgan. Bu esa o‘z navbatida shaharlarning tuzilish shakliga ta’sir o‘tkazdi. Misol tariqasida, shaharlarda hunarmandchilikning zargarlik, sovutsozlik, toshtarovchilik, ko‘nchilik, kamonchilik, shishasozlik, pichoqchilik, misgarlikka ixtisoslashgan mahallalari mavjud bo‘lganini keltirish mumkin (Муҳаммаджонов А., 1994: 101) Boburning yozishicha, Samarqandda to‘quvchilik, tikuvchilik, bo‘yoqchilik, kulolchilik, metallga ishlov berish, qog‘oz ishlab chiqarish kabi hunarlar yuksak darajada rivojlangan, hunarmandlar guruhlarining har birining bozorda alohida rastalari bo‘lib, bir-biriga aralashib ketmagan (Бобур З.М., 2020: 30).

Shaharlik hunarmandlar hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda ko‘chmanchi chorvadorlardan shuningdek, qishloq ziroatchilari tomonidan yetishtiriladigan xomashyo va yarim tayyor mahsulotlardan foydalanishgan. Ushbu davr hunarmandlarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, bu davrda mehnat taqsimoti asosida hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarilgan. Mahsulotlar turli maqsadlarda tayyorlangan:shahar aholisining talabini qondirish, yon arofdagi qishloqlar aholisi uchun, saroy amaldorlari va hukmdor oila a’zolari uchun (bular asosan qimmatbaho matolar, taqinchoqlar, ba’zi turdagi qurollar, metall mahsulotlar, shohona kiyimlar bo‘lgan), shuningdek, chet davlatlarga sotish asosan matolar, qurollar, kiyimlar) uchun tayyorlangan.

Temuriylar davrida eng taraqqiy etgan hunar turlaridan biri to‘qimachilik edi. To‘qimachilik mahsulotlari katta bozorlarga eng ko‘p yetkazib beriladigan mahsulotlardan hisoblangan. Bu bozorlar mahalliy iste’molchilarni ham, qo‘shni qishloqlar aholisini ham, dashtlarda yashovchi ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholini ham o‘z ichiga olar edi. Turkistonda to‘qilgan ko‘plab gazmollar olis-

olisdagi mamlakatlarning aholisiga ham yetkazilar edi. Mamlakat ichkarisidagi gazmol tayyorlovchi hunarmandlar mahalliy bozorlardan tashqari ancha uzoqdagi mamlakatlar bilan ham savdo-sotiq aloqalarini o‘rnatgan edilar. Bu esa o‘z-o‘zidan to‘qimachilik ishlab chiqarish ham tovar xarakteriga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi. Mamalakat poytaxti Samarqandda olacha, parcha, duxoba kabi matolarni ishlab chiqarilgan, shuningdek gazlamaga gul bosuvchi uskunalar bilan hunarmandlar ish yuritishgan.

Qimmatbaho metallardan buyumlar yasash ham hunarmandchilikning muhim tarmog‘laridan biri hisoblangan. Temur saltanatining markaziy asosiy shaharlarida Turonlik va chet eldan kelgan boy savdogar va yuqori martabali kishilar yig‘ilgan bo‘lib, ular hunarmandlardan tomonidan oltin, kumush va boshqa qimmatbaho metallardan tayyorlangan buyumlarni katta miqdorda sotib olar edi. Shu sababdan ham, zargarlik buyumlariga ehtiyoj katta bo‘lib, bunday turdagi buyumlar ko‘p miqdorda ishlab chiqarilar edi. Mo‘g‘ullar davrida hunarmandchilikning boshqa tarmoqlari qatori tog‘-kon sanoati va metallga ishlov berish ham inqirozga yuz tutgan edi (Массон М., 1953: 40-41). Temur va uning avlodlari davrida mazkur sohalar ham taraqqiy etdi. Turkiston shahridagi Ahmad Yassaviy maqbarasiga o‘rnatilgan qozon temuriylar davri metall hunarmandchiligining yorqin namunasi hisoblanadi. Mazkur qozon Amir Temurning haj safari hadyasi sifatida taqdim etilgan. Qozonda maqbara yaqinidagi masjidga juma namoziga kelgan namozxonlarga beriladigan shirin suv saqlangan (Ҳакимов А., 2022: 233).

Turkiston shaharlari oltin, kumush, bronza, misdan yasalgan uy-ro‘zg‘or buyumlari, qurol-yarog‘, harbiy aslaha, turli zargarlik va ibodat buyumlarining ishlab chiqarish markazi bo‘lgan. Zodagonlarning kichik doirasi oltin va kumush bilan hoshiyalangan qimmatbaho idishlardan foydalanganalar. Uzoq mamlakatlardan kelgan mehmonlarni qabul qilish paytida dasturxonga kumush qadahlar qo‘yilgan. Klavixo ham o‘z asarida Temur saroyidagi ziyofatda foydalanilgan idishlar to‘g‘risida ma’lumotlar keltirgan: “Podshoh talab qilganda xizmatkorlar go‘shtlarni oltin, kumush, va hatto sopol laganlarga, shuningdek, bu yerlada nodir buyum hisoblangan chinni idishlarga bo‘laklab qo‘ya boshladilar” (Клавихо Р.Г., 2010: 158). Metall buyumlarning nomlari Ishratxona maqbarasining vaqf hujjatida keltirilgan. Ular orasida mis qozon, mis naila (shirin suvni suyultirish uchun qozon shaklidagi idish)bronza ko‘za, bronza xulancha (yuvinish uchun idish), kumush suvi yuritilgan bronza shamdon, Temur chiroq kabi metall buyumlar uchraydi (Ҳакимов А., 2022: 229)

Shaharlarda ip, ipak, hayvon yungi, zig‘ir va kanop tolasidan turli xildagi rangdor, guldor ham nafis va dag‘al gazmollar to‘qib chiqarilar edi. Jumladan, oq, yashil, malla zangori, binafsha va surrang ip kalavalardan karbos, ya’ni bo‘z,

guldor chit, oq surp, nafis gazlama berilgan futa, jundan olachalar; kanop tolasidan qaton kabi turli xil gazlamalar to‘qilgan. Bu matolar nisbatan arzon bo‘lib, undan libos astarlari, ko‘rpa-to‘shaklar tikilgan. Shahar va qishloqlarning mehnatkash aholisi, dashtlik chorvadorlar butkul karbosdan kiyingan. Mehnatkash aholi orasida guldor chit, “Samarqand” va “Buxoro” olachasi ham urf bo‘lgan. Shoyi matolar, qirmizi va zangori duxobalardan zarbof liboslar tikilib, ular zeb-ziynatlar darajasida qadrlanar, ulardan asosan saroy ayonlari va mulkdor tabaqa foydalanardi (Муҳаммаджонов А., 1994: 101).

Samarqandda qog‘oz va baxmal tayyorlash ishlab chiqarish san’at darajasiga etgan. Buni Bobur ham ta’kidlab, unga quyidagicha ta’rif beradi: “Olamda yaxshi kog‘az Samarqanddin chiqar. Samarqandning yana bir matoyi qirmizi mahmaldurkim, atrof va javonibqa eltarlar” (Бобур З.М., 2020: 70). Shuningdek, Samarqandning zardo‘zi liboslari, atlasi va qirmizi duxobasi ham butun Movaorunnahr va Xurosonda mashur edi. Mirzo Ulug‘bek davrida nefrit ko‘zalar, kosa va siyohdonlari sirtiga ajdar va boshqa tasvirlar tushirishda ishlatilgan (Ҳакимов А., 2022: 235).

Turkistonda yetishtiriladigan paxtadan tayyorlangan ip gazlamaga aholining talabi ayniqsa, yuqori bo‘lgan. Turli navdagi oq va bo‘yalmagan sariq rangli dag‘al bo‘z gazlama keng tarqalgan. “Futa“ ip gazlamasi asosan salla uchun ishlatilgan. Hunarmand shogirdning ustalikka o‘tish marosimida ustoz shogirdiga shu mato turidan tayyorlangan matoni bog‘lagan (Никбоев Ў., 1997: 49). Shaharlarda hunarmandchilikning ushbu tarmog‘i nisbatan yaxshiroq rivojlangan bo‘lib, chitga gul bosuvchi mutaxassislar va dastgohlar mavjud bo‘lgan.

Temuriylar davri kulolchilik hunarmandchiligida ham sezilarli rivolanishni kuzatish mumkin. Kulolchilik markazlari tiklanib, sirkor kulolchilik uslublari taraqqiy etdi. Turonlik kulollar yasagan buyumlar Xitoy kulolchilik buyumlariga ranglari uyg‘unligi, bezaklari majmuasi, yasalish uslubi jihatdan o‘xshab ketgan (Саиддосимов С., Ахмедов А., Ахмедов Б. ва бошқалар, 2001: 161). Bunday turdagi mahsulotlar Turkiston bo‘ylab keng tarqalgan va hatto Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab joylashgan davlatlarga ham sotilgan.

Kulolchilik mahsulotlarini turli xildagi gul, daraxtlar hayvonlar tasviri bilan bezatilgan. Ular orasida zotdor ot mingan chavandoz va o‘smir tasvirlarini ham uchratish mumkin. Ko‘pincha oq rang ustidan ko‘k rangdagi o‘simlik tasvirlari tushirilgan Kulolchilik buyumlari ustiga turli shakllar berilib, ularning har biri ma’lum ma’noni aks ettirgan anor to‘kin-sochinlik, qo‘ziqorin abadiy hayot ramzi hisoblangan. Shuningdek, naqshlar orasida shaftoli va ajdarho tasvirlari ham uchraydi (Ҳакимов А., 2022: 226). Xitoycha uslubda ishlangan buyumlarda ajdar,

bulut kiyik va quyonlar tasvirlari bilan bezatish urfi Mirzo Ulug‘bek davrida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ushbu davrda yog‘ochdan sandiqlar, qutichalar, lavh, musiqa asboblari, yog‘och o‘rindiqlar va taxt bezagining turli qismlari ishlangan. Bunday buyumlar orasida Mirzo Ulug‘bekka atab sandal daraxtidan tayyorlangan o‘yma quti alohida ajralib turadi. Bu quticha XV asrning boshlarida tayyorlangan bo‘lib, chetlari islimiy naqshlar bilan bezatilgan, tutqichlari va qulflari oltindan yasalgan. Qutichaning bezaklarida musulmon dunyosining naqshinkor uslub an’analari va Xitoy uslublari qorishuvi namoyon bo‘ladi. Quti qopqog‘iga Mirzo Ulug‘bek nomi yozilgan, qutining ustki va pastki qismlari orasida ajdar tasviri tushirilgan. Bu quti bugungi kunda Turkiyadagi To‘pqopi Saroyi muzeyida saqlanmoqda (Ҳакимов А., 2022: 237). Temuriylar saltanatida yashagan hunarmandlar tomonidan tayyorlangan Samarqanddagi Go‘ri Amir va Shahrisabzdagi Shamsiddin Kulol maqbarasining o‘yma eshiklari, Metropoliten muzeyida saqlanayotgan o‘yma eshik, Mozondorondagi al-Mulk Valaddin Abulqosimning o‘yma yog‘ochlar bilan bezatilgan qabri Temuriylar davri yog‘och o‘ymakorligi san’atining qay darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Amir Temur va uning avlodlari davridagi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot barcha sohalar qatori hunarmandchilikning ravnaqiga sabab bo‘ldi. Temuriy hukmdorlarning hunarmandlarga alohida ehtirom e’tibor ko‘rsatishi natijasida hunarmandchilik jadal rivojlanib, yangi turdagi mahsulotlar ham vujudga keldi. Bu davrda o‘zbek milliy hunarmandchiligida muhim o‘rin tutgan uslublar vujudga keldi. Turli o‘lkalardan olib kelingan hunarmandlar temuriylar davlatida hunarmandchilikning har xil uslublari qorishuviga olib keldi. Natijada hunarmandchilikning temuriylar davlatiga xos shakli paydo bo‘lib, ularning namunalari bugungi kungacha saqlanib qolmoqda. Bu uslublar va an’analardan keyingi davr hunarmandlari ham foydalanganligi tarixiy manbalarda o‘z isbotini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бобур З.М. (1989). Бобурнома. –Тошкент: Юлдузча.

2. Вамбери А. (1990). Бухоро ёхуд Туркистон тарихи. – Тошкент: Ғафур Ғулом.

3. Гумилев Л.Н. (2007). Қадимги турклар. Тошкент: Фан.

4. Ибн Арабшоҳ. (2024). Амир Темур тарихи. – Тошкент: Меҳнат.

5. Клавихо Р. Г. (2010). Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги. – Тошкент: Ўзбекистон.

6. Муҳаммаджонов А. (1994). Темур ва Темурийлар салтанати. Тошкент: Қомуслар.

7. Саиддосимов С., Ахмедов А., Ахмедов Б. ва бошқалар. (2001). Амир Темур жаҳон тарихида. Тошкент: Шарқ.

8. Самарқандий А. (2008). Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. 2-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон, 2008.

9. Темур тузуклари. (1991). – Тошкент: Ғафур Ғулом.

10. Ўлжаева Ш. (2017). Амир Темур давлат бошкаруви ташки сиёсат. Дипломатия. Тошкент: Академнашр.

11. Холмўминов У. (2018). Амир Темур ва темурийлар даври тоғ-консҳилиги ва металлургия ҳунармандчилиги // Мавераннахр в епоху Амир Темура:археология, история култура. – Тошкент: Фан.

12. Ҳакимов А. (1997). Ўзбекистон санати тарихи. – Тошкент: Zilol buloq.

13. Яздий Ш.А. (2024). Зафарнома. – Тошкент: Шарқ.

REFERENCES:

1. Bobur Z.M. (1989). Boburnoma. –Toshkent: Yulduzcha. (In uzbek)

2. Vamberi A. (1990). Buxoro yoxud Turkiston tarixi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom. (In uzbek)

3. Gumilev L.N. (2007). Qadimgi turklar. Toshkent: Fan. (In uzbek)

4. Ibn Arabshoh. (2024). Amir Temur tarixi. – Toshkent: Mehnat. (In uzbek)

5. Klavixo R. G. (2010). Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi. – Toshkent: O‘zbekiston. (In uzbek)

6. Muhammadjonov A. (1994). Temur va Temuriylar saltanati. Toshkent: Qomuslar. (In uzbek)

7. Saiddosimov S., Axmedov A., Axmedov B. va boshqalar. (2001). Amir Temur jahon tarixida. Toshkent: Sharq. (In uzbek) (In uzbek)

8. Samarqandiy A. (2008). Matlai sa’dayn va majmai bahrayn. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008. (In uzbek)

9. Temur tuzuklari. (1991). – Toshkent: G‘afur G‘ulom. (In uzbek)

10. O‘ljaeva Sh. (2017). Amir Temur davlat boshkaruvi tashki siyosat. Diplomatiya. Toshkent: Akademnashr. (In uzbek)

11. Xolmo‘minov U. (2018). Amir Temur va temuriylar davri tog‘-konchiligi va metallurgiya hunarmandchiligi // Maverannahr v epoxu Amir Temura: arxeologiya, istoriya i kultura. – Toshkent: Fan. Pp 146 – 153. (In uzbek)

12. Hakimov A. (1997). O‘zbekiston sanati tarixi. – Toshkent: Zilol buloq. (In uzbek)

13. Yazdiy Sh.A. (2024). Zafarnoma. – Toshkent: Sharq. (In uzbek)

Oriental universitetining “Al-Buxoriy” nomli jurnali

Jurnal Oliy o‘quv yurtlari hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.
Maqola muallifining fikri tahririyat fikrini ifodalamaydi.

AL-BUXORIY
AL-BUKHARI

Bosh muharrir: **Farhod Maksudov**
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Malika Nasirova**
Mas’ul muharrir: **Govhar Rahmatova**
Musahhih: **Gulida Norkulova**

Manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Norzatepa ko‘chasi, 52.
Telefon: +998 93 004-57-77. E-mail: al-buxoriy@orientaluniversity.uz

“Al-BUXORIY” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining
№ 111741 raqamli guvohnomasi bilan
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Oriental universiteti Kengashining 2026-yil 28-aprel, 6-sonli yig‘ilish bayonnomasiga asosan nashrga ruxsat etildi.